

Z.T.TOXIROV

**ADABIY  
TAHIRIR**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Z.T.TOXIROV

# ADABIY TAHRIR

*O'zbekiston Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lif  
vazirligi tomonidan oliy ta'lif muassasalari jurnalistika  
fakultetlari talabalari uchun darslik sifatida nashrga  
tavsiya etilgan*

«Tafakkur-Bo'stoni»

Toshkent – 2012

**UDK: 070.4 (075)**

**76.01**

**T74**

**Toxirov, Z.T.**

**Adabiy tahrir: oliv o‘quv yurtlari uchun darslik**  
/ Z.T. Toxirov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus  
ta’lim vazirligi, - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, Cho‘lpon NNMIU,  
2012. - 320 b.

**KBK 76.01**

**Taqrizchilar:** Rahmonov N.A. O’zMU jurnalistika fakulteti  
dekani, f.f.d. professor

Boboniyoziyov A.Y. Cho‘lpon NNMIU bosh muharriri, f.f.n.

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur darslikda adabiy tahrirning ilmiy asoslari bayon  
etiladi. Darslik 15 bobdan iborat bo‘lib, ularda adabiy tahrir  
bilan bog‘liq jarayonlar, adabiy tahrirning mantiqiy asoslari,  
kompozitsiya, asos (faktik) materiallar, matn tahlili muallif va  
muharrir munosabati, muharririning nashr jarayonidagi o‘rni, ayrim  
tur adabiyotlar, matbuot, radio va telematnlar tahriri va boshqalar  
xususida so‘z yuritiladi.

Kitob darslik sifatida oliv ta’lim muassasalarining jurnalistik  
yo‘nalishi bakalavriatlariga, shuningdek mazkur yo‘nalish negi  
zidagi magistraturalar, xusan, noshirlik ishi va tahrir ixtisosolig  
bo‘yicha magistratura magistrantlari Oliy jurnalistika kurslar  
ikkinci bosqich tinglovchilari uchun mo’ljallangan. Kitobda  
nashriyotlar, ommaviy axborot vositalarining tahririyatlarid  
qo‘lyozma matni ustida ishlovchi muharrirlar mutahassisning  
jurnalistlar ham foydalanishlari mumkin.

**ISBN - 978-9943-055-20-9**

© «Tafakkur-Bo‘stoni

## *Ota-onamlarning yorqin xotiralariga bag‘ishlayman*

### **Muallifdan**

Mazkur kitobning muallifi “muharrir” so‘zi lavozimni emas, kasbni anglatadi, deb biluvchilar toifasiga kiradi. Zero, kasb, barchaga ma’lumki, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakani talab qiladi. Bunday ko‘nikma va malakani o‘quv jaroyonida hosil qilish lozim bo‘ladi. Lekin bir guruh mutahassis - muharrirlar bular barchasiga uzoq amaliy faoliyat mobaynida, tajribatufaylierishiladi, deb hisoblaydilar. Bufikrninashriyotlar, gazeta jurnallar tahririyati, radio va televideniyeda matn tahriri bilan shug‘ullanuvchilarning aksariyati jurnalistika yo‘nalishi yoki ixtisosliklarini emas, balki universiteilarning filologik yo‘nalish va ixtisosliklari, pedagogika universiteti, instituti gumanitar fanlar fakultetlarining bitiruvchilari ekanligi bilan dalillaydilar. Biz ham bu holni mutlaqo maqbul emas, degan fikran albatta uzoqmiz. Ammo, muharrir amaliy faoliyatini bakalavriantlik, magistrantlik kursida kasbiy ko‘nikma va malakaga jurnalistika ta’limi standartida belgilangan darajada ega bo‘lgan holda boshlasa, faoliyati ancha samarali ishi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Muharrir tahrir jaroyonining ham metodik, ham texnik jihatlari xususidagi bilim bilan etarlicha qurollansagina qo‘lyozma ustida ishlash vaqtida barcha talablarga javob bera oladi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Bunday xulosaga muallif o‘zining yillar mobaynidagi noshirlik faoliyati davomida to‘plagan tajribasi, tahririy kamchilik va xatolari zahrini totib, boshqa muharrirlar yo‘l qo‘ygan tahririy xato va kamchiiklarni kuzatib, muharrirlik ishidagi turli xil chalakam - chattilik, to‘mtoqliklar ildizlarini aniqlashga bo‘lgan intilishlari tufayli keladi.

Muxtaram o‘quvchi, muallifning bu ishini adabiyot tahrirning asoslarini farqlashgava tariflashgabo ‘lgan bir urinish deb bilgaysiz. Bayon etilganlarni o‘zlashtirib olsa, muharrir tahrirga nisbatan o‘zida ishonch hosil qiladi va zimmasidagi vazifasini ancha yaxshi, to‘laqonli bajarishga muvaffaq bo‘ladi, degan umiddamiz. Uning maqsadi muharririga, ayniqsa, faoliyatini endigina boshlaganlarga matn ustida ishlashlarini yaxshiroq tashkillashtirish, tartiblashtirishga, ko‘maklashishi ularni tez-tez uchrab turadigan xatoliklardan ogohlantirishdir.

Kitobdagi xulosaviy fikrlarning aksariyat qismi jurnalistika yo‘nalishida “Adabiy tahrir asoslari” fanidan dars berish jaroyonida tug‘ilgan.

Muallif kitob nashrdan chiqqandan so‘ng barchaga, u xususda bildirgan fikr- mulohazalari uchun o‘z minnatdorligini bildiradi, zero bunday fikrlar, shubhasiz, keyingi nashrlarda asqotadi.

## KIRISH

Tavsiya etilayotgan mazkur kitob adabiy tahrir bo‘yicha darslik hisoblanadi. Darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rejasiga (2011-2012) kiritilgan hamda vazirlik tomonidan tasdiqlangan “Adabiy tahrir asoslari” o‘quv dasturi (2008 y. 23 avgust.263-b.) asosida yozilgan.

“Adabiy tahrir asoslari” fani ixtisoslik fani hisoblanadi va universitetlarning jurnalistika yo‘nalishida, O‘zMU jurnalistika fakultetidagi Oliy jurnalistika kurslarida o‘qitiladi.

Darslikda o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan barcha mavzular qamrab olingan, u 15 bobdan iborat. Bakalavriatura o‘quv rejasiga ko‘ra fan 4-kurs talabalariga o‘tiladi va unga 84 soat ajratilgan. Shundan 40 soat ma’ruzalar, 44 soat amaliy mashhg‘ulotlar uchun taqsimlangan.

“Adabiy tahrirning mantiqiy asoslari” boy mavzu doirasiga ko‘ra 6 soatga, “Asar kompozitsiyasi ustida ishlash” bobi 4 soatga, “Matnning til va uslubga ko‘ra tahlili va tahriri” bobi 4 soatga, “Matbuot, radio va telematnlar tahriri” bobi 4 soatga, qolgan boblar har biri 2 soatdan ma’ruzaga mo‘ljallangan.

Darslikning birinchi bobida yozuv tarixiga, Sharq va G‘arb kitobotiga qisqacha to‘xtalib o‘tiladi, boisi kitob nashr etish dastgohlari kashf etilgunga qadar bo‘lgan kitob chop etish ishi, tahrir ilmi rivojida muhim bosqich sanaladi. Qolgan boblar esa noshirlik jaroyonida matn ustida ishlash, xususan, tahrir bilan bog‘liq masalalarga to‘liq bag‘ishlangan.

Albatta, kitobdag'i asosiy qoidalar ob'ektiv ekanligi bilan bir qatorda , ular ko'p jihatdan shaxsiy muharrirlik tajribasiga tayanadi, undan kelib chiqadi. Muallif bu bilan ba'zi o'quvchilar (muharrirlar, mualliflar, adabiy tahriridan dars beruvchilar) ni yangi darslik, o'quv qo'llanma yoki maqolalar yozishga, ularda muharrirlik, mualliflik tajribasini umumlashtirishga da'vat etishni nazarda tutadi. Zero, faqat, shu yo'l bilangina hozirgi adabiyotlar nashri jaroyonining dolzarb masalalarini hal etish, nashrlar sifatini oshirish mumkin bo'ladi.

Darslikning "Adabiyotlar ayrim turlari tahriri" bobida, muallif ayrim adabiyotlar - o'quv adabiyotlari va boshqa sohaviy adabiyotlar tahriri xususidagi mavzularni chetlab o'tadi. Chunki ularni o'qitish "Noshirlik ishi va tahrir" ixtisosligi bo'yicha magistratura o'quv rejasida ko'zda tutilgan. Shunga ko'ra darslikdan ommaviy- siyosiy, ilmiy- ommabop nashrlar, badiiy asarlar tahriri xususidagi mavzular o'rinni olgan. Vaxolanki, bakalavriatura ta'limi mos keladi, chunki bular publisistika bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Matbuot, radio va telematnlar tahlili va tahriri bir bobga joylashtirilgan, sababi ularni ommaviy axborotga oid matnlar sifatida qaraladi umumiyligi va farqli tomonlari birqalikda qaraladi.

Xullas, ushbu darslik o'zbek milliy jurnalistikasida qaldirg'och kitob sanaladi, umid qilamizki, oxirgisi emas, bundan buyon bunday darslik va qo'llanmalarning yangi avlodi ko'plab yaratiladi. Ularning mualliflari o'z tajribalariga tayanib mazkur darslikda bazi etibordan chetda qolganlarni vaqt o'tishi bilan chuqur anglab to'ldira boradilar. Agar ushbu kitobimiz kelgusida yaratilajak asarlar uchun bir turtki bo'lsa, mehnatimiz zoe ketmaganligidan chuqur mamnuniyat, qoniqish xosil qilgan bo'lur edik.

## I BOB

# ADABIY TAHRIRNING MOHIYATI, VAZIFASI VA MUHARRIRLIK FAOLIYATI

- *Adabiy tahrir faoliyat turi sifatida*
- *Tahrir ilmining yozuv va kitobat bilan bog‘liqligi*
- *Osiyo, Markaziy Osiyoda yozuv va kitobatning paydo bo‘lishi*
- *Misr, Qadimgi Rim va Yunonistonda kitobat va tahrir ilmining yuzaga kelishi*
- *Sohibqiron Temur va temuriylar davrida kitobat va tahrir*
- *Kitob nashr etish dastgohining kashf etilishi - kitobat tarixida yangi davrning boshlanishi*
- *Turkistonda noshirlik: tarixi, rivojlanish bosqichlari va bugungi ahvoli*
- *Kitob muharriri - noshirlikdagi eng mas’ul mutaxassis*

Tahrir (arabcha – *xarrara*: *qutqarmoq*, *ozod qilmoq* ma’no ifodasini beradi)- faoliyat turi madaniy-ijtimoiy ishlар va adabiy-ijodiy amaliyot sohasi sifatida hozirgi zamon noshirlik ishi va publisistikada keng tarqalgan.

Tahrir deganda ifodani, qoidani, qarorni, majburiyatlarни, aniqlashtirish, umuman turli hujjalarni tayyorlash tushuniladi. Masalan: «qaror matnini tahrir qilish kerak», «farmonni qabul qilish mumkin, lekin uni diqqat bilan tahrir qilish talab etiladi», «loyiha sifatida qabul qilsa bo‘ladi, lekin ayrim bandlari tahrir talab» iboralari odatiy bo‘lib qolgan va doimiy tarzda ishlatiladi.

Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, bugunga kelib ijtimoiy amaliyotga aloqador har bir kishi tahrirga aloqadordir.

Nashr sohasidagi «tahrir» tushunchasining turlicha talqini mavjud.

Tahrir ishi deganda, avvalo, ijtimoiy-adabiy va mafkuraviy faoliyat tushuniladi.

Bu faoliyat nashriyot, matbuot, radioeshittirish va teleko‘rsatuv organlari bilan bog‘liqdir. Shu ma’noda (ayniqsa kitobot, matbaa ishini nazarda tutganda) tahrir ishi o‘ziga xos boy tarixga va an’anaga ega.

Ma’lumki, bugungi kundagi tahrir ishining tarixi yozuvning paydo bo‘lishi va kitobat bilan chambarchas bog‘liq.

Yozuv va kitobat tarixi, bu - madaniyat tarixining tarkibiy qismlaridan biri. Ommaviy kommunikatsiyaning boshqa vositalari, xatto, eng ilg‘orlaridan televidenie ham madaniyatni rivojlantirishdagi qo‘shimcha vositadir.

Manbalarda ko‘rsatilishicha ilk bora yozuv va kitobat Shumer, Misr, Xitoy va Hindistonda paydo bo‘lgan. Shumer va Misrda xudolar, fir‘avnlar haqida hikoya qiluvchi bitiklar dastlab toshga o‘yilgan (mil. avv.VII-VI asrlar). Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab, yozuv ham, yozuv materiali ham o‘zgaradi. Yozuvlar toshga emas, papiruslarga yoziladigan bo‘ldi. Miloddan oldingi IV-III asrda Misrda ixtiro etilgan. Bu yozuv materialidan Yunoniston va Qadimgi Rimda ham foydalaniadi. Papirus insoniyatga 4 ming yildan ortiqroq yozuv materiali bo‘lib xizmat qiladi. Kitobat bilan xattotlar shug‘ullangan. Oddiy matnlar qora rang bilan yozilgan, agar sarlavhalarni alohida ajratish talab etilsa, qizil rangda yozilgan. Kitoblarda aniq va chiroyli bo‘lgan muqaddas - ideografik belgilarda yozilgan. Misrda, Shumer yoki Bobildagi kitoblarda

xalq og‘zaki ijodining ta’siri yaqqol seziladi, adabiy asarlar, rivoyalar, afsonalar, e’tiqodiy aqidalarning badiylashtirilgan talqinidan iborat bo‘lgan.

Hindistonda miloddan avvalgi 3 minginchi yil o‘rtalarida Gang vodiysida qadimgi xind madaniyati paydo bo‘ladi. Buddaviylikning xind xalqlari orasida tarqalishi bilan birga xind yozushi ham keng yoyiladi. Mazkur yozuv asosida bengal, nepal, tibet, tamil, birma, khemer va boshqa yozuvlar yuzaga keladi. Hindistonda ham Shumer va Bobildagi singari dastlab loy taxtachalarga yozadilar. Dastlab palma bargi yozuv materiali vazifasini bajaradi (VII asr). Mis, rux, hatto po‘lat taxtachalardan, teridan ham yozuv materiali sifatida foydalaniadi.

Qog‘ozdan foydalanish XI asrda boshlanadi. Manbalarda qayd etilishicha Hindistonga qog‘oz Xitoydan o‘tgan yoki Shimoliy Hindistonga Islomning kirib kelishi bilan bog‘liq.

Xitoyliklar jahon madaniyati tarixiga ulkan hissa qo‘sadi, ular kitobat tarixida yangi davrni ochadi. Xitoy qog‘ozi va qo‘lda kitob tayyorlash- matbaaning paydo bo‘lishi kitobat ishida butunlay yangi yo‘nalish bo‘ldi. Xitoy yozushi va kitobat ishi uzoq rivojlanish davrini boshidan kechiradi. Xitoyda topilgan dastlabki ieroglyph bitiklar miloddan avvalgi XIV- XI asrlarga taalluqli. Ular toshbaqa kosasi va suyak, to‘ng‘iz tishiga yozilgan.

Miloddan avvalgi 5- asrgacha kitobat ishi saroydag‘i maxsus tarixchilar izmida bo‘lgan va faqat xukmdorlar manfaatiga xizmat qilgan. Lekin o‘sha paytlardayoq xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi kitoblar ham paydo bo‘ladi. Masalan, «Shitszin» («Qo‘shiqlar kitobi» miloddan avvalgi XI-VI asrlar), xalq qo‘shiqlari va marosim qo‘shiqlari to‘plamlari shular jumlasidandir. Qog‘oz bambuk kitoblarini

siqib chiqargan. Milodiy III-IV asrdan so‘ng kitobat ishi ancha jonlanadi. Bunga ayniqsa kitob bosish dastgoxini kashf etish sabab bo‘ladi. Aslida Xitoyda miloddan avvalgi VI-V asrlardayoq daos va budda ta’limoti rexiblari yog‘och yozuvli qolip, qabariq naqsh kabilar yordamida tumorlar, suratlar va matnlarni ko‘paytirishni bilganlar.

VIII-IX asrlarda Xitoyda nusxa ko‘chirishning yangi usuli-ksilografiya paydo bo‘ladi.

Ammo ksilografiya ham xitoyliklarni qanoatlantirmaydi. 1040-1048 yillarda Pi Shen ismli temirchi terish jaroyonini kashf etadi (Evropada bunga faqat 400 yildan so‘ng erishadilar). U xar bir ieroglyph uchun alohida bosish belgisini tayyorlaydi. Natijada ierogliflarni terish imkonli tug‘iladi. Kerakli material tayyor bo‘lgach bo‘yaladi undan nusxalar ko‘chiriladi.

Kitob tayyor bo‘lgan ieroglyph belgilari chochiladi va yana kerakli matnni tayyorlashda qayta foydalaniladi. Xitoyliklar kitob bosish ishini takomillashtirib boradilar va ko‘p rangli matbaa ixtiro qiladilar. Buddaviylarning kitobi «Sutra» sharhlari (1340-y.) qizil va qora rangda tayyorlanadi. Xitoyliklar bosma nashrlarning yangi-yangi turlari va matbuot- vaqtli nashrni ixtiro qiladi. Birinchi adabiy asar katta entsiklopediya bo‘ladi, u X asrning ikkinchi yarmida yaratiladi. Eng katta entsiklopedik lug‘at esa XV asrda tuziladi. 11915 jiddli bu lug‘atni yaratishda 2169 kishi qatnashadi. Xitoy davriy matbuoti ham VII-X asrlarda yuzaga keladi, kundalik gazeta «Di bao» yoki «Dzin bao» («Poytaxt xabarlari») chiqa boshlaydi.

Antik davrda qadimgi Rim va Yunonistonda ham turli fanlar- matematika, astronomiya, tibbiyat, geografiya, tarix, badiiy-tarixiy dramaturgiya yuksak darajada rivoj topgan. Rim huquqshunosligi, Rim, Yunon san’ati, barcha janrdagi

adabiyoti butun Evropa huquqi, san'ati va adabiyotining asosini tashkil etadi.

Qadimgi Rim va Yunonistonga papirusning kelishi yozuvning va shu bilan birga kitobatning jadal rivojiga turtki bo'ladi. Rimda ham, Yunonistonda ham yangi yozuv -qirrasiz, yumaloq shaklga keltirilgan, yozish uchun qulay va avvalgisidan ko'ra chiroyliroq va nafis- untsial, shuningdek tez yozish imkonini beradigan o'ng tomonqa bir oz yotiq (kursiv) yozuv paydo bo'ladi.

Yozish uchun material sifatida papirus, pergam va yupqa yog'och taxtachalardan foydalaniladi. Masalan, Solon qonunlari (mil. avv. VI asr) yog'ochga yozilgan.

Kodeks ixtiro qilingach kitob birinchi marta o'z shakliga ega bo'ladi. Kodekslar pergam qog'ozdan tuziladi, natijada biz xozir o'rganib qolgan kitob shaklini oladi. Antik dunyo - Qadimgi Rim, Yunoniston Sharqdan faqat yozuvnigina emas, balki papirusni ham oladi. Papirus Yunonistonga Misrdan (mil. avv. VIII a.) o'tadi va to miloddan avvalgi III asrgacha undan foydalanib kelinadi. Miloddan oldingi III asrda pergam ixtiro etiladi. Pergam tayyorlashda qo'y, echki, buzoq terisidan, avvalroq esa quyonning, hatto, mushuk terisidan foydalanilgan. Kichik Osiyodagi ellistik davlat Pergamda ixtiro qilingani uchun pergam deb atalgan. Kitobat ishida uzoq yillar mobaynida papirus va pergamdan foydalanilgan. Miloddan avvalgi IV-III asrda Misrda papirus ishlab chiqarish tanazzulga yuz tutadi, pergam asosiy yozuv materiali bo'lib qoladi. Misrni arablar istilo qilgandan so'ng (VIII a.) papirus ishlab chiqarish mutlaqo to'xtaydi, o'rnini arablar keltirgan qog'oz egallaydi. Shunday qilib arablar Evropaga ham qog'oz kirib kelishiga sabab bo'ladi.

Papirusga uchi nayzalangan qamich tayoqchada yoza-dilar. Keyinchalik u dunyoga tarqaladi, sharqda qalam (lot. savatida) deb ataladi. Hozirgi qalam so‘zi shundan.

Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab qamish qalamdan tashqarii parranda patidan ham yozishda foydalana boshlanadi. Shunday qilib, yangi yozuv quroli patqalam paydo bo‘ladi. Yozishda suyuq moddadan - qorakuya va elim aralashmasidan foydalaniлади. Rangiga ko‘ra uni forsiylar siyoh (qora) deb ataganlar, hozirgacha rangidan qat’iy nazar barcha yozishda foydalaniладиган mahsus suyuqlik siyoh atalib keladi.

Matn pergamga ko‘chirilgandan so‘ng to‘g‘ri to‘rtbur-chak shaklda ikkiga bukiladi va to‘rt varaq- to‘rt varaq qilib tikiladi.

To‘rt varaq yunoncha tetradion atalgan, hozirgi rus tili-dagi tetrad so‘zi shundan olingan. Ana shunday tetradlardan kodeks tuzilgan. Uni tashqi muxit tasiridan saqlash maqsadida ikki tomonidan yupqa taxtacha mahkamlangan yoki qalin charm qoplangan.

Matnni ko‘chirishda ko‘pincha xatoliklarga yo‘l qo‘yil-gan, ba’zan xato va nuqsonlar shu darajaga yetganki, hatto matn mazmunini anglash qiyinlashgan, muallifning fikri mutlaqo o‘zgarib ketgan. Bu hol Sitseron Mark Tulliyni (milloddan avval 106-43.) tashvishga soladi. U o‘zining badavlat do‘sti Attika bu borada yordam berishlikni so‘rab murojaat qiladi. Tarixchi Korkeliy Nepotning guvoxlik berishicha Attik bir guruh tahirchi, korretor va ko‘chirib yozuvchi (xattot)larni to‘playdi. Yunon tilidagi matn (kitob)larni tahrir qilishga mashhur grammatik Tirannion taklif etiladi. Attik noshir sifatida o‘z faoliyatini Siseron asarlarini chiqarishdan boshlaydi. Attik nashriyotining buyuk xizmati natijasi bo‘lib, Platon asarlarining chop etilishi hisoblanadi. Bu nashrni

Tirannionning o‘zi tahrirdan chiqaradi, tahrir jaroyonida u Aristotelning saqlanib qolgan kutubxonasidan foydalanadi. Shunday qilib tarixda birinchi marta tahrir amaliyotiga asos solinadi.

Attik tasvirli kitoblar nashr etishda ham dong taratadi. U nashr ettirgan birinchi suratlari asar «Portretlar» edi.

Asarni yozuvchi Terentsiy Varron yaratadi (miloddan avvalgi 16-27-y.). Asarda jami 700 ga yaqin rimlik va yunonis-tonlik atoqli shaxslar tarjimai holi va suratlari berilgan. Bular barchasi matbaa ixtirosiga olib keladi.

Markaziy Osiyo (Turon) da ham yozuv, kitobat va tahrir tarixi qadim davrlardan boshlanadi.

Turkiy xalqlar harfli yozuvi taxminan 2500 yillik tarixga ega. Buni Olmata yaqinidagi Issiq qo‘rg‘onidan topilgan kumush idishdagi yozuv isbotlaydi. Qadimshunoslar kumush idish miloddan avvalgi 500-400 yillarga oidligini isbotladilar.

Turkiy qabilalar istiqomat qilgan hududlardan - hozirgi Mug‘uliston, Sharqiy Turkiston, Sibir, Markaziy Osiyo, Sharqiy Evropadan tosh, qoyaga, oltin, kumush idishlarga, tangalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, yohoch, sopol, metalga, shuningdek kirpech (g‘isht) ga yozilgan turli mavzulardagi bitik-yodgorliklar topilgan. Sirdaryo havzasidan topilgan bitiklar miloddan avvalgi 3-2-asrlarga taalluqlidir. So‘g‘d yozuvi paydo bo‘lgan vaqtı ilmiy adabiyotlarda birinchi turk hoqonligi davri<sup>1</sup> deb ko‘rsatiladi.

So‘g‘d yozuvi turkiy-run yozuvi bilan teng qo‘llanadi. Qadimgi turkiy yozma yedgorliklar O‘rxun yozuvidan tashqari, turkiy uyg‘ur yozuvida, ba’zilari so‘g‘d, braxmon, moniy, suryoniy yozuvlarida ham bitilgan. O‘rxun yozuvi

---

1 N.Raxmon. Turk hoqonligi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 65-b.

milodiy 900 yilgacha qo'llanadi. Arablar iste'losidan so'ng (7-asr o'rtalari – 9-asr boshlari) arab yozuvi islom dini bilan birga kirib keladi. Yurtimizda bu yozuv 1929 yilgacha qo'llanadi. So'ng lotin grafikasi asosidagi yozuvga o'tiladi. Bu yozuv 1940 yilda kirillchaga almashtiriladi. 1993 yildan yana lotin grafikasidagi yozuvga o'tiladi, u 1995 yilda qisman isloh etiladi va hozirgacha foydalananib kelinmoqda.

Markaziy Osiyoda kitobot ishi miloddan avval, yozuvning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Yozuvning tuzilishi (belgililar tizimi, joylashish tartibi), yozuv materiali, yozish qurollari va boshqalar muayyan darajada kitobning qanday bo'lishini belgilab beradi.

Markaziy Osiyoda ham avval toshga, sopol, teri, yog'och, metall, mato va boshqalarga yozilgan. Miloddan oldingi birinchi ming yillik o'rtalarida teriga yozish keng rasm bo'lgan. Otashparastlikning muqaddas kitobi Avesto 12 ming mol terisiga yozilgan. Keyinchalik qog'ozning kashf etilishi kitobot ishida ulkan taraqqiyotga sabab bo'ladi. 650-yillarda Samarcand qog'oziga yozilgan kitoblar bo'lgan. Qog'oz kitoblarni ko'p nusxada tayyorlash va tarqatish imkonini beradi. Bundan tashqari qog'oz kitoblarni bezatish ishi ham osonlashadi. Kitob sahifalariga turli miniyatyuralar, hoshiyalariga bezaklar ishlanadi. Asta-sekin xattotlik, muqovasizlik kasblari ajrala boshlaydi. Yozuvda siyohdan keng foydalaniлади. 14-15- asrda kitobat ishi yuqori bosqichga ko'tariladi. Har bir kitob san'at asari darajasiga ko'tariladi. 15-16-asrlarda bir qancha iste'dodli xattot, musavvir, lavvoх va sahhoblar (Abdurahmon Xorazmiy, Sultonali Mashhadiy, Sultonali Xandon, Mirali qilqalam va b.) etishib chiqadi. Shu davrda matnshunoslik, til masalalari bilan shug'ullanish, tahrir ilmi ham yuzaga keladi. Bu borada buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat

arbobi Alisher Navoiyning xizmatlari katta bo‘ladi.

Alisher Navoiyning faoliyatidagi egn muhim jihatlardan biri, uning kotiblar bilan ishlashi, adabiy merosni (o‘z zamondagi va undan oldingi) asl holida saqlab qolishga, muallif nushasini putur etkazmay kitob holiga keltirishga intilish edi. Alisher Navoiyning faoliyatida matnshunoslik, muharrirlik qirralari yaqqol namoyon bo‘ladi hali kitob nashr etish yuzaga kelmagan u davrda jamiyatning kitobga, ma’rifatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda Navoiyning xizmatlari o‘ta ahamiyatli edi.

Navoiy xomiyligida va bevosita nazorati ostida Sulton Ali Mashhadiy kabi san’atkor xattotlar tomonidan yuzlab kitoblardan nusxalar ko‘chiriladi. Shulardan bir qanchasi bugungi kunda ham jahon kutubxonalarida eng qimmatli yodgorlik sifatida saqlanib kelmoqda.

1469-yildan boshlab, Navoiy davlat arbobi sifatida, o‘z qo‘l ostida boy kutubxona tashkil etishga kirishdi. Kutubxonani kitoblar bilan to‘ldirish uchun ko‘plab mohir kotiblarni to‘playdi va o‘zi zarur deb bo‘lgan kitoblarni tanlab, tayyorlab ularna ko‘chirtiradi.

Alisher Navoiy kitobot ishi bilan shunchaki, zarur paytlardaniga emas, balki muntazam shug‘ullanadi. Bu haqda uning zamondoshi Xondamir Navoiyning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan o‘z kitobi «Makorim ul - axloq» da to‘liq ma’lumot beradi. Uning aytishicha, Navoiy kotiblar ko‘chirishi uchun asarlarning nusxalarini yaxshi va to‘g‘ri nusxalarini tayyorlab bergen. Natijada Navoiy matnshunoslik - matn tahlili bilan ham shug‘ullangan.

Alisher Navoiyning «... matnlar ustida olib borgan ishlari uning falsafa, tarix, san’atshunoslik, tabiiy fanlardan astronomiya, matematika, geometriya, tibbiyot va boshqa

sohadagi boy va chuqur bilimlariga ham asoslanar edi<sup>2</sup>»

Alisher Navoiyning faoliyatida muharrirning muallif bilan ishlashi - hamkorligi qanday bo‘lishligiga oid ibrat bo‘larli holni ko‘rish mumkin.

«Kunlarning birida Navoiy o‘z kutubxonasi uchun Jomiyning ilk devonlaridan birini o‘z zamonining xushnavis kotiblaridan biri Mavlono Abdusamadga ko‘chirishga topshirdi. Devonni ko‘chirish tugallangandan keyin Navoiy uni muallif ko‘zidan o‘tkazib kelish uchun Jomiy oldiga olib boradi. Jomiy mashxur kotibning xatini ko‘rib xursand bo‘ladi-yu, lekin sinchiklab ko‘rib chiqish uchun bir kechaga olib qoladi. Ertasiga Navoiy Jomiyning oldiga yana borganda. Jomiy jig“ibiyroni chiqib shunday deydi...

«Bu kitobni g‘arib nav’ bitibdur, anga o‘xsharkim, iltizom qilmish bo‘lg‘aykim, g‘alatsiz misra’ bitmagay, ba‘zi yerda biror-ikkiror, balki ortuq abyot ham tark qilibdur, o‘zi-o‘q munda bo‘lsa, chun xushnavis kishidur, ko‘p ehtiyoj jihatdan shoyad heyli ro‘zg‘ori zoe’ bo‘lg‘ay». Ikki ulug‘ zot bu to‘g‘rida uzoq bosh qotirishadi. Oxiri Navoiy Jomiyiga: «Agar sizning muborak qalamingiz bila isloh topsa, mujibi mubohat va zebu ziynat bo‘lur, - deydi. Natijada ..... Jomiy o‘zining uncha chiroyli bo‘lmagan xati bilan devonni boshidan oxirigacha tuzata boshlaydi»<sup>3</sup>.

Bu misoldan aniq ko‘rinadiki, bizning bugungi noshirlik ishimiz, ayniqlsa, matn ustida ishslash, tahlil va tahrir boy tarixga ega ekan.

Ma’lumki, qaysidir darajada tahrir qilinmagan asar deyarli uchramaydi desak xato bo‘lmaydi. Har bir shoir, adib o‘z asarini oqqa ko‘chirguncha (nashrdan chiqarguncha)

<sup>2</sup>Hayitmetov A. Navoiy dahosi.- T.: G‘afur G‘ulom, 1970.-145-146-b

<sup>3</sup>Hayitmetov A. Navoiy dahosi.- T: G‘afur G‘ulom, 1970.- 148-149-b.

qayta-qayta ko'rib chiqadi, tuzatishlar kiritadi, o'zgartiradi, xullas, takomillashtirishga intiladi. Bu degani o'z asarini o'zi tahrir qilish, ya'ni qo'lyozmani muallif tahriridan chiqarish demakdir.

Alisher Navoiy ham o'z asarini ma'lum vaqt o'tgach qaysidir darajada tahrir qilgani- o'zgartirgani, qayta ishlagani, ayrim so'zlarni boshqa so'zlar bilan almashtirgani tarixdan malum.

Masalan, «Alisher Navoiyning yigitlik yillarida Sayid Hasan Ardasherga yozgan mashxur she'riy maktubida shunday bayt bor: *Xudo etkurur oncha sur'at manga, Ki bo lmas bitiriga fursat manga*. Bu baytning birinchi misrasidagi «xudo etkurur» iborasi «etar tengridin» iborasi bilan almashtirilgan. Yana bir baytga e'tibor beraylik: Ani derg'a bo'lsa qachon rag'batim, Erur oncha haq lutfidin fursatim. Ikkinci misradagi «fursatim» so'zi «quvvatim» so'zi bilan almashtirilgan va h.k.»<sup>4</sup>.

Xullas, kitobat asrida (bosma nashr paydo bo'lgunicha) asar tahriri bilan asosan mualliflarning o'zi shug'ullangan. Ayrim hollarda boshqa kishining muharrirlik qilganligi ham tarihiy faktlardan ma'lum. Masalan, Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniyy» ning «Debocha»sida yozishicha mazkur devonni tuzishda Husayn Boyqaro muharrirlik qilganligini eslatib o'tadi.

Kitobat ishi kitob nashr etish paydo bo'lgunicha ko'p asrlar davom etadi. Qo'lyozma – xattotlar ko'chirgan kitoblar ijtimoiy ongni ifoda etuvchi vosita sifatida g'oyalar va bilimlar rivojiga o'z tasirini o'tkazadi, biroq, uning tarqalish doirasi juda tor bo'lgan.

---

<sup>4</sup>Hayitmetov A. Navoiy dahosi.-T.: G'afur G'ulom, 1970.- 153-154-b.

I. Tuttenbergning ixtirosi (15-a. o'rtalari), ya'ni kitob bosish dastgohini yaratish (Evropacha usulda kitob bosish) kitobchilik tarixida yangi davrni ochdi. XVII asrga kelib kitob nashr etish ishi tez rivoj topa boshlaydi. U endi dunyoning Evropadan boshqa joylariga ham tarqaladi.

XIX asrni ikkinchi yarmiga kelib Markaziy Osiyoda kitob nashr etish tarixida yangi davr boshlanadi. Kitoblar tosh bosmada ko'p nusxada tayyorlanadi. 1874 yilda Xiva xoni Muhammad Raximxon II saroyida toshbosma tashkil etiladi 1876 yilda birinchi kitob- Abdunosir Faroxiyning «Nisob us-sibyon» asari bosmadan chiqadi. 1888 yilda Alisher Navoiyning «Xamsa» asaridan «Hayrat ul-abror» nashr etiladi. XX asr boshlariga kelib Turkiston zaminida 70 dan ortiq bosmaxona va toshbosmaxona ishlagani haqida manbalarda ma'lumot uchraydi.

XX asrning ikkinchi o'n yilligi arafasida kitob nashrni bilan, Turkiston Davlat nashriyoti (Turkdavnashr) shug'ullanadi. 1927-1924 yillar mobaynida jami 1184 nomda kitob va risola nashrdan chiqariladi. 1925 yilda Turkdavnashr qayta tashkil qilinib, O'zbekiston Davlat nashriyoti (O'zdavnashr) tuziladi. Nashriyot o'zbek, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman, ozar va uyg'ur tillarida adabiyotlar nashr etadi. Nashr mahsulotlari xalq xo'jaligining barcha sohalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy, qishloq xo'jaligi, tibbiyotga oid, shuningdek siyosiy, siyosiy-omma-bop, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar bor edi. Badiiy, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan asarlarga ham katta e'tibor qaratiladi. Adabiyotlar chop etish jaroyonida tahrir alohida o'rinn tutadi. Bu davrga kelib tahrir bilan mutaxassis xodimlar-muharrirlar shug'ullanadi. Korrektorlik sohasi ham rivoj topadi. Muharrirlik ishida adabiyot turlari, boshqa nashrlar tabiatiga

ko‘ra ixtisoslashuv yuz beradi. Bunga, ayniqsa, yagona bo‘lgan O‘zdavnashr turli tahririyatlari negizida yangi-yangi nashriyotlarning tashkil etilishi ham sabab bo‘ladi. Masalan, o‘quv adabiyotlari tahririyati negizida O‘quv pedagogika nashriyoti, qishloq xo‘jalik adabiyotlari tahririyati negizida Qishloq xo‘jalik adabiyotlari Davlat nashriyoti, shuningdek, Meditsina, Bolalar va o‘smlar adabiyoti nashriyotlari tashkil topadi. 1939 yilda Badiiy adabiyot nashriyoti ochiladi. Shunday qilib XX asr 40-yili arafasida O‘zbekistonda 11ta nashriyot faoliyat yuritadi.

Ikkinci jahon urushi yillari 30- yillarda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan nashriyotlar tugatilib, uchta yirik nashriyot tashkil etiladi (1942-y.) Bular- O‘zdavnashr, Qoraqalpoqdavnashr va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyotlari edi.

Urushdan keyingi, ayniqsa elliinchchi yillar noshirlilik ishida jadal o‘sish yuz berdi. 1958 yilga kelib O‘zbekistonda nashriyotlar soni 7 taga etadi. 1970 yildan boshlab O‘zbekiston «Bilim» jamiyati orqali umumiy xajmi ikki bosma taboqli ilmiy-ommabop broshyuralar nashri yo‘lga qo‘yiladi. O‘zbekistonda noshirlilik ishi taraqqiy topadi.

Yigirmanchi asrning 80-yillardagi qayta qurish deb atalmish o‘zgarishlar noshirlilik ishiga ham o‘z tasirini o‘tkazadi. Nashriyotlarda yangi bo‘limlar, kutubxonalar, turkum nashrlar tashkil etila boshladи. Siyosiy adabiyotlar, siyosiy plakatlar chiqarish qisqardi. Milliy-madaniy, tarixiy qadriyatlarni tiklash, milliy o‘zlikni anglashga va shu bilan birga iqtisodga oid adabiyotlar nashr etish ancha ko‘paydi, ma’naviy- ma’rifiy hamda ta’limiy, entsiklopedik adabiyotlar nashri ancha jonlandi.

1989 yilda o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi noshirlilik ishi, ayniqsa tahrir sohasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. 1991 yilda (31 avgustda) O'zbekiston Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov O'zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida O'zbekistonning Mustaqilligini e'lon qilganligi butun millatning istiqlol yo'lidagi harakatlarining cho'qqisi bo'ladi. O'zbekiton tarixida yangi davr boshlandi.

Noshirlilik faoliyati doirasi kengaydi, tahrir ishida yangi-yangi jabhalar ochildi. Adabiy til, uning uslublari erkin rivojlanish imkoniga ega bo'ldi, matn tahriri bilan shug'ullanuvchilar safi kengaydi. Bosma mahsulotlarning qariyb 90 foizi o'zbek tilida chiqadigan bo'ldi.

Mustaqillik yillarida respublikaning mustaqil ichki va tashqi siyosatini, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi faoliyatini, milliy istiqlol mafkurasini, kuchli huquqiy davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish, barkamol avlodni tarbiyalash bo'yicha siyosatini aks ettiruvchi adabiyotlar nashr etishga asosiy e'tibor berilmoqda. Respublikamiz Prezidenti tomonidan barcha nashrlar, xususan matbuot va ommaviy ahborot vositalari oldiga ulkan vazifalar qo'yilmoqda va bu tabiiy. Zero, kelajagi buyuk davlatni barpo etish, ayniqsa, nashirlar, matbuot va ommaviy axborot vositalari barcha xodimlari, xususan tahrir bilan shug'ullanuvchi mutaxassislardan ulkan mas'uliyat talab etadi.

Mustaqil yurtimizda kitobning jamiyat hayotidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Kitob mafkura va siyosatning, fan va san'atning, ta'lim va tarbiyaning kuchli quroli bo'lib qoldi. U xalqimizga ulkan ma'naviy boyligimizni tortiq etadi, uni milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, ko'z qorachig'iday asrash ruhida tarbiyalaydi, milliy ahloq-odob, umuman, milliy mentalitetga sadoqatli bo'lishga o'rgatadi.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridan oq Yurtboshimiz noshirlik ishi, matbuot va ommaviy axborotning boshqa vositalarini tubdan isloh etishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Prezidentimiz g'amxo'rligi tufayli mamlakatimizda kitobchilik, matbuot barqaror rivojlanish yo'liga o'tib oldi. Noshirlik ishi sohasidagi faoliyatni yanada samarali, tezkor va yuqori sifatli bo'lishi uchun nashriyot- matbaa ijodiy uylari tashkil etildi.

Kitob nashri jaroyonida muayyan asar tahriri bilan shug'ullanuvchi- kitob muharriri nashriyotning eng muhim xodimi hisoblanadi. U qo'lyozmani kitobga aylantirishdek mas'uliyatli jaroyonni, hozirgi murakkab texnika va texnologiyani, kitob nashri ishi iqtisodini, bosma nashrni badiiy- texnik bezash- dizaynni yaxshi bilishi lozim. Faqat shundagina u barcha tahririy-noshirlik ishlarini oqilona tashkillashtirishga ko'maklashishi mumkin bo'ladi. Tahrir va nashr jaroyonlariga yangi texnika, texnologiyalarni joriy eta oladi, adabiy asar chiqarish muddatini qisqartirish, bosma mahsulot tannarxini pasaytirib, olinadigan sof foydani oshirishga muvaffaq bo'ladi, umuman noshirlik madaniyati darajasini davr talablari darajasiga ko'tarishga yordam beradi.

Lekin bularning barchasi muharrir uchun qo'lyozmani malakali tahrir qilishda kamlik qiladi. Tahrir ishi adabiy ijodiy ish, muharrir mehnati adabiy mehnat. Shunga ko'ra bu sohada faoliyat yurituvchi insonning savodliligi a'lo darajada bo'lsa, adabiy til me'yorlarini yaxshi bilsa, adabiy til taraqqiyoti yo'nalishi, boyishi omillaridan xabardor bo'lsa, nihoyat til boyligidan to'laqonli foydalanib, muallifga samimiyat bilan ko'maklashsagina uning ijtimoiy- ma'naviy, ta'limiy- ma'rifiy, iqtisodiy, siyosiy va milliy maqomi, foydasi yuqori bo'ladi. Nihoyat, muharrir muallif sifatida ham o'zini namoyon eta

olishi lozim, zero o‘zi yoza oladigan kishi adabiy mehnatning butun mashaqqatini to‘lig‘icha idroklay oladi, adabiy tahrir tehnologiyasining barcha jihatlari haqida chuqur tushunchaga ega bo‘ladi.

## **TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

- 1. Tahrir nima?*
- 2. Tahrir terminining qanday asosiy talqinlari bor?*
- 3. Tahrir ishi deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Yozuv va kitobat tarixi - tahrir ilmi bilan bog‘liqligini tushuntirib bering.*
- 5. Osiyo, Markaziy Osiy, Misr, Rim va Yunonistonda tahrir ilmining yuzaga kelishi haqida nimalar bilasiz?*
- 6. Alisher Navoiyning til va tahrir haqidagi qarashlari*
- 7. Evropada kitob bosish ishining boshlanishi*
- 8. Turkistonda noshirlik ishining yuzaga kelishi, rivoji haqida nima bilasiz? ‘*
- 9. Muharririlik faoliyatini ta’riflab bering*
- 10. O‘zbekiston Mustaqilligining noshirlik ishida tub burilishi yasaganligini izohlab bering.*
- 11. Kitob muharriri - nashriyotning eng muhim xodimi sifatida*

## II BOB

### MUHARRIRNING NASHR JARAYONIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

- *Nashr jarayoni va muharrir*
- *Muharrir - yetakchi mutaxassis*
- *Muharrir va muallif*
- *Muharrir asarning birigchi o'quvchisi*
- *Muharrir - qo'lyozmani baholovchi*

Muharrirning nashr jarayonidagi ishtiroki, o'rni va ahmiyatini ko'rsatishdan oldin nashr jarayoniga to'xtalib o'tamiz. Nashrning o'zi nima? Nashr jarayoni deganda nimani tushunish kerak? Muharrir kim? Muharrir o'zi kerakmi? Bu va shular bilan bog'liq boshqa bir qator savollarga ushbu bobda javob berishga harakat qilamiz.

Nashr jarayoni deganda, avvalo, bosma asarlar chiqarish bilan bog'liq birin-ketin amalga oshiriladigan, o'zaro aloqador, biri ikkinchisining tadrijiy davomi bo'lgan, ma'lum qonuniyatga bo'ysundirilgan ishlar majmui tushuniladi. Demak, mavzuli reja tuzish jarayonning boshlanishi bo'lsa, kitob tarqatish va kitobga jamoatchilikning baho berishi yakun hisoblanadi.

Umuman, nashr jarayonini, xususan, har bir asarni nashrdan chiqarish jarayonini, shartli tarzda to'rt bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich - *tayyorgarlik* bosqichi bo'lib, bu jarayon mavzuni belgilash yoki mavzuli reja tuzishdan to'muallifning asarni nashriyotga topshirishigacha bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi.

Muharrir mazkur bosqichda mavzuli reja tuzish va uning muhokamasida qatnashadi, muayyan mavzular bo'yicha mualliflar bilan muzokara olib boradi, nashr etilajak kitob rejasiga ustida ishlaydi, muallif iltimosiga ko'ra ishning tayyor qismlarini ko'zdan kechirib chiqadi, muallifga u duch kelgan muammolar va qiyinchiliklarni hal etishda ko'maklashadi.

Ikkinci bosqich - *tahrirdan chiqarish*. Bu bosqich muallif qo'lyozmani nashriyotda topshirishidan boshlab, to qo'lyozmani terishga topshirishgacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda qo'lyozmani nashrga tavsiya etish masalasi hal etiladi, ichki va tashqi taqrizdan o'tkazilganligi aniqlanadi, nashriyot ichki taqrizi (ayrim hollarda muharrir xulosasi) tayyorlanadi.

Bu vaqt mobaynida muharrir qo'lyozmani tahrirdan chiqaradi. Tahrir jarayonida amalga oshirilgan tuzatishlar kiritiladi. Tahrirdan chiqqan nusxa musahhihlar tomonidan o'qiladi, uchragan imloviy va tinish belgilari bo'yicha xatolar tuzatiladi.

Nihoyat, qo'lyozmani nashrga tayyorlash ishlari (grafika, texnik muharrirlik, badiiy muharrirlik va h.) bajariladi.

Uchinchi bosqich - *ishlab chiqarish* bosqichi. Bu bosqichda, asosan, ishlab chiqarish bilan bog'liq ishlari amalga oshiriladi. Avvalo, qo'lyozmaning korrektura (gran-ka)si tayyorlanadi. Korrekturaning ham musahhihlik, ham muharrirlik o'quvi amalga oshiriladi. Bosmaxona ishlari bajariladi. Barcha ishlari muharrirning kuzatuvi, qat'iy nazorati ostida amalga oshiriladi. Chunki muharrir nashrdan chiqarilayotgan asar uchun bosh javobgar - mas'ul xodimdir.

To'rtinchi bosqich - *yakuniy* bosqich. Bu bosqich tayyor mahsulotni qabul qilish, tarqatish, reklama va auditoriya baho chiqarishi jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur bobda nashr jarayoni va uning asosiy bosqichlarida muharrirning ishtiroki, o‘rnii va ahamiyatiga to‘xtalamiz. Lekin, asosiy maqsadni bayon etishdan oldin nashriyotlar va boshqa nashr muassasalari haqida umumiy ma’lumot berib o‘tish zarur deb hisoblaymiz.

Ma’lumki, O‘zbekiston mustaqilikka erishgandan so‘ng, mamlakatda barcha sohalarda bo‘lgani singari nashriyotlar, tahririyatlar sohasida ham chuqur, ham mazmun, ham shakl jihatdan kuchli islohotlar amalga oshirila boshladi va bugungi kunda ham bu jarayon davom etmoqda.

Endilikda sobiq tuzum davridagi nashriyotlar, tahririyatlar, ularning moddiy-texnikaviy ta’minoti, nashr texnologiyasi o‘rtasida er bilan osmoncha farq mavjud.

Bugungi kelib barcha nashriyotlar, tahririyatlar, kitob savdosiga O‘zbekiston axborot agentligi umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Mazkur tashkilot barcha davlat tasarrufidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari, matbuot va boshqa muassasalarning ishini tashkil etish, nashr rejalarini uyg‘unlashtirish ishlariga bevosita boshchilik qiladi.

Nashriyot-matbaa ijodiy uylari qaysidir darajada ixtisoslashgan deyish mumkin. Masalan, O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi asosan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar chiqarishga, O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi oliv va o‘rtamaxsus o‘quv yurtlari, maktablar uchun o‘quv adabiyotlari chiqarishga, O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti entsiklopedik asarlar, lug‘atlar, ma’lumotnoma asarlar chiqarishga, G‘afur G‘ulom va Cho‘lpon nomidagi nashriyotlar badiiy asarlar nashri bilan shug‘ullanadi.

Noshirlik va matbaa ishi amalda birlashtirilgan, yaxlit tizimni tashkil etadi. Bunday tizim nashrlarni iste’molchilarga etkazishni qisqa muddatlarda amalga oshirish imkonini beradi.

Noshirlik ishida etakchi kasb **muharrirlik** sanaladi. Muharrir muallifning birinchi yordamchisi, asarni birinchi bo‘lib o‘quvchi, taqrizchi, tanqidchi. Muharrir asarning nashr yo‘lini belgilaydi, nashrni yo‘naltiradi, ko‘p jihatdan uning taqdirini hal etadi. Nashr jarayonida ishtirok etuvchi boshqa bo‘linmalarning mutaxassislari - texnik muharrir, musahhih, badiiy muharrir, bugungi kundagi dizayner - qaysidir darajada uning mo‘ljallaganlarini amalga oshiradilar.

Nashrdan chiqqan asar g‘oyaviy-siyosiy, ilmiy, ma’rifiy mazmuniga ko‘ra auditoriyani to‘liq qanoatlantirishida muharrir mas’uliyati yuksakdir, bu boradagi barcha mas’uliyat uning zimmasiga tushadi. O‘z faoliyati mobaynida muharrir milliy mafkura tamoyillariga amal qilishi lozim, adabiy asar turlaridan qay birining nashri uchun mas’ul bo‘lsa, shu asar umumxalq manfaatlar aks ettirishi, milliy mustaqillik g‘oyalari, kuchli qonunchilik davlatidan fuqarolik jamiyatiga o‘tish tamoyillari, davlat yuritayotgan oqilona xalqparvar siyosatga muvofiq bo‘lishligini ta’minlashi talab etiladi.

Nashr mahsulotlarining sifatli bo‘lishi uchun tinmay kurashish, har bir asr (kitob, broshyura va b.) mazmun mohiyati, maqsadi, qaysi auditoriyaga mo‘ljallanganligiga ko‘ra o‘z vazifasini to‘la-to‘kis bajara oladigan bo‘lishi lozim.

Nashriyotlar va tahririylardagi asosiy mutaxassis, bu - muharrir. Adabiy asar dunyo yuzini ko‘rishida nimaiki qilish lozim bo‘lsa, barchasida muharrirning qaysidir darajada ishtiroki bo‘ladi.

Aytaylik, asar nashrdan chiqdi. Bu, muharrirning ishi tugadi, degani emas. Hozirgi zamon noshirligi muharrirning vazifasi doirasini sezilarli kengaytirishni taqazo etadi. U kitob do‘konlarida, kutubxonalarda bo‘lishi, noshirlik ishiga aloqador anjumanlarda faol ishtirok etishi, kitob

savdosi bo'yicha tadbirlarda, ko'rgazmalarda qatnashishi, kitobxonlarning kitoblarga bergan baholari, fikrlarini o'rganishi, xullas, bir so'z bilan aytganda, *marketing* bilan ham shug'ullanishi kerak. Bulardan tashqari, muharrir kitobshunoslikdan ham yaxshi xabardor bo'lishi talab etiladi. Bu unga navbatdagi kitobni nashrga tayyorlashda asqotadi. Zero, keyingi kitob oldingisidan, albatta qaysidir jihatlari bilan yaxshi bo'lishi lozim. Buning uchun muntazam, har kuni, butun faoliyat davomida izlanish, o'rganish va taddiq etish kerak bo'ladi.

Muharrirning qiziqarli, mazmunga boy, kamdan-kam uchraydigan serqirra faoliyati, boshqa har qanday faoliyatdan farqli o'larоq, hamisha siyosiy jarayondan, fan va texnika, madaniyatning eng yangi yutuqlaridan o'z vaqtida xabardor bo'lishni, muntazam ravishda jamoatchilik fikrini o'rganishni, noshirlik sohasidagi ilg'or tajriba va texnologiyalar bilan tanishib borishni, o'zida sohaviy innovations usullarni amalga tadbiq eta bilish malakasini hosil qilishni dolzarb masala qilib qo'yadi.

Qo'lyozmaning birinchi o'quvchisi sifatida muharrir muallifga o'z asarini chuqurroq idrok etish, chetdan ko'rish, to'larоq his etishda ko'makdosh bo'ladi.

Har bir muallif, agar, u tom ma'noda ijodchi bo'lsa, o'z asari uchun *begona* ko'z qanchalar kerakli ekanini yaxshi anglaydi va qabul qiladi. Muallif uchun muharrir shunday o'quvchiki, u boshqalardan ko'ra, tiyrak va ziyraklik bilan asarni o'qiydi. Kitobxon uchun esa muharrir - uning vakili, uning manfaatlarini ko'zlovchi. Matnni o'qiganda, asar auditoriya tomonidan qanday qabul qilinadi, baholanadi, shularni oldindan sezadi.

Bugunga kelib tahrir ishiga murakkab texnika jadal

tadbiq etilmoqda. O‘qiydigan qurilmalar, displaylar, shaxsiy kompyuterlar, noshirlik tizimining qurilmalari, o‘lchami turlicha bo‘lgan ekranlar, unga bir yo‘la kiritiladigan raqamlar, belgilardan matnni tuzatishdagi barcha yumishlarni bajarishda foydalanish imkonи mavjud. Texnika yordamida belgilarni olmashtirish, qo‘srimcha qism kiritish, satrlarni surish, bir joydan boshqa joyga o‘tkazish, xatboshini tiklash, yo‘qotish va h. larni amalga oshirish mumkin.

Nashr jarayoniga yangi texnikani joriy etish matn tashqi ko‘rinishi - shaklini andozaviylashtirishga olib keladi, muharrirning uni qayta-qayta qo‘lga olishdan ozod qiladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri «oq»qa o‘tishni talab etadi. Kompyuterda ishslash matn yaratish ishidagi texnikaviy jarayonni osonlashtiribgina qolmaydi, balki u muharrirning fikrlashini uyg‘unlashtiradi, kasbiy malakani takomillashtirishga yordam beradi. Biroq muharrir nashr jarayoniga tadbiq etilgan texnikaviy vositalar imkoniyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Shuni yaxshi bilish kerakki, texnika muharrirning ishini osonlashtiradi, lekin, zinhor, uning o‘rnini bosa olmaydi, chunki u ijodiy vazifalarni bajarishga qodir emas.

Tabiiyki, muharrir matn ustida ishslashning butun mobaynida, nihoyatda faol, hushyor, diqqat-e’tiborini bir erga jamlagan bo‘lishi kerak. U matnni qanday idrok etishligini nazorat qila olishi, muallif mulohazasidagi o‘ziga xoslikni baholay bilishi kerak. Bu muharrirga o‘zi tutadigan yo‘l (strategiya)ni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, tuzatish jarayonida.

Tajribali muharrirlar tahrir ishining eng qiyin joyi matnni o‘zgartirishni amalga oshirish, deb hisoblaydilar. Chunki, u matnda yot unsurdek bo‘lib qolmasligi kerak. Kiritmalar

begonaligi sezilmasligi, muallif matnining uzvlari bo'lib qolishi kerak.

Muharrirning har bir qaydi qo'lyozma kamchiligining ta'kidigina emas, balki aniq tavsiya vazifasini ham o'tashi lozim.

Bu muharrir qaydlari muallifga taqdim etilishdagina emas, balki kelgusida ishlarni amalga oshirish dasturi sifatida ham muhimdir.

Matnni faol idroklash, fikrlar aniqligi muharrir faoliyati va xatti-harakatidagi zaruriy jihatlar hisoblanadi.

## **TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

1. *Nashr jarayoni deganda nimani tushunasiz?*
2. *Nashr jarayonining bosqichlarini bilasizmi?*
3. *Kitob muharririning nashr jarayonidagi o'rni va vazifasi qanday?*
4. *Muharrirlig kasbi haqida nimalarni bilasiz?*
5. *Muharrir har bir nashr sifatili bo'lishi uchun nimalar qilishi yoki nimalarni bilishi kerak?*
6. *Muharrir muallifning yordamchisimi?*
7. *Zamonaviy nashr texnikasi va texnologiyasi muharrir oldiga qanday vazifalarini qo'yadi?*

### III BOB

### MATN TAHLILI VA TAHRIRI

- *Matn nima?*
- *Muallif matni ustida ishlash muharrirlik faoliyatining asosiy bosqichi*
- *Matnda yaxlitlik*
- *Matn qismlarining uyg‘unligi*
- *Yozma nutq talablari*
- *Sarlavha - ma’suliyatli lavha*
- *Matnning mantiqiy tahlili- tahrir qoidasi*
- *Matn axboriyligi muhim xislat*

Matn nima? U qanday tuziladi, maqsadi vazifasi ... va boshqalar xususida so‘z yuritishdan oldin adabiy asar yuzaga kelishi nimadan boshlanishi xususida to‘xtab o‘tamiz.

Biron bir matnning muallifi avvalo, asarning shakli xususida o‘ylaydi. Demak adabiy asar shakli ustida ishlash matn hali qog‘ozga tushishidan ancha oldin boshlanadi. Yaratilajak asar xususidagi o‘ylar shakllanishi hayotiy faktlarni idroklash jarayonidayoq asar janrining, bayonining o‘zga jihatlari paydo bo‘la boshlaydi.

Mana, matn - muallifning yozuvda aks etgan o‘z so‘zi ham tayyor. Muallifning fikri muayyan shaklga solingan, til vositalarida ifodasini topgan va yozuv belgilarida qayd etilgan. Muallif uchun matn adabiy asar yaratish yakuniy bosqichining materiali bo‘lib hisoblanadi. Matn yaratish yaratuvchilik, ishlov berish va hisob-kitobli, har kimga ham nasab bo‘lavermaydigan, mehnat turi sanaladi.

Muharrirning faoliyati muallifning matni ustida noshirlik ishlarini bajarishining asosiy bosqichi bo‘lish bilan birga, muharrir adabiy faoliyatining asosiy qismi hisoblanadi. Lekin shunga qaramay ba’zi-ba’zida, muharrir o‘zi, umuman, kerakmikan? - degan ovozlar eshitilib qoladi. Bunday fikr egalari, aftidan, bu ortiqcha kuch va mablag‘ sarfi keraksiz chiqim, deb o‘ylasalar kerak.

Bazilar bu savolga, muharrir kerak emas, deb javob qiladilar. Ular fikricha, go‘yo ko‘pchilik mualliflar muharrirga orqa qilib, xom-xamalga asarlarni ham nashr uchun topshiraverar emishlar. Muharrirning bo‘lishi mualliflarning o‘z asari ustida qunt bilan ishlamasligiga olib kelar emish. Ular muharrirga suyanib qolar, asarini chiqarilishinigina e‘laydigan bo‘lib qolar emish.

Noshirlik sohasida ko‘p yillar faoliyat ko‘rsatib kelgan va kelaysotganlar esa butunlay boshqacha fikrda bo‘ladi.

O‘z tajribalariga tayanib, bunday mutaxassis xodimlar, ayniqsa, malakali muharrirlar, yo‘q, tayyorgarligi mukammal bo‘lмаган maxsus adabiy yoki ixtisosiy yordamga muxtoj shaxslarning muallif bo‘ladigan davri allaqachon o‘tib ketdi, deb qat‘iy ta’kidlaydilar.

Ammo mantiqan mulohaza yuritsak, kimdir muallif asarining sifatiga baho berishi, qo‘lyozma nashr uchun, yaroqlimi yo‘qmi aniqlashi kerak-ku! Agar shunday bo‘lmasa, kim har jihatdan - til va uslub, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy jihatdan maqbul bo‘lмаган qo‘lyozmalar dunyo yuzini ko‘rmasligiga kafolat beradi? Bu o‘rinda biz muharrirni nazoratchi (senzor)ga tenglashtirmoqchi emasmiz. Faqat muharrir mas’uliyatini ta’kid etmoqchimiz, xolos.

Ma’lumki, muallif matni bo‘yicha muharrirlik ishlarini amalga oshirish adabiy faoliyatning asosiy bosqichidir.

“Muharrirni muallifning yordamchisi sifatida ko‘rish” 5 ayrim tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rinib qoladi. Lekin muharrir muallifning yordamchisi deyish, bizningcha juda ham to‘g‘ri emas. Bunda gap so‘z ma’no ifodasida emas, balki faoliyat to‘g‘risida boradi. Agar muharrir yordamchi vazifasini bajaruvchi bo‘lsa, unda uning faoliyati qo‘lyozmani nashrga topshirgan kundan to‘xtagan bo‘lur edi. Vaholanki, muharrirlik vazifasiga keng ta’rif (ayniqsa vaqtli matbuotda) berilayotgan bugungi kunda ham muallif asarining matnini tahlil qilish, baholash hamda tuzatish uning asosiy majburiyati bo‘lib qolmoqda. Bu majburiyatni uddalash uchun muharrir matn haqidagi bilimlarini matn nazariyasini, matn tahlili va tahririning ilmiy asoslarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi talab etiladi.

Avvalo shuni aytish joizki, matn so‘zi ham o‘ziga yarasha ko‘p ma’noli. Filologik ta’limda uning ma’nosini uch xil izohlanadi. Birinchi izoh ancha umumiy: matn nutq jarayonining ongli suratda tashkil etilgan natijasi, muayyan mazmunini ifoda etish uchun muayyan shaklga kiritilgan fikr. Ikkinchi ta’rifda matn lingvistika ob’ekti, ko‘p xollarda jumla doirasida cheklangan. Uchinchisi esa, qisqa hamda lo‘nda: matn-nutqiy asar.

Muharrirlik nuqtai nazaridan matn deganda hamma adabiy asar doirasi bilan cheklangan ma’no ifodasi tushunilgan. Bu matn aniq va tugallangan hisoblanadi. Tahrir nazariyasi hali hanuz matn tushunchasini ochiq-oydin, aniq ta’rifini bergenicha yo‘q. Matn termini tor ma’noda qo‘llaniladi, unga “muallif qo‘lyozmasi” yoki “asl nusxa matni” ma’no ifodasi beriladi. Tahrir jarayonining o‘ziga xos jihatlariga asoslanib, muharrirlik ishlovi amalga oshiriladigan, nashr etish uchun muallif tomonidan tasdiqlangan har qanday kitob

yoki maqola qo‘lyozmasini matn deb ataganlar. Shuningdek, muharrir ishlashi lozim bo‘lgan tayyor qo‘lyozmaning bir qismi hatto bir ibora yohud bir abzats ham mant deyilgan. Bunday tariflar matn atalmish hodisani to‘liq ifodasi bo‘la olmagan va bo‘lishlikka da’vo ham qilmaydi, Shunga ko‘ra ilmiy yondoshuv uchun asos bo‘la olmaydi.

Tahrir matn nazariyasi ilgari suradigan vazifalarni hal etishdan bevosita manfaatdordir. Nazariy jihatdan hal etilishi lozim bo‘lgan eng muhim vazifalar, aytish mumkinki, quyidagidardir: matnning yaratilish, idrok etish va tushunish jarayonida mazmuniy tomonini tadqiq etish matniy aloqa birligi sifatida matnni ko‘zdan kechirish; matnning axboriyligi masalalarini o‘rganish, matn o‘zida tashiydigan ma’lumot (axborot)ni tizimlashtirish va tizimdan chiqrish.

Nazariy jihatdan matnning asosiy tavsifi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, muharrir uchun quyidagi matn jihatlari birinchi darajali ahamiyatga egadir: yaxlitlik, bog‘liqlik, muayyan belgilarda qayd etilganlik, axboriylik. Albatta, bu jihatlar muharrir uchun faqat nazariy jihatdan emas, balki amalda ham muhimdir.

**Matn yaxlitligi.** Har bir asar, u xoh adabiy bo‘lsin, xoh publisistik bo‘lsin yaxlit - bir butunlikda bo‘lishi lozim. Yaxlitlik matnni boshdan to oxirigacha, go‘yo bog‘lab turuvchi ip bo‘lib hisoblanadi. Shakldan boshlab mazmuniga tomon o‘tib, mazkur ipni aniqlash muharrirning birinchi va asosiy vazifasi hisoblanadi. Muharrir matn yaxlitligini baholashda ikki narsaga asosiy e’tiborini qaratishi lozim. Birinchisi, matnni uzviy bog‘liq bir butun, deb tahlil qilish, ikkinchisi, uni tashkil etuvchi unsurlar to‘laqonliligi va aniqligini belgilash. Matnning yaxlitligiga fikrlar uyg‘unligi hamda matn tuzilishining aniqligiga ko‘ra erishish mumkin. Bularidan

tashqari materialni obrazli to‘laligicha idrok etish, fikr mantiqiy rivojlanishining tushunarligi, shuningdek, matnning uslubiy bir butunligi ham matn yaxlitligini ta’minlaydi. Matn tarkibiy qismlarini tahlil qilish, muharrirdan, avvalo, tahlil ob’ektini bilish uchun chuqur va har tomonlama bilimga, adabiy til, adabiy til uslubiyatidan yuksak iqtidorga ega bo‘lish talab etiladi.

Tahririyl tuzatish jarayonida matn yaxlitligi bir nutqiy qismidan ikkinchisiga o‘tishida mazmuniy jihatdan ayniylik saqlanishini talab etadi. Matnni boshidan to oxirigacha diqqat bilan o‘qib chiqmasdan, darhol tuzatishga kirishib ketish salbiy oqibatlarga olib kelishi taxrir amaliyoti tomonidan allaqachanoq isbotlangan. Shunga ko‘ra matnni tuzatishga kirishishdan oldin uning kamchiliklarini to‘lig‘iga belgilash, mazmunini aniqlash lozim. Xabarni bir martta o‘qiysan. Agar uni yozilishiga ko‘ra bitta o‘qiganda tushunmasang va uni qayta o‘qishga to‘g‘ri kelsa, demak u muvafaqiyatsiz chiqgan. Masalan, quyidagi parchani o‘qing:

“Mahalliy xom ashyo asosida” sarlavhali materialdan parchani aynan keltiramiz.

*Shahrimizdag“Tashinvestplast” mas’uliyat cheklangan jamiyat mustaqillik yillarida tashkil topgan bo‘lib, hoz‘irda korxona sexlarida mahalliy xom ashyo asosida turli xil mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Korxonada bugungi kunga kelib mahsulotlar turlari ikki yuz xildan ortib ketdi. Ular buyurtmalar asosida tayyorlanmoqda.*

*Korxona sexlarida Italiyadan keltirilgan rotattion qolip mashinasi o‘rnatalgan bo‘lib, ushbu dastgoh yordamida buyurtmalar to‘la-to‘kis bajarilmoqda. Korxona asosan o‘z faoliyatini plastmasa konteynerlar ishlab chiqarishdan boshlagan bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad poytahtimiz*

*sanitariya xolatini yaxshilash, obodonlashtirish ishlariga muhum xissa qo'shishdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, korxona mahsulotlari "Sho'rtangaz" kimyo majmuasidan keltirilgan xom ashyodan tayyorlanib, shu bois ham ular birmuncha arzondir. Shuningdek, bugungi kun ta'labilga javob beradigan chiqindi qutilari, nafaqat ko'rinishi, balki sifati, sanitariya qoidalariga mosligi, yengilligi bilan ajralib turadi... ("Toshkent oqshomi", 2010 yil 6 yanvar).*

Xo'sh, endi aytingchi gap nima haqda boryapti? Sarlavhadan ma'lum bo'lishicha *mahalliy xom ashyodan mahsulot ishlab chiqrilyapti*, birinchidan, Tashinvestplast MChJ mustaqillik yillarida tashkil topgan, ikkinchidan, *mahsulot turi 200 xildan ortib ketgan*, uchinchidan *Italiyadan rotatsion qolip mashina keltirib o'rnatilgan*, to'rtinchidan, *dastgoh yordamida buyurtmalar to'la-to'kis bajarilmoqda*, beshinchidan, *korxona mahsulotlari "Sho'rtangaz" ... dan keltirilgan xom ashyodan tayyorlanib, shu bois ham ular birmuncha arzon*, oltinchidan, ... *chiqindi qutilari... sifati, sanitariya qoidalariga mosligi bilan ajralib turadi*. O'quvchi mavhuv ko'rsatkichlar - turli xil mahsulotlar, *mahsult turlari 200 xildan ortib ketdi*, *plastmassa konteynerlar, rotatsion qolip mashina, dastgoh yordamida buyurtmalar bajarilmoqda* kabilardan biron-bir nima tushunish mushkul.

Faqat matn umumiy tavsifidan so'ng va ana shu tavsifga ko'ra sharhda til va uslubga xos kamchiliklar tahlili beriladi, grammatik xatolar aniqlanadi. Bunday tartibda tahlil qilish matnga muharrirlik nuqtaiy nazaridan yondoshishning o'ziga xos jihatini aks ettiradi.

Aslida matnning bunday taxlil etishlik tahrir usullari tarkibiga kiradi.

**Matn uyg'unligi** uning yaxlitligi garovidir. Matnga

bag‘ishlangan ilmiy asarlarda u to‘qimaga o‘hshatiladi, ayrim adabiyotlarda esa matn - muallifning o‘z so‘zi, deb tariflanadi yana bir boshqa manbada yozilgan yoki bosilgan maqoła, ichidagi chizma, tasvir, izoh eslatma va boshqalar bundan istisno, deb ko‘rsatiladi. Matnni tushunish uchun bir-biridan ajratilgan iboralarning ma’nosini aniqlash kifoya qilmaydi. Chunki har bir keyingi ibora, avvalgisining ma’nosini ham o‘z ichiga olgan bo‘ladi. Shuning uchun har qanday to‘qima matoning birgina ipini uzish bilan unga putur yetkazgandek matn to‘qimasiga ham ehtiyotsiz bir harakat bilan zarar etkazish mumkinligini muharrir doimo yodida tutishi lozim.

Matnni baholash, unga juda arzimagan darajada bo‘lsin o‘zgartish kiritish chuqur tahlildan so‘ng amalga oshirilishi maqbul bo‘ladi. Chunki, bunday o‘zgartishda ham talqin, ham ichki bog‘liqliklar (shakl va mazmun uyg‘unligi) e’tiborga olingan, har bir jumladagi fikr aniqlangan bo‘ladi.

Muloqat (komunikatsiya) tizimidan tashqarida matn uzuq-yuluq bo‘ladi. Uning mazmunida ta’bir joiz bo‘lsa, turli xajmda mazmuniy “o‘pqon”lar uchraydi. O‘quvchi matnni idrok etish jarayonida bunday “o‘pqon”larni to‘ldirib borishi kerak. Demak, matnni to‘g‘ri va to‘liq tushunish uchun kerakli bo‘lgan bilimlarga ega bo‘lishi yoxud oldingi bayon navbatdagi mazmuniy “o‘pqon”ni to‘ldirishga ko‘maklashishi lozim bo‘ladi. Agar mazkur shartlar bajarilmasa, muallif bilan o‘quvchi o‘rtasida tushunmovchilik yuzaga keladi, tushuncha hosil bo‘lmaydi. Tahrir jarayonida bu jihatni e’tiborda tutish qanchali muhumlligi shundoq ham tushunarli.

Tajribadan ma’lumki, matnning bir-biridan ancha narida joylashgan unsurlari o‘rtasidagi bog‘liqliknинг xotiraning lahzada o‘zgarishini hisobga olsak, ya’ni bir mulohaza xotirada qisqa muddat saqlanishi, o‘rnini boshqa mulohaza olishi tufoylidir.

xotirada qisqa muddat saqlanadi. Shunga ko'ra bir-biridan narida joylashgan unsurlarning bir xil emasligi yoki mantiqan zid emasligini "tutib" qolish muharrirdan chuqur malaka, ko'nikma va tajriba talab etadi. Matn qismlari (parchalari) o'rtasidagi mavjud bog'liqlik muharrir xotirasida birdek saqlanishi lozim.

Matn tahlili yoki tahriri paytida biror so'z qo'shimcha aniqlashtirishga muxtoj bo'lsa, darhol shunday aniqlik kiritish kerak va mazkur so'z boshqa - ikki xil ma'noda ifodasi berishi mumkinligi haqida ogohlantirish maqsadga muvofiqdir.

Matn unsurlariaro bog'liqlik (jipslik)ni ta'minlovchi vositalar turli, faqat nisbatan kam hollarda grammatik vositalar shunday vazifani bajaradi.

Rasmiy hujjatlar, ilmiy asarlar matnlarida birinchi o'rinda mantiqiy uyg'unlik (bog'liqlik) turadi va bu aniq seziladi. Baddiy, shuningdek publitsistik (ayniqsa badiiy-publitsistik asarlarda matn unsurlariaro bog'liqliknii obrazlar tizimi ta'minlaydi, ko'pincha bu fikran bog'lanadi.

Gazeta sahifasidagi qisqacha xabarda bosh tamoyil kam so'zdan foydalanib, ko'p ma'lumot etkazish hisoblanadi. Har bir jumlaga mustaqil xabar yetkazuvchi sifatida qarash mumkin. Jumlalararo bog'liqlik esa joylashish tartibiga ko'ra, mantiqiy ketma-ketlik asosida yuzaga chiqadi.

Axboriy materiallarda matn unsurlari o'rtasidagi bog'liqliknинг tamoyillaridan biri takrordir. Buham o'quvchiga mazmunini nazardan qochirmasligiga imkon beradi. Bunday takrorlar uslubiy ortiqchalikning namoyon bo'lishi deb hisoblanilmaydi, agar etakchi, asosiy ma'nonii ifoda etuvchi so'z takror kelsa. Bunday so'zlarning takrorlanishini qaytariq yoki – tavtalogiya sanab, uni sinonimi bilan almashtirish fikrning aniqligi, aniq ifoda yo'qolishiga, terminning ma'nosiga putur

etkazishga sabab bo‘ladi. Masalan, gazetadagi bir xabarda “... *Italiyadan keltirilgan rotatsion qolip mashinasi...*” o‘rnatilgani aytildi. Keyingi jumlada esa “*rotatsion qolip mashina*” go‘yo sinonimi “dastgoh” bilan almashtiriladi<sup>5</sup>. Birinchi gapdag'i termin ayni bir narsa ma’no ifodasini bersa, ikkinchi o‘rindagi sinonimi umumiy tushunchani ifoda etadi, nima ekanligi ham noma’lumdir. Shuning uchun bu parchada takror tamoyili o‘rinli hisoblanadi.

Mazmuniy uzilishni bartaraf etishda aytish mumkinki, o‘quvchi bilan muallif ijodiy hamkorligi yuzaga keladi. Bu ayniqsa adabiy asarni anglash jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Biror asarni yaratganda barchasini muhayyo etish, hammasini ikr-chikirigacha bayon qilish o‘quvchi uchun zerikarlidir. Agar biror chizgi yoki birin-ketin chizgilar, qandaydir nozik ishora, nimagadir qilingan sha’mal, shubha yo‘qli, o‘quvchi uni tushunadi yoki o‘zi o‘ylab topadi. Shuning uchun muallif xayolat ummonini butkul o‘zi qamrab olmasligi, o‘quvchiga ham bu ummonda erkin suzishi uchun kengliklar qoldirishi kerak.

Tahrir vaqtida matnni boshqacha - noto‘g‘ri talqin etilishining oldini olish uchun intilib, uni haddan tashqari siqib suvini chiqarish - quritib yuborish ham uni o‘quvchi uchun qiziqarsiz qilib qo‘yishi mumkin. Biroq, muharrir uchun boshqa yana bir xavf mavjud. U ham bo‘lsa, matnda o‘quvchi to‘ldira olmaydigan darajada mazmuniy uzilish qoldirishdir.

Gazetada bosilgan materialdan olingan quyidagi parchani diqqat bilan o‘qib chiqamiz.

2009 yil tahlili yakunlari *na Afg'oniston,*  
*na Pokiston va na Amerika alohida holda*

---

<sup>5</sup> Qarang.: Ilyosova Sh. Mahalliy xom ashyo asosida // Toshkent oqshomi, 2010 yil 6 yanvar.-1-b.

*diniy ekstremizm, fundamentalizm va xalqaro terrorchilikka qarshi munosib tarzda kurasha olishini ham isbotlaganini ta'kidlash joiz. Qolaversa, o'tgan yil AQSh va uning ittifoqchilari uchun afg'on mojarosidagi eng yirik talofotlar davri bo'ldi, desak, xato bo'lmaydi.*

Yuqorida keltirilgan matnda mazmuniy uzilish mavjud va bu uzilishni o'quvchi to'ldirish (to'g'rilash)ga qiynaladi. Kursivda hamda qora rangda berilgan satrni diqqat bilan o'qisak, mazmuniy uzilish olishini ham isbotlaganini konstruktsiyasi bilan yuqoridagi qism o'rtasida yuz berganini payqaymiz. O'quvchi bu uzilishni qanday to'ldiradi: *kurasha olmaganini ham isbotlaganini tarzidami? yoki kurasha olishini ham isbotlay olmaganini tarzidami?* ("XXI asr", 2010 yil 14 yanvar -7-b.).

Aytish mumkinki, bunday kamchilik matn qisqaligiga erishishga intilish tufayli yuz bergandir. To'g'ri, qisqa xajmda ko'p mazmun yuklash gazetalar uchun xos. Lekin, bunday muvaffaqiyatsizlikni hech bir sabab bilan oqlab bo'lmasligini muharrir hamisha yodda tutishi kerak.

Matnni yozuvda qayd etish (aks ettirish) yozma nutqning muhim sifatlaridan hisoblanadi, unga og'zaki nutqqa nisbatan muayyan afzallik baxsh etadi. Nutqning mazkur ikki shakli - og'zaki ham yozma - tinglovchi, o'quvchining matn mazmunini tushunishligini osonlashtiruvchi turli vositalari mavjud.

Shuni takidlash joizki, hech kim hech qachon aytganidek yoza olmaydi va hech qachon yozganidek aytga olmaydi. Og'zaki nutqni tinglab, mazmunini ilg'ash makon va zamonda chegaralangan. Nutq muayyan vaqtaniga tinglovchi uchun

mavjud bo‘ladi. Aytilgan fikrga qaytish uchun u albatta qaytarilishi (takrorlanishi) lozim. Yozma nutq (matnni) biz bir chetga qo‘yib qo‘yishimiz, mulohaza yuritishimiz va unga yana qaytishimiz mumkin.

Yozma nutqning tuzilishi ancha murakkab. Unda turli belgilardan iborat unsurlar bo‘ladi, masalan, raqamlar, chizmalar, tenglamalar, rasmlar va boshqalar. Yozma nutq atalganidan mustaqil va tahliliy fikrlashni talab etadi. Yozma nutqda materialni jadval shakliida berish imkonи mavjud. Yozma va bosma harflar matnda faqat grammatik shakl vazifasini bajarmaydi, balki, so‘z ma’nosidagi emotsional bo‘yoqni ham ifoda toptiradi. Zero har bir so‘zning genetik hamda ko‘chma ma’nosи jumla tarkibida ayonlashadi.

Xat boshi (abzats) dagi satr surilgan joy matn arxitektonikasining grafik ko‘rinishigina emas, ko‘p hollarda yozilganning alohida ma’no ifodasi mavjudligini ham anglatadi. Publitsistlar xat boshining bu xususiyatidan keng foydalanib, matnning grafik shakliga e’tiborni jalb etadilar. Masalan:

*Siz ul mo“tabar zotning kim ekanligini  
bilibishi istaysizmi? Bu tabarruk ism:*

*Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, she’riyat  
mulkinining sultoni.*

Matnni yaratishning grafik usullari bilan muallif izohi va/ yoki sharhini mutanosiblash fikrga urg‘u berishning ta’sirchan usuli hisoblanadi.

Fikrga yoki biror so‘z ma’nosiga urg‘u berishning ta’sirchan vositalaridan biri grafik usul bilan muallif izohini uyg‘unlashtirish hisoblanadi. Masalan,

*"Ayni mahalda shunisi ham muhimki, u (muholifat - izoh bizniki N.A.) tashkiliy jihatdan rasmiylashgan, tegishli yuridik maqomga ega bo'lishi, Konstituttsiya va qonun normalarini hurmatqilishi, o'zharakatlaribilanshakillanadigan davlat va ijtimoiy tuzumning qat'iy, barqaror holati uchun mas'ul bo'lishi, davlat qurilishining muqobil loyihibariga ega bo'lishi lozim"*<sup>6</sup>

O'zbek tili imlosi tomonidan qabul qilingan tinish belgilari ham nozik ma'no ifodasini beradi. Bular, ayniqsa, davlat ahamiyatiga molik qonunchilik hujjatlarining matnida yaqqol namoyon bo'ladi.

Matnni qayd etishning turli usullari mavjud: qo'lda yozilgan, mashinkada yozilgan (o'tmishda mashinkalar mavjud edi), kompyuterda bosilgan va boshqa turli poligrafiya usulida terilgan, display ekranida qayd etilgan (matnning namoyon bo'lishi). Muharrir yuqoridagi usullar har birining imkoniyatlari va o'ziga xos jihatlari bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak.

Bosma matn qo'lyozmaga xos individual xislatlardan holi bo'ladi va qayd etilgan matn yuqori darajada aniqlik va tashkillashtirilganlik xususiyatiga ega bo'ladi. Har bir nashr matn shu nashr turiga muvofiq, shuningdek gazeta matni ham o'ziga xos qulaylik tug'dirish maqsadida shakllantiriladi. Harf hajmi (kegli) ni, satr uzunligi, satrlararo oraliq (interval)ni tanlash va boshqa shaklga bo'yasinadilar.

Matnni qayd etishning turli usullarini qo'llab, shuningdek uning grafikasini belgilab muharrir har bir son (gazeta, jurnal) ning auditoriya uchun mavzui va janriy tuzilishini aniqlaydi,

<sup>6</sup>Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1998, 6-j. - 153-b.

gazeta sahifasi ichki shakllari unsurlarining o‘zaro bog‘liqligi (aloqadorligi) ni belgilaydi. Buning barchasi kerakli materialni oson topish imkonini beradi.

O‘ziga xos grafik yechimni izlashda shuni yodda tutish lozimki, tashqi ko‘rinish jozibasi orqasidan quvish, yaxshi natija beravermaydi. O‘quvchi e’tiborini jalb etish uchun sun’iy ravishda “so‘z o‘yinlari” qilish, odatda har doim ham e’lon qilinadigan material mazmuniga uyg‘un kela bermaydi.

2010 yil 14 yanvardagi “Hayot” gazetasining 15-betidagi material sarlavhasiga e’tibor beraylik.

**Sarlavha: Sovuq kunlarda sovuq mijozlilarga tavsiya.**  
Mazkur sarlavhani qanday tushunish kerak?

1. *Tavsiya sovuq kunlarda sovuq mijozlilarga beriladi;*
2. *Sovuq kunlarda tavsiya sovuq mijozlilarga beriladi;*
3. *Sovuq mijozlilarga tavsiya sovuq kunlarda beriladi;*
4. *Sovuq mijozlilarga sovuq kunlarda tavsiya beriladi.*

Har qanday shaklga solmang asosiy maqsad ayonlashmaydi. Maqsad esa,

*sovuq kunlarda mijoz sovuqlarga tavsiya.* Sovuq mijozli - birikmasining ma’no ifodasi esa mijoz (klient)ining sovuq ekanligini anglatadi.

Sarlavha yuqorida aytganimizdek “so‘z o‘yini”dan nazm, usilidan foydalaniб jarangdor, jozibador bo‘lishiga erishish maqsadida tuzilgan. Lekin mantiqiy xatoga yo‘l qo‘ylgan. Sarlavha bilan matn mantiqiy uyg‘unligiga purt etgan. Quyidagi parchaga e’tibor bering.

*Qishdagи nonning yoznikidan ko‘ra mag‘zi  
to ‘q bo‘lishi kerak. Go‘sht ham shunga ko‘ra  
tanlanadi. Sabzavot va ko‘katlardan karam,  
lavlagi, petrushka, gulkaram, semizo ‘t, sachratqi*

*iste'mol qilish naf keltiradi. Qishda ovqatni issiq holda (issig'i chidab bo'lmas darajaga etmasligi kerak) iste'mol qilish lozim.*

Sarlavhadan sovuq kunlar haqida so'z borishi ma'lum bo'ladi, keltirilgan parchada ham faqat qish so'zi uchraydi. Ammo iste'mol etiladigan sabzavot va ko'katlar orasida semizo't, sachratqi uchraydi. Vaholanki, bu o'tlarni qishda hatto issiq xonalardan ham topib bo'lmaydi!

Keltirilgan parchaning birinchi jumlasida fikr mutanosibsizligi mavjud. Bu jumlada *qishdag'i non mag 'zi to'q* bo'lishi kerakligi ta'kidlanmoqchi. Ana shu ta'kid qiyoslov orqali yuzaga chiqarilmoqchi, ya'ni yoznikiga qiyoslanmoqda. Ammo mazkur holda hamon qiyoslanmoqchi ekan va bu qiyos mantiqan to'g'ri bo'lishi uchun qiyoslanadigan sub'ekt va qiyos bo'layotgan ob'ekt mantiqan mutanosib bo'lishi talab etiladi.

Demak, *qishdag'i* va *yozdag'i*; shunda har ikki so'z bir xil-payt ma'no ifodasini beradi, mantiqan uyg'unlik ta'minlanadi. Yuqoridagi parcha esa birinchi payt ma'no ifodasini bersa, ikkinchisi tegishlilik ma'no ifodasini beradi. Tahrir mantiqiga ko'ra mazkur konstruktsiya *qishdag'i nonning yozdag'i nondan...* tarzida yoki *qish nonining yoz nonidan ...* tarzida bo'lishi lozim.

Ma'lumki, bir jumladan ikkinchi jumлага o'tishida fikr tadrijiylikka ega bo'lishi, ya'ni mantiqan biri ikkinchisini to'ldira borishi yoki avvalgi fikrni yanada mustahkamlashi yohud tasdiqlashi tahrir ilmida isbotlangan qoida.

Lekin biz yuqoridagi misolda birinchi va ikkinchi jumlada fikr zidligini ko'ramiz. Birinchi jumlada "... *nonning mag 'zi to'q bo'lishi*" bildirilmoqda. Ikkinchi jumlada "Go 'sht

*ham shunga ko'ra tanlanishi*" fikri berilmoqda. Go'yo ham bog'lovchisi ikki jumlanı bir-biri bilan fikriy uyg'unligini ta'minlaydigandek. Lekin *go'sht nimaga ko'ra talanidi*, degan savol tug'iladi. Har ikki jumladagi fikrlar uyg'unligi talabi bo'yicha *shunga ko'ra* birikmasi mantiqiga asosan ham nonga ko'ra, ham nonning mahziga ko'ra tanlanishi lozim bo'ladi. Lekin tahrir mantiqiga mantiqiy fikrlash qoidasiga to'g'ri kelmaydi. Har ikki jumladan anglanayotgan fikr bir-biriga mantiqan uyg'un emas, garchi, *ham bog'lovchisi tufayli ma'nан uyg'undek tuyulsa-da*.

Endi uchinchi jumlaga kelsak, u o'zidan oldingi ikki jumladan mutloqo mustaqil, matn umumiy mazmuniga ko'ra ayrim fikrni ifoda etadi. Demak u xat boshi (abzats) dan yozilishi lozim.

Matn bilan to'liq tanishilsa, unda mijoji sovuq kishilarga faqat qish oylarida emas, balki boshqa fasllarda ham amal qilishi lozim bo'lgan maslahatlar mavjud. Demak, sarlavha mantiqan to'g'ri emas. Matndagi fikrni mustahkamlash, shuningdek ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishi lozim bo'lgan surat ham matn mazmuniga mos emas.

Surat mijoji sovuq kishinikimi? Uni qanday bilish mumkin? Burniga ro'molcha tutib turishidanmi?

Aslida surat tumov odamniki. Mijozi issiq ham tumov bo'lishi mumkin-ku! Bunda surat bilan matn mantiqan mutanosib emasligi yaqqol seziladi.

Muharrir matnni mustahkamlovchi usullardan yaxshi xabardor bo'lishi, bunday vositalar aniq, mantiqan matn mazmuniga mos bo'lishi lozim.

Yozma nutq nutqiy faoliyatning eng aniq va ochiq-oydin turi. Xatto aynan yozib olingan og'zaki nutq ham matn hisoblanmaydi. Matn - ongli ravishda tuzilgan nutq ijodchiligining natijasi, nutqiy asar.

Suhbatdoshning nutqini ifoda etuvchi matnni tuzish jurnalist adabiy faoliyatining alohida turidir. Agar matnda so‘zlashuv nutqiga oid unsurlar qoladigan bo‘lsa, ular albatta, materialning dalillanganligini, ishonarliligin va o‘quvchiga hissiy ta’sirini saqlashiga xizmat qilishi kerak. Bunga faqat umumiy mulohazaga ko‘ra va shunda ham matnga qunt bilan ishlov berilgan bo‘lsagina erishish mumkin.

Toshpo‘lat tajang nutqiga e‘tibor beraylik:

Shu xumsolaring qaysi bir kambag‘alning boshini siladi. Yoki maktab-paktab bergenini bilasanmi Voy o’sha hammanga dedim, lippamni qoqay, boylar!. (Abdulla Qodiriy, Kichik hikoyalar)

Yana bir misol:

Dumbulnisa “*Yildan yilga zamonani yer yutvotti, egachi. Erkak-ku, erkak, yoshlarni ham tep-tepasidan xudo urib, tovonidan chiqarvotti, men sizga aytsam, qoqindiq*” (Qodiriyni qumsab. Yodnama).

Amaliy faoliyatida har bir jurnalist yozib olingen og‘zaki nutqni, masalan, intervyuni e’lon qilish uchun matbuotga berishda, matnga ishlov berishiga to‘g‘ri keladi. Bunday paytda yozma nutqning og‘zaki nutqdan farqli jihatlarini bilish zarurdir. Xususan, shunday nashrlarning mualliflarini bir-biridan farq qiluvchi tavsiyalar berishdan, haddan tashqari so‘zamolikka berilib ketishmasdan, o‘rinli o‘rinsiz nutqga ilmoqli so‘roqlarni kiritishdan, ritorikaga ruju qilishdan saqlanish haqida ogohlantirish kerak bo‘ladi.

Ayni mana shu og‘zaki nutqda yangi so‘zlar, g‘ayriodatiy grammatik shakllar uchraydi, muharrir bulardan foydalanish

qay darajada maqbul yoki maqbul emasligini aniqlash lozim. Eng qiyini matnga adabiy ishlov berishda suxbatdoshning talaffuzi ( intonatsiyasi)ga ishlov berishdir. So‘zma-so‘z yozib olish ham uning ifodasini aniq bera olmaydi. Intervyu olinadigan vaziyatni yuzaga keltirish usulini topish muhum ahamiyatga molikdir. Suxbatdoshning kayfiyatini tushunish, uning shaxsiy xislatlarini payqash, nutq maromini aniq bera olish va h. nixoyatda muhim sanaladi.

Jurnalistika asari uchun axboriylik eng muhum hislat hisoblanadi. Ma’lumotlarni e’lon qilish deb tushuniladigan, umumetirof etilgan izohidan tashqari “xabar” terminining jurnalistikada bu ma’lumotlarning yangi bo‘lishligi ham talab etiladi.

Ma’lumki ommaviy axborot vositalarining nashrlari keng auditoriyaga mo‘ljallangan, muhimligiga ko‘ra turli jarajada, mavzuga ko‘ra rang berish xabarlardan iborat bo‘ladi.

Bular, albatta, siyosiy, iqtisodiy, madaniyat, ijtimoiy turmush sohasidagi dolzarb hodisa va muammolar haqida bo‘ladi hamda umum diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etadi. Bunday xabarlar bilan bir qarorda “hayot badiiyati” haqida ma’lumotlar - xabarlar ham bir bo‘lib, ular kutilmagan vaziyat, xatti harakat, kelishmovchiliklar va h.k.dan iborat. Akvar hollarda turli shov-shuvlarga ham sabab bo‘ladi.

“Jurnalistika asari matnining axboriyligini belgilash o‘quvchilarning bilim darjasini haqidagi va vaqt omilini hisobga ola bilish bilan belgidanadi”

Matn qismlari xabarning o‘z pragmatik mohiyatiga ko‘ra turli mazmunga ega bo‘lishi mumkin. Ommaviy axborot

---

<sup>7</sup>Nakoryakova K.M. Literaturnoe redaktirovanie. -Moskva, IKAR, 2002.

vositalarining ko‘pgina nashrlari uchun yuz berayotgan, yuz bergan hamda yuz beruvchi hodisa va jarayonlar haqidagi xabar tarzidagi matn qismlari birinchi o‘rinda turadi. Bulardag‘i xabarlar matnni hayot bilan bog‘laydi. Albatta, matnning mazkur qismlari verbal (so‘zlar yordamida) ifodalananadi, til birikmalari o‘z genetik ma’nosiga ko‘ra asosli-mantiqiy mazmunda qo‘llaniladi.

Matn muallifining nuqtai nazari ifoda topgan ma’lumotni aniqlash, hodisalararo bog‘liqlikni idroklash, ular mohiyati va sababini belgilash, muallifning narsa, voqeа, hodisani baholash usuli hamda mazmuniy bog‘liqlik tahlil etilishini talab etadi. Bunday ma’lumot butun matndan olinadi. Ochiq berilmaydigan, mulohaza yuritib ilg‘ab olinadigan ma’lumotlarni payqay olish ancha murakkab. Bunday usulda ma’lumot berish badiiy adabiyotlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ma’lumotlar verbal ifoda topmaydi ular fakt (dalil)lar haqidagi xabarlarda mavjud bo‘ladi va qo‘srimcha, ko‘pincha, ilg‘ab olish qiyin ma’nolarni beradi. Ommaviy axborot vositalarining nashrlarida bunday ma’lumot berishdan foydalanish kamdan kam kuzatiladi.

Ma’lumotlarga boylik va yangilikning mavjudligi darajasiga ko‘ra xabarlar quyidagi sifatlarga asosan farqlanadi: *asosiy; aniqlashtiruvchi; qo‘srimcha; takroriy* hamda Evropa jurnalistikasi tilida *nul* deb ataluvchi turiga.

Albatta matnni tahrir qilishdan oldin xabarlarning ushbu jihatlarini farqlab, ajrata olish lozim.

**Asosiy** xabar, bu - eng nodir hisoblanadi. U yangilik xabardir.

**Aniqlashtiruvchi** xabar esa asosiy ma’lumotni etkazuvchi matnning qismlari bilan bog‘liq bo‘ladi. U yangi ma’lumot etkazmaydi, balki xabar qilinganni aniqlashtiradi,

xolos. Masalan, ular vaqt va makon (joy)ni ko'rsatuvchi, tafsilot beruvchi bo'lib, yangilikni aniq-ravshan bo'lishiga ko'maklashadi, yangilikning ishonchliligin alohida takidlaydi va to'g'riligini isbotlaydi.

Aniqlashtiruvchidan farqli o'laroq qo'shimcha xabar asosiy ma'lumotni beruvchi matn qismlari bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Uni matnga kiritishda ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin, masalan, fikr izchilligiga putr etadi, ma'noviy uzilish hosil bo'ladi, natijada matnning bog'liqligi buziladi. Takroriy xabarda yangilik bo'lmaydi, u avvalo xabar qilinganning qaytarig'i bo'ladi, xolos. Hamon xabar ma'lum ekan takroriy xabar ortiqcha hisoblanadi. U faqat ritorik maqsadda bo'lishi, ya'ni uslubga xizmat qilishi mumkin. Nul xabar deganda nutqning bir parchasi tushuniladi, u har qanday semantik (ma'noviy) ma'lumotdan xoli bo'ladi (izohlar, "mag'zi puch so'zlar", betaraf sas). Bunday xabar mantiqsiz nutq parchasi sifatida, faqat yaxshi matn tuzishda "qo'shimcha qurilish unsuri" sifatida ishtirok etadi, xolos. Ko'p hollarda muallif nutqiy madaniyati darajasi pastligidan dalolat beradi.

Asosiy ma'lumot etkazuvchi nutq qismlari bilan boshqa tur ma'lumot etkazivchi qismlar nisbati matnning axboriylik darajasi (koeffitsienti)ni ko'rsatadi.

Jurnalistikaga oid ilmiy amaliy adabiyotlarda bu ko'rsatkich, ya'ni matnning ma'lumotga to'yinganlik darajasi - 0,4 - 0,6 bo'lsa, bu eng samarali hisoblanadi, deb ko'rsatilgan. Agar ko'rsatkich yuqoridagi me'yordan oshib ketsa, uni idroklash murakkablashadi. Agar ko'rsatkich undan past bo'lsa, matn o'quvchida qiziqish uyg'otmasligi mumkin.

Bular barchasini matn tahlili aniqlashtirib beradi.

Quyidagi gazeta materialini ko'rib chiqaylik.

## **Stresslar haqida**

Insonning asab-ruxiy tizimidagi har qanday o‘zgarishlar butun vujudga aks-sado berishi tabiiy. Inson qattiq **hayajonlanganda** birinchi bo‘lib **yurak**, ikkinchi bo‘lib **oshqozon** va uchinchi bo‘lib **ichaklar ta’sirlanar** ekan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, *streslarda oshqozon va ichaklar tizimi birinchilar safida ziyon-zahmat chekar ekan*.

Oshqozonga ko‘rsatilgan bu ta’sir, ya’ni *stresslar, oshqozonning shilliq qavatida joylashib, xlorid kislota ishlab chiqaradigan bezlar faoliyatining kuchayib ketishi bilan ifodalananadi*.

**Oshqozon ichida uzoq muddat kuchli kislotali muhit bo‘lishi uning shilliq qavatining oshirila borishiga sabab bo‘ladi.**

Xlorid kislotaning kuchayishi dastavval oshqozon shilliq qavatini yallig‘lantiradi, keyinchalik turli shaklli va o‘lchamli yaralarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Asosiy ma’lumot, yuqoridagi parchada, yangilikning mohiyatini ko‘rsatadi (tagiga ikkita chiziq tortilgan nutq bo‘ladi). Ma’lumotni aniqlashtiruvchi yangilik mutloq emas, u barcha uchun birdek dolzarb emas (tagiga bitta chiziq tortilgan nutq bo‘lagi).

Qo‘sishma ma’lumot kiritish (uzuq-uzun chiziq tortilgan nutq bo‘lagi) hamisha ham o‘rinli bo‘lavermaydi. Qo‘sishma ma’lumot yangi ma’lumot uchun asos bo‘lishi mumkin, lekin matnda bunday bo‘lgan emas. O‘quvchi bu ma’lumotning mohiyati haqida tahmin qilishi mumkin.

Takror ma’lumot qandaydir uslubiy vazifani o‘taydi (tagiga to‘lqinli chiziq tortilgan nutq bo‘lagi) va u yangi ma’lumot bermaydi, aytilganning xulosasi bo‘lishi mumkin.

## TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. “Matn” terminining asosiy izohlari qanday?
2. “Matn” terminining muharrirlilik kasbi nuqtai nazaridan talqinining o‘ziga xosligi nimada?
3. Matn asosiy tavsiflarini bilish tahrir uchun qanday amaliy ahamiyatga ega?
4. Matnning yaxlitligiga qanday erishish mumkin?
5. Matn unsurlariaro bog‘liqlik qanday amalgalashiriladi?
6. Yozuvda qayd etilgan nutq qanday sifatlarga ega bo‘ladi?
7. Gazeta amaliyotida qanday grafik vositalar matn tuzilishini belgilaydi?
8. O‘z pragmatik maqsadiga ko‘ra xabar qanday farqlanadi?
9. Ma’lumotga boylik darajasi va yangilik jihatiga ko‘ra xabar qanday farqlanadi?

## IV BOB

### MUHARRIR VA MUALLIF

### MUNOSABATI

- *Muharrirlik mas'uliyati*
- *Badiiy matn ustida ishlash*
- *Muallif - muharrir tizimi*
- *Noshirlilik odobi*

Matn tahriri usullarining turli jihatlarini belgilab beruvchi muhim masalalardan biri muallifning qo'lyozmasini muharrir qay darajada aralashuvidir. Bunday aralashuv chegarasi bo'lib, muharrirning matnni tuzatishiga yo'l qo'yilgan me'yor hisoblanadi. Muharrir qo'lyozmani tahlil va tahrir qilish jaroyonida amalga oshirilgan barcha tuzatish va o'zgartirishlardan muallifni xabardor qilishi lozim. Qo'lyozmani mazmuni shakli xususidagi barcha muharrirlik ishi an'anagako'ramuallif bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Tahrir nazariyasi va amaliyoti mazkur hamkorlikning samarali bo'lishligi qo'lyozmani nashrga tayyorlash muvaffaqiyatining garovi ekanligini allaqachon isbot etgan. XXI asr muharriri shubhasiz o'tgan asr muharriridan har jihatdan farq qiladi. Lekin ularning umumiy bir jihatni borki, bu makon va zamonda o'zgarmasdir. U ham bo'lsa, muharrirning iqtidori va muallif bilan hamkorlik. Garchi XXI asrda qo'lyozmani tahlil va tahrir qilishda ko'pgina ishlar kompyuter texnikasi va texnologiyasi zimmasiga yuklatilgan bo'lsa-da, lekin bu jaroyondagi ijodiy ish va muallif bilan hamkorlikda muharrirning o'rmini bosa olmaydi. Masalan asarni ijodiy idroklash va boyitish, muallif usuli va g'oyasini saqlash.

Turli mavzudagi adabiy asarlar matnini, shu jumladan, savodliligi etarlicha bo‘limgan jurnalistika asarlarini nashrga tayyorlashda muallifning fikrlash tarzi, g‘oyasi, usuli, materialning o‘ziga xosliklari saqlanishi zarur, aks holda asar o‘z individualligini yo‘qotadi, demak muallifning o‘zi asardan o‘chib ketadi.

Yuqoridagi mulohazalarga ko‘ra, muharrir (nashriyot, tahririyat muharriri) muallif qo‘lyozmasiga ziyraklik bilan qarashi lozim. Muharrirning muallif asariga aralashuv chegarasi ko‘p jihatdan shunga bog‘liqdir. Qo‘lyozma ustida ishlash jarroyonida unga faqat zarur uslubiy tuzatishlarni kiritish, matning ortiqchaligi aniq bo‘lgan qismlarini qisqartirish, unga kerakli qo‘shimchalar, kiritmalarни qo‘shish kerak.

Tuzatishni, ta’bir joiz bo‘lsa, zargarlik ishiga qiyoslash mumkin. Zero, bu ish nihoyatda mohirona - zargarona bajarilishi lozim. Buning uchun yuksak mahorai, malaka, mas’uliyat, aniqlik va ozorsizlik talab etiladi.

Yuqorida aytganlarimiz barchasi umumiyl fikrlar bo‘lib, aslida muharrirning qo‘lyozmani nashrga tayyorlashdagi bevosita aralashuvi, shuningdek aralashuv shakli turlicha. Bunday paytda ko‘p narsa muayyan vaziyatga, shu jumladan asarning turiga bog‘liq.

Xatoliklarning ba’zilari ma’naviy (semantik) tavsifda bo‘lsa, masalan shoir A. Oripovning «Birinchi muhabbatim» she’rida shunday misra bor: **«Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda»**. Mazkur misradagi so‘zlarning ma’no ifodasi *xanda* so‘zining ma’no ifodasiga mos emas. Agar bular o‘rnida *charaqlab, yorqin* so‘zlari qo‘llanganda edi, unda *xanda* so‘zining ma’no ifodasiga mos kelar edi. Yana bir misol:

*Butun millat va uning barcha a'zolarining nutqini birdan madaniy mutq talablariga xoslab bo'lmasligining asosiy sabablaridan yana biri adabiy tilning o'zidagi rivojlanish qonuniyatlari bilan, adabiy til normasidagi davr o'tishi bilan paydo bo'lib turadigan siljishlar bilan aloqadordir* (Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari, 122-b.)

Mazkur misoldagi sintaktik xatolik matnning

*..... adabiy tilning o'zidagi rivojlanish qonuniyatlari bilan adabiy til normasidagi davr o'tishi bilan paydo bo'lib turadigan siljishlar bilan aloqadordir qismida uchraydi.*

Birinchidan, bilan ko'makchisi uch marta qo'llangan, lekin bu takror qo'llash noto'g'ri. Ayiruvchi bog'lovchi vazifasini ikkitasi o'taydi, bittasi ko'makchi vazifasini bajaradi. Ikkinci o'rindagi *bilan* va birinchi, uchinchi o'rindagi *bilan* noto'g'ri qo'llash tufayli mantiqan fikriy mutanosibsizlik keltirib chiqargan. Bu o'rinda muharrir aralashuvini taqozo etuvchi qism

*adabiy til normasidagi davr o'tishi bilan paydo bo'lib turadigan siljishlar bilan aloqadordir* hisoblanadi. Mazkur konstruktsiyada gap bo'laklarining o'rni almashib qolgan, ya'ni *paydo bo'lib turadigan siljishlar adabiy til normasi* bilan bog'liq. Shunga ko'ra muharrir konstruktsiyani qayta sintaktik me'yor asosida tuzishi kerak bo'ladi, ya'ni:  
..... *davr o'tishi bilan adabiy til normasidagi paydo bo'lib turadigan siljishlar bilan aloqadordir.*

Shunda gap bo‘laklari sintaktik qoidaga binoan birikinaga kirishadi. Demak biz yuqorida bayon etgan sintaktik xatolik bartaraf etiladi, bu albatta muharrirning tahririni talab etadi.

Endi misol tariqasida olingan parchadagi boshqa xato va kamchiliklarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz, chunki, agar shunday qilmasak, parchadan ayon ko‘rinib turgan leksik, uslubiy va tinish belgilari bo‘yicha xato, kamchiliklar go‘yo yo‘qdek tuyuladi.

Muharrirning ushbu parchani adabiy til, uslub nuqtai nazaridan tahrirdani – kasbiy burchi hisoblanadi.

Leksik xatolar *birdan* emas, *birday*, *norma* emas, *me’yor*, *davr o’tishi bilan* birikmasi tarkibidagi *bilan* ortiqcha. Tinish belgi, sintaktik xato xususida yuqorida aytib o‘tdik.

Bizning fikrimizcha tahrirdan so‘ng matn quyidagi ko‘rinishga keladi.

*Butun millat va uning barcha a’zolari nutqini birday madaniy nutq talablariga moslab bo‘lmasligining asosiy sabablari adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlari, davr o’tgan sari adabiy til me’yorlarida yuz beradigan o’zgarishlar bilan aloqadordir.*

Muharrir, ayniqsa, badiiy asar qo‘lyozmasiga ehtiyyotkorlik bilan yondoshmog‘i kerak. Garchi ma’noviy-semantik va uslubiy tuzilishi bo‘yicha murakkabligiga ko‘ra oddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yishlik ehtimoli mavjud bo‘lmasada, afsuski, ortiqcha ehtiyyotkorlik tufayli ko‘pincha badiiy asarlarda ular ommaviy nusxada chiqib bo‘lganidan so‘ng xatoliklar uchrab turadi.

Xato va kamchiliklarning ayrimlari keltirilayotgan dalil,

ma'lumotlarga aloqador bo'lib mavjud vaziyat, holat, turmushga xos jihat, belgi, tasvirlanayotgan yoki tilga olingan davr noto'g'ri yoki aniq emasligi bilan tasvirlanadi. Masalan, Erkin Vohidovning mashhur bir she'rida shunday misralar bor: “ ... *Chingizu Botu tig'iga ko'ksi qalqon o'zbegim* ”.

Bu misrada asos material - ism va davrni berishda xatolikka yo'l qo'yilgan, ya'ni Botu, Chingizxonning o'g'li Jo'jining pannabirasi, u bosqinchilik sahnasiga chiqqanda Chingizzon bosib olgan ulkan hudud o'g'illariga taqsimlab berilgan edi. Ular tarixda Jeta – Jo'ji ulusi; Chig'atoy ulusi va Xaloku ulusi, deb ataladi. Hozirgi O'zbekiston xududi chig'atoy ulusi tarkibida bo'lgan. Botu jo'ji ulusini kengaytirish maqsadida Qadimgi Rus va Sharqiy Evropa xududlariga bosqinlar amalga oshirgan. Chig'atoy avlodlari hukmronlik qilgan hududga u hech qanday yurish ham, bosqin ham amalga oshirmagan, bunga haqqi ham yo'q edi. Shunga ko'ra o'zbekning ko'ksi Botu tig'iga na qalqon, na nishon bo'lмаган.

Davr xususiga kelganda Chingiz bilan Botu davri birbiriga ancha uzoh oraliq-muddatga ega. Botu davrida Chig'atoy ulusiga bosqin qilinmagan. Faqat Sohibqiron Temur davrida – uning yoshlik davriga kelib Jeta Mavorounnahr - Chig'atoy ulusi hududlariga (To'xtamishxon va b. Jo'ji avlodlari) bosqinlar qiladi. Shayboniyxon davriga kelib, ular chig'atoy ulusida ham hukmronlikni qo'lga kiritadi.

Shunday qilib, tarixiy haqiqat shundan iboratki, Botu hozirgi O'zbekiston hududiga yurish qilmagan, o'zbekning ko'ksi Botu tig'iga qalqon bo'lмаган. Shunga o'xshash xatolar, ba'zan mualliflar va muharrirning asar ayrim qismlariga muayyan darajada e'tiborsizlik bilan qaraganliklari sababli yuzaga keladi. Ana shunday ehtiyyotsizlik, noaniqliklardan, atoqli ijodchilar ham holi emas. Tahrir jarayonida ana shunday

nuqsonlarni bartaraf etish asarga faqat aniqlik, ishonarlilik kabi jihatlarni baxsh etadi, buning uchun muallif muharrirdan faqat minnatdor bo‘lishi lozim. Aytish mumkinki, bunday xolatlar ko‘pam kuzatilmaydi, shuning uchun muharrirlarning bunday tuzatishlarni qilishlari qoida tarzida emas, balki istisno tariqasida deyish mumkin. Lekin shunday bo‘lsa-da, bu hol muharrir uchun xushyorlikka da’vatdir.

“Tahrir qilinmagan asar adabiyotlar nashri tarixida deyarli uchramaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki har qanday badiiy asar, u xoh she’riy bo‘lsin, xoh doston, xoh roman uzoq o‘ylash, og‘ir mehnat natijasidir”<sup>8</sup>.

Demak tahrirga muhtojlik sezmaydigan asar, hatto, daho adiblarda ham uchramasligi, ayon ekan.

Xazrat Navoiy ham o‘z asarlarini keyinchalik muallif tahriridan o‘tkazgan. Novoiy yigitlik chog‘ida yozgan

*Men ulmenki to turk bedodidur,  
Bu til birla nazm bunyodidir.*

bayti bilan boshlanuvchi asarida

*Xudo etkurur oncha sur ’at manga,  
Ki bo ‘lmas bitiriga fursat manga.*

baytidagi birinchi misra:

*Xudo etkurur ancha sur ’at manga* misrasi devonga kiritish vaqtida *Etar tengridin oncha quvvat manga* tarzida o‘zgargan. Keyingi o‘zgarishdan so‘ng misra ancha silliq va jarangdorlik kasb etadi.

Xullas, har qanday asar ozmi ko‘pmi darajada tahrir talab bo‘ladi. Tahrir muallif tomonidan amalga oshiriladimi

<sup>8</sup>Hayitmetov A. Navoiy dahosi. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1970. -152-b.

muharrir tomonidanmi, albatta asarning yanada sifatli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi badiiy asarga taalluqli fikrlar ma’lum darajada ijtimoiy- siyosiy va ilmiy- ommabop nashrlar uchun ham taalluqlidir. Muharrirlar mualliflardan aniq bilim, chuqur g‘oyalarni berishdan tashqari, bularni yorqin ta’sirchan (emotsional) shaklda bayon etishlarini talab etishga haqlidirlar. Qo‘lyozmalarda uchraydigan bunday xato va kamchiliklarni, matnni muharrir tahlili jaroyonida muallifning o‘ziga tuzattirishi eng maqbul ish hisoblanadi.

Ishlab chiqarish va texnikaga oid, ayniqsa tadbirkorlik sohasidagi zamonaviy ilg‘or tajribaga bag‘ishlangan kitoblar alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi. Chunki nashriyotlar materialni, ta’bir joiz bo‘lsa, birinchi qo‘ldan olishdan manfaatdor. Muharrir esa ishlab chiqaruvchi - adabiy malakaga ega bo‘lmagan shaxs qo‘lyozmasiga duch keladi. Qo‘lyozmaning bayon usuli, shakli hamisha ham talab darajasida bo‘lavermaydi. Shunga ko‘ra matnni muharrir tomonidan adabiy jihatdan ishlash va tuzatish qo‘lyozmani nashrga tayyorlashning eng samarali usuli hisoblanadi. Ilmiy - ahboriy nashrlarda tuzatishlar qilishda muharrir faoliyatining ko‘lami ancha kengdir.

Bunda muharrirdan boshqa hech kim ilmiy - ahboriy amaliyot talablari bilan yaxshi tanish bo‘lmaganligi uchun qo‘lyozmaga samarali shakl bera olmaydi.

Xo‘sh, muharrirlar aralashuvining umuman chenarasini yo‘q, deb tan olish kerakmi? Lekin, bunday o‘ylash to‘g‘ri emas, qo‘lyozmaga muharrirlar aralashuvining chegarasi bor. Buni har bir alohida holatda aniq belgilash lozim.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, nashr jaroyonini qo‘lyozmadan holi tarzda tasavvur etib bo‘lmaydi. Matnni

gayta ishlab, muharrir doim ham muallifning matnidan yaxshi bo‘lgan talqinni yarata bermaydi. Muallif qo‘lyozma ustida uzoq, xatto, yillab ishlaydi. U material to‘playdi, mulohaza qiladi, saralaydi va muayyan qarorga keladi, umumlashtiradi. O‘ta malakali muharrir uchun ham qo‘lyozmani boshqatdan yozish va bunda qimmatli fikr yoki kuzatishlarning qaysidir qismi tushib qolmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

Agar muharrir shunday yo‘lni tutsa, ya’ni qo‘lyozmani boshqatdan yozib chiqishga kirishsa, muallif matnidan uzilib qoladi va buning oqibati jiddiy noxushliklarni yuzaga keltiradi. Istasa, istamasa asar boshqacha mazmun va shakl oladi, muharrir tobora muallif o‘rnini egallay boshlaydi.

Bunday hol yuz bemasligi uchun muharrir odobi (etikasi) talablariga rioya etish lozim.

Qo‘lyozmani nashrga muvaffaqiyatli tayyorlash, xususan, matnga tuzatishlarni kiritish muharrirlik tahlili bo‘yicha tavsiyalarga binoan mazkur ishda muallifning faol ishtirokiga ko‘ra amalga oshiriladi. Muallif qandaydir muammoni yoritish bo‘yicha qo‘srimchalar qilishi, aniqlik kiritishi anglashiilmovchilikni tushuntirishi va boshqa muharrir ishida yuz bergen noaniqliklarni aniqlashtirishi mumkin. Xullas, qo‘lyozmaga kiritiladigan barcha tuzatishlar muallif bilan kelishib olinishi kerak.

Muallif - muharrir tizimi, bir qarashda ko‘ringandek oddiy emas. O‘ziga yarasha, tabiiy, ziddiyatga ega.

Garchi har ikkisi - ham muharrir, ham muallif yaxshi asar chiqarishdan manfaatdor bo‘lsalarda, ayrim umumiyligi yoki xususiy jihatlarda kelisha olmasliklari mumkin.

Eng tajribali muallif ham materialga berilib ketishi, yetarlicha ilmiy ob’ektivlikdan chetlab ketishi mumkin. Muallif uchun o‘z asarining har bir mayda- chuydasi, unsuri

juda qadrli hisoblanadi, shunga ko‘ra u muharrirning biror unsur, qismdan voz kechish bo‘yicha taklifini qiyinchilik bilan qabul qiladi yohud rad etadi.

Muharrir, tabiiyki, ob’ektiv bo‘lishga intiladi, aslida ham shunday bvlishi lozim, u nashrdan chiqqan asar uchun o‘quvchilar, umuman, jamiyat oldida mas’uldir. Ana shu sababli u o‘z talablari ko‘lamini muallif imkon doirasiga muvo-fiqlashtirolmasisligi mumkin. Yana shuni alohida ta’kidlash joizki, muharrir bilan muallif munosabati muayyan qo‘lyozmani adabiy asar sifatida baholash umumiy mezonlarini taklif etishda shakllanadi.

Ba’zan muallif va muharrir tomonidan mezonlar birdek qabul qilinsa-da, ammo mazkur mezonlarni muayyan asarga tadbiqi talqinida kelishmovchilik chiqishi mumkin: biri uchun to‘g‘ri, ikkinchisi uchun noto‘g‘ri tuyuladi.

Adabiy ishda, boshqa hollardagidan ko‘ra, yana muallif va muharrirdagi o‘ziga xoslik (individuallik) yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar biri ortiqcha qiziqqon (hissiyotga berilgan) bo‘lsa, ikkinchisi etarlichcha vazmin, mulohazali bo‘imasligi mumkin, natijada o‘rtadagi munosabat murakkablashadi (keskinlashadi).

Yuqorida aytilganlar, bizningcha, muharrir va muallif munosabatlarining butun murakkabligini tasavvur etish uchun etarlidir. Demak, muharrirning muallif bilan hamkorlik qilishidagi o‘ziga xos tartib-qoidalarni ya’ni muharrir odobi (etikasi) me’yorlarini belgilash zarurati dolzarblik kasb etadi. Albatta, bu qoidalalar huquqiy davlatdan fuqorolik jamiyatiga o‘tish tamoyillari, milliy mafkura va milliy qadriyatlar va / yoki mentalitet asosida yaratiladi.

Muharrir qo‘lyozma mustaqil O‘zbekiston, uning xalqi manfaatlariga, asar milliy istiqlol, yuksak milliy ma’naviyat,

davlat va uning xarbiy, iqtisodiy sirini matbuotda, nashrlarda saqlash tamoyillari, shuningdek til va uslub me'yorlariga to'liq javob bera oladigan bo'lishini tilab etishga haqligina emas, balki majbur hamdir. Lekin, buni qanday amalga oshirish kerak? Buyruq so'zsiz bajarish - itoat etish tarzidami? Muassasaviy tartibga ko'ra shunday lekin, ikkinchi ko'rinish ham mavjud: asosli, do'stona tavsiya ko'rinishida. Muharrirlik ishining mohiyatiga ikkinchi ko'rinish ko'proq mos keladi. Muharrir bilan muallif o'rtasidagi munosabat boshliq bilan unga bo'ysunuchi o'rtasidagi munosabatga o'xshamasligi lozim. Muharrir hech qachon muallifga ma'muriy tazyiq o'tkazmasligi kerak. Uning eng ishonchli vositasi ishontirish. Agar bundan oqilona foydalansa, yaxshi natijaga erishishi shak-shubhasiz.

Endi, aksi ham bo'lishi mumkin. Ishontirishlar muallifga ta'sir etmaydi, u qaysarlik bilan o'z fikrida turib oladi. Bunda muharrir uchun yangi vaziyat yuzaga keladi. Birinchisida, agar muharrir o'z fikri to'g'rilinga qat'iy ishonsa, baxsni yuqori bosqichga chiqaradi bo'lim boshlig'i, bosh tahririyatni munozarani xal etishga chaqiradi. Mabodo, o'z nuqtai nazariga ishonchi unchali mustahkam bo'lmasa, da'volarini yana bir karra chuqur o'ylab ko'rishi, ehtimol, ularni o'zgartirishi mumkin.

Muallif muharrirning fikriga qo'shilmasdan o'z so'zida qat'iy bo'lsa, bu ikki nuqtai nazarga ko'ra baholanishi mumkin: birinchisi, muharrir o'z maqsadini yetkaza olmagan, ikkinchisi, muharrirning fikri kamchiliklardan xoli-nuqsonisz emas. Har ikki holda ham qayta ko'rib chiqish va chuqur mulohaza talab etiladi.

Muharrirning sobitliliği ham oydinlikni talab etuvchi masala hisoblanadi. Muharrirning sobitligi, asosan, milliy

mafkurani izchilllik bilan hayotga tadbiq etishda, yurt manfaatlariga sodiqlik, huquqiy kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish g'oyasiga og'ishmay amal qilishda namoyon bo'ladi. Uning g'oyaviy e'tiqodi, milliy g'ururi, yuksak ma'suliyatni xis etishligi ishdagi har bir jumlada aks etishligi lozim.

Lekin, shu bilan birga sobitlikni qaysarlikdan farqlay bilish kerak. Sobitlik har qanday ikir-chikir nuqsonlarga yopishib olish, injqliklar, har ehtimolga qarshi muxofaza va bo'lar - bo'lmas shubhalardan holi bo'lishi zarur. Ortiqcha ehtiyotkorlik, shubha bilan qarashlik, bular muharrir bilan muallif hamkorligiga putur etkazadi, muallifda o'z hamkor-muharrirga nisbatan ishonchszilik uyg'otadi, oxir-oqibat qo'lyozmani nashrga tayyorlash ishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muharrirning o'z tanqidiy fikrlarini qay tarzda bayon etishligi, muomala yo'sini, muharrirlik - noshirlik odobi muallif - muharrir hamkorligida sezilarli ahamiyat kasb etadi.

Muharrirlik odobi tanqid odobi bilan ancha umumiy jihatlarga ega.

«Adabiy asarlar xususidagi fikrlar tanqidchi zimmasiga muayyan ma'naviy mas'uliyat yuklaydi, achchiqqina tegadigan xalollik, dalillanganlikni talab etadi. Har qanday chandib olish, me'yordan oshirib yuborish, asossiz qiyoslash, iqtibosini o'z bilganicha olish, bir yoqlama (o'z g'oyasi, nuqtai nazari, saviyasi doirasida) yondashish, yorliq osish, quruq so'zdan iborat da'vo - adabiy asar tub mohiyatiga mutlaqo munosib emas»<sup>9</sup>.

Lekin, oldida to'la yakunlangan, o'quvchi xukmiga havola qilingan asar turgan tanqidchidan farqli o'laroq

---

<sup>9</sup>Kratkaya literaturnaya entsiklopediya. – Moskva, 1987, 4-j.-257-b

muharrir kitobning yaratilishi jaroyonida bevosita ishtirok etadi, bu jaroyonga faol ta'sir ko'rsatadi.

Shunga ko'ra bu ishda o'ta nozik did, xushmuomalalik va tiyraklik talab etiladi. **Samimiylilik** keskinlikdan, piching va dashnomidan xoli bo'lishi lozim. **Xolislik** (to'g'rilik) albatta zarur, biroq, muallif sha'ni kamsitilmasligi, uning, umuman ijodiy imkoniyatiga shubha solmasligi kerak.

Muharrir muallifga nisbatan xayrihohlik, hurmat muhitini yuzaga kelishida albatta ishtirok etishi, tabiiy. Busiz noshirlig odobini tasavvur etish mushkul. Muallifga samimiyat nashriyotlarning tahririyatdan boshqa bo'linmalari, xatto, hisobxona tomonidan ham ko'rsatilishi lozim.

Qo'lyozma muallifi qaysidir sabablar bilan muharrirga yoqmagan taqdirda ham, u o'z tuyg'ularini mutlaqo oshkor etmasligi kerak, bunga haqi ham yo'q. Muharrirlik odobiga qo'yiladigan yana bir talab, u kayfiyatga berilmasligi shart, xatto muallifni ko'rganda unda qandaydir asabiylik uyg'onsa ham.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muharrirning muallif bilan hamkorlikda ishlash jaroyonida o'zini tutishligi odob doirasida bo'lishi uchun faqat xushmuomalalikning o'zi kifoya qilmaydi. Muallif bilan muloqotga kirishish uchun muharrir o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi, muallif bilan qo'lyozmani muhokama qilishda o'z bilim saviyasi keng ekanligi bilan, agar zarur bo'lsa, o'z tavsiyalari noto'g'ri bo'lsa, ulardan voz kecha biladigan iroda sohibi bo'lishi kerak.

Muharrirning mahorati, yetukligini belgilovchi sifatlar quyidagilardir: maxsus bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lish; umummadaniylik; adabiy did, noshirlik tajribasi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlilik, tom ma'nodagi ziyyolilik.

## TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. *Muharrir, muharrirlig kasbi haqida nima bilasiz?*
2. *Muharrirning muallif qo'lyozmasiga matni ustida ishslash qanday kechadi?*
3. *Matn ustida ishslashda muharri nazoratining qanday ahamiyati bor?*
4. *Umum tilme 'yorlaridan chetna chiqishlarga muharrir qnday munosabatda bo 'dishi kerak?*
5. *Muallif matniga muharrirning aralashish huquqini qanday asoslaymiz?*
6. *Muharrirning adabiy faoliyatining o'ziga xosligi nimada?*
7. *Muharrir o'zlikiga ega bo 'lishi kerakmi?*
8. *Muharrir muallifdan ko'proq bilishi kerak degan fikrga qanday qaraysiz?*

## V BOB

### MATN BAYONI USULLARI VA TURLARI

- *Matnning bayon uslubi va turlari*
- *Hikoya*
- *Tasvir*
- *Mulohaza*

Asar kompozitsiyasi bo'yicha muharrirning bajaradigan ishi adabiy material arxitektonikasi bilan chegaralanmaydi, ya'ni asarning yaxlitligini, uning ayrim qismlarini va bular tadrijiyligini, ular o'zaro bog'liqligini tahlil qilish hamda turli kompozitsion usullarni baholash bilan cheklanmaydi.

Muharrirning tahlili deganda matn tuzilishiga chuqur kirib borish, muallif bayon qilishning qanday usulini tanlaganligini belgilash ham tushuniladi.

Bayon usuli ma'noviy tuzilish unsurlarining muayyan ketma-ketligi sifatida nutqning yuzaga kelishi jarayonida shakllanadi. Matn asar qismlarini, usullarini qayd etgan holda bu jarayonni mustahkamlaydi. Bunga asar qismlarining uyg'unligi (bog'langanligi), mazmuniy va shakliy to'laqonligi hamda yaxlitligi bilan erishiladi. Matn bayoni usuli va turini tanlash muallif o'z oldiga qo'ygan maqsad, shuningdek, nutq predmeti bo'lib xizmat qiluvchi mavjud voqelikning tavsifi bilan bog'liqdir.

Matnning bayon uslubi va turlari tahrir nazariyasi va amaliyotida quyidagicha tasniflanadi: **hikoya**, **tasvir** va **mulohaza** (ba'zi manbalarda mulohazani tushuntiruvchi usul deb ham ataladi).

**Hikoya** qilishdan maqsad muayyan vaqt mobayni (zamon)da hodisalar harakatini bayon etishdir. Bu hodisalar qanday tartib (ketma-ketliklar)da sodir bo'lganligi haqidagi hikoya (rivoya)dan iborat bo'ladi.

Tasvirdan maqsad borliqning manzarasini yaratish hisoblanadi. Bunda narsa yoki voqeanning xossalari, jihatlari, xususiyatlari birma-bir aytib o'tiladi (sanaladi). Endi, bunday xossa, jihat, xususiyat narsa, voqeaga muayyan vaqtida xos bo'ladi. Ana shu belgilarning bir vaqtdaligi tasvirning o'ziga xos jihatni bo'lib hisoblanadi.

**Mulohazadan** maqsad - tadqiq, bilim va mavjudlikni umumlashtirish, voqealar sababini aniqlash, xulosalarni asoslash, ayrim qoida-mezonlar chinligi yoki yolg'onligini isbotlashdan iborat.

Qadimgi dunyo so'z ustalari hikoya (rivoya) harakatni, tasvir narsani, mulohaza narsalar va harakatlar munosabatini bayon etadi deb ta'lim berganlar.

Hikoya (rivoya) yuzaga kelishi xotira bilan, tasvir tashqi hissiyot bilan, mulohaza esa aql va hissiyot bilan bog'liqdir. To'g'ri, bayonning bu uch usuli va shu bilan bog'liq uch turi mumtoz ta'llimot nuqtai nazaridan ham, bugungi kun nazariyasiga ko'ra ham maqbuldir. Lekin jonli nutqni va shunga muvofiq matnni kuzatar ekanmiz, shunga ishonch hosil qilamizki, nutqning tuzilish shakllari favqulodda turli-tumanadir. An'anaviy uch tarkib (hikoya, tasvir, mulohaza) muharrir badiiy asar ustida ishalyotganda etarlicha asos bo'ladi. Lekin muharrirlarning katta qismi, axboriy materiallar, ma'lumotnomalar, ilmiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop asarlar, o'quv adabiyotlar matnlari bilan to'qnash keladilar, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ulkan va tarmoqlangan tizimida ishlaydilar. Ular amaliyotiga tadbiqan

yuqoridagi uchlik tizimi aniqlik kiritish va to‘ldirishni talab etadi. Mazkur tizimda

**Xabar** o‘z o‘mini egallashi lozim deb hisoblaymiz. Uning tuzilishi jurnalistlar ahliga yaxshi ma’lum bo‘lgan tarhda - nima? qaerda? qachon? savoliga javob tarzida qat’iylashib qolgan.

**Axboriy tasvir** narsa va voqeanning faqat tashqi belgilarini aks ettiribgina qolmaydi, balki tashqi sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo‘lmagan xossalarni ham ifodalaydi.

Avvaldan ma’lum bo‘lgan mulohazalardan yangi mulohaza chiqarish **hukm** deb ataladi. Tashviqiy hamda targ‘ibiy maqoialarni murakkablashtirmaydigan bu mulohaza - hukm xabarlar uchun xos jihat sanaladi.

XX asrning ilmiy-texnika asri, XXI asrning axborot asri deb e’tirof etilishi bejiz emas. O‘tgan asr ilmiy-texnikaviy inqilobning guvohi bo‘lgan, ijtimoiy muammolarga nisbatan qiziqishning haddan ziyod ortib ketganligi, axborot ayriboshlashning o‘ta jadallahganligi, jamoatchilikning ko‘rilmagan darajada faollashuvi - bular barchasi bizning zamonamiz-asrimizga xosdir. Bu o‘z navbatida nutqimizning yangi termin, ongimizni yangi tushunchalar bilan boyitdi. Demak, har bir muharrir mazkur terminlar va tushunchalarni matnga kiritishi, aniqligi hamda maqsadga muvofiqligini baholay olishi lozim.

Muharrir o‘z faoliyati vaqtida turli qo‘lyozmalar (matnlar)ni tahrir qilishiga to‘g‘ri keladi. Ana shunda uning qo‘liga tushgan matnlar ichida maxsus ko‘rib chiqishni talab etadi-ganlari ham uchraydi. Bunday vaqtda ulardagi ba’zi tushunchalarni mazmun, mohiyatini ochib berishga ehtiyoj sezildi, shunda ular izohlanadi va tushuntiriladi.

Ommaviy axborot vositalari uchun xos bo‘lgan turli matnlar tizimi, tahminan quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Matnning tasviriy turlari – hikoya xabar; tasvir; axboriy tasvir.

Matnning mantiqiylangan turlari: **mulohaza, xukm; tushuntirish, izohlash.**

Bularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:  
1) *hikoya, tasvir, mulohaza, tushuntirish;* 2) *xabar, axboriy tasvir, xukm, izohlash.*

Birinchi guruh matnlarning tuzilishi ishontiruvchi, tashviq qiluvchi, xissiy (emotsional) ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan materiallar uchun xosdir. Matn tuzishdagi kompozitsion usul badiiy asar uchun qabul qilingan usulga yaqin. Bu usulda an'anaviylik sezilib turadi, shunga ko'ra uning tahliliga "o'quvchi ta'biga ko'ra" yondashiladi.

Ikkinci guruhdagilar – matbuotning axboriy, rasmiy hujjatlar, ilmiy nashrlar singari materiallari matni sanaladi. Ular uchun bir tahlitdalik (qolip) kompozitsiyalar xos, qo'shimcha kompozitsiyaviy unsurlar bo'lmaydi. Voqealarning ham hikoyaning, ham xabarning predmeti hisoblanadi, lekin habarda na voqealarning zamondagi harakati, na ularning rivoji kuzatilmaydi. Tasvir va axboriy tasvir narsa va voqealarning belgilarini qayd etadi, lekin an'anaviy-kompozitsion tuzilishi usullari erkin tanlanadigan tasvirdan farqli o'laroq axboriy-tavsifiy materiallar matni belgilangan shakl bo'yicha tuziladi.

Hukm matn turi sifatida mulohazadan farq qiladi, tasviriyligi, tuzilishidagi imkoniyatlari bo'yicha mulohazadan ko'ra boyroq, mantiqiy ifodaga qat'iy asoslanadi. Shunga ko'ra isbot talab qilmaydigan **kategoriya** sanaladi.

**Ta'rif** tushuncha mazmunini umumlashgan shaklda ochib beradi. Tushuncha mazmunini tushuntirish esa narsa va voqealarning haqida ochiq-oydin tasavvur beradi (uning shaklini tanlash erkin).

Shu o‘rinda aytish o‘rinli, yuqorida keltirilgan fikrlar barchasi bayonning monolog shakliga taalluqli. Monolog esa birinchi shaxs tilidan nutqni tuzish shakli sifatida jurnalistika asarlari uchun xosdir. U publitsistik nutqning asosiy qismini tashkil etadi. Ikkii mulohazaning almanishuvi (dialog) va undan ortiq mulohazaning almashinuvi (polilog) xos bo‘lgan nutq shakli ommaviy axborot matnlarida asosiy monologik matnga qo‘sishimcha hisoblanadi. Intervyu va suhbat bundan istisno. Monolog tarzidagi matnda dialog va polilog ta’sirchanlikni oshirish vositasi vazifasini bajaradi. Monolog va dialog shaklidagi nutqning birgalikdagi ifodasi publitsistika asari tahriri uchun dolzarb masaladir.

Turli xil matnlarning mantiqiy va sintaktik tuzilishi, qismlarning joylashishi ham doimo muharrirning diqqat markazida turishi lozim. **Hikoya** va tasvir mantiqiy tuzilishi bir xil. Matnni tashkil etuvchilar (hikoya tugunlari va tasvir unsurlari) teng ahamiyatga molik. Ularning bir-biriga aloqadorligi insho tarzida ekanliklaridadir.

Hikoyaning sintaktik konstruktsiyasi uchun o‘tgan zamon fe’l shakli xosdir. Ayni mana shu fe’l shakli «harakatni qo‘zg‘altiruvchi»lik ma’no ifodasini ancha aniq namoyon etadi va u yetishadigan chegarani belgilab beradi. Harakat tugallanib, o‘rnini boshqa harakatga bo‘shatib beradi. Fe’llar o‘timli turlarining muvofiqlashuv tarzi ana shunday bo‘lib, hikoyada voqealar tadrijiyligini ayon qiladi. O‘tgan zamon o‘timli fe’llarining bu vazifasi V.V. Vinogradov tomonidan quyidagicha ta’riflanadi. Aytish mumkinki, «... u syujetni turli yo‘nalishlarda yoki to‘g‘ri yo‘nalishda jildirib, yechimga, yakuniy marraga etkazadi»<sup>10</sup>.

Tasvir uchun fe’llarning o‘timsiz shakli xosdir. Ular

---

<sup>10</sup>Vinogradov V.V. Sovremenniy russkiy yazik. –Moskva, 1980.-563-b.

o‘tgan va hozirgi zamonda bo‘ladi, faktlar statistikasini qayd etadi hamda «to‘xtab qolgan vaqt» samarasiga erishish imkonini beradi. Grammatika fanida hozirgi zamon fe’lining funktsiyalaridan biri «hozirgi tasvir» deb atalishi tasodif emas. U harakatni ataydi, lekin o‘zi harakatdan mahrum. Faqat hozirgi zamon fe’llari shakli almashgandagina hozirgi zamon fe’li harakat ifodalash xossasiga ega bo‘ladi. Tasviriy matnlarda kesimning boshqa shaklloari qo‘llanadi - bu vazifani turli fe’l shakllari bajarishi mumkin. Bular ma’no jihatidan hozirgi tasviriy vaqtga yaqin turadi va faqat harakatni ataydi. Na tadrijiylikni, na ular davomiyligini belgilaydi. Ba’zan tasvirda fe’l shakllarni umuman uchratmaymiz. Biroq, tasviriy matn faqat atov gaplardan iborat bo‘lishligi kamdan kam uchraydi. Quyida ikki matnni qiyoslaymiz

### Londondan Toshkentga

*«Birinchi sinov uchishini amalga oshirgan samolyot Londondan kelib qo‘ndi», - Toshkent xalqaro aeroportida kecha shunday e’lon yangradi.*

Endi bu aeroport aerobuslar doimiy qo‘nadigan makon bo‘lib qoldi. Aeroport hayotida yangi muhim davr boshlandi. Keyingi yildan jahoning barcha nuqg‘talariga shu aeroportdan turli rusimdagи aerobuslar uchadi.

### Marhabo, aerobus!

*Kecha Toshkent aeroportiga bir vaqtning o‘zida 350 yo‘lovchini yuklari bilantashiy oladigan aerobus qo‘ndi. Fyuzelyajining diametri metro lahimining ko‘ndalang kesimidan uzunlik qiladi. Intereri shinam va qulayligi bilan kishini lol qiladi. Salonlarida qulay o‘rindiqlar, o‘tish oraliqlar keng, yakka tartibda shamollatiladigan moslamalar mavjud.*

Birinchimatin-hikoya. Bayonni bo‘lishli fe’l shakllarining zanjirini shakllantiradi: kelib qo‘ndi, e’lon yangradi, makon

**bo‘lib qoldi, davr boshlandi, uchadi.** Ikkinci matn - tasvir. Uning maqsadi havo kemasini tasvirlash - u qandayligini aytish. Aerobusning ustun jihatlarini sanash bilan muallif uning afzalliklarini ko‘rsatishda bo‘lishsiz fe’l shakllaridan foydalanadi: tashiy oladi, uzunlik qiladi, lol qiladi.

Ayni shu voqeani uchinchi bir shaklda ham bayon etish mumkin:

### *Toshkent aerobusni qabul qiladi*

*Patsimon bulutli bahor osmonida havo kemasining shamoili paydo bo‘ladi. U aeroport ustida bir aylanib, so‘ng pastlashadi. G`ildiraklari beton qoplamaiga tegar-tegmas yugirgilab ma’lum masofani o’tgach aerovokzal binosi tomon buriladi.*

*Uchuvchilar bo‘lmasidan faqat ekipaj a’zolari chiqib keladi. Aeroport xodimlari ularni alvon gullar bilan kutib oladi. Kema komandiri birinchi toifali uchuvchi To‘lqin Zokirov sinov uchishi bajarilganini ma’lum qiladi.*

*Kechadan boshlab keng fyuzelyajli aerobus doimiyga makon topdi. Foydalanish sinovidan so‘ng u O‘zbekiston havo yo‘llari yo‘nalishlariga chiqadi.*

Mazkur uchinchi matn - misolni aralash tur matn deyish mumkin. Hozirgi zamon gazetalarida «sof» ko‘rinishdagi tasvir va hikoya kamdan kam uchraydi.

Nutqda hayotdagi mavjud munosabatlarni makon va zamonda turli-tuman shaklda, chambarchas bog‘liq tarzda aks ettirgan holda hikoya va tasvir uyg‘unlashib ketadi.

Hikoya, bir qarashda, go‘yo bayon qilishning eng

sodda usuli ko‘rinadi. Aftidan, qadim-qadimdan davom etib kelayotgan xalq ijodi - hodisalar xususidagi hikoya (rivoya) ekanligi tasodif emas. Xalq dostonlari, ertaklar, cho‘pchaklar - bular barchasi hikoya tarzida. Inson bolasi o‘zining ilk nutqini (bog‘langan nutqni) hikoya tarzida tuzadi.

Tasvirning nisbatan murakkabligiga sabab nima? Tasviriy matnni o‘qir ekanmiz, matn bo‘ylab tadrijiy harakatlanib, bir unsurdan ikkinchi unsurga o‘tamiz. Ana shu tasvir ob’ekti bo‘ylab bir unsurdan ikkinchisiga o‘tish natijasida, biz u haqda yaxlit tasavvurga ega bo‘lishimiz lozim, u muayyan bir butunlik sifatida gavdalanadi. Tasvirning o‘ziga xos tuzilishi (konstruktsiya)ga ega ekanligi ham mana shunda.

Hikoya matnnini tuzar ekanmiz, uning har bir bo‘g‘inini alohida-alohida tasavvur etamiz, ular orasidagi bog‘liqlik tavsifini aniqlab, shu bo‘g‘inlar almashinuvini ta’kid etamiz, xolos.

Tasviriy matn tuzishda esa biz narsa, voqeanning ahamiyatli jihatlarini izlaymiz, bu jihatlar ulardagi asosiy bo‘lganlarni namoyon etadi. O‘quvchi tasavvurida yaxlit manzarani gavdalantirish uchun uning sezgisiga qo‘srimcha ta’sirlarni yuzaga keltiramiz. Tabiiyki, matn ustida ishlash jarayonida bularni hisobga olish, shubhasiz, muhim ahamiyatga molikdir.

Axboriy materiallarning mantiqiy va sintaktik tuzilishi o‘quvchi uchun voqeа va asos (fakt) mazmuni va yangiligini aniqlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu o‘quvchiga yana matndan aniq va hayotiy bilim olishiga ko‘maklashadi. Matnning mantiqiy va sintaktik qurilishi bo‘yicha amaliyotda shakllangan qolip (stereotip) tuzilishlar ham qo‘l keladi. Shakl va konstruktiv usullarning odatiy lashganlari materialni turli asoslar bilan to‘ldirishga e’tiborni qaratish uchun ko‘maklashadi.

**Xabar** nutqiy kompozitsion shakl sifatida faktlarni qayd etadi yoki uni albatta amalga oshadigan tarzda taqdim etadi. Xabarda hikoya va tasvirdagi singari makon va zamonga aloqadorlik, mulohaza singari mazmunning rivojlanish dinamikasi aks etmoydi. Uning mantiqiy tuzilishi umumiy va xususiyning nisbatini aks ettiradi. Xabarning eng qisqa ko‘rinishi birgina yoyiq jumla, lekin unda ko‘p ma’lumot jamlanadi. Shunga ko‘ra xabarning sintaktik tuzilishi odatda murakkablashgan bo‘ladi. Agar xabar matni tarkibida bir necha jumla bo‘lsa, ular alohida-alohida, xat boshidan boshlanadi. Lekin birinchi ibora hamisha etakchi, xabarning mazmuniy markazi hisoblanadi, qolganlari unga tobe sanaladi, ammo teng huquqli hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi bog‘liqlikka tayanch so‘zlar vositasida, ko‘pincha ularni takrorlab erishiladi.

**Axboriy tasvir** ilmiy, ma’lumotnomma, o‘quv adabiyotlarida o‘z ob‘ektiga xos belgilarni ifodalaydi. Istalgan ma’lumotnomma yoki darslikka e’tibor berilsa, buning yaqqol guvohi bo‘linadi. Biror temir yo‘l tasvirlanadigan bo‘lsa, avvalo, uning uzunligi, o‘tgan joylar, ko‘priklar, ko‘tarmalar, iqtisodiy ahamiyati va b.lar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Aholi istiqomat qiladigan manzil, masalan, shahar tasvirlanayotgan bo‘lsa, albatta, uning geografik joylashuvi, tarixi, aholisining miqdori, me’moriy obidalari va h.lar tilga olinadi. Qayd etilgan unsurlarning tadrijiyligi va mantiqan asoslanganligi aniq belgilangan va uni buzish mumkin emas. Bunday kompozitsion bog‘lanish tarhi o‘quvchiga matndagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishni, shuningdek, ma’lumotlarni turdosh manbaalardagilari bilan qiyoslashni osonlashtiradi, eslab qolish uchun qulaylik tug‘diradi. Axboriy tasvirdan maqsad adabiy, ham jurnalistik asarlarda o‘quvchi uchun yangi bilim, foydali ma’lumot etkazishdan iborat.

**Mulohaza** o‘z maqsadi va tuzilishiga ko‘ra eng murakkab bayon. Jurnalist hamisha ham voqealar hikoyasi yoki ular tasviri bilan cheklanib qola olmaydi. Muayyan daqiqalarda u ko‘rgan yoki his etganlariga munosabat bildirish, ko‘p hollarda voqeaga bo‘lgan qiziqishdangina guvohlik beradi, hatto bu qiziqishni o‘quvchiga yetkazib, u o‘zining vazifasini to‘liq bajargan - hodisalararo bog‘liqlikni aniqlagan, ularni umumlashtirgan, xulosa chiqargan bo‘lmaydi.

Mulohaza mantiqiy va sintaktik o‘ziga xosligi muallif ijod laboratoriyasiga xos oddiy bo‘lmagan fikrlash tarziga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Lahzalarning mantiqan qat’iy ketma-ketligi va ular orasidagi mantiqiy bog‘liqlikning (bu bog‘liqlik tobelik tavsifiga ega) mantiqiy aniqligi shunga bog‘liq bo‘ladi.

Mulohazalarning mantiqiy tizimi «lahzalar zanjiridir, ular barchasi birgina narsa yoki muammoga taalluqli bo‘lib, ular birin-ketin shunday joylashgan bo‘ladiki, toki keyingisi oldingisidan kelib chiqadi yoki ortidan boradi, natijada qo‘yilgan savolga javob olinadi»<sup>11</sup>.

Mantiqiy, mazmuniy bog‘liqlikning o‘ziga xos jihatlari mulohazaning sintaktik tuzilishida ham namoyon bo‘ladi.

Agar tasvir va hikoya uchun kesim shaklini tanlashda sintaktik paralellik xos bo‘lsa (bu jumlalar qurilishida ko‘rinadi), «mulohazali nutq» asosiy birligi - nasriy satr zanjir xalqalari singari bog‘lanadi<sup>12</sup>. Demak, mulohazaning sintaktik qurilishi harkat, rivojlanishni, fikrlar zanjirini aks ettiradi. Muharrir matn tahlili va tahririda buni doimo yodda tutib, mulohaza material tahririga qo‘l urishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, hikoya va tasvir singari mulohazaning ham

<sup>11</sup>Asmus V.F. Logika. - Moskva, 1987. -147-b.

<sup>12</sup>Qarang: Solganik G.Sintakticheskaya stilistika (slojnoe sintakticheskoe tseloe). - Moskva, 2-nashri, 1991. 7-8-b.

«sof» ko‘rinishidagisi matbuotda kamdan kam uchraydi.

Publitsistikada u o‘quvchi uchun ancha qiyin bo‘lgan mantiqiy konstruktsiyalarni idrok etishni yengillashtiruvchi matnning boshqa turlaridan parchalarni o‘z ichiga olgan holda murakkablashgan ko‘rinishda bo‘ladi.

Tilshunoslarning fikricha tahririyat nomidan yozilgan gazeta maqolalarida mulohaza tarzidagi bayon usuliga ko‘ra ot turkumiga oid so‘zlar nisbatan ko‘p uchraydi. Buni bunday maqolalarning vazifasi tushuncha mazmunini ochib berish, voqealar mohiyatini tushuntirish, zinhor hodisalar hikoyasi va tasviri emas ekanligi bilan izohlash mumkin.

Mulohaza bilan bayonning tasviriy usullari, ya’ni hikoya va tasvirdan farqini his etish uchun o‘z tuzilishiga ko‘ra an’anaviy bo‘lgan adabiy asar matniga murojaat etamiz.

*“Osmon tiniq, qalin qor bilan qoplangan dalalar ustida yulduzlarning oltin g‘o‘zalari yorqin chaqnaydi. Har vaqtdagidan ko‘rkamroq, tiniqroq ko‘ringan to‘lin oy samoning bir nuqtasida qotgan kabi ... uning nurlarida qishning poyonsiz oq ko‘rpasi mayda oltin uchqunlatib, hammayoqni chuqur jimjitlik bilan o‘rab yotadi. Yalang‘och daraxtlar mayda yulduzchalar bilan yongan qora ajib chiroyli ko‘lkalar tashlaydi. Oydinli qish kechasi shunday go‘zal, shunday ulug‘vorki, hatto xizmatkorlarning xarob kulbasi ham devorlariga kimningdir tomonidan yopilib, yig‘ishtirilmay qolgan tappilar ham allaqanday bejirim manzara yasaydi”* (“Qutluq qon”, 114-bet).

*“Quyosh botgan, lekin uning olov daryosi turli ranglar bilan tovlanib, cheksiz bir parda kabi usqlarda mavjlanar edi. Bog‘chalarni bir-biridan ayirgan devorlar ko‘rinmas, ishkomlar, mevazorlar, ekin dalalari tutash yashil manzara yasaydi. Har yoqdan ko‘tarilgan tutunlar, yupqa ko‘k bulut kabi havoda sekin-asta eriydi..”.* (“Qutluq qon”, 316-bet).

*«...saroyning to‘rida boshqalarga qaraganda ko‘rkamroq bir xujra, anavi xujralarga kiyiz to‘shalgan holda bu xujrada qip-qizil gilam, ularda bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, bunda ipak va adres ko‘rpalar, narigilarda qorachiroq sasiganda, bu xujrada sham yonadir. O‘zga xujralarda engil tabiatli serchaqchaq kishilar bo‘lganida, bu xujraning egasi ham boshqacha yaratilishda: og‘ir tabiatli, ulug‘ gavdali, ko‘rkam va oq yuzli, kelishgan, qora ko‘zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabza urgan bir yigit!... Qandaydir bir hayol ichida o‘tirgan bu yigit Toshkentning mashxur ayonlaridan bo‘lgan Yusufbek xojining o‘g‘li - Otabek»* (“O‘tgan kunlar”).

Matbuot axboriy materiallari murakkab tafakkur mulohazalarini yetkazish uchun mo‘ljallanmagan. Ular natijani qayd etadi - borliq haqida yangi tushuncha beradi. **Mantiqiy xulosa** (umozaklyuchenie) bunday nashrlarda to‘la shaklda deyarli uchramaydi, ularni ilmiy xabarlarda ko‘rish mumkin.

Mulohazardan farqli o'laroq **ta'rif** va tushuntirish narsalar yoki narsalar sinfining e'tiborli belgilari haqidagi lahzalarni qayd etadi. Ayrim tadqiqotchilar, ta'rif juda oddiy (tuzilishi nuqtai nazaridan), ancha barqaror va mantiqan qat'iylashgan nutq<sup>13</sup>. Tushuntirishga ta'rifning bir turi sifatida qaraladi, u muloqotga erishish uchun murakkablashtirilgan tuzilma hisoblanadi.

Har qanday ta'rif ikki qismdan iborat bo'ladi, u o'z ichiga aniqlanuvchi va aniqlovchini oladi:

*Uslubiyat (aniqlanuvchi) - tilshunoslikning bo'limi, bunda adabiy til (aniqlovchi) doirasida til birliklarining qo'llanishi tadqiq etiladi.*

*Vijdon (aniqlanuvchi) - boshqa kishilar, jamiyat, insoniyat oldidagi o'z xatti-harakati uchun axloqiy mas'uliyatni shaxsning emotsiyonal his etishi va sub'ektiv idroklashi (aniqlovchi).*

*Demokratiya (aniqlanuvchi)- boshqaruva shakli, siyosiy tizim. bunda oliv hokimiyat xalqqa tegishli bo'ladi (aniqlovchi).*

Ko'rinadiki, mantiqiy ta'rif narsa yoki voqealari belgilarini bir-bir sanashga asoslanadi va shunga ko'ra uning tasvir bilan o'xshashligi ko'rinadi. Lekin ta'xrifdan maqsad tasvirdagidan jiddiy farqlanadi. Mantiqiy ta'rifda sanab o'tish uchun tanlangan belgilarni umumiylilik haqidagi tasavvur taqazo etadi, bunda xususiy takrorlanmas belgilar nazarda tutilmaydi.

Umumiy belgilar bevosa kuzatuv natijasida topilgan va ifodalangan bo'lmaydi, balki tadqiqot va ummumblashtirish natijasida yuzaga chiqadi. Garchi belgilarning sanalgan

---

<sup>13</sup>Qarang: Odintsov V.V. Stilistika teksta. -Moskva, 1980. - 381 -b.

ta'riflari o'rtasidagi sintaktik aloqa o'z turiga ko'ra bayon hisoblansa-da, bu shunchaki erkin sanash emas, balki qat'iy mantiqiy shaklni qanoatlantiruvchi sanashdir. Ta'rif o'z qat'iy shakliga ko'ra axboriy va ma'lumotnomma matnning zaruriy unsuri hisoblpanadi. Jurnalistika asarlariga ta'rif, odatda, tushuntirish shaklida kiradi.

Tahrir nazariyasida yaqin-yaqingacha tushuncha ta'rifi va tushuntiruviga mulohazaning ikki turi sifatida qaralgan. Biroq, maqsadning aniqligi, tuzilmaviy va ma'noviy yaxlitlik, shaklning o'ziga xosligi ta'rif va tushuntirishga bayonning ikki mustaqil usuli sifatida qarashga asos bo'ladi. Bu muharrirning matn shakli xususida ishlashi uchun muhim jihatdir. Bundan tashqarii jurnalist tushuntirish usulini muntazam kuzatib borish kerakligini unutmasligi zarur.

«Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug'ati» (Z.T.Tohirov va b.) dan misol keltiramiz.

*Suggestiya - insonda muayyan holatni yoki  
biror xatti-harakatni amalga oshirishga rag'batni  
yuzaga keltirish maqsadida unga verbal va  
noverbal emotsiional ta'sir o'tkazishning turli usuli.*

Mualliflar mazkur matnni umuman tushunarli deb hisoblagan bo'lishlari mumkin. Lekin mazkur parchadagi ayrim terminlarning qo'llanish doirasi cheklangan: **suggestiya, verbal, emotsiional**. Bulardan **emotsional** so'zi adabiy tilda anchadan buyon mavjud, u deyarli barcha uchun tushunarli. Lekin *suggestiya* va *verbal* so'zlari ancha notanish, shuning uchun ularning qo'llanish sohasi ham juda cheklangan: psixologiya, tilshunoslik sohalariga oid. Shunga ko'ra tahrirda ularga tushuntirish berish maqsadida adabiy tildagi muqobilini

yoki ma'no ifodasini beruvchi «so‘z yoxud so‘z birikmasini «notanish» termin ketidan qavs ichida berish lozim.

## **TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

1. Asar kompozitsiyasi va bayon usulining uyg'unligi deganda nimani tushunasiz?
2. Bayon usuli va turi qanday ta'riflanadi?
3. Hikoya nima?
4. Tasvir nima?
5. Mulohaza nima?
6. Axboriy tasvir haqida nima bilasiz?
7. Matnning mantiqiylangan turlariga nimalar kiradi?
8. Hukm matn turi sanaladimi?
9. Bayonning monolog va dialog shaklini bilasizmi?
10. Hikoyaning sintaktik konstruktsiyasi qanday bo'ladi?
11. Tasvirning nisbatan murakkabligiga sanab nima?
12. Axboriy matnlarning mantiqiy va sintaktik tuzilishi nimaga yo'naltirilgan bo'ladi?
13. Xabar nutqiy - kompozitsion shakl sifatida nimalarni qayd etadi?
14. Axboriy tasvir qanday adabiyotlarga xos va nimalarni ifodalaydi?
15. Mulohazaning o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rinishi?
16. Ta'rif va tushuntirish nima?

## VI BOB

### MATN TAHRIRINING MANTIQIY ASOSLARI

- *Adabiy matndagi mantiqiy bog 'liqlik*
- *Mantiqiy tahlil*
- *Ayniyat qonuni*
- *Ziddiyatsizlik qonuni*
- *Uchinchisi istisno qonuni*
- *Etarli asos qonuni*

Mantiqiylik, ya'ni to'g'ri fikrlash sog'lom ong egasi bo'lmish har bir inson uchun xosdir. Bu qonuniyatni buzmay fikrlash uchun, albatta, mantiq kursida o'qigan bo'lish shart emas. Lekin mutaxassis - adabiy xodim, jurnalist, ayniqsa, muharrir uchun umume'tirof etilgan tarzda mantiqiylikka erishganlik, oddiy qilib aytganda, hali etarli emas. Uning uchun mantiq ilmini puxta bilish muhim ahamiyatga molik. Mantiq uning faoliyatida nihoyatda chuqur va takomillashgan, shu bilan birga puxta egallangan vosita bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday matnni, u xoh adabiy asar matni bo'ladimi, xoh ommaviy axborot vositalari matni bo'ladimi, uni malakali mutaxassis sifatida baholay olish uchun har bir jurnalist qobiliyatini maromiga etkazishi talab etiladi.

Har kim ham narsa, voqeа va hodisalarning o'ziga xos jihatlarini ilg'ab olavermaydi, ularni boshqa jihatlar orasidan ajratib, alohidalab ko'rsata olmaydi. Bundan tashqari, ularni toifalash, amaliy tajribadan mavhumlashtirgan holda murakkab fikrlashni bajarish ham barcha uchun birdek oson

kechmaydi. Lekin shunga qaramay buni o'rganish zaruratdir. Muharrir matndagi mantiqiy bog'liqlikning muhim ekanligini aniq idrok eta olishi, mantiqiy tahlil usullari va yo'sinlarini yaxshi egallagan bo'lishi kerak. Mantiqiy me'yorlar tuzilgalligini payqash uning uchun odatiy holga aylangan bo'lishi lozim. Biroq, shuni aytish joizki, rasmiy mantiq qonun va qoidalariga shunchaki rioya etishlik, hali hammasi emas. Adabiy matn - murakkab ijodiy mahsul. Undagi mantiqiy bog'liqlik gnoseologik tavsifga ega chuqur va jiddiy sabablarga asoslanadi. Fikr mantiqi va faktlar hamda hodisalar mantiqi muharrir tasavvurida chambarchas bog'liq holda mavjud bo'ladi, yaxlit bir butunlikni tashkil etadi.

Bundan tashqari bayon mantiqi rasmiy mantiqdan tubdan farq qiladi. Zero, bunda fikr bayoni qay yo'sindaligiga ahamiyat beriladi.

Mantiq ilmini bilish hamisha qalam ahlining majburiyati hisoblangan. Bunga qadimda ham alohida e'tibor qaratilgan. Alisher Navoiy Xondamirga tarixga oid asar yozishda tegishli ko'rsatmalar berar ekan, unga asarni shunday yozish kerakki, toki uni o'qigan kishi bir joyda o'qiganini aniqlashtirish uchun boshqa joydan javob izlamasin, deb ta'kidlaydi. Agar matn mantiqiy izchillikka ega bo'lsa, o'quvchi fikr oqimidagi bog'liqlik tufayli nima deyilmoqchi ekanligini fikriy zo'riqishlarsiz idrok eta boradi. Bu esa o'z navbatida matn tuzishning asosiy mezonlaridan bo'lib hisoblanadi.

Agar ijodchi bayon mantiqidan xabarsiz bo'lsa, uning fikrlari izchillikka ega bo'lmaydi, natijada o'quvchi chin bilan xatoni aniq farqlay ololmay qoladi.

Tilshunoslar ham bugungi kunda sintaktik bog'lanishlar (mantiqiy sintaksis)ni tahlil qilishda mantiq ilmi ochib bergen qonuniyatlarga tayanmoqdalar.

Keyingi paytda mantiq va sintaksis mezonlarining bir-biriga yaqinlashuvi tufayli matnni tahliliy baholashda, «mantiqiy-uslubiy xatolar» tushunchasi paydo bo‘ldi.

Pleonastik konstruktsiyalar, so‘zlarni aniq qo‘llash, termin yaratish va ularni qo‘llash bilan bog‘liq muammolar uslubiyatninggina emas, balki adabiy tahrir fanining ham muhim masalalaridan hisoblanadi. Matn tahlilining qay darajada puxtaligi, so‘zsiz, mazkur masalalar nechog‘li hal etilganligi bilan o‘lchanadi.

Bugunga kelib mazkur nazariy fan matnshunoslarni, umuman, matn bilan ishlovchilarni (ayniqsa, tilshunoslikda semik tahlil bilan shug‘ullanuvchilarni) e’tiborini o‘ziga jaib etgan.

Tahrir ilmida tahrirning mantiqiy asoslariga bag‘ishlangan ishlar o‘tgan asrning oltmishinchi yillardan paydo bo‘la boshladi. Avvalo, bunda faqat matndagi voqeа, hodisa va asar qahramoni dinamizmigagina e’tibor beriladi, shuningdek, mantiqiy fikrlash qonuniyati va mantiqan isbotlanganlik qoidalardan foydalnilganligi o‘rganiladi. Hozirda ham nazariy, ham amaliy fan sifatida tan olingen tahrir jarayonida «mantiqiy madaniyat» iborasi chuqur o‘rnashib qoldi. Mazkur iboraning ma’no ifodasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, shu narsa ayon bo‘ladiki, tahrir bilan shug‘ullanuvchi har bir ijodchi - muharrir mantiq qoidalari nazariyasini bilishi, ushbu fanga oid terminlar bilan tanish bo‘lishi, ongli idrok etish, o‘zida aniq maqsadga yo‘naltirilgan to‘g‘ri fikrlay olish ko‘nikma hamda malakasini hosil qilgan bo‘lishi matnga tahrir sohasining mutaxassisi tarzida qarashdek xislatga ega bo‘lishi, nihoyat, matnni mantiqiy tahlil qila olishi, mantiqiy izchillikka asoslangan bayon usullarini puxta bilishi talab etiladi.

Endilikda, har qanday asarning u xoh adabiy asar bo‘lsin, xoh publitsistik asar bo‘lsin kompozitsiyasi, bayoni, tili va uslubi, janriy xususiyatlari, sarlavhalari, jumla qurilishi - bular barchasi tilshunoslik, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tashqari, mantiq nuqtai nazaridan ham tahlil etilishiga katta e’tibor qaratilishi muhim amaliy qimmatga ega bo‘lmoqda.

Jurnalistika ta’limi sohasida matnning mantiqiy tahliliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, muharrirlar turli adabiy asarlarni tahrir qilishda duch kelinayotgan qiyinchiliklarni hal etish uchun javob izlab, mantiq ilmiga murojaat qilmoqdalar. Tadqiqotchi mutaxassislar esa muharrirning tahriridan chiqqan (e’lon qilingan) asarlar matni ustida tadqiqotlar olib borishda, muharrir ishini tahlil etishda mantiqiylik nuqtai nazariga asoslanmoqdalar.

Adabiyot ayrim turlarini tahrir qilishdagi mantiqiy mezonlar har doim ham birdek emas. Masalan, adabiy ijodning badiiy o‘ziga xosligi qaysidir darajada mantiqqa qarama-qarshi qo‘yilish hollari ham yo‘q emas. Ayniqsa, bu borada muharrir va muallifning qarashlari hamisha ham bir-biriga mos kelavermaydi. Muharrir badiiy ijod namunasini baholaganda, ko‘pincha, fikrlar uyg‘unligi nuqtai nazaridan qarashga majbur bo‘ladi. Chunki, u (matn) mantiq talablariga muvofiqmi yoki yo‘qmi ekanligiga ishonch hosil qilish shuni taqozo etadi. Jurnalistika asari uchun esa mantiqiy qurilish aniqligi birinchi darajali ahamiyatga molikdir.

Matnni mantiqiy tahlil qilish ham nashr jarayonidagi boshqa bosqichlarda bo‘lgani kabi o‘ziga xos yo‘sinlariga ega.

Mantiqiy tahlil adabiy asar ustida ishlashning barcha bosqichlarida zarurdir. Muallif asar yozish vaqtida, muharrir qo‘lyozmani tahrir qilish jarayonida, taqrizchi esa taqriz yozish vaqtida albatta matnga mantiqiylik nuqtai nazaridan

qarashi lozim. Mantiqiylik asosida, ya’ni mantiq qoidalariga rioya etgan holda, tuzilgan matn, odatda, oson tushuniladi. U o’z shakliga ko’ra ham yaqqol ayon bo‘ladi. Mabodo, matnda mantiqiy bog‘liqlik, izchillik buzilgan bo‘lsa, uning shakli ham aniq bo‘lmaydi, u xususda muayyan fikr bildirish qiyin bo‘ladi. Shakl va mazmun mutanosibligi haqida aytmasa ham bo‘ladi.

Bunday vaziyatda, oddiygina qilib, fikrlar g‘aliz, asar shakli noaniq deyish kifoya qilmaydi. Muharrirdan aniq va asosli baho kutiladi.

Har qanday tahlil singari matnning mantiqiy tahlilida ham, u qismlarga ajratiladi va qismlararo bog‘liqlik tahlil etiladi. Bundan tashqarii, matn mazmuniy birliklariaro bog‘liqlik hamda matn tarkibiga kirmagan unsurlar bog‘liqligi ham, albatta, tahlil etiladi. Mazkur tahlil ikki bosqichga ega. Birinchisi, fikrlar mantiqi (fikrlararo bog‘liqlik baholanadi), ikkinchisi, nomlar bog‘liqligi (muayyan fikr ichidagi tushunchalararo bog‘liqlik).

Matnning asosiy mazmuniy bo‘g‘inlarini belgilash uchun, matn bilan birinchi tanishuvda, qismlar bir-biri bilan qanday bog‘langanligiga, ya’ni ular blovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yoki tinish belgilari bilan bog‘langanligi yoki ajratilganligiga asosiy e’tiborni qaratish foydadan xoli bo‘lmaydi. Bog‘lovchilar (zero, shunga ko’ra, demak, aytish mumkinki, ammo, biroq va b.) ni, shuningdek, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llamaslikning o‘ziyoq fikrlash mantiqsizligini bildiradi.

«Xalq so‘zi» gazetasida (2009 yil, 29 sentyabr), uning birinchi betida berilgan «Shinam, ko‘rkam va obod...»

sarlavhali materialda shunday jumla bor:

*«Prezidentimizning «Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori izchil amalga oshirilishi, aytish mumkinki, bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytirdi».*

Mazkur jumlanı shartli tarzda ikki mazmuniy qismga ajratish mumkin:

birinchisi, ...qarorning izchil amalga oshirilishi, ikkinchisi ... imkoniyatlar yanada kengaydi. Har ikki mazmuniy qism aytish mumkinki bog'lovchi vazifasidagi so'z birikmasi yordamida bir-biri bilan bog'langan. Ammo u mantiqan to'g'ri emas, aslida mazkur kiritma konstruktsiyadan holi jumla tuzilishi maqsadga muvofiq edi. Ya'ni, **«... qarori amalga oshilishi, bu boradagi imkoniyatlarni yanada kengaytirdi»**. Bunday shaklga keltirilganda ikki mazmuniy qismdan anglashilgan ma'no aniqlik, ishonarlilik va dalillanganlik ifodasiga ega bo'ladi. Aytish mumkinki kiritma konstruktsiya ikki mazmuniy birlikni bir-biriga bog'lasa-da, lekin aniqlik, ishonarlilik va dalillanganlikka putur etkazadi. U mantiqan to'liq ishonch bilan aytish mumkin bo'lмаган holatlarda qo'llanadi. Bu o'rinda yana bir narsani ta'kidlash joizki, bog'lovchilarining turini yaxshi farqlamaslik ham mantiqiy g'alizlikka sabab bo'ladi. Masalan, biriktiruvchi bog'lovchilar, zidlov bog'lovchilar, ayiruvchi bog'lovchilardan to'g'ri foydalanmaslik, bitta jumla tarkibida bir xil bog'lovchidan takror foydalanish va hokazo.

Endi quyidagi misolga e'tibor beraylik.

*... Ayni paytda kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlarimiz*

*egallayotgan eng zamonaviy bilim va ko ‘nikmalarni amalda joriy etishi uchun ularni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish masalasiga printsipial ahamiyat berilishi va bu vazifa dasturda o ‘zining munosib o ‘rnini topishi darkor («Inson va qonun», 2009 yil 15 dekabr. 1-bet).*

Bitta jumla tarkibida to‘rt o‘rinda va bog‘lovchisi qo‘llangan. Birinchi va to‘rtinchi o‘rinda, va bog‘lovchisi o‘rnida **vergul**, ikkinchi va bog‘lovchisi o‘rnida **hamda** bog‘lovchisi qo‘llansa mantiqqa hech qanday putur etmaydi. Bunday qaytariqqa yo‘l qo‘yish fikrni chuvalashtirib yuboradi, o‘quvchini zeriktiradi.

Mulohaza yuritganda, imkon darajasida uni soddalashtirish, qisqa jumlalar bayon qilishga erishish malakasini egalash muharrir uchun ayniqsa muhimdir. Shunda har bir mazmuniy birlik o‘ziga xos mantiqiy nuqtaga aylanadi, ular orasidagi bog‘liqlikni aniqlash osonlashadi, butun qism ixcham va lo‘nda holga keladi.

Muharrir matnning boshidan to oxirigacha, uning ayrim qismi ichidagi, garchi bu qismlar bir-biridan ancha narida joylashgan bo‘lsa-da, mazmuniy bo‘g‘inlararo muvosiflik, uyg‘unlikni qiyoslash malakasiga ega bo‘lishi, tushib qolgan mazmuniy bo‘g‘inni tiklay olishi zarur. Fikrni bayon qilishda matnning individual talqin etish ehtimoli yo‘q emas. Shunga ko‘ra, muallifning o‘z nuqtai nazari, o‘z fikrlash tarzini o‘zlashtirish oson bo‘lmaydi. Chetga chiqilgan o‘rinlarni mazkur jarayonda to‘g‘rilash anchagina oson kechadi.

Quyida, ancha murakkab bo‘lgan matnga e’tiboni qaratamiz.

## Muallif matni:

*«Boburnoma». Buyuk davlat arbobi, shavkatli sarkarda, boburiylar sulolasining asoschisi, nosir va iste'dodli shoir Zahiriddin Muhammad Boburning qomusiy ko'lami, tarixiy-ilmiy va badiiy-voqeiy asari. Amir Temur va temuriy hukmronlarga bag'ishlangan «Zafarnoma», «Humoyunnoma», «Akbarnoma» kabilarga taqlidan hamda mohiyatiga ko'ra, muallifning boshidan kechirmishlarini, tarixiy aniqlik bilan yilma-yil va tartibli qayd etilishidan shartli "Boburnoma" nomi bilan jahonda shuxrat tutgan.*

Bizning e'tiborimizni, fikr nima haqda ekanligi o'ziga tortishi lozim, so'ng fikr qanday bayon etilishiga e'tibor qaratiladi.

Muallif «Boburnoma» haqida ma'lumot bermoqchi. Fikrni soddalashtirgan tarzda matnni mazmuniy qismlarga ajratsak, quyidagilarga ega bo'lamiz.

- muallif: "Boburnoma" haqida ma'lumot bermoqchi;
- muallif: «Boburnoma» muallifi kim ekanligini ko'rsatmoqchi;
- muallif: «Boburnoma» qanday yozilganliginita' kidlaydi;
- asar boshqa qanday asarlarga taqlidan yozilganini ko'rsatadi;
- asar qaysi nom bilan shuhrat qozongani aytildi.

Endi birinchi fikrni mantiqan mulohaza etaylik. «Boburnoma» nima? Matndagi birinchi jumla shuni aniqlashga bag'ishlangan. Unda asosiy fikrdan chetga chiqilgani yaqqol sezilib turadi. «Boburnoma» nima ekanligini aytishdan oldin

uning muallifiga ta’rif beriladi, vaholanki, bu mantiqan noto‘g‘ri, agar fikr Bobur kimligi xususida bo‘lganida edi, unda e’tirozga hojat qolmasdi. Demak, birinchi jumla «Boburnoma», ya’ni asar haqidagi fikrni ifoda etishi kerak. Ikkinchini jumla, asarning turi, yozilish shakli, mazmun-mundarijasi, bayon uslubi haqida ma’lumot berishi lozim. Ana shunda bu har ikki jumlaning mantiqan to‘g‘ri deyish mumkin bo‘ladi. Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, fikr to‘g‘ri shakllantirilmagan, matn tuzatishga muhtoj.

Albatta, avvalo, material qaysi tur nashr uchun mo‘ljallanganligiga e’tibor beriladi. Lekin, bundan qat’iy nazar jumlalar uzun, fikr ancha chalkash bayon etilgan, shunga ko‘ra e’lon qilishdan avval, u tahrirdan o’tkazilishi kerak bo‘ladi.

Biz quyida entsiklopedik nashr uchun mos tahrir talqinini taklif etamiz:

*«Boburnoma» -adabiy-tarixiy, ilmiy asar.  
Boburning bu qomusiy asari turkiy adabiy an’ana  
(«Temur tuzuklari», «Zafarnoma» va b.) asosida,  
shu bilan birga o‘ziga xos tarzda yozilgan. Unda  
muallifning o‘z boshidan kechirmishlari, ko‘rgan  
va eshitganlari yirma-yil tadrijiy suratda bayon  
etilgan.*

Bunda birinchi jumla, qomusiy nashr talabiga ko‘ra asarning qisqa ta’rifidan iborat bo‘ladi. Boburnomaning muallifi haqidagi ma’lumot tushirib qoldiriladi. U haqdagi ma’lumot Bobur haqidagi maqoladan olinadi, shunga ko‘ra **Bobur** nomi kursiy bilan beriladi (bunda – *ning* qaratqich kelishik qo‘srimchasi kursivga olinmaydi). Mantiqan mual-

lifning shaxsi xususidagi ma'lumotlar Boburga bag'ishlangan maqoladan olinishini anglatadi. Keyingi jumlada esa muallifning ancha yoyiq, bir oz chalkash fikri yig'iq, aniq va lo'nda jumlada beriladi.

To'rtinchimulohazanianiqlashtirishda «Humoyunnom», «Akbarnoma» (asar nomlari) tushirib qoldirilgan, aniqrog'i, qisqartirilgan. Chunki, ular muallif matniga mantiqiylik nuqtai nazaridan o'rinsiz kiritilgan. Sababi, «Boburnoma» bu asardan avval yozilgan. Shunga ko'ra uni «Humoyunnom», «Akbarnoma»ga taqlidan yozilgan deyish mantiqsizlik sanaladi. Aslida, aniqlik kiritish maqsadida aytish mumkinki, keyingi ikkala asar «Boburnoma»ga o'xshatib yozilgan.

Yana bir misolga e'tiborni qaratamiz:

*Xususan, bu boradagi Buxoro viloyatida amalga oshirilgan ishlar va kamchiliklar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ko'rsatma va tavsiyalar berildi («Inson va qonun», 2009 yil 15 dekabr).*

Mazkur parchada bir fikr ichidagi ikki tushuncha qorishib ketganligi yaqqol sezilib turibdi. *Ishlar va kamchiliklar... ularni bartaraf etishga ko'rsatma va tavsiyalar berildi*. Demak, ishlar va kamchiliklar bartaraf etilishi kepak.

*Ishlar, kamchiliklar qay birini bartaraf etish lozim?!*

Mantiqiy fikrlash ham boshqa har qanday xatti-harakat yoxud jarayonda bo'lgani kabi o'z qonuniyatlariga ega. Agar shunday qonuniyatlar bo'lmaganida edi, insonlar birlarining fikrlarini anglashlari amri mahol bo'lur edi.

Mumtoz mantiq ilmida to'g'ri fikrlashning to'rtta asosiy qonuni ilgari surilgan va muayyan shaklga keltirilgan.

Mazkur qonunlarga amal qilsak, fikrda aniqlik, ziddiyatsizlik, tadrijiylik va o‘ziga xoslikka erishamiz.

«Bu qonunlar inson tafakkuri xususiyatlarini - fikrning aniqligi va o‘zaro bog‘liqligi, ishonchli va ziddiyatlardan xoli bo‘lishi zarurligini aks ettiradi»<sup>14</sup>. Fikrni bayon etishda uning talqini ya’ni ma’noviy tuzilishi, aytish mumkinki, cheksiz chegarasiz. To‘g‘ri fikrlash qonunlari esa muayyan qat‘iylikda fikrning aniq-ravshan chiqishini belgilab beradi. Matnda o‘z ifodasini topayotgan ma’lumot (xabar)ning mantiqiy sog‘lomligi, uning ishonarliligi, aniqligi va qaramaqarshi (ziddiyatli) emasligi bilan belgilanadi. Adabiy va / yoki jurnalistik asarda bayon etilayotgan fikrning ta’sirlilik samarasiga dalillarning, isbotlanganlikning ishonarliligidagi ko‘ra erishish mumkin.

Agar fikrni ifodalovchi jumla tuzilishida mantiqiylikdan chetga chiqilgan, ya’ni mantiqiy fikrlash qonunlariga amal qilinmagan bo‘lsa, bunday holatda muharrirning aralashuvi so‘zsiz zaruratga aylanadi. Muharrir esa mantiqiy fikrlashning asosiy qonunlari nimani nazarda tutishligini bilishdan tashqarii u mantiqiy xatolarni yuzaga kelish omillarini ham tasavvur eta bilishi, ularning matnga qanday qilib kirib qolishligini, mantiqiy xatoning nutqiy aloqaning samaraliligiga ta’sirini payqay olishi, shuningdek asar shu qismini adabiy material nuqtai nazaridan keng mushohada etishi lozim.

Agar muharrir shunday ko‘nikma va malakaga ega bo‘lmasa, matndagi mantiqiy xatolik to‘g‘rilanishi emas, aksincha, yangi shaklda yuzaga kelishi tabiiydir.

Quyidagi misol bunga yorqin dalil bo‘ladi.

---

<sup>14</sup>Toshaliev I. Adabiy tahrirning mantiqiy asoslari. - T.: Universitet, 1999.  
- 29 b.

«Termin», «terminologiya» deganda ko ‘pincha maxsus leksikaga oid barcha so ‘zlar tushuniladi, terminlar, professionalizmlar, professional argotizmlar o ‘rtasidagi farq ajratilmaydi. Terminlarni o ‘rganishda, avvalo, terminni oddiy so ‘zdan (termin biror tushuncha yoki predmetga qo ‘yilgan, emotsiyal ma ’noga ega bo ‘lmagan maxsus so ‘z), kasb - hunar so ‘z (professionalizm)lardan va professional argotizmlardan farqlay olish zarur

Terminlarning o ‘zi ham ishlab chiqarish, sanoat, ilmiy-ijtimoiy sohalarga bo ‘linadi. Terminlarni qo ‘llash chegaralari bo ‘lganligi uchun ham terminologik lug ‘atlarda so ‘zlar 5 mingdan 20 mingtagachadan bo ‘ladi.

O‘quv adabiyoti («Maxsus leksika», 2008 yil), aniqrog‘i o‘quv qo ‘llanmadan olingan parchada mantiq buzilganini payqash qiyin emas. Parchada ifodalangan fikrni aniqlash uchun uni soddalashtirib, mantiqiy qismlarga ajratamiz:

- «Termin», «terminologiya» deganda maxsus leksika-ga oid barcha so ‘zlar tushuniladi;
- terminlar, professionalizmlar, professional argotizmlar o ‘rtasidagi farq ajratilmaydi;
- terminni oddiy so ‘zdan ..., kasb-hunar so ‘zlaridan va professional argotizmlardan farqlay olish zarur;
- terminlar ishlab chiqarish, sanoat, ilmiy-ijtimoiy sohalarga bo ‘linadi;
- terminlarni qo ‘llash chegarali..., terminologik lug ‘atlarda so ‘zlar 5 mingdan 20 mingtagachadan bo ‘ladi.

Birinchi mantiqiy butunlikka ega qismda terminologiya

so'zi noto'g'ri qo'llangan, chunki terminologiya deganda so'zlar tushunilmaydi. Bunda soha - terminshunoslik tushuniladi.

Ikkinchi mantiqiy butunlikka ega qism bilan uchinchi qismda ziddiyat mavjud: «...professional argotizmlar o'rtasi-dagi farq ajratilmaydi» bilan «professional argotizmlardan farqlay olish zarur» mantiqan bir-biriga zid.

To'rtinchi mantiqiy butunlikka ega qismda «terminlar sohalarga bo'linadi» deyilgan, bu mantiqan xato. Terminlar ... sohalarga oid yoki tegishli bo'ladi. Sohalarga bo'linmaydi!

Beshinchi mantiqiy butunlikka ega qismdagi fikr mantiqsizligi «...so'zlar 5 mingdan 20 mingtagachadan bo'ladi». Mazkur konstruktsiyada «so'zlar» o'rniда «ular», «20 mingtagachadan» emas, balki «20 mingtagacha» bo'lishi mantiqan to'g'ri bo'ladi. Xullas, yuqoridagi tahlildan ko'rinaradiki, fikrlar chalkash, matn muallif(lar)i, mantiq ilmi qoidalariga e'tiborsizlik qilganlar.

To'g'ri fikrlashning asosiy qonunlarini «mantiq arifmetikasi» debatashasossizemas. Zero, har qanday asarning, ta'bir joiz bo'lsa, ipidan ignasigacha anna shu qonuniyatga bo'ysundirilgan bo'lishi shart. Bu qonunlar bir yoqlama, muayyan chegara tarzida emas, ular umumxususiyatni, bu qonunlarga faqat so'z - matnlargina emas, balki adabiy asarning tarkibiy unsurlari, so'z - matn mazmuniy tuzilishida ishtirok etuvchi barcha vositalar, sarlavha majmuasining barcha unsurlari, ruknlar, tasvir materiallar, chizmalar, jadvallar, izohlar ham bo'ysunadi. Shundaylikka erishilsagina asar, tom ma'nodagi, mantiq jihatdan mukammal asar hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlashning birinchi qonuni ayniyat qonunidir<sup>15</sup>. Ma'lumki, bu qonunga ko'ra muayyan xulosada

<sup>15</sup>Qarang: Toshaliev I. Adabiy tahrirning mantiQiy assolari. -T:

keltirilayotgan har bir fikr takror bayon etilayotganda ayni bir xil va barqaror mazmunga ega bo'lishi lozim.

Fikrlashning to'g'ri bo'lishi uchun muayyan mulohaza mobaynidagi lahza-o'y bir xilligiga amal qilish zarur.

Mulohazamiz nimaning xususida bo'layotgan bo'lsa, u shu mulohaza mobaynida ixtiyorsiz suratda o'zgarmasligi lozim, xususan, tushuncha almashtirilmaligi va qorishib ketmasligi kerak. Bu fikrlash aniqligining omili hisoblanadi. Mabodo, mantiqiy fikrlashning mazkur birinchi qonuni buziladigan bo'lsa, unda mulohaza yuritilishi mobaynida tushunchalar almashinib qolishi yuz beradi, terminlar ani?sizligiga sabab bo'ladi, mulohaza tum-taroq, cho'zilib ketgan, chalkash va mujmal bo'lib qoladi.

Agar matn tuzishda mantiqiylikning birinchi qonuniga amalga qilinmagan bo'lsa, muharrirning matn xусусида biron-bir darajada aralashuviga hojat qolmaydi. Chunki undan muallifning fikri va uslubini deyarli saqlab qolishni talab etish mantiqsizdir. Vaholanki, matnni qayta ishlash yoki tuzatish jarayonida muallif fikri va uslubining muqobilini izlash mantiqiylikning ayni mana shu birinchi - ayniyat qonuniga asoslanadi.

Ayniyat qonuning ataylab buzilishi yoki tushunchani bila turib teskari ifodalash holati nisbatan siyrak uchraydi, lekin muharrir - jurnalist munozarachi - mualliflar ahyon-ahyonda foydalaniishi mumkin bo'lgan, qaltis usullardan xabardor bo'lishligi foydadan xoli emas.

Shunday usullardan biri matndagi bitta iborani yulib olib, munozara qo'zg'ab qo'yish va muammoni, asosiy fikrni chetlab o'tish, matn yaxlitligiga putur etkazishdir.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, bunday holat ahyon-ahyonda matbuot sohasida, radioeshittirish va televidenie ko'rsatuvlarida uchrab turadi va deyarli barchasi qandaydir g'arazli maqsad bilan bog'liq bo'ladi. Bunda muallif muholifi bo'lgan tamonni noqulay vaziyatga solib qo'yishga intiladi yoki fikrni o'z foydasiga, o'zgartirishga urinadi.

Lekin jurnalistika asarlarda, shuningdek adabiy asarlarda ayniyat qonunidan chetga chiqishlik ko'p hollarda atayin qilingan bo'lmaydi, matnda mavzudan ixtiyorsiz uzoqlashish, fikr uyg'unligi e'tibordan chetda qolganligi, xullas, bayonda quntning etishmasligi sabab bo'ladi.

*- egachi-singil Zaynab va Xushro'ybibi obrazlarining talqini g'oyat ibratlidir. Biri mute, itoatkor, nuqul o'zgalar izni bilan ish ko'radi, ikkinchisi esa dadil, mustaqil, o'z baxti va taqdiri uchun faol kurash olib boradi. Yozuvchi bu ikki shaxs xarakteriga xos tug'ma xususiyatlarni sharhlash bilangina cheklanmaydi, bunday xislatlarning o'sha kimsalar, qolaversa o'zgalar taqdiriga ko'rsatgan ta'siri, fojeiy oqibatlarini ham ifoda etadi. O'zini boshqalar ixtiyoriga topshirib qo'ygan Zaynab shu ojizligi tufayli o'z baxtiga zomin bo'libgina qolmay, yana o'sha ojizligi tufayli o'zgalar qutqusi orqasida beixtiyor jinoyatga qo'l uradi. - Kumushga zahar beradi. Mustaqillik, dadillik - yaxshi xislat, biroq unga xudbinlik aralashsa baloi azimga aylanishi mumkin. Xushro'ybibi o'z baxti uchun kurashadi, shaxsiy manfaatlari yo'lida qhech narsadan qaytmaydi, birovlarining ko'zyoshlari hisobiga, o'zgalarning*

*baxtiqaroligi evaziga o‘z baxtini tiklaydi. Romandagi O‘zbekoyim obrazi ham nihoyatda tabiiy va go‘zal siymolardan biridir. Dumbul tabiat bu ayol o‘g‘li Otabek, qolaversa kelinlari - Kumush, Zaynab taqdirlarining chigallashib ketishi oxiri fojeaga yuz tutishida bosh sababchi ekani ayon. Biroq har qancha gnochkor bo‘lmisin, o‘ta andishali adib uni keskin qoralashga tili bormaydi.* (O‘zme, 1-jild, 23-24-b.)

Mazkur parchadan mualliflarning ham, muharrirning ham, tahririyatning ham qusti etishmaganligi yaqqol seziladi.

Aytish mumkinki, tahrir mantiqining barcha talablariga rioya qilinmagan.

1.) Ayniyat - bir xildalik qonuni buzilgan: *Zaynab va Xushro ‘ybibi obrazlarining talqini g‘oyat ibratlidir.* Ibratlimi? Demak, ijobjiy. Ammo keyingi jumlada fikr tamoman o‘zgaradi. *Biri (Zaynab) mute, itoatkor, nuqul o‘zgalar izni bilan ish ko‘radi, ..Xo‘s, Zaynab xarakteri ibratlimi?!*

*Ikkinchisi esa dadil, mustaqil, o‘z baxti va taqdiri uchun faol kurash olib boradi.*

Xushro‘ybibiga berilgan bu ta’rif yuqorida **ibratli** so‘zining ma’no ifodasini tasdiqlaydi. Zero, dadillik, mustaqillik, o‘z baxti va taqdiri uchun faol kurashish inson uchun ijobjiy fazilat sanaladi va bu ibrat olsa arziydigan hol.

Ammo sal quyiroqda, ayni shu abzatsning o‘zida shunday mulohazani o‘qiysiz: ... *bunday xislatlarning o‘sha kimsalar, qolaversa, o‘zgalar taqdiriga ko‘rsatgan ta’siri, fojeaviy oqibatlarini ham [Qodiriy] ifoda etadi.*

Zaynab va Xushro‘ybibi kimsalar bo‘lsa, o‘zgalar taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatib, fojeiy oqibatlarga olib kelsa, ular-dan ibrat olish mumkinmi?

2.) Qismlararo mantiqiy bog‘liqlik, uzviylik buzilgan. Qismdan qismga o‘tishda tadrijiylik yo‘qolgan. Qismlarning, ta‘bir joiz bo‘lsa, biri bog‘dan ikkinchisi tog‘dan.

Birinchi, ikkinchi jumlada egachi-singil - Zaynab va Xushro‘ybibi haqida so‘z boradi. Uchinchi jumlada muallif ifodasi beriladi. To‘rtinchi jumlada yana Zaynabga qaytiladi. Beshinchi jumlada ikkinchi jumladagi fikr (*dadil, mustaqil, o‘z baxti va taqdiri uchun faol kurash olib boradi*) rivojlantiriladi va bu xislatlar salbiyga aylanadi. Beshinchi jumladangina o‘quvchi ikkinchi jumladagi xislatlar qandayligini bilib oladi. Fikrlashda distantlikka yo‘l qo‘yiladi.

Oltinchi jumla yana Xushro‘ybibi haqida. Ettinchi, sakkizinchi jumlalar O‘zbekoyim xususida.

Ettinchi jumlada *O‘zbekoyim obrazi ham nihoyatda tabiiy va go‘zal siymolardan biri ekanligi* aytildi. Bu mantiqiy qismdan O‘zbekoyim to‘la ijobiy obraz ekanligi haqidagi fikr anglashiladi. Sakkizinchi jumladagi «*dumbul tabiat bu ayol*» konstruktsiyasi yuqoridagi ettinchi jumladagi «*tabiiy va go‘zal*» konstruktsiyasining ma’no ifodasiga mutlaqo ziddir.

3.) Shu o‘rinda mantiqiy fikrlashning *ziddiyatsizlik* qonuni buzilgan. Chunki ikki fikr bir-biriga zid keladi. Aslida, ularning birigina haq hisoblanadi, ya’ni ikkisidan biri.

4.) Bu mantiqiy fikrlashning *uchinchisi istisno* qonuniga mos emas. Bu qonunga ko‘ra bir narsa, hodisa haqidagi ikki qarama-qarshi fikrning biri to‘g‘ri, ikkinchisi noto‘g‘ri. Uchinchisi istisno qilinadi.

5.) Matnda (ajratib olingan parchada) mantiqiy fikrlashning to‘rtinchi qonuniga ham amal qilinmagan.

*O‘zbek oyim tabiiy va go‘zal deyiladi, ammo asoslanmaydi.*

*O'zbekoyim dumbul tabiat* deyiladi, ammo asoslanmaydi.  
Demak, *etarli asos* qonuni buziladi.

Endi ana shunday mantiqiy xatolarga yo'l qo'yilishining sabablariga to'xtalamiz.

Birinchidan, so'z (leksema)lar noto'g'ri qo'llangan: *ibrat, dadil, mustaqil, o'z baxti, taqdir, tabiiy, go'zal, siymo, dumbul*.

Ikkinchidan, mutlaqo xatboshi (abzats) inkor etilgan. Biz keltirgan parchadagi uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi jumlalar xat boshidan boshlanishi lozim edi. Ettinchi va sakkizinchi jumla bitta abzatsni tashkil etadi. Chunki ularda bir-biri bilan uzviy bog'liqlikdagi emas, balki, umumiy mavzuga aloqador ekanligi bayon etilmoqda. Bu fikrlar mustaqil fikrlar xisoblanadi. Biz bu o'rinda matn parchasining tili va uslubini tahlil etmadik. Bu haqda kitobning boshqa bobida mufassal so'z yuritamiz.

Agar bir xildalik (ayniyat) qonunining talablariga e'tiborsizlik qilib, ular hisobga olinmagan bo'lsa, matndan biron-bir ma'lumotni ilg'ab olish qiyin kechadi, muallifning fikrini bilish mushkillashadi.

Mantiqning ayniyat qonuniga qat'iy amal qilishlik-bayonning savol-javob shaklini tuzishda, ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, matn qurilishining eng zarur shartlaridandir. Mantiq nuqtai nazaridan biz savolni to'g'ri tuza bilamizmi, har doim ham unga javobni mantiqan to'g'ri bera olamizmi? Bu xususda chuqur mulohaza qilish faqat intervyyu oluvchi jurnalistninggina mas'uliyati emas, balki barcha qalam ahlining o'ylab ko'rishi talab etiladigan jixatdir.

Bugungi kunda, axborot olish, saralash qayta ishlash va etkazish jarayoni jadallahsgan sharoitda, ommaviy axborot vositalarida intervyyu janriga tez-tez murojaat etmoqdalar.

Auditoriyaga (o‘quvchiga) yaqinroq bo‘lishga intilib, uning diqqat-e’tiborini kuchaytirish maqsadida jurnalistlar ko‘p hollarda nutqning dialog (yoki suhbat) shaklidan foydalanmoqdalar. Albatta, intervyu o‘z xususiyatiga ko‘ra boshqa publitsistik janrlardan farqlanadi. Ma’lumot (ayniqsa, radio va televidenieda) manbadan auditoriyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri etib boradi. Bunda tezlik va tushunarlik omillarining biri ikkinchisi mantiqiyligi, izchilligi, aniq va lo‘ndaligini ta‘minlash muammosi paydo bo‘ladi. Tabiiyki, tezlik bo‘lganda mantiqiylikka putur etishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Jurnalist buni doimo yodida saqlashi lozim. Zero, savol berishdan maqsad muayyan ma’lumot olishdir. Savolning an‘anaviy shakli ikki qismdan iborat bo‘ladi. Birinchisi, so‘roqni bildiruvchi qo‘srimcha qo‘shilgan yoki so‘roq ohangida aytilgan so‘z, ikkinchisi savolning asosiy qismi. Odatda, ikkinchisi kutilayotgan javobning tarkibiga ham kiradi. Demak, savolning to‘g‘ri berilishi, javobning ham to‘g‘ri bo‘lishligining garovi sanaladi. Bunga esa mantiqning ayniyat qonuniga amal qilinmasdan erishish amri maholdir. Savol aniq, tushunarli, ayonlangan, ya’ni muayyan narsa, voqeа, hodisa xususida tayin bir tarzda bo‘lishi kerak.

«*Ta’lim sohasida nima deya olasiz?*», «*O‘qitish ishlarini qanday olib borish samaraliroq bo‘ladi?*», «*Nima qilsa, tadbirkorlik hayotimizga tezroq joriy bo‘ladi?*» singari savollarga aniq-tiniq javob berish mushkul. Chunki bunday shakldagi savollar javob turlichay bo‘lishiga olib keladi. Savolning asosiy qismini tuzish katta e’tiborni talab qiladi. Savolga mantiqan to‘g‘ri javob berish degani ayniyat qonuniga aniq rioya qilish demakdir.

Har bir asarning muallifi (jurnalist) o‘z amaliy faoliyati mobaynida savolni belgilash uchun talab etiladigan qandaydir

shartlar xususida mulohaza qilib ko‘rmasa, kamchilikka yo‘l qo‘yanligiga hamisha iqror bo‘lishiga to‘g‘ri kelganligini eslamay iloji yo‘q. Lekin savolni belgilash uchun talab etiladigan shartlar javobni to‘liq aniqlash uchun yetarli bo‘ladi degani emas. Savol berishda albatta javob beruvchining savolni jon qulog‘i bilan eshitishi, unga to‘liq javob berish ishtiyoqi balandligi, shu bilan birga adresatni fikrlashga majbur etishligi nazarda tutilishi lozim. Buning uchun, avvalo, korrespondent savol-javob mavzui bo‘yicha, katta tajribaga ega, yuqori malakali mutaxassisni tanlashi kerak.

Mantiqan qaralganda savol, odatda, javob olish uchun beriladi, ayni shunday bo‘lishi shart, aks holda u nima javob qilishga shama bo‘lib qoladi.

Quyidagicha savol bergen jurnalist qanday javob eshitishni kutgan ekan: «Mana siz, domla, jurnalistika fakul’tetida uzoq yillardan beri ishlab kelmoqdasiz, katta tajriba to‘plagansiz. Tabiiyki, bu vaqt mobaynida sizda talabalarga nisbatan muayyan munosabat tarzi yuzaga kelgan, shundaymi?» Mazkur savolning o‘zida uning javobi ham tayyorlangan. Suhbatdosh muloyimlik bilan savol beruvchining aytganlariga qo‘shilishi qoladi, holos, yohud mantiqning ayniyat qonunini buzgan holda javob qaytarishga majbur bo‘ladi. Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, savol beruvchi o‘zi uchun maqbul javobni ololmay qolishdan xavotir bo‘lganda, suhbatdosh o‘zi tuzgan rejadan chetga chiqib ketmasligi uchun shunday savol beradi.

Atamalar mantiqiy birlak sifatida, nutq hodisasi ekanligiga ko‘ra muayyan ob‘ekt, narsa, jarayonni ataydi, nomlaydi, mana shuni taqozo etuvchi qonuniyat talabi bilan ma’no aniqligi va xajman qisqalikka ega bo‘ladi. Agar mazkur talablarga to‘liq rioya etilmagan bo‘lsa, matnda so‘zlardan

o‘rinli foydalanilganligini muharrir tomonidan to‘laqonli baxolashning iloji bo‘lmaydi.

«*Kechaning sovug‘i, izg‘irin kuchaydi. Badan sovuqdan muz kesildi. Charmi toshday eski etik ichida oyoqlari jonsizlandi. Lekin u bir zum qo‘nmasdan tentirayverdi. Bir burda, sariq sovuq oy xira nur tumani sepadи. Suv shuvillab qandaydir sirli, vahimali ko‘rinish bilan oqadi. Uning qoramtil oynasida, qirg‘oqdagi yupqa muz parchalarida oyning oltin nuri yiltiraydi. Suv yoqalab o‘sган yalong‘och daraxtlarning butoq, navdalarida sovuq shamol shivillaydi. Yo‘lchi sanqib anhor yoqasida to‘xtadi.*» (“Qutliq qon”)

Badiiy asardan olingan bu misolda muallif oy va uning nuri haqida ma’lumot beradi: U bir o‘rinda (yuqorida) *Bir burda, sariq sovuq oy xira nur tumani sekishini ta’kidlasa*, boshqa o‘rinda (quyiroqda) .... *muz parchalarida oyning oltin nuri yiltiraydi*, deb yozadi. Ayni bir narsa xususidagi ikki xil fikrlash, matnning mantiqiy rejasiga putur etkazgan. Chunki *xira so‘zi bilan oltin nur birikmasi ma’no ifodasi bir-biriga zid kelib qolgan*. Mantiqning ayniyat qonuniga muvofiq yuqorida *xira so‘zi qo‘llanganda quyida ham bir xildalikni saqlash lozim edi*.

Qo‘llanilayotgan so‘zni aniq tanlash fikrni to‘g‘ri ifodalashning garovidir. Mabodo, muallif yoki muharrir ta’sirchanlikni oshirish maqsadida ongli ravishda ayniyat qonuning talablariga zid bormoqchi bo‘lsa, bunda u jumla tuzishda nihoyatda xushyor bo‘lishi, o‘zi yo‘l qo‘yayotgan chetga chiqishlikni o‘quvchi tabiiy hol deb qabul qilishiga

erishishi lozim. Bunday usuldan foydalanishda ma'nosi yaqin so'zlar - sinonimlar qo'l keladi. Matnda, ko'pincha bir-biriga aloqador so'zlardan sinonimlar tarzida foydalaniladi. Masalan, fe'llar - eshitmoq, tinglamoq; ot - o 'qituvchi, domla, ustoz; sifat - yaxshi, durust va ho kazo. Muayyan matn ichida bunday «chekinish» mantiqqa xilof sanalmaydi, demak ayniyat qouni buzilgan hisoblanmaydi. Biroq, muharrir muayyan matn ichida atamalarni «erkin» qo'llashlik chegarasini aniq tasavvur etishi lozim.

Jurnalistika asarining mantiqiylik belgisiga egaligi masalasining muhim jihat - mavhum ma'noga va xajmga ega atamalardan foydalanishning oldini olishdir. Jonli, ta'sirchan fikr hamisha o'ziga xos va shu bilan birga o'ziga mos shaklga ega bo'lishi kerak. U aniq, ravshan, hech qanday ikkilanishga yo'l qo'ymaydigan, ikki xil talqinga ega bo'lmasligan, ko'p so'zli va uzundan uzoq bo'lmasligi lozim.

Quyidagi matnga e'tibor beraylik.

*Biz O'zbekistonning har tomonlama ravnaq topishidan, mamlakatda demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarini chugurlashtirish, fuqarolarning turmush darajasi va mamlakatning xalqaro obro'-e 'tibori o'sishidan, tinch va barqaror hayot saqlanib turishidan, ayniqsa, anna shunday ijobiy o'zgarishlardan eng ko'p manfaatdor bo'lgan o'rta qatlama vakillari nomidan siyosiy maydonga chiqqanimizni, bir daqiqa bo'lsa-da, unutmaylik* («XXI asr», 2009 yil 8 oktyabr).

Matnda gap nima haqda ekanligini dabdurustdan ilg'ab olish qiyin. U uzundan-uzoq va ayrim-ayrim qismlar (uyushiq

bo‘laklar) mantiqan bir-biridan ajralgan, izchillik yo‘qolgan. Matnda aytilmoqchi bo‘lgan asosiy fikrni aniqlash uchun uni ayrim mantiqiy birliklarga ajratamiz. Avvalo, gapning ega va kesimini topamiz: Biz ega, unutmaylik kesim. Endi ega bilan kesim orasida joylashtirilgan bo‘laklarni aniqlaymiz:

- O‘zbekistonning har tomonlama ravnaq topishidan;*
- mamlakatda demokratlashtirish va liberal-lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishdan;*
- fuqarolarning turmush darajasi o‘sishidan;*
- *mamlakatni xalqaro obro‘- e’tibori o‘sishidan;*
- *tinch va barqaror hayot saqlanib turishidan;*
- *ijobiy o‘zgarishlardan eng ko‘p manfaatdor bo‘lgan;*
- *o‘rta qatlam vakillari nomidan;*
- *maydonga chiqqanlik;*
- *bir daqiqa bo‘lsa-da.*

Kesimga savol berilsa, fikr ancha oydinlashadi. *Nimani* (unutmaylik)? Javob – *siyosiy maydonga chiqqanligimizni*. Ayon bo‘ladiki, *Biz siyosiy maydonga chiqqanligimizni*. Lekin maydonga nima uchun chiqildi? Biz... *o‘rta qatlam vakillari nomidan siyosiy maydonga chiqqanimizni, bir daqiqa bo‘lsa-da unutmaylik*. Demak, asosiy fikr biz ajratgan mantiqiy qismlarning 7-8-9-larida ayon bo‘ladi. Lekin shundan keyin ham haqli savol tug‘iladi. *O‘rta qatlam* bor ekan, unda quyi qatlam, yuqori qatlamlar ham bormi, bularni kimlar tashkil etadi? Mantiqan bunday muammoli fikrga yo‘l qo‘ymaslik uchun atama, nom to‘g‘ri tanlanishi lozim.

Biz ajratgan 9 ta mantiqiy qismdan uchtasigina asosiy fikrni ayonlashtiradi qolgan olti banddag'i fikrlar faqat o'rta qatlarnimidan manfaatdor ekanligini anglatadi.

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi. 1-6-bandlardagi maqsadlar amalga oshishidan faqat o'rta qatlamlargina manfaatdormi, yana *eng ko'p?*

Tabiiyki, bunday mulohazalar noaniqligi tufayli muharirning aralashuvi amri mahol.

Afsuski, bunday murakkab shaklli fikrlash, havoyi, balandparvoz, umumiy va nazarda tutilganga yaqinroq ifodani beruvchi ma'noli so'zlarni qo'llash gazeta tilida jiddiy qusur hisoblanadi. Bu haqda ham nazariyotchi, ham amaliyotchi tilshunos, jurnalist mutaxassislar o'z fikrlarini bildirganlar. Ular ko'p so'zlilik, qolip (shtamp) lar matbuot matnlariga soxta ahamiyatlilik va nufuz baxsh etishini, amalda esa fikrning aniq va ravshan bo'lishligiga to'sqinlik qilishini allaqachon aytib o'tganlar. Yillar o'tib bu nutqiy hodisalar ijtimoiy-siyosiy maqom ola boshlaydi. Ayni bir so'z (*tadbir, muammo, ta'minlash*) bilan hayotdagi nihoyatda turli-tuman faktlarni ifodalay boshladilar.

*Yoshlar ma'naviyatini oshirish uchun chora-tadbirlar belgilab chiqildi. Islohotlarni amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga to'g'ri keladi. Aholi turmush farovonligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi ea h.* Aniq ma'no ifodasi mavhumlashgan ma'no ifodasi bilan almashtriladi (*masala, muammo; muhim, dolzarb*). Ustivorlik ma'no bo'yog'i (ottenkasi)ga ega so'z o'rniда universal ma'no bo'yog'iga ega (*katta, sezilarli*) so'zlar qo'llana boshladi. Aloqadorlik va o'zaro munosabat ma'no ifodasi o'z aniqligini yo'qotadi (*tegishti, ayrim*). Qolip (shtamp)lar nimasi bilan maqbul emas? Gap shundaki, qolip so'z, birikma yoki iboraga

o‘rganib qolinsa, mantiqiy fikrlashdan to‘xtaymiz. Qolip ibora misoli parda sifatida narsa, voqeа, hodisa asl tabiatini ko‘zimizdan to‘sib qo‘yadi, unga bo‘lgan munosabatimizning farqsizlanishiga olib keladi. Tayin narsa, voqeа va hodisa o‘rniga ularning qotib qolgan tasavvurini beradi. Berganda ham ancha noaniq va turg‘unlashgan tasavvurini. Lingvistik tenglamani qabul qilar ekanmiz uni jonli, til unsuri deb bilamiz, fikrning shunchaki nomini uning mazmun, mundarijasi sifatida qabul qilamiz. Shunday qilib, qoliplarni ongli tarzda kundalik hayotimizga singdirib yuborsak, ular shunchali ijodiylik, ta’sirchanlikni bo‘g‘a boshlaydi, yuzakichilikka olib keladi. Sobiq tuzum davridagi ongni siyosiy lashtirish tadrijiy suratda gazeta sahifalaridan tirik (jonli, ta’sirchan) tilni badarg‘a bo‘lishligi ayni shu qolip (shtamp)lar tufayli yuz bergandi.

1950-yillar oxirida K.I.Chukovskiy qoliplar bilan to‘yingan til haqida o‘z fikrini bayon etib, qoliplarni o‘ziga xos **jargonlar**, deb ta’riflagan edi. Uning fikricha kishilar, narsa va voqealarga tupurganlikni niqoblash maqsadida maxsus jargonlar yaratilgan, amalda mavjud bo‘lgan turmushdan bizni chalg‘itadi, jargonlar tub mohiyati bilan g‘ayriaxloqiyidir. Uning butunkuchini, uning butun sintaktik tuzilishini, haqiqatni ko‘zdan yashirishga a’lo darajada moslashgan tutun parda deyish mumkin. Ma’muriy- buyruqbozlik, qog‘ozbozlikka asoslangan turmush tarzi bilan bog‘liq barcha unsurlar singari u ham qonunchilikni nazar - pisand etmaslikka da’vat etilgan, muloyimlangan iboralar vijdonni qiynalishdan asraydi.

Hozirgi zamon jurnalisti jonli va aniq siyosiy nutq (til)ga ega bo‘lishi lozim. Yangi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy g‘oyalar tamsil- til ostidagi tilcha bilan so‘zlashni, siyqasi chiqqan so‘z-kleshilarni rad etadi. Chunki bunday siyosiy ikki yoqlama haqiqatlar o‘z hizmatini o‘tab, umrini yashab bo‘lgan.

To‘g‘ri, bu muammo lingvistika doirasiga kirmaydi, lekin mantiqning qat’iy va cho‘rtkesar qonunlari muharrirni «silliq», «hamishabon», bir qarashda tashvish orttirmaydigan ifodalarga aldanib qolishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Mantiqiyfikrlashning ikkinchi qonuni *nutqiyyiddiyatsizlik* qonunidir. Ayni bir vaqtida va ayni bir munosabatda bir narsa, voqeа, hodisa haqida aytilgan qarama- qarshi fikrning har ikkisi birdek to‘g‘ri bo‘lishi mumkin emas.

Bu qonun Arastu (Aristotel) zamonidan ma’lum bo‘lgan: bir-biriga zid xukm birdek chin bo‘lishi mumkin emas. Zidlikka yo‘l qo‘yilishiga fikrlashning tum-taroqligi, uzuq- yuluqligi, yetarlicha bilimga ega emaslik, nihoyat nutq egasining niyati va sub’yektiv jixati sabab bo‘lishi mumkin.

Nutqiy ziddiyatsizlik qonuni bilim va amaliyotning barcha sohalarida namoyon bo‘la oladi. Mazkur qonunni buzishlik odatda, matniy muloqotning barcha ko‘rinishida – o‘quvchilar auditoriyada keskin munosabatni – norozilikni uyg‘otadi. Bunday hol ustidan, ko‘pincha, mazah qilib kuladilar, turli mutoyibalar to‘qiydilar.

«Termin», «terminologiya» deganda ko‘pincha maxsus leksikaga oid so‘zlar tushuniladi, terminlar, professionalizmlar, professional argotizmlar o‘rtasidagi farq ajratilmaydi. Terminlarni o‘rganishda, avvalo, terminni oddiy so‘zdan (termin biror tushuncha yoki predmetga qo‘yilgan, emotsional ma’noga ega bo‘lmagan maxsus so‘z), kasb- hunar so‘z (professionalizm) lardan va professional argotizmlardan farqlay olish zarur (Maxsus leksika 8-9-bet).

Yuqoridagi parchaning birinchi jumlasidagi *farq ajratilmaydi* bilan ikkinchi jumla oxiridagi *farqlay olishga e’tibor berilsa*, kifoya. Ortiqcha izoh-mantiqiy tahvilga xojat yo‘q. Mantiqiy fikrlashning ikkinchi qonuniga xiloflik yaqqol seziladi.

Matnni o‘quvchi ikki ayni bir narsa, voqeа, hodisa haqidagi fikrlar, fikr bilan matndan tashqariidagi mavjud holat haqidagi o‘z tasavvuri o‘rtasidagi ziddiyatni ortiqcha qiyinchiliksiz payqaydi. Bitta jumladagi yoki ketma-ket kelgan jumlalardagi yondosh zid fikrni payqash qiyin emas.

Bir jumla ichidagi yoki tutash jumlalar doirasidagi zidlik kontakt zidlik deb ataladi va biz bunga yuqorida misol keltirib o‘tdik.

Ammo bir-biridan ancha nari-beridagi matnlarda uch-raydigan fikrlar zidligi, ko‘pincha, muharrir e’tiboridan chetda qoladi.

*Darhaqiqat, so‘nggi yillarda matbuotda Cho‘lpon hayoti va ijodi to‘g‘risida ilmiy maqolalar ko‘plab chop etildi, qator kitob va risolalar nashr qilindi. Ayniqla, olimlarimizdan O.Sharafiddinov, A.Aliev, Sh.Turdiev, N.Karimovlarning Cho‘lpon to‘g‘risidagi maqolalari atoqli adib ijodini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularning safiga XX asr 90-yillarining yarmiga kelib qator yosh tadqiqotchilar qo‘sildi. Bular - Z.Eshonova, D.Ko‘ronov, N.Yo‘ldoshev, S.Yo‘ldoshbekova va boshqalar. Ular Cho‘lpon ijodi bo‘yicha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Shu jarayonda ilmiy-ommabop maqolalar hamda ilmiy publitsistik nashrlar ham chop etildi.(Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi 58-59-bet).*

Mazkur matn parchasining birinchi jumlesi .... «kitob va risolalar nashr qilindi» tarzida tugaydi. Oxirgi jumla esa ..... «maqolalar hamda

*ilmiy publitsistik nashrlar ham chop etildi»* tarzida yakun topgan. Har ikki qismdagi nashr so‘ziga e’tibor berilsa birinchisida «chop» ma’no ifodasi, ikkinchisida «asar» ma’no ifodasi ayon bo‘ladi. Bir-biridan uzoqroq joylashgan ayni bir so‘zning zid kelib qolishini muharrirning payqashi ancha qiyin. Distant zidlikni payqash muharrirdan ancha yuqori malaka va ko‘nikma talab etadi.

*Bu ma’noda, ayniqsa, islom olamining zabardast allomalari-Imom Buxoriyning 1225 yillgi, Burhoniddin Marg‘inoniyning 910, Imom abu Mansur Moturudiyning 1130 yilligi, Abu Iso at Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud Zamashariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 675 yilligining nishonlanishi, ular asarlarining yuz minglab nusxalarda chop etilishi yurtimizda dinu diyonat qayta yuksalayotganining yorqin dalilidir («Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi», 151-152-bet).*

*Uning sarchashmasi Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriyning «Al- Jomi’ as-sahih» kitobi ekanligi, keyinroq Abu Mansur Moturidiyning puxta aqoid yo‘nalishining quadrati mo “tazila, botiniya va karmatiya qarashlariga barham bergani asl mambalar asosida yoritilgan («Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi», 174-bet).*

Ayni bir kitobda, bir-biridan 22 bet bilan ajralgan mazkur ikki parchada bir ism ikki xil berilgan: Moturudiy - Moturidiy.

Mantiqiy fikrlashning ikkinchi qonuni buzilgan bu matn parchalari bir-biridan ancha narida bo‘lganligi tufayli uni muharrir ham, musahhih ham, muallif ham ko‘zdan qochirgan.

Muharrirning ko‘z ilg‘amas ziddiyatlarni aniqlashi uchun shunchaki fikrlarni chog‘ishtirishi kifoya qilmaydi. Buning uchun qo‘srimcha idrok etish jarayoni talab etiladi.

Bunday *ko‘z ilg‘amas* ziddiyatlarni aniqlash uchun muharrir matnni takror-takror o‘qishi, xatoning mantiqiy asosini aniqlashi lozim. Ba’zi hollarda muharrir bunday «arzimasdek» tuyulgan ziddiyatli fikrlarga muallif (lar) maqomiga ishonib, e’tibor bermay o‘tishi ham kuzatiladi.

Lekin muallif kim bo‘lishidan qat’iy nazar, har qanday xato, garchi u arzimasdek tuyulsa-da, tuzatilishi shart. Aks holda, asarning qiymati va ahamiyatiga putur etishi aniq. Agar matn adabiy asarga taalluqli bo‘lsa, nashriyotning, matbuot materiali bo‘lsa, gazeta, jurnal tahririyatning nufuzi tushishiga sabab bo‘ladi.

*Munavvarqori Abdurashidxonov qisqa nutq so‘zlab, yig‘ilishni ochdi. U o‘z nutqida musulmonlar chorizm yarim asr qullikda yashaganini, ozodlik katta talofotlar evaziga qo‘lga kiritilganligini alohida ta’kidlaydi («Mo“tabar ziyo maskani», 24-bet).*

*Shu paytda askariy musiqa marshi chalindi. So‘ngra musulmon hurriyat shahidlari uchun Samiqori afandi tarafidan Kalomi Sharifdan, ularning xotirasiga fatvo, oyatlar o‘qiladi (Mo“tabar ziyo maskani, 25-bet).*

Yuqoridagi birinchi parchadagi ..... *musulmonlar chorizm yarim asr qullikda yashaganini*, konstruktsiyasi, ikkinchi parchadagi «*fatvo*» so‘zi muharrirdan chuqr mushohada talab qiladi. Bunday matnlar muntazam mantiqiy nazoratga muxtoj. Yarim asr -50 yil degani. Yuqoridagi jumla kitobda 1918 yil 12 may shanba kuni aytilgan nutqdan keltiriladi, go‘yo nutq egasi shuni ta’kidlagan.

Mazkur o‘rinda muharrir chorizm tomonidan Turkiston to‘liq bosib olingan sanadan qayd etilgan sanani ayirib, oddiy xisoblash bilan aniqlik kiritishi kerak edi.

Ikkinci parchadagi zidlikni aniqlash uchun Kalomi Sharifda fatvo bor- yo‘qligini aniqlash kifoya qilar edi.

Ana shunday holatlarda muharrir ziddiyatli fikrlarni aniqlash uchun matnni diqqat bilan tahlildan o‘tkazishi lozim. Ziddiyatsizlik qonunini bilish muharririga boshqalar matnnini baholash uchungina zarur emas. Mazkur qonun har bir muallifdan o‘z mulohazalari ziddiyatli bo‘lmasligini ham talab etadi. Shuni unutmaslik lozimki, tahlil mantiqiy ziddiyatga aslo yo‘l qo‘ymaydi.

Muharrir matnni diqqat bilan tahlili etishi lozim. Shundagina u mazmunan bir-biriga zid fikrlarni aniqlay oladi, ziddiyatning mohiyatini ochib, uni tuzatishga muvaffaq bo‘ladi. Muharrirlik tahririning o‘rinli ekaniga muallifni ishontiradi. Zero, har bir mantiqiy zidlikni to‘g‘rilash muallif va muharrir hamkorligida amalga oshirilishi ayni muddaodir.

Muallifga mulohaza zidligiga yo‘l qo‘ymaslik xususida tavsiya qilar ekan, avvalo, uning o‘zi bu qonunga qat’iy rioya qilishi hamda matn tahlili bilan shug‘ullanganda buni hamisha yodida tutishi shart.

Mantiqiy fikrlashning uchinchi qonuni *uchinchisi istisno* qonunidir. Ayni bir xil munosabatda ayni bir vaqtning

o‘zida ikki bir-biriga zid fikrning bittasi, albatta chin bo‘ladi. Uchinchisining bo‘lishi mumkin emas. Yunon faylasufi Aristotel mazkur qonunni quyidagicha ta’riflaydi: ikki bir-biriga zid fikr o‘rtalig‘ida biron-bir narsa bo‘lishi mumkin emas.

Mantiqiy fikrlashning mazkur uchinchi qonuni fikrning bog‘liqligini va ziddiyatsizligini ta’minlaydi. Chin mulohazani tanlash uchun asos bo‘ladi.

Qarama-qarshi fikrlarni aniq belgilash, ular ifodasining ravshanligi, matn qurilishining aniqligi mazkur qonunga amal qilinganligini ochiq-oydin ko‘rsatadi. Ushbu qonun bayonning mantiqiy aniqligini ta’minlaydi, fikrning tadrijiy tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Mantiqiy fikrlash uchinchi qonunini qo‘llashning, unga amal qilishning bosh sharti bo‘lib qiyoslanayotgan mulohaza chindan ham qarama-qarshi bo‘lishi, ya’ni ular o‘rtasi, oralig‘idagi, uchinchi tushuncha istisno bo‘lishi kerak. Ayni bir narsa xususidagi ikki fikr bir-birini istisno qilishi lozim.

Quyidagi matnga e’tibor beraylik.

*Mamlakatimiz hayotining turli sohalariga oid me’yoriy qonunlar, Bosh Qomusimiz asosida yaratildi va hayotga tadbiq etildi. Eng asosiysi, konstitutsiyaviy me’yorlar asosida qabul qilingan va joriy etilgan qonunlar inson va jamiyat manfaaatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.*

1. Mazkur parchada me’yoriy qonunlar tushunchasi munozarali:

2. Me’yoriy qonun: demak qandaydir me’yorni belgilovchi qonun;

3. Me'yorsiz qonun: hamon me'yoriy qonun bo'lsa, demak, me'yorsiz qonun ham bo'ladi;

4. Qonunning o'zi me'yor. Uni yana me'yoriy deyish mantiqsiz.

5. Ikkinci jumla: ... *konstituttsiyaviy me'yorlar asosida qabul qilingan va joriy etilgan qonundan* ...

Agar yuqoridagi jumlada me'yoriy qonunlar tushunchasi berilgan ekan, ikkinchi jumlada ham «... *konstituttsiyaviy me'yorlar asosida qabul qilingan... me'yoriy qonunlar* ...» bo'lishi kerak («Inson va qonun» 2009 yil 15 dekabr).

Mantiqiy fikrlashning to'rtinchi qonuni - *etarli asos qonunidir*. Har qanday chin fikr boshqa, chinligi isbotlangan fikr bilan asoslangan bo'lishi kerak. Mazkur qonunga rioya etish bilan mulohazanining асосланганлигига эришилади. Bildirilgan mulohazanining mantiqi fikr umumiyl metodologik talabga ko'ra asoslangan, deb hisoblaydi va buning bajarilishini ta'minlovchi bir qator qonunlarni nazarda tutadi (ikki yoqlama inkor, tavtologiya va boshqalar).

*Ekspressiv - uslubiy bo'yoq haqidagi fikrlar umuman tilshunoslikda juda ko'p bo'lganligi bilan birga ular bir-biridan nihoyatda farqli. Bir turkum tilshunoslar ekspressiv- uslubiy bo'yoqlar leksik birliklar- so'zlarning o'zi orqali ifodalanildi, ya'ni ekspreesiv- uslubiy bo'yoqli leksika, deb tushunsalar, ikkinchi bir guruxi, u leksik birlikning ma'lum semenasi orqali ifoda topadi, deb tushunadilar... Biz esa ikkinchi guruh tilshunoslar tomonida turishini, ya'ni ekspressiv- uslubiy bo'yoq ma'lum ma'no orqali ifoda topadi, degan fikrni quvvatlashni ma'qul ko'rdir. Taniqli tilshunos I.V.Arnold*

*o'zining xozirgi ingliz tili leksikologiyasiga bag'ishlangan darsligida leksik ma'no ma'lum til tizimida tushunchaning ayonlashishi bilan emotional va uslubiy bo'yoqning kuzatilishi ekanini aytib o'tgan edi. Yana bir qator tilshunoslar qatori tilshunos Sh.Rahmatullaev ham xuddi shu fikr tarafida turadi va ekspressiv- uslubiy bo'yoq ma'lum leksik ma'no orqali ayonlashadi deydi* («Pragmatik sema, 5-bet»).

Mazkur parchada mantiqiy fikrlashning ikki (ikkinchi va uchinchisi) qonuniga rioya etilganligi yaqqol ko'rindi. Avvalo, ziddiyatsizlik qonuni. Matnda ilmiy asar muallifi (Z.T.Tohirov) muayyan bir fikrni ilgari suradi, ya'ni *ekspressiv- uslubiy bo'yoq so'z ma'nosiga oid* deydi. Lekin bunday fikrni ilgari surishdan oldin bu xususda ikki xil qarash- mulohaza borligini aytadi. Birinchi mulohaza - ekspressiv - uslubiy bo'yoq so'zga oid, ikkinchi mulohaza - ma'noga oid. Demak, bu bir narsaning zidligi xususidagi ikki fikr biri ikkinchisiga zid. Ulardan biri chin, ikkinchisi yolg'on.

Muallif ulardan birinchi- ekspressiv-uslubiy bo'yoq, ma'noga oid deyilgan mulohazani tanlaydi va uni chin degan fikrni ilgari suradi. Mana shu o'rinda mantiqiy fikrlashning uchinchisi qonuni ishga tushadi. Unga ko'ra uchinchisi istisno. Mazkur fikr (da'vo)ni chin ekanligini ochib berish uchun etarli asos keltirish talab etiladi. Soha olimlaridan I.V.Arnol'd va Sh.Rahmatillaevlarning isbotlangan fikrlari muallif o'z fikrini tasdiqlashiga etarli asos bo'ladi, bu endi mantiqiy fikrlash to'rtinchi qonunining talabi, u haqda keyinroq so'z boradi.

Muqobilini keltirish - bayon qilishning ancha qizg'in tarziga xos usul. Fikr aniq shaklni talab etadi, usul esa- aniq

ifodani. Munozara, suhbat matnlari, dolzarb interv'yularda bu hol, ayniqsa, aniq namoyon bo'ldi.

**Savol:** *Mahmud aka, siz yaqin-yaqingacha «Surxon» guruhining yakkaxon qo 'shiqchisi sifatida faoliyat ko 'rsatgan edingiz.*

*Endi esa ijodingizni «Surxon»siz davom ettiryapsiz?*

**Javob:-** *Buning oddiygina sababi bor. Guruhimdag'i yigitlar o 'zlarini qo 'shiqchilik orqali sinab qo 'rishga mayl bildirdilar. Men bunga qarshilik qilmadim.*

*Yaqinda konsert dasturlarini ham taqdim etildi.*

*Ularni birinchi muvaffaqiyatlari bilan qutlashga bordim. Intilganga tole yor deyishadi. El uchun, yurt uchun yaxshi qo 'shiqlar ijod qilishlariga umid bog 'layman xolos. Ishonaman ular buning uddasidan chiqishadi. («Farzona», 2010 yil. 25 fevral'. 7-bet).*

Mazkur intervyudagi korrespondent savoli va respondent javobiga e'tibor berilsa, shu narsa ayon bo'ladiki, mantiqan ular ayri-ayri. Savol ..... «Surxon»siz davom ettiryotganlik xususida, Javob «Surxon» Mahmud akasiz faoliyat olib borayotgani haqida.

Agar interv'yu to'g'ridan to'g'ri efir yoki ekranga uzatilganda edi, unda jurnalist aralashuvি mumkin bo'lmassdi. Matbuot interv'yusida buni to'g'rinishning imkonи mavjud, ammo bundan foydalanilmagan.

Mantiqiy fikrlashning uchinchi qonuni matnni malakali mutaxassis sifatida baholashda muharrir uchun muhim

ahamiyatga ega bo‘lgan vosita xisoblanadi. Matnning bir talqinini rad etib, ikkinchi talqinini qabul qilish, ikkisidan birini tanlash vaqtida muharrir mazkur qonunga tayanadi.

Mantiqiy fikrlashning to‘rtinchi qonuni - *etarli asos* qonuni har qanday chin fikr yuqorida eslatib o‘tganimizdek, chin ekanligi isbotlangan boshqa fikrlar bilan asoslangan bo‘lishini talab etadi. Mazkur qonunga rioya etish bilan fikrning asoslanganligiga erishiladi. Bu esa to‘g‘ri fikrlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Mulohaza mantiqi fikrning asoslanganligini umumiyl metodologik talab, deb hisoblaydi va bir qator qonunlarni nazarda tutadi. Mazkur qonunlar *etarli asos* qonuning bajarilishini ta’minlaydi (bular-ikki yoqlama inkor, tavtologiya, simplifikatsiyalar, kon'yunksiyalar va boshqalar).

Har qanday mulohazada fikrlarimiz o‘zgarib ichki uyg‘unlikka ega, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. Bundan tashqari biri ikkinchisining tadrijiy davomi hamda biri ikkinchisini asoslashi kerak. Mulohazalarning chinligi asoslarining yetarlicha ekanligini o‘rganish maxsus fanlarning o‘rganish ob‘ektidir. Mantiqiy asoslanganlik har bir jurnalistika asarining zaruriy sifat ko‘rsatkichidir.

Faqat bilimning sayozligi va e’tiborsizlik bilan mulohaza yurtishgina bayonning isbotlanmaganligiga sabab bo‘lmaydi, balki fikrlashda qotib qolganlik (bir qolipga tushib qolganlik) ham bayon asoslanmagan bo‘lishiga olib keladi. Masalan, jurnalist odad bo‘lib qolgan, go‘yo ishonchlidek tuyulgan «ilgari- hozir» tarzidagi bayonga yopishib oladi.

Odatiy idroklash ko‘pincha ijodchi- yozuvchiga hodisanning mohiyatiga kirib borishga, yuz berayotgan hodisalar sababini ochib berishga xалиqit qiladi. To‘la-to‘kis yoritilganlik xissiyoti muharrir va/yoki jurnalist uchun hamisha xavotirlidir.

Lekin faktlarni zo'rlab, tig'izlab qandaydir tarzda joylashtirish, u har qancha «ishonchli» tuyulmasin, yanada xavfliroqdir. Materialni majburlashning noxush oqibati o'zini ko'rsatishni cho'zib o'tirmaydi, bu muqarrardir.

Biz mantiqli fikrlash qonunlari tasodifan buzilganligi holatiga kamdan kam duch kelamiz. Asosan bunday kam-chiliklarga tartibli fikrlay olmaslik tufayli yo'l qo'yilganligiga guvoh bo'lamiz.

*Mamlakatimizda mustiqillik yillarida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tibor qaratilib kelinmoqda.*

Ustuvor vazifa tarbiyami yoki masalami? Izohning xojati yo'q.

Har bir mantiqiy nuqson muharrir uchun ogohlikka undovchi omil bo'lib xizmat qilmog'i lozim, toki u matnda fikrning tobora oydinlashib borishini nazorat qilish uchun o'z diqqatini muntazam kuchaytira borsin. Ana shundagina jurnalistning istalgan janrdagi asarini risoladagidek, deb baholash adolatli bo'ladi.

Demak, har bir sohada bo'lgani singari tahrir sohasini, muharrirlik faoliyatini mantiqsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Me'yorida amalga oshirilgan har bir harakat, ifoda etilgan fikr, hatto birgina so'zni qo'llash ham mantiqsiz bo'lmaydi.

Ammo adabiy tahrir ishida turmushda ortirilgan, umumga hos mantiqiylit kamlik qiladi.

Umuman, mutaxassis jurnalist, xususan mutaxassis muharrir narsaning muhim jihatlarini aniqlay olish, ularni toifalash, murakkab tafakkur amallarini bajara olish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shunga ko'ra u tahrir mantiqi bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak. Shu ma'noda ushbu qo'llamma ijodchi muharrirlar uchun asqotadi degan umiddamiz.

## TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. *Bayon mantiqi nima?*
2. *Muharrirning mantiq ilmini bilishi shartmi?*
3. *Mumtoz mantiq ilmida to‘g‘ri fikrlashning nechta qonuni tilga olinadi?*
4. *Mantiq arifmetikasi nima?*
5. *Ayniyat qonuniga nega amal qilinadi?*
6. *Bayonning savol - javob shaklida ayniyat qonuning ahamiyati nimada?*
7. *Nutqiy ziddiyatsizlik qonuni haqida nimalar ni bilasiz?*
8. *Kontakt va distan t zidlik nima?*
9. *Muharrir zidliklarni aniqlashi uchun nimalar talab etiladi?*
10. *Mantiqiy fikrlashning uchinchi qonunini bilasizmi?*
11. *Har qanday chin fikr chinligi isbotlangan boshqa fikr bilan isbotlangan bo‘lishi kerakmi?*
12. *Mantiqiy fikrlashning uchinchi qonuni muharrir uchun qanday ahamiyatga ega?*
13. *Mantiqiy fikrlashning to‘rtinchisi qonuniga amal qilish bilan muharrir nimaga erishadi?*
14. *Har qanday mulohazada fikrlar nimaga ega bo‘lishi kerak?*
15. *Tahrir qilishda muharrir uchun umumga xos mantiqiylikdan taskqari yana nimalar kerak bo‘ladi.*

## VII BOB

### ASAR KOMPOZITSIYASI USTIDA ISHLASH

- *Adabiy asarning tuzilishi*
- *Adabiy asar tuzilishining tahlili*
- *Kompozitsion usullar tahlili*
- *OA materiallari tahririda muharrir mas'uliyati*
- *Badiiy - publisistik asar tuzilishining tahlili*

Asar qo'lyozmasini tahrir qilish nimadan boshlanadi? Savolga ayni bir xilda javob berish mushkil. Chunki javob turlicha va har biri o'zicha haq bo'lishi mumkin. Masalan, asarga ilova qilingan ichki va tashqi taqriz bilan tanishib chiqishdan; material mazmuni va maqsadi bilan tanishib chiqishdan; kimlarga mo'ljallanganligini (o'quvchilari doirasini) aniqlashdan; nihoyat muharrirning o'ziga xos usul bilan. Ayrim muharrirlar ishni, avvalo, qo'lyozmani sidirg'a o'qib, kuza tilgan imloviy, uslubiy xatolarni bir yo'la tuzatib ketishdan boshlaydi yoki ularni ta'kid etib, muallifga darhol tuzatishini taklif qiladi.

Ko'p yillik tajriba esa buning juda ham to'g'ri emasligini, muharrir o'z ishining ustasi emasligini ko'rsatadi. Chunki uning bu boradagi mashaqqatli mehnati behuda ketadi.

Qo'lyozma bilan chuqurroq tanishish natijasida uning tuzilishi (konstruktsiyasi)da jiddiy chetga chiqishlar, aniqsizliklar namoyon bo'lishi mumkin. Mazkur kamchiliklar tuzatilgandan so'ng, til va uslubga oid tuzatishlarni qaytadan bajarishga to'g'ri keladi.

Asar uslubining o'ziga xos jihatlari o'z-o'zidan yuzaga

chiqmaydi, shunga ko'ra unnnng adabiy shaklini baholashda muharrir unga tuzilishi, uslubini yaxlit, bir butunlikda qarashi lozim. Zero, matnning yaxlitligi asarning asosiy jihatlaridan biridir, shu tufayli muallif asarining tuzilishi (kompozitsiyasi) ustida muharrirning ishlashi ko'p jihatdan shunga bog'liq bo'ladi. Demak, qo'lyozmani tahrir qilishni uning tuzilishini baholashdan boshlash lozim.

G'arb adabiyotida asar tuzilishi kompozitsiya deb ataladi.

Agar matn tuzilishi (uning «архитектоники») takomiliga etmagan bo'lsa, uni albatta o'zgartirish kerak.

Adabiy asar tuzilishini takomiliga etkazish qo'lyozmani tahrir qilishning muhim va odatda, birinchi bosqichidir. Mazkur bosqichda muharrir qo'lyozmani diqqat bilan o'rganadi.

Matn ustida ishslashda o'qishning turli usulidan foydalanish mumkin. Birinchidan, asar bilan **tanishuv** o'qishi. Bunday o'qishda muharrir asar mazmunini tez ilg'ab olishi ya'ni mavzu va g'oyasini aniqlashi lozim. Bundan tashqari muallif uslubini, uning mahoratini va mavzuni qay darajada bilishi ni belgilash talab etiladi. Shu bilan birga **sidirg'a** o'qishdan ham foydalanish mumkin, mabodo, muharrir bunday o'qish usulini o'zlashtirib olgan bo'lsa. Bunday usulni o'zlashtirish oson kuchmaydi, buning uchun mahsus ishlab chiqilgan tizim asosida mashq qilish talab etiladi. Avvalo, odatiy, bolalikdan o'rganib qolingga sust o'qish aqidasidan voz kechish lozim. Yana shuni ta'kidlash joizki, sidirg'a o'qishlik malakasi muharrirda har qanday ishlangan tizimga asoslansa ham birdaniga hosil bo'lmaydi. Buning uchun yillar mobaynida erishildigan tajriba ham talab etiladi.

Sidirg'a o'qish malakasi qo'lyozma bilan ilk tanishuvdayoq uning mazmun mohiyatini ayrim so'z, termin va birik-

ma, iboralar orqali emas, balki satrlar, abzatslardan idrok etish imkonini beradi.

Natijada muharrir matnni to‘la - to‘kis, yaxlit tarzda baholashi mumkin bo‘ladi. Bu hol matnni tahrir qilishga kirish oldidan juda muhimdir.

Muharrir ishidagi keyingi bosqich qo‘lyozmani diqqat bilan chuqur o‘qishdan iboratdir. Bunda har bir so‘z, har bir jumla, barcha tinish belgilari, abzatsdan iborat matn qismi, bayonning tadrtjiyligi, obrazlar tizimi, qismlar, boblar, paragraflar mantiqiy mutanosibligi, tasviriy - ta’sirchan vositalardan foydalanilganlik va boshqalar mulohaza qilinadi.

Tabiiyki, har qanday asar muayyan reja asosida yuzaga keladi. Xatto, asar bayoni ham oldindan belgilangan bo‘ladi. Muharrir asarning mazmuni - mazmuniy rejasi bayoni rejasiga qanchalik mos ekanligini aniqlashi lozim.

Mantnni o‘qish jaroyonida muharrir uchragan ko‘zxato (imloviy, tinish belgi) larni tuzatib boradi. Uslubiy yoki matniy mulohazalarini, qaydlarini ular matnning qaysi qismiga taalluqli bo‘lsa, har birini alohida-alohida yozib qo‘yadi. Sahifalardagi qaydlarda so‘zlarni qo‘llashdagi xatoliklar, turli nutqiy g‘alizliklar va uslubiy xatolar aniq ko‘rsatiladi.

Mabodo, muayyan matn-parcha mantiqan boshqa qism, bob yoki paragrafga taalluqli bo‘lsa, shu matn qaysi joyga (betga) ko‘chirilishi qayd etiladi. Shuningdek qo‘yilishi kerak bo‘lgan o‘ringa qaysi joydan olib kelinishi yozib qo‘yiladi.

Mazkur ishlar bajarilgach muharrir o‘z kuzatishlari natijasini taqriz (muharrir xulosasi, nashriyot, tahririyat taqrizi)da umumlashtiradi.

O‘zining xulosalarini muharrir qo‘lyozma - qismlari bo‘yicha bayon etadi. Muallif nutq madaniyatini umumiyl

bahosini chiqarishda ayrim nutqiy- me'yoriy kamchiliklarni jamlaydi.

Qo'lyozma sifatiga ko'ra rad etilishi yoki nashr uchun maqullanishi mumkin. Agar qo'lyozma chop etish uchun qabul qilinsa, muharrirning matn ustida qunt bilan ishlashiga to'g'ri keladi, yakuniy bosqichda **sayqalov** o'qishini amalga oshiradi. Bunday o'qish matnni boshdan oxirigacha o'qishdan yoki, ayrim qismni tanlab o'qishdan iborat bo'ladi. Bunday o'qish odatda muayyan maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Qo'lyozmani shunday o'qish chog'ida familiyalar, ism va otasining ismlari, iqtibohlarning aniqligi, raqamlardan iborat ma'lumotlar, geografik, toponimik nomlar, izohlar, havolalar, bibliografik ko'rsatkichlar, DASTga muvofiqlik va hokazolarni tekshirib chiqish zarur.

Adabiy asar tuzilishini takomillashtirish, zaruriy va odatda, qo'lyozma ustida ishlashning birinchi bosqichi sanaladi. Faqat asar me'yorida «qurilgan»iga ishonch hosil qilgachgina keyingi bosqich ishlarini amalga oshirishga kirishish mumkin.

Adabiy asarning kompozitsiyasini asar tuzilishining umumiyligiga qonuniyatlariga ko'ra belgilash mumkin.

Adabiy asarning tuzilishini belgilabberuvchi qonuniyatlar qadim-qadimdan ma'lum. Sitseron o'z fikrini yozma bayon etishga urinish, agar fikr ifodasini joylashtirishni, aniq-ravshan bayon etishni uddasidan chiqa olinmasa, o'quvchini ta'sirchan jumlalar bilan ergashtira olmasa, o'z vaqt va bitiklarini suiiste'mol qiluvchi insongagina xos ishlashi bo'ladi, deb u, birinchi o'ringa o'z fikrini joylashtira bilishlikni qo'yadi.

Alisher Navoiy o'z shogirdlariga (xususan Xondamirga) asar yozganda shunday yozish kerakki, toki uni o'qigan kimsa muayyan fikrni tugal anglash uchun uni o'qigan joyidan

boshqa o‘rinlardan qidirmasin, yoxud keyin o‘qiganini aniqlashtirish uchun orqaga, oldin o‘qigan joyiga qaytmasin, deb ta’kidlaydi.

To‘laqonli tuzilishga, yaxlit shaklga egalik barcha adabiy asarlar uchun, ularning turi va janridan qat’iy nazar, umumiy talab hisoblanadi. Bu talab to‘lig‘icha jurnalistika asarlari uchun ham taalluqlidir.

Hozirgi zamон filologiyasi «kompozitsiya» terminining ikki xil ta’rifini beradi. Birinchisi adabiyotshunoslikka, ikkinchisi lingvistikaga oid. Adabiyotshunoslik kompozitsiyani ijod jaroyonining bosqichi sifatida, keng ma’noda tushunadi. Lingvistika esa uni nutqiy asarni tashkil etuvchi, lingvistik birlik, nisbatan barqaror kompozitsiyaviy-nutqiy sharh, sifatida janrni belgilovchi, deb tushunadi.

«Nutq uslubiyati asosiy janrlar tuzilishining tizimi haqidagi ta’limotni yoki ijtimoiy nutq tuzilmaviy turlarini o‘z ichiga olishi kerak<sup>16</sup>», deb yozadi akad. V.V. Vinogradov.

Kompozitsiya terminining har ikki izohi –adabiyotshunoslikdagi va tilshunoslikdagi muharrirning nazariy vazifasini anglashda samaralidir va uning matn ustida amaliy ishlarni bajarishi uchun imkoniyat yaratadi, ta’bir joiz bo‘lsa, yo‘lka ochib beradi.

Muallif ijodiy mahoratining muhim qirralaridan biri bo‘lib, u taqdim etgan matn kompozitsiyasi hisoblanadi. Shuning uchun muharrir birinchi galda asar tuzilishini baholashi lozim, shundan so‘ng qo‘lyozmani adabiy jihatdan ishlashga kirishishi mumkin. Etarli tajribaga ega bo‘lmagan muharrir va/ yoki adabiy xodimgina qo‘lyozma ustidagi ishni nutqiy xatolarni tuzatish, bayon uslubini o‘zgartirishdan boshlaydi. Va-

---

<sup>16</sup>Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya politicheskoy rechi. Poetika. Москва, 1963.-33-b.

holanki, aksar hollarda muharrirning mehnati zoe ketishi ehti-moldan uzoq emas. U mashaqqatlar bilan so‘zni o‘zgartiradi, jumllalarni qayta tuzadi, ammo qo‘lyozmaga chuqurroq kirib borgan sari, matn bilan yanada kengroq tanishish tufayli matn qismlari joyini o‘zgartirish, ayrim parchalarni qisqartirish, ayrim o‘rinlarga qo‘shimchalar kiritish zarurati yuzaga keladi, bu esa matnda ancha jiddiy vzgartirishlar qilishni taqozo etadi. Shunda avvalgi mehnat zoe ketishi mumkin.

Adabiy asarlar orasida o‘ziga xos jihatga ega bo‘lgan badiiy asarning tuzilishini farqlash kerak bo‘ladi. Uning asosini **syujet** tashkil etadi. Badiiy asar sirasiga kirmaydigan adabi-yotlar kompozitsiyasini ham farqlash lozim, uning asosini reja tashkil etadi. Badiiy asarda poetik obraz asosida fikr yuborilsa, keyingilarda mantiqiy tuzilishi yetakchilik qiladi. Axboriy nashrlar kompoziyyasining maqsadi- ma’lumot yetkazish, aniq faktlar berish. Buning uchun amaliyotda qo‘llanilgan, sinovdan o‘tgan qolip (stereotip)lardan foydalaniлади. **Kompozitsiya** terminining ma’no ifodasi **syujet** terminining ma’no ifodasidan kengroq.

Kompozitsiyasini chuqurm o‘rganishgina muallif fikrining barcha murakkabliklari, o‘ziga xosliklarini baholashga va syujetdan tashqari kiritmalar- lirik chekinishlar, turli kompozitsiyaviy doiralar hamda muallifning boshqa usullarini aniqlashga ko‘maklashadi.

Aniq tuzilishiga egalik publitsistika asarlari uchun zaruriy talab hisoblanadi. Publitsistning mahoratini belgilash deganda puxta o‘ylangan kompozitsiya, bayonning tuzimini tuza bilish zaruriy talab bo‘lib qoladi.

Adabiy asar tuzilishini tahlil qilish tahrir jaroyonining boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi va asar tuzilishi hususida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi.

Asarning har qanday tuzilishi, tabiiyki, muayyan qismlarning mavjud bo'lishligi va ular ma'lum tartibda joylashtirilishi kerak. Adabiyotshunoslikda «kompozitsiya» termini bilan bir qatorda «arxitektonika» terminidan ham foydalaniladi. Evropa me'morligiga oid bu termin vositasida ijodchining ishi me'morning ishiga o'xshatiladi. Adabiy asarda ham, xuddi me'moriy inshoat va/yoki imorat singari barcha unsur (qism)lar shunday joylashtirilgan bo'lishi kerakki, toki ulardan birontasi ham ortiqcha yohud o'rinsiz joylashgan bo'lmasin.

Muallif materialidagi qismlar chegarasi (xajmi) aniq belgilangan, tuzilishi qat'iy qilib qo'yilgan bo'lishi lozim.

Matnni qismlarga ajratish bu shunchaki bo'lish emas. Aytaylik, butun matnni xajman mutanosib qismlarga ajratib qo'yish emas. Bunday taqsimlash tahrir amaliyotida uchrab turadigan hol, u ko'pincha faqat salbiy oqibatga olib keladi. Adabiy asar matnnini shartli tarzda teng qismlarga bo'lish noshirlik faoliyatida turli tamoyillarni ko'zlab amalga oshiriladi: mazmuniy, mantiqiy, kitobxon ruhiyatini hisobga olish, asarni bezash va hokazo. Bu tamoyillarning barii muharrir uchun e'tiborlidir. Lekin bari bir asarni qismlarga ajratishda bosh mezon tamoyil mantiqdir. Agar matn mantiqqa xilof tarzda qismlarga ajratilgan bo'lsa, u har qancha jozibali bo'lmasin, oqibatda nohush taassurotga olib keladi.

Adabiy asarning turidan qat'iy nazar, agar u badiiy bo'lmasa, yetkaziladigan ma'lumot har bir qismda aniq, tugal va ishonarli hamda dalillangan bo'lishi shart. Yuqoridaq talablardan hech biri (muayyan qismga taalluqli bo'lgani uchun) boshqa joyda (qismda) bo'lmasligi lozim. Qismlarning aniq joylashtirilganligi materialning axboriyligini oshirishga, uning ilmiy-bilish qiymatini ko'tarishga, hissiy ta'sirini

kuchaytirishga xizmat qiladi. Qismlarning zo‘rma-zo‘rraki, sun‘iy bog‘liqlikdan holi qiladi, biridan ikkinchisiga o‘tishda murakkablik, chalkashlik bo‘lishining oldini oladi.

Qismlarning aniq joylashtirilishi publitsistika asarlari uchun ham zaruriy talabdir. Chuqur o‘ylangan kompozitsiya, bayonning tadrijiyligini ta‘minlash qobiliyati publitsist san‘atini ko‘rsatuvchi asosiy shartlardan hisoblanadi.

Ma’lumki, ommaviy axborot materiallari xajman kaiia bo‘lmaydi. U ko‘z o‘ngimizda yaqqol namoyon bo‘ladi, matn to‘laligicha e’tiborda turadi.

«Konstruktsiyaning xajmini konsiruktsiya qonuni belgilashi lozim, -deb yozadi kichik adabiy janrlarni tadqiq etgan Yu.Tinyanov.- Katta shaklni hisobga olish, kichik xajmnikidan mutlaqo farq qiladi. Har bir unsur (qism), har bir badiiy qo‘llash konstruktsiyaning kattaligiga bog‘liq holda, turli vazifani bajaradi, turli ta’sir kuchiga ega bo‘ladi, har biriga turlicha mas’uliyat yuklanadi<sup>17</sup>».

Kichik janrlardagi asarlar matni ustida ishslash ko‘p sahifali asarlar qo‘lyozmasi ustida ishslashdan ko‘ra oson emas, garchi shunday tuyulsa-da.

Ommaviy axborot materiallarining adabiy shakli o‘ziga xos jihatlari bilan muharrir zimmasiga bir qator ma‘suliyatlarni yuklaydi. Masalan, asar kompozitsiyasi ustida ishslash bo‘yicha, shuningdek, matn tuzilishi (qurilishi) xususida ancha qat‘iy talablar qo‘yadi.

Avvalo shuni aytish joizki, har bir narsani pishiq-puxta qurish (yaratish) lozim. Xuddi shuningdek adabiy asr matnini ham. Uni o‘qigan o‘quvchi qaerda boshlanib, qaerda tugvgvnini aniq ko‘ra bilsin. Har bir abzats o‘z joyida bo‘lsin. Boshqa joyga o‘tkazilishi yoki avvalgi abzatsning

---

<sup>17</sup>Tinyanov Yu. O literaturnom fakte LEF. 1994. №12.-102-b.

oxiriga ulanib ketishi, go‘yo uning tarkibiy davomi bo‘lishi kabi mantiqiy qusurlardan holi bo‘lmog‘i kerak. Bu, ayniqsa, gazeta yoki jurnal sahifasidan o‘rin oladigan ocherklarga qo‘yiladzigan bosh talab hisoblanadi.

Muallif materiali qismlarining chegarasi aniq belgilangan, tuzilishi me’yoriga etkazilgan bo‘lishi lozim. Matnni qismlarga ajratish, shunchaki, taqsimlash emas.

Matn qismlarining aniq chegaraviyligi, o‘rinli joylashtirilgani material axboriyigini oshiradi, ma’lumotlar qimmatini ko‘taradi, hissiy ta’sirini kuchaytiradi. Jurnalistika materialida ayrim kamchiliklar ham bo‘ladi, bularga, albatta muharrir alohida e’tibor qaratishi talab etiladi: mavzudan chetga chiqqanlik; matn qismlarini joylashtirilishi tamoyillarining to‘g‘ri tanlanmaganligi; bayon tadrijiyligining asosiz buzilganligi; qismlararo xajmiy mutanosiblikka (xpjman tenglikka) rioya etilmaganligi; asar tuzilishi usullaridan muvaffaqiyatsiz foydalilanilganlik; qismlararo uzviy bog‘liqlikka putur etganligi; matn tuzilishidagi aniqsizlik (asar nomi, sarlavhasini o‘rinli tanlanmaganligi, kirish, asosiy qism va xulosa yakunining noaniqligi).

Publitsistik asar matnnini tahlil qilar ekan muharrir uni tarkibiy qismlarga ajratadi. Bular quo‘idagicha: kirish, asosiy qism va xulosa.

E’lon qilinaetgan asarning butun mazmuniy jihatini o‘zida mujassam etadigan asosiy qismning tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Muharrir material bayoni aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minlashga harakat qiladi, kerakli ma’lumotlar tushib qolmasligiga intiladi.

Matnning tuzilishi xususiyatini e’tiborga olish kerak bo‘ladi, ya’ni **tavsif**, **hikoya qilish** tarzini tuzishda asosiy jihatlarni farqlash lozim.

Bog'lovchi omillarni aniqlash, ularning asar kompozitsiyasidagi o'rmini belgilash, bayon tadrijiyligini, bir hodisaning ikkinchisi bilan aloqadorligini ilg'ab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asar tuzilishi qay darajada janriy talabga javob berishligini, e'lon qilinayotgan material maqsadga muvoqifligini baholash kerak bo'ladi.

Mabodo asar tuzilishini o'zgartirish zarurati paydo bo'lsa, albatta bu matn tavsifi bilan bog'liq bo'ladi va bunday o'zgartirish qilishda mazmunga putur etkazmaslik muxim ahamiyat kasb etiladi.

Har bir muharrir (adabiy xodim) shuni yoddan chiqarmasligi kerakki, asar tuzilishini o'zgartirishga kirishi katta ma'suliyat talab etadi.

Bu ishni muallif bilan kelishgan holda amalga oshirish, har bir o'zgartirishni u bilan muhokama qilish shart. Agar ayrim qismlarni to'ldirish yoki qisqartirish lozim bo'lган taqdirda buni muallifga taklif etish kerak.

Publitsistikada ham adabiy asarlar nashridagi singari turli kompozitsiyaviy tuzilmalar. Materialni berishda obrazli va mantiqiy tuzilishdan foydalaniladi. Badiiy- publitsistik asarlarda, tabiiyki, obrazli ifoda ustunlik qiladi. Biroq, matnda badiiy unsurlar qanchakam bo'lsa, uning tuzilishi jurnalistikada qabul qilingan mezonlarga shunchali yaqinlashadi.

Sof mantiqiy yondashuvdag'i matnlarda, davriy nashrlarda, muallifning munosabati ancha betarafdir. Bunday nashrlardan turli xil maqolalar joy oladi (ular janrining turli-tumanligi faktik material tavsifi, muammoviylik, amaliy yoki nazariylik va hisoblash bilan bog'liq).

Muharrirning bunday badiiy bo'lmagan material kompozitsiyasi ustida ishlashi o'ziga xos jihatlarga ega. Bularning

tuzilishi material bayonidagi qat’iy ketma-ketlikka asoslanganlik, uning turli qismlari o‘zaro mutanosibligiga va mantiqiy joylashuvga egaligi bilan ajralib turadi.

Muharrir e’lon qilinadigan materialni qismlarga ajratadi va uning kompozitsiyasini belgilaydi. Bunda u quyidagi talabni e’tiborda tutadi:

**1. Kirish qismi;** o‘quvchini material bilan tanishtiradi, tasavvur hosil qiladi. Unda nashr mavzui haqida so‘z boradi, ko‘rib chiqilayotgan jihatlar qayd etiladi. Kirish qismida muallif mavzuning dolzarbligi, materialning yangiligi, ilmiy-amaliy qimmati, mavzuning o‘rganilganlik darajasini asoslab berishi zarur.

**2. Asosiy qismda** muallif tadqiqotining mavzui ochib berilishi, narsa yoki hodisa haqidagi yangi ma’lumotlar to‘lig‘icha o‘quvchiga yetkazilishi kerak. Muharrir maqola asosiy qismi kompozitsiyasidagi turli unsurlar qismlarning bir-biri bilan mantiqiy bog‘langanligiga alohida e’tibor qaratishi lozim.

**3.Xulosa qismi,** bu - yakun bo‘lib, undan xulosaviy fikrlar o‘rin oladi, shuningdek, ba’zi taklif, tavsiyalar beriladi, kelgusida qilinadigan ishlarni amalga oshirish yo‘llari belgilanadi.

Asar tuzilishiga muharrir beradigan bahoning asosiy mezoniyatlilik, tizimlilik, hajman mutanosiblik va bayoning maromiyligi, silliqligi, tadrijiyligi va bog‘liqligi. Yuqoridagilar barchasi bir butunlikda, uyg‘unlikda asar kompozitsiyasi- arxitektonikasini tashkil etadi.

Albatta, muharrir asar tuzilishi ustidagi barcha ishlarni muallif bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim. Muharrir muallifga ba’zi o‘zgartirishlarni amalga oshirishni, masalan,

bayonning tadrijiyligini ta'minlash, ayrim qismlarning mutanosibligiga erishish, ayrim parchalar o'rnini almashtirish va h. larni taklif etganida ham bari bir yuqorida qayd etilgan asar kompozitsiyasining qismlari saqlanishi shart.

## **TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

1. *Qo'lyozmani tahrir qilish nimadan boshlanadi?*
2. *Tahrirga kirishdan oldin muharrir qanday vazifani bajaradi?*
3. *Qo'lyozmani chuqur o'rghanish deganda nima nazarda tutiladi?*
4. *Matnni sidirg'a o'qish jarayoni qanday va bunday o'qishda muharrir qanday ishlarni bajaradi?*
5. *"Kompozitsiya" terminining filologik ta'rif qanday?*
6. *Badiiy yoki boshqa tur asar tuzilishi qanday va uning asosini nima tashkil etadi?*
7. *Publitsistik asar qismlariga qo'yiladigan zaruriy talab qanday?*
8. *OA materiallari adabiy shaklining o'ziga xosligi nimalarda ko'rindi?*
9. *Publitsistik asar qanday qismlarga ajratiladi va ular mohiyati nimada?*

## VIII BOB

### ASOS MATERIALLAR TAHLILI VA TAHRIRI

- *Asos (faktik) materiallarning matndagi o'rni, ahamiyati va vazifasi*
- *Asos materiallarni tekshirish*

Matndagi asos materiallar tahlili adabiy tahrir jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Matnga asos hisoblanuvchi omillar - jurnalistikaning tadqiqot ob'ektlaridan biri sanaladi. Jurnalist uchun bu asos hamisha muayyan yo'riqlarning chin yoki yolg'onligini tasdiqlash uchun xizmat qiluvchi hodisalar haqidagi mulohaza bilan birdek bo'lgan. Undan hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik va munosabatlarni, narsalar o'rtasidagi munosabatlar hamda ular xossalari aniqlashda foydalaniladi.

Adabiy tahrirda asoslar adabiy asar matniga qanday singdirilganligi, u til vositalari yordamida qanday ifoda etilganiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Tahrir amaliyotida qabul qilingan asos **material** deb tan olingan tushuncha matn uchun tayanch hisoblangan barcha unsurlarni qamrab oladi<sup>18</sup>. Matnga tuzatishlarni kiritish jarayonida ularning o'zgartirilishi yoki tushib qolishi mumkin emas. Asos materiallardan matniy konstruktsiyalar tuzishda foydalaniladi. Ular faqat hodisalarnigina ifoda etmaydi, balki ta'bir joiz bo'lsa, «haqiqat ushog'i» hisoblanadi, ashyoviy unsurlar, xossalalar, sifatlar, holatlar, shaxslar nomi, munosabatlar, miqdorlarni ham ifoda etadi.

Jurnalistlar asos materiallarni ayni informatsiya (bildirish,

xabar, ma'lumot) yoki mantiqiy isbotlash jarayonida dalil va umumiylar ta'kidlash uchun asos, nihoyat, muayyan kuzatuvni to'ldiruvchi tasvir sifatida berishlari mumkin. Bayon usuli har doim asos materialning nimaga mo'ljalanganligi bilan bog'liq bo'ladi.

Har qanday matndagi noaniqlik, u qay darajada bo'lmasin maqbul sanalmaydi. Shuning uchun ma'lumotni to'g'ri berish, asos materialni baholash hamda uni aniq ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Noshirlik faoliyatidagi ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatadiki, bu boradagi muharrirning yordami muallif uchun o'ta muhimdir. Gazeta amaliyoti ham bunga yorqin dalil bo'ladi. Adabiy asarlar ichida asos materiallarga eng boy asar, bu - entsiklopedik asarlardir. Aytish mumkinki, entsiklopedik asarda matn deyarli asos materiallardan tashkil topadi. Quyidagi matnga e'tibor beraylik.

*BILGA HOQON BITIKTOSHI - marmar  
bitiktosh, turkiy yozuv yodgorligi. Bilga hoqon  
sharafiga qo'yilgan (735 y.). Ulan - Batordan 400  
km jan.dagi Qorabalg'asun sh.ning xarobalaridan  
taxm. 40 km. shim.da joylashgan. Bo'y 3 m 45 sm,  
eni 1 m 74 sm, qalinligi 72 sm. B.h.b. 80 satrdan  
iborat. 41 campu toshning yuz tomoniga, 15 satrдан  
30 satr ikki yon tomoniga, 7 satr orqa tomoniga, 2  
satr toshning tarashlangan 2 qirrasiga yozilgan.  
Mazkur bitiktoshni Kultegin bitiktoshi bilan birga  
1889 yilrusolimi N.M. Yadrinsev Mo'g'ulistonning  
Kosho Saydam vodiysida Ko'kshin Urxun daryosi  
bo'yidan topgan. Yodgorlik matni nemis, frantsuz,  
ingliz, rus tillariga tarjima qilingan, turk va o'zbek  
tillarida tavsif etilgan.*

Ostiga bir chiziq tortilgan nutq unsurlari asos material hisoblanadi. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi 1-jildida berilgan yuqoridagi maqolada uchragan asos materiallar boshqa asarlar - darslik, ilmiy maqola, qo'llanma va boshqalarda ham uchrashi mumkin.

Agar ular barchasida beriladigan (ostiga bir chiziq tortilgani) asos materiallarda ba'zi bir farqlar uchrasa, muharrir buni, avvalo, muallifdan aniqlik kiritishni talab etishi kerak. Agar muallif ham ikkilansa, unda eng so'nggi chiqqan manbaga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'pincha, noshirlik ishida, boshqa tur adabiyotlarda keltirilgan asos materialarning ishonarliligini tekshirishda entsiklopediyalarga murojaat etiladi.

Noshirlik - tahririyat amaliyotida «asos materiallar» deganda qat'iy barqarorlashgan, amalda mavjud bo'lgan, yuqorida qayd etganimiz, ismlar, sanalar, miqdoriy, o'lcham ko'rsatkichlaridan tashqari izoh (tsitata) ham asos materiallar hisoblanadi, bundan tashqari, hech bir o'zgarishsiz, biror matndan aynan ko'chirib olingan parchalar ham asos materiallar sanaladi.

Ilmiy bilimda asos materiallar juda katta ahamiyatga egadir. Ta'bir joiz bo'lsa, asos materiallar ilm-fan uchun suv va havodek zarur. Har bir muallif qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar biron-bir asar yozishdan oldin aniq materiallarni o'rganadi, to'playdi, har bir asosni mulohaza qilib ko'radi, «mag'zini chaqish»ga harakat qiladi. Albatta yaratiladigan asar uchun asos bo'ladigan materiallarni yig'ish, saralash shunchaki, to'plash uchun emas, balki ijodiy tavsifda, muayayn maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Yuqorida aytilganlarning barchasi shuni ko'rsatadi-ki, asos materialning muharrirlik tahlili o'ta muhim ekan. Jarayonning ahamiyatliligidan muharrir bajarishi lozim bo'lган aniq vazifalar kelib chiqadi.

Vazifaning birinchisi asos materialning sifatini belgilashdir. Bunda asos materiallar muayyan narsa, voqealari va hodisa uchun xosmi, bosh va ahamiyatli yoki ikkinchi darajali bo‘lganni ifodalaydimi, muallif tasodifiy misollarga ko‘ra xulosalar chiqarmayaptimi, asosiy bo‘lganni e’tibordan chetda qoldirmaganmi, mana shularni aniqlash birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Keltirilgan asoslarning ishonarliliginini aniqlash galdagi - ikkinchi vazifa hisoblanadi.

Asos materiallardan qanday foydalanganlikni belgilash ham muhim hisoblanadi. Ayrim mualliflar asos materiallarni bayon qilish o‘rniga unga bo‘lgan o‘z munosabatlarini izhor etib qo‘ya qoladilar. Asos materiallar ichida keng foydalanimizdagi raqamlar ma’lumotlardir. Adabiy asar bo‘ladimi, jurnalistika asari bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar bu tur ma’lumotlardan o‘rinli foydalanish qo‘lyozma mazmunini boyitadi. U hatto badiiy asarda ham joiz sanaladi. Biroq asos materialni muharrir tahlili raqamlarni har jihatdan puxta tekshirish va baholashni talab etadi.

Bu masalani hal etishning yagona javobi, tabiiyki, bo‘lishi mumkin emas, hammasi adabiyot turiga bog‘liq.

Raqamlar entsiklopediyalar, ishlab chiqarish, texnikaga oid, ma’lumotnomalar asarlar uchun asosiy material hisoblanadi.

Ommabop broshyuralarda esa raqamlar garchi zarur bo‘lsa-da, lekin qo‘sishchasi material vazifasini bajaradi.

Muharrir uchun yagona qoida shuki, u muallifning raqamlarga haddan tashqari o‘rin berishligiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Bunday raqamlarga «boy» asarni o‘qish o‘quvchi uchun oson bo‘lmaydi.

Asos materiallarni muharrir tahlilining ikkinchi vazifasi - qo‘lyozmada keltirilgan ma’lumotlar to‘g‘ri va aniq ekanligini belgilashdan iborat.

Asos materiallarning ishonarliligi - chin ekanligi asar qimmatini belgilovchi muhim mezondir. Agar nazariy jihatdan hammasi tushunarlidek bo‘lsa-da, lekin amalda hamisha ham aniqlikka erishish oson kechmaydi.

Qo‘lyozmada uchraydigan xato va kamchiliklarning ko‘pginasi muallifga bog‘liq bo‘ladi. Albatta, muallif - ijodchi dunyoqarashi, bilim saviyasi, mutaxassisligi, qobiliyati qay darajada yuksak bo‘lmashin, bari bir xato va kamchiliklardan butkul holi asar yaratishi orzu doirasida. Bunday xato va kamchiliklarning bo‘lishiga turli omillar sabab bo‘ladi. Badiiy asarlarda ham (qo‘lyozmasida), garchi u ijodiy bo‘lsa-da, muharrir aralashishi lozim bo‘lgan o‘rinlar mavjud bo‘ladi, bular ijodchi va ijod, tadqiqotchi va tadqiq bilan bog‘liq kamchiliklar sanaladi.

Endi kamchiliklarning boshqa - matnni terish, korrektura o‘qish va bosish jarayonida uchraydiganlari ham bor bo‘lib, ular muharrirdan alohida e’tibor va qunt talab etadi.

Masalan, bir harf o‘rniga boshqg‘asi teriladi (prizident, likin), yonma-yon ikki harf o‘rni almashib qoladi (turpoq - tuproq), so‘z tarkibidagi biror harf tushib qoladi (qo‘llanmadir - qo‘llanmadi) va h.

XX asrning so‘nggi o‘n yili jahon siyosiy xaritasini jadal o‘zgartirib yubordi, dunyoni ikki qismga ajralib ketishiga sabab bo‘lgan sho‘rolar tuzumi barbod bo‘lib, ulkan imperiya parchalanib ketdi. Qator xalqlar o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritdi, yangi davlatlar vujudga keldi. Natijada, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy fanlarga oid mavzular, asos materiallar tubdan o‘zgardi. Entsiklopedik asarlar, ma’lumotnomalar, lug‘atlar barcha-barchasi yangilashni taqozo etadi. Yaqin o‘tmishda (1991 yilgacha) chiqqan nashrlardagi ma’lumotlar bugungi kun talablariga javob bermasligi, tabiiy holdir. Bular barchasi muharrir tahlilida albatta hisobga olinishi zarur.

Ma'lumki, iqtibos (tsitata) va izohlar ham asos materialning o'ziga xos bir turi hisoblanadi. Ko'plab asarlarda bu tur asos materialni uchratish mumkin. Biror kitob yoki maqoladan iqtibos olish bilan bir muallif boshqa muallifning asariga yoki biror rasmiy hujjatga murojaat etib, o'z oldiga muayayn maqsadni qo'yadi: o'z fikrini tasdiqlash uchun nufuzli fikrga asoslanishga intiladi; biror muallif fikriga qarshi o'z fikrini ilgari suradi, ya'ni qarshi tomon nuqtai nazari noto'g'riliгини isbotlaydi.

Asos material tahlilida muharrir quyidagi vazifalarni bajarishi lozim. Birinchidan, mavzuni yoritishda iqtibos zarurmi, yo'qmi, ko'chirmalar miqdorini qisqartirish imkonini bormi, qaysilarini qoldirish joiz va hokazo.

Boshqalarning asarlaridan ko'plab ko'chirmalar olish, hamisha ham maqsadga muvofiq bo'lavermaydi, ilmiy tamoyilga to'g'ri kelavermaydi. Keltiriladigan iqtiboslar mutlaqo mavzuga (asarga) qimmat baxsh etadigan bo'lishi, allakimlarning hurmati uchun bo'lmasligi lozim.

Yuqoridagi muammolar hal etilganidan so'ng ikkinchi vazifaga o'tiladi.

Muharrir iqtibos manbaga to'g'ri kelishligini tekshirishi shart. Muallif ko'chirganda xatoga yo'l qo'ygan bo'lishi mumkin.

Muharrir tahlilida matn tavsifiga e'tibor qaratishi lozim. Shunga ko'ra iqtiboslarni ikki toifaga ajratish kerak. Birinchisi, qandaydir fikrni tasdiqlovchi - tasviriy, tahlil etilayotgan materialning qismi hisoblanuvchi - tahliliy.

Qisqartirish zarur bo'lganda tavsify iqtiboslarni mazmunga zarar yetkazmagan holda matndan chiqarish mumkin. Tahliliy iqtibosni ham shunday olib tashlasa bo'ladi deyish to'g'ri emas. Muayayn asarlarni - badiiy, ilmiy,

publitsistik - muhokama qilishda tahliliy iqtiboslar kerakkina emas, balki zarur hamdir.

Iqtiboslarning manbai bilan solishtirib tekshirish yana shuning uchun zarurki, ba’zi siyosatdonlar, yozuvchilar, tadqiqotchilar, publitsistlar ongli ravishda buzib iqtibos keltiradilar. Muharrir tahlili jarayonida, albatta, bularning oldini olishi, iqtibosni asliga to‘g‘ri bo‘lishini ta’minlashi kerak.

Matn tagida beriladigan izohlar ham diqqat bilan tahlil etilishi kerak. Ayrim izohlarda asarning nomi, muallifining ismi familiyasi to‘g‘ri beriladi, lekin asarning nashr yili yoki iqtibos olingan asar beti xato bo‘lishi mumkin.

Xullas, mazkur jarayonda muharrirning e’tibori faqat iqtiboslarning o‘zigagina qaratilmasligi kerak, balki uni qurshagan matn ham diqqat markazida bo‘lishi lozim, bundan tashqari iqtibos keltirish usulini ham nazardan qochirmaslik muhim. Demak, asos materiallarni, shuningdek, iqtibos, izohlarni tahlil qilish qo‘lyozma mazmuni muhokamasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u mavzuni shakllantirishning muhim jihatlarini baholash imkonini beradi.

## **TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

- 1. Asos materiallar deganda nimalar nazarda tutiladi?*
- 2. Matnda asos material nima uchun beriladi?*
- 3. Qaysi tur asarlarda asos materiallar ko 'plab uchraydi va nega?*
- 4. Noshirlik - tahririyat amaliyotida "asos material" deganda nima tushuniladi?*
- 5. Asos materiallar bilan ishlashda muharrir qanday vazifalarni bajaradi?*
- 6. Nima uchun muharrir iqtibos va izohlarni tekshiradi?*

## IX BOB

### SARLAVHALAR TAHLILI VA TAHRIRI

- *Asarni ruknlash*
- *Ruknlarning tahlili*
- *Matbuot sarlavhalari tahlili*
- *Sarlavhalar tili va uslubi*

Asar ruknlari-sarlavhalari, qismlar va bandlarning mazmun-mohiyati xilma-xildir.

Asarni ruknlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- asarni o'qish tashkilashtiriladi va yo'naltiriladi. Rukn so'z nima haqida borishligini ko'rsatib, o'quvchini keyin keladigan matnni idrok etishlikka tayyorlaydi, ya'ni muayyan mavzuni o'zlashtirishga yo'naltiradi. Matnni qismlarga ajratib, o'quvchini o'qishdan to'xtatadi, unga tin olib, yangi matnni o'qishga o'tishdan oldin, o'qiganlarini mulohaza qilib ko'rish imkonini beradi;

-ruknlarasarniyanadachuqurroqtushinishgako'maklashadi. Ular birgalikda asar tarhi (tuzilishi)ni ko'rsatadi. Shakli, xajmi va shrift chizmasi, joylashgan o'miga ko'ra asar qismlarining va bandlarining aloqadorligi hamda bog'liqligini yaqqol namoyon etadi;

- o'quvchi asar ruknlari tufayli o'ziga kerak materialni kitobdan oson topa oladi.

Asar ruknlari qaysidir darajada bo'lmasin (bevositami yoki bilvositami) bir-biri bilan bog'liqdir. Biri ikkinchisini o'ziga bog'liq qilib olgan bo'lsa, o'zi uchinchiga bog'liq bo'ladi. Bular barchasi birgalikda muayyan darajada

tartiblangan tizimini tashkil etadi. Mana shu tizim *ruknlash*, deb nomlanadi.

Ruknlar asar tuzilishi (kompozitsiyasi)ga ko‘ra belgilanadi. Asarning har bir qismi, bobbi, boblar ichidagi bandlar ruknlash o‘z ifodasini topadi. Shunga ko‘ra ruknlashni muharrirlik tahlili, asar kompozitsiyasining tahlili bilan chambarchas bog‘liq.

Ruknlashni tahlil qilish va baholashni, yaxshisi ishchi (qoralama) sarlavhalardan boshlash ma’qul. Bunda asosiy sarlavhalar, ya’ni bir hil qimmatga egalari ustun holida (tik chiziq) bo‘ylab yoziladi.

Ikkinci, uchinchi darajalilari esa asosiy guruh ustunidan bir oz o‘ngroqdan tik chiziq bo‘ylab, tartibi bilan yozib chiqiladi.

Buni amalda shunday qilish mumkin. Bir varaq qog‘ozga bir nechta yonma-yon (2 sm oraliqda) tik chiziq chiziladi va asardagi barcha sarlavhalar o‘z ustuniga yozib chiqiladi.

Tik chiziqlar chapdan o‘ngga tomon rim sonlari bilan raqamlanadi.

Birinchi raqamli ustunga yuqoridan pastga tomon birinchi darajali sarlavhalar yoziladi. Ikkinci ustunga birinchi ustundagilar tarkibiga kiruvchilar, bular tarkibiga kiruvchilar esa uchinchi ustunga yoziladi.

Ustunlarni raqamlashning qulay tomoni shundaki, har bir betdagи qoralama sarlavhalar qaysi darajadagi ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

Muharrir ruknlashni, shuningdek, asar kompozitsiyasini tahlil qiluvchi qoralama sarlavhalarni **tahriri** deyish mumkin. Bunday qilish muharrirning qaydlari bo‘yicha muallif tomonidan yohud muharrirning o‘zi tomonidan asar tuzilishi va ruknlanishini takomillashtirish uchun zarurdir.

Tuzatilgan, aniqlashtirilgan qoralama sarlavhalarni muharrir qo‘lyozma bilan birga dizayner va/yoki texnik muharrirga sarlavhalarni joylashtirish (o‘rnini belgilash) uchun topshiradi. Bu talqindagi sarlavhalar amalga oshiruvchi yoki bezaluvchi deb ataladi.

Tahririy, bu- boshlang‘ich, qoralama sarlavha, amalga oshiriluvchi (bezaluvchi) - yakuniy hisoblanadi.

Muharrirning sarlavhalarni tahlil etishi va tahrir qilishi alohida e’tiborga molik. Sarlavhalarning adabiy shakli uning ikki yoqlama tavsifi bilan belgilanadi.

Bir tomondan sarlavha mustaqil, ikkinchi tomondan u asar tuzilishidagi unsur hisoblanadi.

Sarlavhalar bilan asosiy matn o‘rtasida har doim mantiqiy munosabat mavjud bo‘ladi. Umumiy tarzda mazkur munosabatni mantiqiy sub’ekt bilan predikat o‘rtasidagi munosabat tarzida tasavvur etish mumkin.

Sarlavhalarning *mazmundor xabar etkazishi* lozimligi, ularga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri hisoblanadi.

Sarlavhalarning ta’sirchan bo‘lishligi uchun o‘quvchi ruhiyatini yaxshi bilishni talab etadi. Adabiy asarlardan, ayniqsa, badiiy asar, ilmiy-ommabop asar sarlavhalari e’tiborni o‘ziga tortadigan bo‘lishi, asarning badiiy, ommabopligrini yanada oshiradi.

Matbuot matnlarining sarlavhalari ham yarq etib ko‘zga tashlanadigan, yo‘naltiruvchi, da’vat qiluvchi, ta’bir joiz bo‘lsa, jarangdor, shu bilan birga ishontiruvchi bo‘lishligi bilan e’tiborni tortadigan bo‘lishi lozim. Muharrir tahlil jaroyonida sarlavha turli talqinlarini bir-biriga qiyoslash natijasida, tahrir paytida buni e’tiborda tutish kerak. Lekin, shuni unutmaslik lozimki, sarlavhaning ta’sirchanligiga erishishga bo‘lgan urinish uning axboriyligiga putur etkazmasligi shart.

Gazetalardan biridagi material «Muloqot» rukni ostida berilgan. Ruknni tushuntiruvchi ibora «Yaxshilik qilishga ulguraylik» ham bor. Shundan so'ng sarlavha- «Sahnamadaniyat ko'zgusi» qo'yilgan. Suhbatning boshlovi – lidda shunday deyiladi:

*San'at osmoni turli yulduzlarga boy. Ayniqsa bugungi kunda bunday yulduzlar behisob... Ayrimlar garchi yulduzlikni da'vo qilmasa-da, lekin ularning qo'shiqlari muxlislar diliga yo'l topadi. Shunday xonandalardan biri Umida Mirhamidovadir. Sevimli san'atkorlarimiz haqida so'z yuritishganda, uni xokisor, kamtarin ammo o'z qadrini biladigan inson deyishadi. Muxbirimiz xonanda bilan san'at mavzuida suhbatlashdi.*

Suhbat savol-javob tarzida o'tadi. Suhbat sarlavhasidan ayon bo'ladiki, u sarlavhaning madaniyat ko'zgusi ekanligiga bag'ishlangan va o'quvchi madaniyat ko'zgusi haqida ma'lumotga ega bo'lishi mumkinligini xis etadi. Biroq suhbatni boshdan-oxir o'qib chiqqach gap asosan xonanda haqida ekanligini tushunib etadi. Savollarga e'tibor beraylik:

*- Umida opa sizda ijodiy jarayon qanday kechadi?*

*- Zo'r qo'shiqnidunyogakelishivatinglovchiga etkazish uchun zo'r qo'shiqchilarni tarbiyalash kerakmi yohud shu darajadagi tinglovchilarни... Boshqacha qilib aytganda kuylovchi tinglovchiga moslashadimi yoki aksincha...*

- *Ustoz va shogirdlik an'analari bugungi kunda qay darajada davom etyapti, deb o'ylaymiz?*

- *Sahnaning san'atkorga qo'ygan talablari haqida nima deysiz?*

- *Sizni o'ylantirayotgan muammo?*

O'quvchi beshta savoldan bittasida sahna xususida-gi xabarni uchratadi, lekin bu xabar ham sahna madaniyat ko'zgusi xususida bo'lmay, san'atkorga sahnuning qo'yadigan talabi haqidadir.

Fikrimiz tushunarli bo'lishligi uchun suhbatning to'rtinchi savoliga javobni to'liq keltiramiz.

- *Sahna muqaddas joy. Bu joydan ne-ne buyuk san'atkorlar o'tmagan. Unga ne-ne ustozlar qadami tegmagan. Uni qadrlash, e'zozlash kerak. Ustozlarning bari sahnani tabarruk bilishgan. hatto bugungi kunda ham mashhur, taniqli san'atkorlarimiz sahnani tabarruk bilib, unga ko'tarilganlarini ko'rghanman.*

- *Bugungi kunda ayrim qo'shiqchilarimiz sahnani to'yga, to'yni sahnaga chalkashtirib yuborishadi. Odam kim bo'lmasin, o'zini hurmat qilsagina, o'ziga nimani ravo ko'rishi biladi. Aslida sahna, madaniyat ko'zgusi. Bunday mas'uliyatni xis etish shart.*

Beshta savolga javob materiallardan faqat to'rtinchisidagi «Aslida sahna madaniyat ko'zgusi» jumlesi matndan chiqarilsa, butun boshli suhbat matnidan sahnuning madaniyat ko'zgusi ekanligi haqida hech bir ma'lumot (xabar) uchramaydi («Mohiyat», 2010 yil 15 yanvar).

Sarlavha e'lon qilingan asarga e'tiborni tortishligi isbot talab qilmaydigan haqiqat, ekanligi shak-shubhasiz. Biroq muharrir bunga erishish usulini baholovchi sifatida mas'uliyati yuksakligini unutmasligi kerak.

Sarlavhalar material tuzilishini ham ko'rsatishi mumkin. Bu uni o'qiganda tuzilishini ham e'tiborga olishni anglatadi. Lekin, ko'pincha sarlavha qo'yishda bu hol unutib qo'yiladi va undan foydalaniladi.

Gazeta sarlavhalari ma'no jihatdan materialning bosh qismi yoki oxirgi qismi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, shuningdek matnda qaytarilib, ta'kid etilgan hollar ham uchraydi. Masalan, «Aqlu zakovat mahsuli» sarlavhali, tahririyatga kelgan xatlar asosidagi materialning so'nggi jumlasida sarlavha takrorlanadi.

Bu ham ajdodlarimiz *aqlu zakovatining mahsuli*, desak yanglishmaymiz. Bunday takror ritorik (uslubiy) usul bo'lib, matnning puxta tuzilish (konstruktsiya)ga ega ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqarii sarlavhaga shunday ibora chiqariladiki, u mazmun uchun negiz (tayanch) sanaladi.

Sarlavhalarning axboriyligiga ularning ob'ektivligi va qat'iyligi tufayli erishiladi. Agar o'quvchi adabiy asar yoki gazetani o'qish malakasiga ega bo'lsa, unga axboriy materiallarning sarlavhalariga ko'z yugurtirib chiqish kifoya, ular mundarijasini ilg'ab oladi. O'quvchi ma'lumot (xabar)ni olishligini osonlashtirish uchun hozirgi G'arb matbuoti tajribasiga nazar tashlasak, amaliyotga ko'p pog'onali sarlavhalar tadbiq etilmoqda. AQSh gazetalarida, masalan, sarlavhalar majmuining aniq tarxi yaratilgan<sup>19</sup>.

Nashr mavzusini ifodalovchi an'anaviy sarlavha rukn

---

<sup>19</sup>Qarang: Voskoboinikov Ya.S.. Yuroev V.K.. Jurnalist iinformatsiya. Profesionalniy opit zapadnoy pressi.– Moskva; IKAR, 1993. -204-b.

nomiga ko‘tarilgan yoki xabar qaydnomalar to‘plamini atash vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Uning o‘rnini esa *xedlayn* (sarlavha satr) va *lid* (yangilikning lo‘nda bayoni) egallagan.

Yaqqol unsur, xodisaning kutilmagandaligiga diqqatni tortish xedlaynning vazifasi hisoblanadi. Bundan tashqari u *tuyqusdan aytigelganlik*, g‘ayri odatiy shaklga egaligi bilan ham ajralib turadi. Lid esa birinchi iborasidayoq yanglikning mohiyatini etkazadi, asosiyga urg‘u beradi. Lidga qo‘yiladigan asosiy talab-aniqlik va ayonlik. AQSh matbuotida xedlayn va lidlar, odatda, yetkazilayotgan xabar (ma’lumot)ning 70 foizgachasini tashkil etadi, nashrning qolgan foizini tafsilotlar, qo‘shimchalar tashkil etadi, bular quyiga tomon yo‘nalishda joylashadi. Bizning amaliyotimizda doim ham sarlavha majmui qismlari orasidagi farqga e’tibor qilinmaydi yoki farq nimadaligi haqida tushuncha ko‘rinmaydi va odatda, uni bir necha iboradan iborat sarlavha sifatida qabul qilinadi.

Tahliliy va badiiy- publitsistik materiallar uchun sarlavha va matn o‘rtasidagi mutanosiblik (mazmuniy uyg‘un bog‘liqlik) xos. O‘quvchi uchun muayyan qo‘shimcha ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan so‘z va so‘z birikmasi sarlavha ta’sirchanligini ta’minlaydi. «Oppoq orzular ostonasida...», «Ravon yo‘llar-yurt ko‘rki», «Bola o‘yinchoq bilan tillashadi» kabi sarlavhalarni o‘qigach o‘quvchi aniq gap nima haqida ekanligini xali bilmasdan turib, faktlarni baholashga tayyorlanadi. Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, emotsional bo‘yoqdor sarlavhalarga ruju qilish jurnalist uchun xavfli. Chunki sarlavha ma’nosiga, emotsional bo‘yog‘iga ko‘ra tevaragidan joy olgan matn qismi uchun zarur mantiqiy mujassamlik yaratmasa, matnning mazmuniy va obrazli tuzilmasiga aylanmasa, uni muvaffaqiyatlari chiqqan, deb bo‘lmaydi. Muallif har qancha ijodchi, yangi shakl va mazmun yaratish

mahoratiga ega bo‘lmasin, agar sarlavhaning o‘ziga xosligi ortidan quvib, o‘z nashrining maqsadi va mazmunini unutsa, uni muvaffaqiyatsizlik kutadi.

Sarlavhalar jurnalistika asarlarini tashkil etuvchi boshqa unsurlardan ko‘ra ko‘proq uslubdagi stereotip (bir qolipdalik, fikrlashdagi stereotip (bir xil andozada fikrlash) ta’siriga uchraydi.

So‘roq shaklidagi keng tarqalgan sarlavhalar har doim ham muvaffaqiyatlari chiqavermaydi. Bugungi kunda so‘roq sarlavhalar hech kimda ikkilanishni tug‘dirmaydi. Ustiga ustak o‘quvchi diqqatini tortishga intilib, gazetalarda, ayniqsa jaydari (sariq) maibuotda ko‘pincha shunga ruju qiladilar, vaholanki har qanday qolip (andozaviylik) yaxshi emasligini unutib qo‘yadilar.

Sarlavhalarning til va uslub jihatidan imkoniyatlari amalda cheklanmagan. Muharrir uchun tilshunoslikdagi tadqiqotlar natijasi bilan tanishish foydadan xoli bo‘lmaydi. Mazkur tadqiqotlarda sarlavhalarga mustaqil nutq birligi sifatida qaraladi, sarlavhalarning to‘liq tasnifi keltiriladi, ularning asosiy matn bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Shuningdek, gazeta sarlavhalariga bo‘lgan umumiy talablar - aniq-ravshanlik, tus hunarilik, qisqa, lo‘nda va ta’sirchanlik belgilab qo‘ylgan<sup>20</sup>.

Gazetalardagi sarlavhalar qisqa va lo‘nda bo‘lishiga intilish tabiiy hamda an'anaga aylangan. Lekin bunday shaklda ham biz muallif o‘z maqsadini amalga oshirishi uchun turli imkoniyatlarning borligini sezamiz, har bir muayyan davr uchun xos bo‘lgan yo‘nalish ta’sirini ham payqaymiz. Yaqin o‘tmishdagi XX asr so‘nggi choragi boshlaridagi andozaga aylangan, jarangdor va mazmunan puch sarlavhalar, muayyan muvaffaqiyatlarga erishilganini ta’kidlovchi sarlavhalar,

<sup>20</sup>Lazereva E.A. Zagolovok v gazete. - Sverdlovsk, 1999. – 94-b.

eng umumiy vazifalar va yo‘nalishlarni ifoda etuvchi tumtarroq sarlavhalar bizning avlod yodidan ko‘tarilganicha yo‘q. Bugungi kunda gazetalarning sarlavhalari yangilanish, ijtimoiy munosabatlarni tubdan qayta qurish, umuman ijtimoiy hayotdagи qizg‘in borayotgan jaroyonlar maromini yoritishi, muammolarni hal etishdagi munozarani, muhokamalarni ta’kidlashga intilmoqda. Sarlavhalarni yangidan yangi ijodiy shakllari faol izlanmoqda. Gazetalarda ikki qismli sarlavhalar ko‘proq uchramoqda, bunda sintaktik konstruktsiyalarni biriktiruvchi ma’noviy imkoniyatlardan noan’anaviy foydalanilm-oqda: «Urush foydasiga yolg‘on dalillar yoki Gollandiyaning siyosiy madadi», «Mashriq zamin - hikmat bo‘stoni. Qonuni Bositiy. Suyuq ovqatni g‘aliz ovqatga qo‘shib bo‘lmaydi», «ART WEEK STYLE.UZ - 2009. Dunyoga eshik ochgan san’at xafataligi». Mazkur shakldagi sarlavhalar, albatta, bilim doirasi keng o‘quvchilarga mo‘ljallangan, chunki bunday o‘quvchidan tilshunoslik bo‘yicha yuqori iqtidorni talab etuvchi sarlavhalar o‘zida ko‘proq ma‘lumotni mujassamlashtirgan bo‘ladi. Bundan tashqari bunday sarlavhalarda qarama-qarshi fikrlar to‘qnashadi, so‘z «o‘yini» uchraydi, so‘zlashuvga xos iboralar qo‘llanadi, ba’zan, hamma, grammatika me’yorlariga roya qilinmaganlik ko‘rinadi.

Mualliflar tanlagan sarlavhalarning barchasi ham muharrir nuqtai nazaridan muvaffaqiyatli, deb tan olinavermaydi. Massalan, «Mazali, shirin va sifatlар «Fayz Dekor Biznes» qo‘shma korxonasi mahsulotlari ko‘pchilikka manzur bo‘lmoqda», «Firibgarlikning intihosi... yohud o‘qishga kirishdagi og‘ir yo‘qotishlar», «Odam savdosiga qarshi kurashish: muammo va echimlar». Gazeta sahifalarida sarlavhalar mustaqillikka ega bo‘ladi: harflar yirik-yirik teriladi, shrifti ajratiladi, sahifalash vositalari asosida alohida takidlanadi. Tajribali mu-

harrir bular barchasini nazarda tutadi, lekin shunga qaramay, ko‘pincha yondosh, ostmo-ust turgan sarlavha, bilan rukn nomi o‘rtasida tasodifiy bog‘liqlik mavjud bo‘ladi. «Iftixor»-rukni nomi. Xufyona ish-koni zarar («Hudud», 2009 yil 16 iyul. 11-b). Bu- shubhasiz, muharrirning e’tiborsizliga oqibati.

Bundan tashqari bitta sahifada «Iftixor» rukni ostida uchta - «Xufyona ish- koni zarar», «Eng muhim vazifamiz», «Amaliy yordam» sarlavhalari ostida materiallar berish ham tanqidga loyiq, deb hisoblaymiz.

Sarlavha tanlash, izlash material yozilayotgan butun jaroyon mobaynida davom etadi. Ayrim hollarda u gazeta sahifalanib bo‘lgandan so‘ng qo‘yiladi. Bunday vaqtida muharrir, ayniqsa, xushyor bo‘lishi kerak. Quyidagi talqinlarni taqqoslaylik: «Egasini topgan kartmon», «Kartmon egasini topdi», «Xamyon egasini topdi» uchta talqindan qay biri ma’qul. Birinchisi gazetada ketgan («Xudud», 2009 yil 16 iyul. 10-b.). Bunda kartmon hamyon so‘zlaridan qay biri maql? So‘zlarning joylashish tartibi-chi? Muharrir mana shularga ham e’tibor berishi lozim.

Sarlavha reklama emas, balki asarning o‘zi sanaladi. Boshdanoq, sarlavhada muallifning fikrini berishlik ham unchali maqbul emas. Sahifadan sahifaga mavzu bilan birga rivojlanib borishi kerak. Sarlavhadagi oddiy so‘zlar oxir-oqibatda to‘q ma’noli bo‘la boradi, mazmundorlik kashf etadi va agar shunday bo‘lsa, oddiylik, eng jarangdor, dabdabali sarlavhadan ko‘ra kuchliroq hamda ahamiyatliroq bo‘ladi.

## TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. *Asar qanday maqsadda ruknlanadi?*
2. *Ruknlar tahliliga qanday kirilishi ma'qul?*
3. *Sarlavhalar va matn o'rtaSIDA qanday bog'liqlik mavjud bo'lishi lozim?*
4. *Sarlavhalar axboriyligiga qanday erishiladi?*
5. *Sarlavhalarning til va uslubiy imkoniyati qanday?*
6. *Muallif tanlagan sarlavhalar muharrir nuqtai nazaridan har doim ham maqbul bo'ladimi?*

## X BOB

### KITOB APPARATINING TAHLILI VA TAHRIRI

- *Kitob apparati*
- *Annotatsiya va so‘z boshi tahlili*
- *Kirish, so‘ng so‘z tahlili*
- *Sharh va eslatmalar tahlili*
- *Ko‘rsatkichlar tahriri*

Asosiy matnni to‘ldiruvchi materiallar kitob apparati deb ataladi. U o‘quvchiga kitobda berilgan ma’lumotlarni oson va tushunarli tasavvur etish imkonini beradi. Quyidagilar kitob appartini tashkil etadi: so‘z boshi, so‘ngso‘z; asar annotatsiyasi; eslatma, sharhlar; kitob ichidagi kitobga ilova etilgan bibliografiya; ko‘rsatkichlar; ilova; sarlavhalar (mundarija); nashr ma’lumotlari.

Adabiy asarning tavsifiga ko‘ra apparati ham o‘zgarishga uchraydi. Ommabop, keng ommaga mo‘ljallangan nashrlarda apparat unsurlari kam bo‘ladi, akademik nashrlarda esa eng ko‘p miqdorda uchraydi. Shu o‘rinda, aytish joizki, noshirlik amaliyotida va maxsus adabiyotlarda kitob apparati atamasи o‘rnida ilmiy-ma’lumotnomma apparat, ma’lumotnomma-ilova apparat, ma’lumotnomma apparat kabi iboralar uchraydi. Hozirgi vaqtida bular qatorida ilmiy apparat iborasi ham qo‘llana boshladi. Xullas, qanday atalmasin, asar turiga ko‘ra qanday o‘zgarishlarga uchramasin kitoblarning har birida qanday ko‘rinishda bo‘lmasisin, albatta mavjud bo‘ladi. Eng oddiy apparat faqat nashr ma’lumotlaridangina iborat bo‘ladi.

Kitob apparati barcha asarlar (nashrlar) uchun zarur hisoblanadi. U o‘quvchiga dastlabki tushuntirishlarni beradi (so‘z boshi), matn bayoni davomida uni tushuntira boradi (eslatmalar, sharhlar), o‘quvchini manbalar va muammolar tadqiqi ichiga olib kiradi. Bulardan tashqarii kitob apparati asarning tahliliy mundarijasini ochib beradi (ko‘rsatkichlar) va nashrning axboriylik ko‘lamini yanada oshiradi. Kitob apparati noshirlik madaniyatining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Ilmiy adabiyotlarda kitob apparatining unsurlaridan bo‘lmish bibliografiya va ko‘rsatkichlar alohida muhim ahamiyatga ega. Zero, samarali tayyorlangan va sifatli tahrirdan o‘tgan apparat olimlar, muhandislar, shifokoru va bilimning boshqa har qaysi sohasi mutaxassisining mehnat samarasini oshirishga xizmat qiladi. Kitob apparati xususida so‘z borganda ikki jihatni farqlash lozim bo‘ladi. Biri, uni tayyorlash, ikkinchisi tahrir qilish.

Tahrir xususida to‘xtalganda, tabiiyki, tahrirga oid masalalar bilan birga, bu albatta, kurs uchun asosiysi, kitob apparatining u yoki bu unsurini qanday tayyorlash usuliga ham yo‘l-yo‘lakay to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

**So‘z boshi** bilan **annotatsiya** har biri matnga o‘ziga xos **kirish** hisoblanadi. Bundan tashqari asosiy material bayonining boshlovi bo‘ladi. So‘ngso‘z garchi kitob oxirida joylashsa-da, ko‘p jihatdan so‘z boshi bilan umumiy jihatlarga ega bo‘ladi. Tartibga ko‘ra avval so‘z boshiga to‘xtalamiz. U kitobga turli nomlarda - «Muallifdan», «Muharrirdan», «Tahririyatdan», «Nashriyotdan», «Tarjimondan» tarzida joylashtirilishi mumkin. Bulardan tashqarii yana boshqa tarzda - «So‘z boshi o‘rnida», «Kitob va uning muallifi haqida» va hokazo atalishi ham uchraydi. Yuqoridagi atalishlardan ko‘rinadiki, so‘z boshi faqat muallif tomonidangina emas, balki boshqa

shaxslar tomonidan ham yozilar ekan. Lekin matn muallifi bo‘lмаган бoshqa shaxslar kitobning yaratilishiga qaysidir darajada aloqador bo‘ladi va kitobning mazmuni va shakliga ta’sir o‘tkazadi. Masalan, «Nashriyotdan» deb nomlangan so‘z boshi asarni nashrdan chiqarish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, muallif yoki hayot emas yoxud o‘zi yozib berishining iloji bo‘lmaydi. Shunday holatda nashriyot o‘z nomidan so‘z boshi berishga majbur bo‘ladi. «Muharrirdan qaydnomasi ko‘pincha materiallarning saralanishi va joylashtirilganligi haqida tushuncha beradi. Tarjimon esa o‘quvchini tarjimaning maqsadi, tamoyillari va b. bilan tanishtiradi. Har qanday bo‘lganda ham so‘z boshi hamisha shunday masalalar muayyan doirasini yoritishi kerak bo‘ladi. So‘z boshining asosiy vazifasini umumiylar tarzda quyidagicha tasavvur etish mumkin: ishning asosiy vazifasi; uning o‘ziga xos jihatlari hamda asosiy qism (bob)lari materialining joylashtirilishi, bayon etilish tavsifi; foydalangan manbalar haqidagi ma’lumot; kimlarga mo‘ljallanganligi va h. Agar asar (kitob) mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan bo‘lsa, so‘z boshi o‘quvchiga asarning qaysi qismi kim tomonidan yozilganligi haqida ma’lumot beradi.

Asar so‘z boshisi, mabodo, muharrir tmonidan yozilmagan bo‘lsa, albatta, tahrirdan chiqariladi, lekin bu ish faqat qo‘lyozma ustida ishlash jarayonining so‘ngida bajariladi. Bunda, asosan, ikki vazifa bajarilishi ko‘zda tutiladi: so‘z boshining asosiy material va kitob apparatining boshqa unsurlari bilan bog‘liqligini tushuntirish; agar unga mustaqil matn sifatida qaralsa, ayrim hisobga olinmay qolgan (so‘z boshida uchraydigan) kamchiliklarni tuzatish.

Birinchi vazifani bajarishda qo‘lyozma mazmuni bilan so‘z boshi tezislari qiyoslanadi, ifoda shakli aniqlanadi. Bular asar mohiyati va uning o‘ziga xos jihatlarini aks ettirishi lezim.

Yana bir muhim tomoni borki, u ham bo'lsa, so'z boshi kirish bilan (agar u bo'lsa) qanday nisbatda ekanligidir.

Noshirlik faoliyati amaliyotidan ma'lumki, ko'pincha kirish (qo'lyozmaning tarkibiy qismi) bilan so'z boshi (kitob apparatining unsuri)ning deyarli farqi bo'lmaydi.

Shunga ko'ra «Kirish» deb nomlangan matnda oddiy so'z boshini, unga xos bo'lgan barcha jihatlar - kitobni tayy- orlashda ko'maklashganlarga minnatdorchilik, o'z fikr-mulohazalarini nashriyotga yuborishlari to'g'risidagi o'quvchilarga murojaatni uchratish mumkin.

Ba'zan «So'z boshi» deb nomlangan matnda «Kirish» ma'lumotlar va aksincha, «Kirish»da «So'z boshi» ma'lumotlari qorishib ketadi. Tahrir jarayonida chuqur mulohazaviy tahlil amaliyoti bajarilishi va «So'z boshi» bilan «Kirish» bir-biridan ajratilishi kerak. Shunda har ikkisi o'z o'rnini topgan bo'ladi.

Shunisimuhimki, so'zboshitarkibidagikitobapparatining boshqa unsurlarida uchraydigan ma'lumotlarni aniqlash uchun qiyoslash, bir-birini takrorlaydigan ma'lumotlarni bartaraf etish kerak.

Kitobning old varag'idagi annotatsiyaga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Uni tuzishda so'z boshi yoki so'ngso'zdan foydalaniladi, shunga ko'ra so'z boshi bilan annotatsiyaning bir-biriga o'xhash (ko'pincha so'zma-so'z qaytarilishi) tez-tez uchraydi. So'z boshi, misoli, kalit, kitobni ochuvchi hisoblanadi. U o'quvchini kitob bilan tanishtiradi, shuning uchun u qiziqtiruvchi bo'lishi, o'quvchini kitobdan hafsalasini sovutuvchi bo'lmasligi kerak.

**Kirish maqola** o'ziga xos so'z boshi hisoblanadi va u ayrim asarlar yoki asarlar to'plami (yozuvchilar, olimlar, jamoat arboblari va b.ga tegishli) uchun albatta bo'lishi talab

etiladigan apparat unsuri sanaladi. Asar tavsifiga ko'ra kirish maqolalar turlicha bo'ladi. Mumtoz adabiyot vakillarining to'plamlarida nashr, matniy tamoyillar haqidagi ma'lumotlarga ega, shuningdek, yozuvchi (shoir) haqida, uning ijodi g'oyaviy, badiiy qimmatini ko'rsatuvchi, biografiyasiga oid materiallarni o'z ichiga olgan maqolalarni berish qabul qilingan.

Yuqorida qayd etilgan ikki maqolaning birinchisida, odatda, nashr kimlarga mo'ljallanganligi, materiallar qanchalik to'liq to'planganligi, asosiy matnlar manbaini tanlash tamoyili, nashrda materiallarni joylashtirish tartibi (agar ko'p jildli bo'lsa, jildlararo joylashtirilishi) qandayligi va boshqalar ko'rsatiladi.

Xorijiy mualliflar asarlari nashrida, ular dunyoqarashi, ijodi, mentaliteti, mafkurasi aks etadi. Bular har doim ham boshqa xalqlarga to'g'ri kelavermaydi. Kirish maqola o'quvchida to'g'ri tasavvur hosil qilishga ko'maklashishi kerak bo'ladi.

Agar asar yirik olimga tegishli bo'lsa, kirish-ocherk nashrda ko'rib o'tilgan masalalar doirasini belgilaydi, muallifning yirik tadqiqotlari, asarning ham nazariy, ham amaliy qimmati haqida ma'lumotlar beradi.

Yuqorida bayon etilganlardan ma'lum bo'ladiki, kirish-maqola yuqori malakali mutaxassis tomonidan tayyorlanadigan asl nusxa asar hisoblanadi. U muhim ilmiy, uslubiy, g'oyaviy va siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur tur materiallarni tahrir qilishning mohiyati ham shunda.

So'ng so'z o'z mazmun, vazifasi bo'yicha kirish-maqolaga o'xshab ketadi. Lekin u o'quvchiga tanish bo'lgan kitob mazmunini yanada chuqurroq anglash uchun yordam beradi. Bunday apparat bugungi kunda jahon noshirlik amaliyotida ko'proq tarjima asarlarda uchraydi, ayniqsa, badiiy asar-

lar tarjimalarida. So'ngso'zning maqbul tomoni shundaki, u o'quvchi kitobni mustaqil o'qib chiqqach o'zi tushunishga harakat qilayotganida qo'l keladi. Chunki, so'ngso'z odatda tegishli yirik mutaxassis (lar) tomonidan yoziladi. Aytish mumkinki, so'ngso'z ham so'z boshi singari vazifani bajarsa-da, lekin unda so'z boshidagiga nisbatan uncha zarur bo'lмаган ма'lумотлар beriladi.

Annotatsiya, odatda, kitobning bosh varaqi (titul)ning keyingi betida joylashtiriladi. Unda asar haqida qisqagina ma'lumot beriladi. O'quvchi uchun u kitob haqidagi birinchi ma'lumot, shuningdek, unda asarning muallifi, ko'tarilgan muammolar, kimlarga mo'ljallanganligi haqida ma'lumot beriladi. Kitob savdosi bilan shug'ullanuvchilar uchun reklama materiali, targ'ib qilishda asoslaniladigan manba. Kutubxona xodimlari va axborot xizmati uchun annotatsiya - ilmiy-axboriy xizmat kuo'rsatishning muhim vositasi hisoblanadi.

Annotatsiyani tayyorlash va tahrir qilishda muharir nashrning xususiyatini hisobga olishi lozim. Badiiy asar yoki ilmiy nashrlarda annotatsiyada, albatta, muallif haqida qisqagina ma'lumot berish o'rnlidir. Ilmiy-ommabop adabiyotlarda esa e'tiborga ko'proq loyiq bo'lgan qismlarni qayd etish foydadan holi bo'lmaydi. Takror nashrdan chiqayotgan adabiyotlarning annotatsiyasida keyingi nashrning oldingisidan farqli tomonlarini ko'rsatish lozim bo'ladi.

Kitob annotatsiyasiga o'xshab ketadigan apparat unsurlaridan **rezyume** va **sinopsisni** aytib o'tish joizdir. Rezyume frantsuzcha so'z bo'lib, **qisqacha bayon** degani. Unda maqola, ma'ruza mazmunini tashkil etuvchi asosiy qoidalar, qisqacha xulosalar bayon etiladi.

Hozirgi talabga ko'ra O'zbekistonda nashr etilayotgan ilmiy asarlar, ilmiy журнallar (to'plamlar)da rezyume o'zbek hamda chet (ingliz) tilida berilmoqda.

**Sinopsis** yunoncha bo‘lib, **sharh** ma’no ifodasini beradi. Unda maqolaning mazmuni va xulosalar qisqa holda beriladi, yangiliklar qayd etiladi. O‘z mazmuniga ko‘ra u annotatsiya bilan referat oralig‘ida turadi. Rezyume va sinopsislar odatda, asar, maqola oxiriga joylashtiriladi.

Kitob apparatlarining muhim unsurlaridan **sharhlar** va **eslatmalar** ham nashrlar uchun zarur hisoblanadi. Chunki, ularda o‘quvchi uchun ancha muhim ma’lumotlar beriladi. Kitob apparatining ancha murakkab unsurlari hisoblanadi. Tom ma’noda olib qaraladigan bo‘lsa, har ikkalasi bir-biriga o‘xshaydi, lekin noshirlikda ularning ayrim jihatlari farqlanadi. Asarlar to‘plamida yoki ayrim ilmiy asarlar, memuarlar, hujjatli nashrlarda turli xil tushuntirishlar beriladi, bular asarni to‘g‘ri tushunish uchun zarurdir. **Eslatmalarda** kitobdagagi ayrim o‘rnlarga tushuntirishlar beriladi yoki aniqlashtiriladi. Agar sharhlar kitob oxirida berilsa, eslatma tushuntirish, aniqlashtirish lozim bo‘lgan tushuncha yoki so‘z joylashgan sahifadagi izohda beriladi.

Badiiy adabiyot nashrlarida, hozirgi kunda, sharhning to‘rt turi uchraydi. Bular - matnshunoslik, tarixiy-adabiy, aniqlashtiruvchi va ihozli lug‘at tarzidagi sharhlar.

**Matnshunoslik** sharhlarida matnni nashrga tayyorlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar beriladi. Uning vazifasi - umumiylar tarzda nashrni tayyorlash jarayonidagi matnshunoslik ishlari, uning usullari, tamoyillari, qabul qilingan qarorlarni hujjatlashtirishdan iborat. Akademik va ilmiy nashrlarda asar matni tarixi haqida kitobxonga tugal ma’lumot berilishi talab etiladi, shunga ko‘ra u haddan ziyod murakkab bo‘lib, alohida qismni tashkil etadi. Ommaviy nashrlarda matnshunoslik sharhlari, odatda, ancha qisqa, asarni saralash haqidagi kerak ma’lumotlarnigina o‘z ichiga oladi, shuningdek, birinchi nashr manzili va vaqtini ko‘rsatiladi.

**Tarixiy-adabiy** sharhlar asar mazmunini, g‘oyasini ochib beradi, qisqa va lo‘nda tarzda aniq, iloji boricha to‘liq ravishda asarning yaratilish tarixi hamda ijodiy-biografiyasi xususida ma’lumot beradi. U, odatda, ikki qismidan iborat bo‘ladi: birinchisida asarning yaratilish tarixi haqida so‘z borsa, ikkinchi qismida muallifning hozirgi o‘quvchi uchun tushunilishi qiyin bo‘lgan mulohaza va fikrlari oydinlashtiriladi, ochib beriladi. Bunday sharhlar ilmiy-ommabop asarlardagina emas, balki ilmiy nashrlarda ham bo‘ladi.

**Aniqlashtiruvchi** sharh tarixiy nomlar, faktlar (asos materiallar), hodisalarga (asarda keltirilgan) tushuntirishlar beradi, qo‘srimcha aniqliklar kiritadi, asar mundarijasining barcha unsurlarini tushunarli qiladi. Bu sharh hamisha matnga asoslanadi, uni izohlaydi.

Ilmiy-ommabop, ommabop asarlarda lug‘at, sharhlar muhim ahamiyat kasb etadi. So‘z va so‘z birikmalarining izohini berish uning vazifasi hisoblanadi. Uni tuzishda o‘quvchilar uchun unchalik tanish, tushunarli bo‘lмаган so‘z va so‘z birikmalari tanlanadi, bular - arxaik so‘zlar, hali tilga to‘liq o‘zlashib ulgurmagan yangi so‘zlar (neologizmlar) yoki chet so‘zlar, shevalarga xos so‘zlardir.

Sharhlar, eslatmalar ustida ishslash jarayonida muharrir kitob o‘quvchilarning saviyasini - bilim doirasini aniqlab olishi lozim. Shunda nimalar tushuntirishni talab qiladi, nimalar bunga muhtoj emasligi ayon bo‘ladi. Shunday ham bo‘ladiki, muallif ayrim narsalar sharhiga haddan ziyod kirishib ketadi, ayrim narsalarni esa sharhlashni yoki unutadi, yoki e’tiborga olmaydi. Har ikki holatda ham muharrir bu kamchiliklarni bartaraf etishi kerak bo‘ladi.

Eslatmalarни tahrir qilishda faqat ta’rif va tushuntirish-largagini emas, bulki u taalluqli bo‘lgan matnga ham e’tiborni

qaratish kerak. Agar kitobning turli qismlari boshqa-boshqa mutaxasssislar tomonidan sharhlansa, muharrir ularning eslatmalarini taqqoslashi lozim bo‘ladi, shunda turlicha talqin, ziddiyatlarning oldi olingen bo‘ladi.

Tabiiyki, sharhlar va eslatmalardako ‘plab asos materiallar uchraydi, ular turli tavsifda bo‘ladi. Shunga ko‘ra ularni nashr ga tayyorlashda asos materiallarni tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Muharrir turli talqinlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalo, qaysi manbaga asoslanishini belgilab oladi va butun ish davomida yagona, tanlangan tamoyilga amal qiladi.

Sharhlar va eslatmalarning tahririda ularni mantiqan yaxlitlik, mazmunan uyg‘unlikka erishish maqsadida kitob appartining boshqa unsurlari bilan qiyoslash nazarda tutiladi. Bu tarixiy-adabiy tushuntirishlar barchasiga, umumiy yo‘nalish beradi, shuningdek qaytariq va ziddiyatlarning oldini oladi. Xususan, kirish maqola bilan tarixiy-adabiy sharhdagi ma’lumotlar hajmini aniq belgilab olish, ayniqsa, zarurdir.

Izohli lug‘atlar (lug‘at sharhlari) (ko‘p jihatdan eslatmalari), yuqorida qayd etilganidek so‘zlar va iboralarni izohlashi - tushuntirishi talab etiladi, ayniqsa, badiiy asarlarda. Hozirgi adabiy til lug‘atida bo‘lmagan, shevalar, lahjalarga xos so‘z va iboralar badiiy ijodda tez-tez uchrab turadi. Albatta, ularni adabiy tilga shunchaki tarjimasi kifoya qilmaydi, balki izohini, agar chet so‘z bo‘lsa, etimologik izohini ham berish lozim. Massalan, **muxbir**. Izohli lug‘atda u shunday izohlanadi: **Muxbir** [a] 1. Gazeta, jurnal, radio va boshqa informatsiya organlariga maqola, xabar va sh .k. yozib turadigan kishi. **Gazeta muxbiri**. **Maxsus muxbir**. 2. Biror kimsa yoki tashkilot bilan xabarlashib, xat yozishib turuvchi kimsa. **Yozuvchining muxbiri**.

Lekin bu ma’lumot etarli bo‘lmasligi mumkin. O‘quvchini *muxbir* so‘zining qaysi tildan o‘zbek adabiy tiliga

o‘tganigina emas (yuqorida berilgan [a] harfi arabcha degani), balki uning arabchadagi ma’no ifodasi ham qiziqtirishi mumkin. Shuning uchun so‘zning etimologik izohini berish ma’lumotni boyitadi, asar qimmatinpi oshiradi, o‘quvchi bilim doirasini kengaytiradi. Shuning uchun *muxbir* so‘zi yasama so‘z ekanligi, o‘zagi xabar bo‘lib, arab tilidagi –mu old qo‘srimcha yordamida yangi so‘z-shaxs oti yasalgan. Xabar o‘zbek tilidagi *darak* so‘zi ma’no ifodasini beradi. Agar shunga asoslansak *muxbir* o‘zbek tilida *darakchi* ma’nosidagi shaxs oti ifodasini beradi. Demak, biz muxbirni darakchi deb atashimiz mumkin. Agar shunday bo‘lsa, unda o‘zbek adabiy tili o‘z imkoniyatlari asosida yangi bir so‘zga ega bo‘lgan bo‘lur edi.

Sharhlar, eslatmalarni tahrir qilishda mazkur apparatlar uchun qo‘llangan havolalar tizimini aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Matn ortidagi tushuntirishlar ilmiy nashrlar uchun maqbul sanaladi. Chunki sharh bularda hajman boshqalarga nisbatan katta bo‘ladi. O‘quv adabiyotlarida, tayyorgarligi yuqori bo‘lmagan o‘quvchilarga mo‘ljallangan asarlarda satr osti izohlari qulaydir. Bunday adabiyotlarda kitob oxirida qo‘srimcha materiallar, tarixiy-adabiy tushuntirishlar va h. beriladi. Satr osti izohlarda chet tildagi ifodalar va boshqa ma’lumotlar keltiriladi. Bulardan tashqari havolalarning raqamlanishi (tartib raqami)ni ham tekshirish muhim. Ba’zi adabiyotlarda asardagi barcha izohlar sidirg‘a raqamlanadi - kitobning boshidan oxirigacha tartiblanadi, ba’zi asarlarda muayyan qismda sidirg‘a beriladi, boshqa qismda yana birdan boshlanadi, yana boshqa bir tur asarlarda izohlar har bir sahifada mustaqil bo‘ladi, ya’ni birdan boshlanib, nechta bo‘lsa, shunga mos raqam bilan tugaydi, yangi sahifadagi izohlar yana birdan boshlanadi.

Ko‘rsatkichlar ham kitob apparatining muhim unsuri sanaladi. Ayrim manbalarda ular **yordamchi** ko‘rsatkichlar deb ham ataladi. Ular o‘ziga xos yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lib, asardagi materiallarni tashkillashtirishda aniqlanmagan ma’lumotlarni topishga imkon beradi. Ko‘rsatkich ma’lumot uchun, bir nechta manbani qiyoslash uchun, o‘quv-takrorlash, biror ifodani aniqlash uchun zarurdir. Ko‘rsatkichlar kitob tahliliy mazmunini o‘zida ifoda etgan holda nashrning ilmiy va axboriy qimmatini oshiradi. Ko‘rsatkichlar, ayniqsa, qomusiy (ensiklopedik) asarlarda faqat maqolalarning sarlavhasi bo‘yicha emas, balki maqola ichida qayd etilgan, eslatilgan har qanday terminni ham izlab topish imkonini beradi. Shunday qilib ko‘rsatkichlar universal ma’lumotnoma sifatida ensiklopedik asar imkoniyatlarini asosiy matndagi maqoladan ko‘ra ko‘rsatkichlar ruknlar qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha marta oshadi.

Materiallarning guruhanishusuligako‘rako‘rsatkichlarni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin: *alifbo tartibidagi, tizimli va aralash*. Alifbo tartibidagi ko‘rsatkichlarda ruknlar va ost ruknlar alifboga asosan belgilanadi. Tizimli ko‘rsatkichda mantiqiy tavsiflanadi. Tizimli ko‘rsatkich kam uchraydi, ommabop, tавsiyanoma singari nashrlarga xos. Bunday asarlar keng ommaga mo‘ljallangan bo‘lib, eng om-malashgani yilnomaga ko‘rsatkichlardir, bular tarixga oid ishlarga mosdir. Aralash (birlashgan) ko‘rsatkichlar bir necha tur ko‘rsatkichlar, qo‘shiluvidan iborat. Bular hajmi uncha katta, mazmunan murakkab bo‘lmagan kitoblarda uchraydi.

Ko‘rsatkichlar rukn tuzilishi bo‘yicha *oddiy, yoyiq* (tahliliy) va *annotatsiyalangan* ko‘rsatkichlarga ajraladi.

*Oddiy ko‘rsatkichda* ismdan, nomdan so‘ng kitob betlari ko‘rsatiladi. Masalan: Oybek. Qutliq qon, 21-b. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon, 42-b. va h.

Mazkur oddiy ko'rsatkichning yana bir jihatni ayrim ismlar va fanlarga havolalarning ko'pligi hisoblanadi. Bunday ko'rsatkichlar bir nechta ost *ko'rsatkichlarga* ega bo'ladi. **Ular yoyiq yoki tahliliy (analitik)** deb ataladi, ruknni aniqlashtirishga, matnga qilingan havolalarni tabaqalashtiradi va shunday qilib, kitob apparatining mazkur unsuridan foydalanishni osonlashtiradi. Masalan:

- Falsafa, 1, 47-53; 2, 120-131; 3, 240-250 va h.
- Sharq falsafasi - 49, 90, 121, 134 va h.
  - G'arb falsafasi - 60, 82, 119, 128 va h.
  - Hind falsafasi - 101, 114, 141 va h.
  - Yunon falsafasi - 152, 169, 180 va h.

Yuqoridagilardan ko'rindaniki, asosiy sarlavha (rukun) qo'shimcha tushuntirishlar (ost rukun)ga ega. O'quvchi falsafaga qiziqsa, o'nlab havolalarni ko'rib chiqishi shart emas, tegishli qismlarga murojaat etishi kifoya.

**Annotatsiyalangan ko'rsatkichlar** ismlar va narsa, voqealarga hodisalarga tushuntirish beradi. Masalan:

*Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) - Mova-*  
*roumnahr va Xurosonda buyuk temuriylar hukm-*  
*ronligiga asos solgan, mashhur sarkarda, madani-*  
*yat, ilm-fan homiysi, ko'plab me'moriy obidalar*  
*bunyod ettirgan, she'riyatni ijodchilarni qadrla-*  
*gan. Uning «Temur tuzuklari», «Zafar yo'li» asari*  
*Shargda ham, G'arbda ham shuhrat qozongan. 97,*  
*13-154, 168, 174 va h.*

Ko'rsatkichlarni tuzish noshirlik ishida, odatda, nashriyotlarda tahririyatga yuklatiladi va ular bilan maxsus tayy-

organlikka ega hamda muayyan malakaga ega bo‘lganlar shug‘ullanadi. Ba’zan bu vazifani muallif bajaradi. Tahrir qilish muharrir zimmasiga yuklatiladi. Lekin ko‘rsatkichlarni tahrir qilish uchun muharrir kitob apparatining bu unsuriga qo‘yiladigan talablarni, ko‘rsatkich tuzish qoidalarini yaxshi biliishi talab etiladi.

Ko‘rsatkich tuzish mas’uliyatli ish bo‘lib, uni tuzishda aniq tartibga rioya etish lozim. Avvalo, u sahifalangan sahifalar bo‘yicha, korrekturaga barcha tegishli tuzatishlar kiritilgandan so‘ng kirishiladi. Aslida bu ish oldinroq boshlanadi: so‘zlik tuziladi, ismlar va atamalar tanlanadi, annotatsiya tayyorlanadi. Lekin, asosiy ish bari bir sahifalash amalga oshirilgandan so‘ng boshlanadi. Chunki ruknlar, havolalar qaysi betdaligi aniq bo‘lmay turib ko‘rsatkichni tuzib bo‘lmaydi. Ko‘rsatkichlarni tayyorlashda quyidagi usuldan foydalanish mumkin: sahifalardagi ism va terminlar terib olinadi, yaxshisi ularni alohida-alohida varaqchalarga yozib olgan ma’qul. Keyingi bajariladigan ish - ularni alifboga solish bo‘ladi.

Ismlar ko‘rsatkichida matnda uchraydigan barcha familiya, ism, taxalluslar kiritiladi. Lekin, bunda ham har bir holatda muallif qaysi ismni aniq keltiradi, u bilan bog‘liq ma’lumotlarni - otasining ismi, taxallusi, tug‘ilgan va vafot etgan yil, oy, kunni, qo‘shaloq familiya (G‘arbda), taxalluslar (Sharqda), chet elliqlarning ismi, familiyasi va h. ni aniqlash lozim bo‘ladi.

Ko‘rsatkichlarni tahrir qilish bir qator vazifalarni bajarishni ko‘zda tutadi: ko‘rsatkichning turi va xilini baholash; so‘z tanlash tamoyiliga amal qilinganlikni tekshirish; ost ko‘rsatkichlardagi so‘zlarning guruhlanishini aniqlash; havola qilingan betlar to‘g‘ri ko‘rsatilganini tekshirish; har bir nom ostida joylashgan betlar ketma-ketligini tekshirish.

Ko'rsatkichni baholash deganda nima nazarda tutiladi? Muharrir uni boshlashda bosh tamoyilga asoslanadi. U ham bo'lsa, har bir ilmiy asar, oliv yoki o'rta maxsus ta'lim muassasasi uchun darslik, yozuvchining har bir tanlangan asari, olimning, davlat, jamoat arbobining asari, umuman har bir kitob, agar uning hajmi 15 muallif taboqdan yuqori bo'lsa (badiiy asar, bolalar kitoblari bundan mustasno), u yoki bu ko'rsatkichga ega bo'lishi kerak. Lekin asarning turiga ko'ra ko'rsatkich ham turlicha, o'zi taalluqli bo'lgan asarga mosi beriladi. Masalan, ijtimoiy, gumanitar asarlarda ismlar va narsalar ko'rsatkichi bo'lishi maqsadga muvofiq; tabiiy-ilmiy asarlarda ko'p jihatli narsalar ko'rsatkichi berilishi lozim; asarlar to'plamida asarlar ko'rsatkichi; darsliklarda bir xil - yagona ko'rsatkichlar berilishi kerak.

Ko'rsatkichlarning hajmi qancha bo'lishi, hozirgi zamon kitobshunosligida asar tahliliy mazmunini bera oladigan, lekin ko'p joy egallamasligi, o'rtacha hajmdagi ko'rsatkich nashr hajmining 2-3% ni tashkil etishi, ayrim hollardagini 5%ga borishi mumkinligi qayd etilgan. Endi, ko'rsatkichda nimalar beriladi? Asar to'liq bag'ishlangan ismlar, narsalar ko'rsatkichga kiritilmaydi. Shuningdek, ko'rsatkichni tasodifiy ismlar, nomlar (kitobda uchragan) to'ldirib ham yuborilmaydi. Har bir ism, nom ortida aniq ma'lumot beruvchi matn parchasi bo'lishi kerak.

Ruknlar joylashuvidanagi alifbo tartibini aniqlash muharirning vazifasi hisoblanadi. Alifbo tartibidagi ko'rsatkichlar turlicha bo'ladi: harfma-harf yoki so'z ketidan so'z tarzida.

Ko'rsatkich havola qilingan sahifa aniq belgilangan taqdirda to'laqonli hisoblanadi. Shuning uchun har bir havolaning matndagimuayyan joygamos kelishligini tekshirish muharrirdan chidam talab etadi, bu ish nihoyatda diqqat-e'tibor

bilan bajarilishi lozim. Bu ish bilan shug‘ullangan vaqtida muharrir shunchaki, havola ism yoki narsaga mosligini emas, balki kontekstga amalda muvofiq ekanligini ham tekshiradi.

Noshirlik amaliyotida ba’zan havola tekshirilganda rukn ham aniqlashtiriladi, ayrim hollarda esa uni olib tashlaydi. Muharrir ko‘rsatkich yordamida kitob matniga tuzatish kiritgan hollar ham bo‘lgan.

Xullas, ko‘rsatkichlarni tahrir qilish jarayoni muharrir dan yuksak mas’uliyat talab etadi. Ko‘rsatkichlarni to‘g‘rilash, qisqartirish, qo‘sishdan tashqarii, ular hajmini ixchamlashtirish ham kerak bo‘ladi. Bunga turdosh izohlar (havolalar)ni birlashtirib, izohlar tizimidan (*qrng.*, *yana qrng.*, *o’sha joyda*, *o’sha asar*) foydalanib erishish mumkin.

Chop etilgan asarning nashr bildirgichlari deganda nashrni tavsiflovchi, uning bezatilishi bibliografiya va h. ga bag‘ishlangan ko‘rsatkichlar majmui tushuniladi. Kitob apparatining boshqa, ayrim hollarda umuman berilmaydigan unsurlaridan farqli o‘laroq nashr bildirgichlari hech bir istisnosiz har bir nashrda bo‘lishi lozim. Nashrning turi, maqsadi, kimlarga mo‘ljallanganligiga bog‘liq holda Davlat standartida belgilangan tartib va tavsifda bo‘ladi.

Barcha kitoblarda quyidagi nashr bildirgichlar bo‘ladi: nashrda qatnashgan barcha shaxslar haqidagi ma’lumot (muallif, tuzuvchi, tarjimon, muharrir, musahhih, rassom va b.); nashr sarlavhasi (nomi); sarlavha ostidagi nomlar; jild tartib raqami; turkum raqami; davriy, davomiy nashr raqami; chiqarilish (chop etilganlik) ma’lumotlari; sarlavha usti ma’lumotlari; kutubxona shifri; nashr ma’lumoti; mualliflik huquqi himoyasi belgisi; tasniflash raqami (indeksi); nashriyot annotatsiyasi; referat va b.

Kitob va broshyuralarda nashr bildirgichlar asosan bosh (titul) varaqda yoki uning orqa tomonida joylashtiriladi, ba'zan muqovada ham beriladi.

Bu bobda kitob apparati asosiy unsurlari hamda jurnalistika yo'nalishi bakalavriantlariga umumiy tushunchaga ega bo'lishlariga muvofiq keladigan darajada ma'lumotlar jamlandi. Ularning har biri, alohida va birgalikda muhim vazifani bajaradi, nashr sifatini oshiradi.

Kitob apparatining unsurlari turli shaxslar tomonidan tayyorlanadi, shunga ko'ra muharrir, hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, bu ishda yetakchi vazifasini o'taydi. U kitob shaklini, unsurlarini tayyorlashda faol qatnashadi. Kitob apparatini tuzish bo'yicha muharrir faoliyatining xususiyatlari, aytish joizki, tuzuvchi faoliyati bilan ko'p jihatdan o'xshashib ketadi.

## TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. *Kitob apparati deganda nimalar tushuniladi?*
2. *Annotatsiya va so 'zboshining mohiyati nimada?*
3. *So 'zboshi va kirish farqi nimada?*
4. *So 'ng so 'zlarning vazifasi qanday, ular tahririda muharrir nimalarga e 'tibor qaratishi kerak?*
5. *Sharhning qanday turlari bor va tahririda nimalarga e 'tibor beriladi?*
6. *Eslatmalarni tahrir qilishda nimalar nazarda tutiladi?*
7. *Ko 'rsatkichlar tahriri muharrir oldiga qanday vazifalarni qo 'yadi?*
8. *Kitob apparatini tahrir qilishda muharrir mas 'uliyati nimalarda ko 'rinadi?*

## XI BOB

### ADABIYOT AYRIM TURLARI TAHRIRI

- *Adabiy asar turlari va nashri*
- *Asar mohiyati*
- *Ommaviy - siyosiy adabiyotlar tahriri*
- *Ilmiy - ommabop adabiyotlar tahriri*

Adabiy asarlar qo‘lyozmalarini tahrir qilishga kirishish-dan oldin ularning qaysi sohaga oidligi, ya’ni turini aniqlash lozim.

Adabiyot turlari deganda ijtimoiy ahamiyatga molik bayon usuli, ijtimoiy vazifasi o‘quvchilar auditoriyasi bilan bog‘liq matniy asarlar majmui tushuniladi. Mohiyati, ijtimoiy vazifasi, o‘quvchilar auditoriyasini belgilash adabiyot ayrim turlarini tahrir qilishning, aytish mumkinki, nazariy asosi hisoblanadi. Kitobshunoslikda har bir tur uchun tegishli terminlar mavjud (bolalar adabiyoti), bundan tashqari, maqsadga ko‘ra ham guruhanadi masalan, ma’lumotnomma, o‘quv adabiyoti. Lekin bu boshqa belgilari yo‘q degani emas.

Adabiyot turlari deyish bu cheklash, chegaralash degani emas, balki moslashuvchan, harakatdagi, rivojlanishdagi jaroyon. Bu tushuncha tadrijiy suratda, ijtimoiy talabga ko‘ra, jamiyat amaliyoti rivoji bilan bog‘liq holda takomillashadi. Har bir tarixiy davr umuman adabiyotlar tuzilishigagina emas balki uning ayrim turlari tavsifiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Miloddan oldingi 7-6-asrda yuzaga kelgan «Avesto» diniy-ma’rifiy adabiyot, qadimgi turkiy tosh bitiklar tarixiy - biografik hisoblansa, YusufXos Xojib, Ahmad Yugnakiylarning asarlari ma’naviy-ma’rifiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa milodiy IX-XI asrdagi buyuk ajdodlarimizning asarlari ilmiy,

Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyor, Sulaymon Boqirg‘oniy asarlari ikki ming yillik oralig‘idagi diniy-ma’rifiy asarlar hisoblanadi. Keyinchalik qomusiy asarlar ham yuzaga keladi (masalan, «Boburnoma»). Bulardan tashqari yana pand-nasihat tarzidagi (didaktik), ta’limiy adabiyotlar paydo bo‘la boshlaydi va bular barchasi kishilik jamiyatni rivoji hamda talablari bilan bog‘liqdir.

Insoniyat tarixida sanoatlashish boshlanishi bilan adabiyotlarning yangi turlari - ishlab chiqarish-texnika, ma’lumotnomalar, ilmiy-ommabop va b. yuzaga keladi. Jahon miyosida bunday adabiyotlarning yuzaga kelishi va takomillashuvi butun XIX asr mobaynida davom etadi. Yuqorida aytib o‘tilgan tur adabiyotlarni an’anaviy deyish mumkin. Chunki ular qat’iy va uzoq davom etgan jamiyat extiyoti tufayli yuzaga kelgan. Tabiiyki, ayrimlari yo‘qola borishi yoki tubdan qayta o‘zgarishi mumkin. Bakalavriatura 4-bosqichidagi o‘quv kursida «Adabiyot ayrim turlari tahriri» mavzui 2 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, albatta, hozirgi adabiy asarlar amaliyotini to‘liq qamrab ololmaydi. Bu kurs bilan «Noshirlik ishi va tahrir» ixtisosligi bo‘yicha magistraturada atroficha tanishiladi.

Adabiy asarlar turlarga ularning mohiyati (predmeti)ga ko‘ra ajratiladi.

Asarning mohiyati unda nima haqida gap borishi, unda nima haqida bayon qilinishi tushuniladi. Ammo amaliyotda bir an’anaviy adabiy tushuncha ham bor, u **mavzu** degani. Ular o‘rtasidagi farq shundaki, mavzu deganda birgina asarda nima deyilishi tushinilsa, mohiyat deganda biror turga mansub adabiyotlar barchasida bayon etiladigan fikrlar tushuniladi.

Xususan, ilmiy-ommabop adabiyot ham o‘z mohiyatiga egadir. Mazkur adabiyotda fan mavjud hayotdagi bирор

hodisaning mazmunini tizimlashgan bilim sifatida bayon etadi. Fandan asosan dunyoqarashlarni, ijtimoiy-siyosiy yohud keng xalq xo‘jaligi ahamiyatiga molik bo‘lganlarini oladi. Bu kitob o‘quvchilarda ijodiy fikrlash va bilimga ehtiyoj uyg‘otadi. Ilmiy - ommabop adabiyotlarda ilmiy qonuniyatlar bayon etiladi, lekin ular bevosa ishlab chiqarish qoidasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Bilim nazariyada taqdim etilganidek mana shu hammabop ko‘rinishda hech qachon amaliyotda qo‘llanilmaydi<sup>21</sup>.

O‘quv adabiyotlarining ham o‘ziga xos mohiyati bor. Unda muayyan bilim sohasi qanday bo‘lsa shunday bayon etilmaydi (tilshunoslik, kimyo, fizika va b.) balki o‘quv fani maxsus tuziladi: bilim, ko‘nikma, malaka tarzida. Bular darslikdan o‘zlashtiriladi. Muayyan vaqtda, muayyan ta’lim tizimidagi ta’lim va tarbiyaga bo‘lgan ijtimoiy talabga qat’iy amal qilgan holda aniq maqsad bo‘yicha tanlanadi, shu bilan birga undan foydalanuvchi o‘quvchi, talabalar ruhiyati, yoshi hisobga olinadi.

Endi ommaviy adabiyot va ommaviy o‘quvchi xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Ommaviy adabiyot kitobshunoslikda keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan adabiyot tarzida ta’riflanadi va u tor sohadagilar foydalanishi uchun chiqarilmaydi. Uni ommaviy nashr bilan birdek deb bo‘lmaydi, chunki bunday nashrlar ko‘plab nushada chiqarilgan bo‘ladi, hammabop yoki tegishlicha sharhlanadi.

Tahrir nazariyasida ommaviy o‘quvchiga shunday ta’rif beriladi: savodli, lekin asarda yoritilgan bilim sohasi bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmaganlar.

Ommaviy ishlab chiqarish - texnikaviy adabiyotlarni

---

<sup>21</sup>Golovanov V.N.Zakoni v sisteme znaniya.-Moskva: Nauka, 1970.-215-b.

o‘quvchilar ham alohida guruhni tashkil etadi. Bular oliy ta’lim yoki o‘rtta maxsus hunar ta’limi bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega emaslar. Bunday adabiyotlar ular uchun ishlab chiqarish malakasini oshirish, sanoat yoki qishloq xo‘jaligidagi ilg‘or tajribani o‘zlashtirishlari uchun zarurdir.

Bakalavriatura ta’limotida talabalar adabiyotlarning ayrimlari (ijtimoiy jihatdan ahamiyati nisbatan yuqori bo‘lganlari) ning tahriri xususida umumiyl tushunchaga ega bo‘ladilar. Har biri bilan alohida-alohida va atroficha magistratura ta’limida ma’lumot oladilar.

**Ommaviy-siyosiy adabiyotlar** tahriri ham boshqa tur asarlar singari til va uslub bilan chambarchas bog‘liq. Har qanday ommaviy-siyosiy adabiyot o‘ziga xoslikka ega bo‘lish bilan birga umumiyl jihatlari ham bor. Ularda umumiyl yoki muayyan maqsadlar ko‘zlangan bo‘ladi.

Har qanday asarda yuqori qadrlanadigan sifatlar bo‘lib, uslubiy savodlilik, soddalik, aniqlik, tushunarllilik, qisqalik, ta’sirchanlik, mantiqan puxtalik, bayondagi o‘ziga xoslik hisoblanadi.

Bunday sifat ko‘rsatkichlar ommaviy - siyosiy adabiyotlarga ham to‘lig‘icha taalluqlidir.

Ommaviy-siyosiy adabiyotlarda ramzlar va belgilarn deyarli bo‘lmaydi, bular asosan rasmiylashtirilgan mulohazalar uchun xos va ko‘proq ilmiy adabiyotlarda uchraydi. Adabiy yozma nutq me’yorlariga amal qilish majburiy, ayrim hollar-dagina, agar muallif muayyan ijodiy maqsadni ko‘ziagan bo‘lsa, shundagina yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Adabiyot har qanday turning uslubi va tilini tahlil etish ancha chuqur va mahsus maqsadga ega. Bunga sabab muloqotning turli sohalarida til turli vazifani bajaradi. Shunga

asoslanib, aytish mumkinki, **vazifaviy uslublarga** til hodisasi sifatida qarash mumkin.

Ommaviy-siyosiy adabiyotlar publitsistik uslubga moyillik bildiradi. Bu uslubning o‘ziga xosligi tashviqot-targ‘ibot tabiatidan kelib chiqadi, o‘z o‘quvchilariga nimanidir xabarini etkazmaydi, balki tashviqot vazifasini o‘taydi: ishon-tiradi, tushuntiradi, isbotlaydi, e’tiqodlashtiradi. O‘quvchining fikrini, bahosini, harakatini muayyan tarzda yo‘naltiradi. Mu-allif biror masala, xususida fikr bildirganda o‘z shaxsiy nuqtai nazaridan emas, balki o‘z millati, jamiyati, davlatining vakili sifatida, ularning manfaati nuqtai nazaridan so‘z yuritadi.

Ommaviy-siyosiy, adabiyotlar shu jumladan matbuot tashviqotida, albatta, narsa, hodisaga, baho beriladi, chunki u o‘quvchi atrofida sodir bo‘layotgan hodisalarni, o‘zini qurshagan narsalarni baholay olishi kerak bo‘ladi. Til vositalari ularni ifodalash uchun zarur, odatda ular uslubiy jihatdan betaraf, ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Bayon asosan uchinchi shaxs tilidan qilinadi. Nutqda mafkura va siyosatga oid terminlar ko‘plab uchraydi. Masalan, mustaqillik, demokratiya, erkin, ilg‘or, adolatli, huquqiy, teng huquqlilik, muholifat, fuqarolik, oshkorlik, buzg‘unchi va h.

Bunday adabiyotda, asosan, hayotiy faktlar yoritiladi, ularga qaysidir darajada emotsiyonal, axloqiy-siyosiy baho beriladi. Shunga ko‘ra hayotiy faktlarni tasvirlash zarurati muallif nutqini so‘zlashuv uslubiga yaqinlashtiradi. Kitobiy, ommabop bo‘lmagan jumlalarni kamaytiradi, nutqqa anqlik, tushunarllilik, tasviriylik, ta’sirchanlik, individuallik va o‘ziga xos ruhiyat baxsh etadi.

Ommaviy-siyosiy adabiyotlarda ko‘p uchraydigan terminlarni tushuntirishi va ularni matnga kiritish muallifdan chuqur bilim va malaka talab etadi. Hamma mualliflar ham

shunday bilim va malakaga ega bo‘lavermaydi. Muharrirning vazifasi, bunday hollarda, ancha murakkablashadi. Mafkuraviy tushunchalar ijtimoiy hodisalarini idroklashga yordam bersada, lekin, ularni barcha ham birdek anglay olmaydi. Bular barchasi muharrir oldiga terminlarni izohlashning usullarini aniq maqsadga ko‘ra tahlil etish masalasini qo‘yadi.

Masalan, **milliy mustaqillik** birikmasi garchi muayyan millat mustaqilligi ma’no ifodasini bersa-da, lekin uni qo‘llashdan maqsad yurt egasi bo‘lgan millatlarninggina mustaqilligini ifoda etmay, balki milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgan millat yurtida istiqomat qilayotgan boshqa kichik millatlar, elatlar vakillarining ham ozod, erkin va xur ekanliklarini anglatadi.

Ommaviy-siyosiy adabiyotlarda ham ilmiy adabiyotlardagi singari o‘quvchi ilmiy fikrdagi eng asosiy narsani, eng noziklikni ilg‘ab olishi uchun muallif ma’naviy, mantiqiy jihatni to‘g‘ri belgilay olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy ta’kidga erishish uchun turli usullardan foydalanish mumkin: so‘zlarni yoki soz birikmalarini takror qo‘llash; butun jumlalarni takrorlash; maxsus so‘zlar (*mutloq, xolos, faqat, vaholanki, baxtga qarshi, ayni, xullasi kalom, afsuski, ming afsuski, nahotki, hayxot, ta’bir joiz bo‘lsa* va h.). Savol, ma’lumki ta’sirchan, mazmundor, shuningdek, ancha keng tarqalgan uslubiy vosita hisoblanadi. Zero, u mantiqiy bog‘liqlikni ta’kid etishda muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy-siyosiy adabiyotni til va uslubga ko‘ra tahlil hamda tahrir etishda muharrir unga har tomonlama chuqr nazar tashlashi va quyidagi talablarni hisobga olishi kerak.

Birinchidan, asarning jamiat uchun kerakligini. Bunda muharrir asarning turi, janri, mavzui, maqsadi va o‘quvchiga etib boradigan vaqtdagi tarixiy vaziyatning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olishi zarur.

Ikkinchidan, asar savodli yozilgan bo‘lishini. Bunda matn til va uslubga ko‘ra shu tur asarlarga qo‘yiladigan barcha talablar darajasida bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, asarda til vositasida aytilmoqchi bo‘lganlarning barchasi aniq bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, so‘z qo‘llash, bayon iloji boricha mualifning o‘z uslubida bo‘lgani maqbuldir. Chunki, bir qolipdagι asarlar o‘quvchi uchun zerikarli bo‘lib qoladi.

Xullas, o‘ziga xos ifodali nutq, avvalo, muallif mahoratiga, shahsiy so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xoslikka bog‘liq bo‘lib, uning ommaviy-siyosiy asarlar, publitsistikadagi eng tasirchan usullaridan biri hisoblanadi.

**Ilmiy-ommabop adabiyotlar** yaratish ham jamiyat rivojida muhim ahamiyatga egadir. Bizning maqsadimiz hamon huquqiy davlatdan, fuqarolik jamiyatiga o‘tish ekan va bu jamiyat har bir a’zosining saviyasi, ongi yuksak darajada bo‘lishi bilan bog‘liq ekan mazkur tur adabiyot tobora ahamiyat kasb eta boradi. Ilmiy bilimlarni keng yoyishda ilmiy-ommabop adabiyotlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning maqsadini belgilash, muharrirning vazifasi nimadan iboratligini ko‘rsatish uchun mazkur adabiyotning mohiyatini chuqr tushunish kerak bo‘ladi. Buning uchun fan, uning jamiyatimiz hayotidagi, O‘zbekistonning buyuk kelajagini qurishdagi o‘rnini chuqr tushunish lozim. Bundan tashqari uni ommalashtirish usullari, vositalari, bularning janr bilan bog‘liq ekanliklarini, o‘quvchilarining doirasini aniq tasavvur etish lozim. Ilmiy-ommabop adabiyotlar zamon talablariga ko‘ra, shuningdek, o‘quvchilar extiyojlarini hisobga olgan holda turli fan sohalariga oid bo‘lishi mumkin. Masalan, tabiat boyliklari, bozor iqtisodiyoti, qishloq xo‘jaligi; fan asoslarini; bilimning barcha sohasidagi zamonaviy fan va texnika

yutuqlari; fan va texnika tarixi; ekologiya, koinot; kelajak fani, texnikasi va boshqalar.

Yaqin-yaqinlarga ilmiy-ommabop adabiyotlar tizimli ma'lumotga ega bo'lmagan o'quvchilar keng ommasiga mo'ljallangan edi. Ilmiy-ommabop asarlarning mualliflari ilmiy materialni bayon etishda fizika, ximiya, matematika, astronomiya, geologiya, biologiya, kibernetikaga oid sodda tus-hunchalarni imkon qadar ko'proq berishga harakat qiladilar va ommabop tarzda sharhlaydilar. Bugunga kelib, vaziyat tubdan o'zgardi, endi kishilar ilmni faqat talabalar kursisidan, aspirantura, doktaranturadan emas, balki mustaqil tarzda adabiyotlardan, internetdan ola boshladilar. Ilmiy-ommabop adabiyotlarga faqat o'quvchilar keng ommasigina emas, balki turli sohalarning olimlari ham ehtiyoj sezmoqdalar. Albatta tilshunoslikdan fizik, ximik, matematiklarga mo'ljallangan ilmiy-ommabop asar oddiy, tayyorgarligi kam bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallanganidan boshqacharoq yozilgan bo'lishi kerak. Fan va texnikaning rivoji bugunga kelib, shu qadar jadallahib ketdiki, u bilan tengma-teng odimlash uchun ma'lumotlarni ko'p va tez olish zarurati paydo bo'ldi. Ilgarilari yillab vaqt mobaynida erishilgan natijalarga bugunga kelib oylar, xatto xafatlarda erishilmoqda. Demak, kuchli extiyojni axborotning yangi-yangi usullari va ilmiy-ommabop adabiyotlar «tezkor darakchi» vazifasini o'tashi kerak.

Shunday qilib, bu tur adabiyotlarning o'quvchilar doirasini haddan ziyod kengaygan. Bundan tashqari ular xilma-xilligi ortgan. Shunga ko'ra ilmiy-ommabop adabiyotlarni tahrirdan chiqaruvchi muharrir har birining o'ziga xos jihatlarini hisobga olishi, uni o'qiydiganlarning tayyorgarlik darajasini aniq tasavvur etishi kerak.

Asarning ommaboplige bayonning aniqligi va tadrijiyligiga ko'ra erishiladi. Bundan tashqari murakkab hodisa-

lar oddiylari, noma'lum bo'lmaganlar ma'lum bo'lganlar bilan solishtiriladi. Garchi bu keyingilar juda ham oddiy bo'lmasalar-da, lekin ancha odatiy, tanish bo'ladi. Ma'lumki, ilmiy-ommabop asarlarda ko'plab raqamlar- miqdor, xajm, masofa va boshqalarni belgilovchi uchraydi. Muharrirning vazifasi o'quvchilar raqamlar to'rida o'ralashib qolmasliklari uchun muallifga ularni oddiy, tushunarli tarzda bo'lishiga ko'maklashishdan iborat, toki ular ishonarli va aniq misollar ni keltirsinlar. Bayonning ommabopligrini belgilovchi yana bir muhim jihat tadrijiylik hisoblanadi. Daliliy (faktik) material fan haqidagi kitobda e'tibor bilan tanlangan va asosiy g'oyaga bo'ysundirilgan bo'lishi lozim. Umuman ilmiy-ommabop asar qat'iy reja asosida yozilishi shart. Muallif asosiy mavzudan chetga chiqmasligi, ikkinchi darajali unsurlar bilan bayonni murakkablashtirmasligi kerak. Yaxshisi asarni uncha katta bo'lmagan boblarga bo'lish, agar katta bob bo'lsa, uni fasllarga ajratib, sarlavhalar qo'yish va bu bilan bayon chegarasini aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, ilmiy-ommabop asarga muharrir tomonidan quyidagi qat'iy talablar qo'yilishi kerak:

- o'quvchilar tayyorgarligini hisobga olgan holda materialni bayon qilish;

- bayonning aniq va tadrijiyligini ta'minlash;
- faktik materiallarni diqqat bilan tanlash;
- qat'iy tuzilish (kompozitsiya)ga ega bo'lish.

Bulardan tashqari asar tili va uslubiga ham qo'yiladigan tegishli talablar mavjud. Chunki ilm haqidagi asar, bu- ilmiy asar emas. Ilmiy asarni ilm haqidagi - ilmiy- ommabop asarga aylantirish uchun inson nutqi ega bo'lgan barcha jihat va vositalarni ishga solishiga to'g'ri keladi. Adabiy til, uslublarning barcha imkoniyatlaridan to'liq hamda o'rinni

foydalana olishgina shunday asarni yaratishga erishtirishi mumkin. Qisqasi ilm haqida yozish - san'at. Ommaboplak, bu- hammaboplak emas.

Fan-teknika jadal rivoj topayotgan, axborot maydonining globallashuvi sodir bo'layotgan bugungi kunda ilm haqidagi va boshqa tur adabiyotlar tilida yangi-yangi terminlar, birikmalar ko'payib bormoqda. Mustaqillik yillari- ikki o'n yillikning o'zidayoq maxsus so'zlar keng yoyila boshladi. Yangi ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarga o'tish tufayli ilmning har bir sohasida yangi terminlar qo'llana boshladi.

Masalan, *marketing, lizing, investitsiya, qo'shma korxona, transport, trast bank (iqtisodda); senat, spiker, (davlat qurilishi), pragmatika, sema, semema, agens, predikat* tilshunoslikda. Ilmiy-ommabop asarda tilning soddaligiga tor sohaga oid ifodalar va murakkab hisob-kitoblarni kiritmay, shuningdek, o'quvchiga tanish bo'lмаган terminlarni, yangi so'zlarni izohlab ketish, uzundan uzoq, va murakkab sintaktik konstruksiyalardan voz kechib erishiladi. Shu bilan birga ilmiy-ommabop adabiyot tili ilmiy asar tilidagi singari aniqlikka ega bo'lishi, badiiy asar tili singari yorqin va asar mo'ljallangan o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Ilmiy-ommabop asar tili va uslubi bo'yicha muharrir bajarishi lozim bo'lган faoliyatning o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ommabop bayonning o'ziga xos tomoni bo'lib, unda tilning uslub vositalari juda turli-tumanligi hisoblanadi. Ilmiy ma'lumotni xabarga aylantirish, soha mutaxassisi bo'lмаган o'quvchi tushunadigan qilishga ikki yo'lbilan erishish mumkin: ilmiy leksemani umum adabiy so'z bilan almashtirish; so'z ma'nosini tushuntirish. Buning uchun rang-barang so'zlar qo'llanadi, shu jumladan, ekspressiv emotSIONAL- uslubiy

bo‘yoqqa ega ma’ noli so‘zlardan foydalaniladi. Ilmiy uslubdan farqli o‘laroq bunda bir-biriga zid uslublar, ob’ektivlik, mantiq va his-hayajon (emotsionallik), balandparvozlik va so‘zlashuv qorishib ketadi, lekin me’yori bilan bo‘lishi kerak.

Terminlarni tanlash matnga kiritish va tushuntirish ilmiy-ommabop adabiyotda birinchi darajali ahamiyatga ega. Bu juda ham oson ish emas, chunki fanning ko‘pgina tarmoqlari-da hali terminologiya tartibga keltirilmagan.

Ilmiy-ommabop asarda terminlarga duch kelgan muharrir nimaga amal qilishi kerak?

1) iloji boricha o‘quvchilarga ma’lum bo‘lgan terminlardan foydalanish lozim;

2) faqat qo‘llamaslikni boshqa iloji qolmagan terminlarni qoldirishi kerak;

3) qoldirishga majbur bo‘lingan terminlar ma’nosini ochib berish zarur.

Agar bu oddty talablarga amal qilinmasa, ilmiy-ommabop asar tushunarilik buyicha ko‘p narsa yo‘qotadi.

Semasiologiyaga oid ilmiy asarda muallif yozadi.

*Metaforaning o‘zi komporativ konstruktsiyasi etalonida qolgan komponentlarning nutq imkoniyatiga ko‘ra implitsit ifoda topishdir.*

Jumla tarkibidagi komporativ, konstruktsiya, etalon, komponent, implitsit terminlar, tabiiyki, soha mutahassislar – tilshunoslar uchun ma’lum. Ho‘sish, ilmiy-ommabop matnga bularni qanday kiritish kerak?

1. Muallif terminga ta’rif berib, o‘quvchi uchun ma’lum misollar keltirishi mumkin, bu materialni tushunish-o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

2. Yangi (tanish bo‘lmagan) termin bilan tanishtirib muallif uning ma’no ifodasini boshqa so‘zlar bilan ochib berishi mumkin.

3. Maxsus leksema ma’nosi go‘yo yo‘l- yo‘lakay qavsda yoki bir-ikki so‘z bilan ochib ketiladi.

4. Keng ma’lum bo‘lmagan terminlar qavs ichida beriladi.

5. Ilmiy termin ma’nosini ochib berar ekan muallif ba’zan uning umum tomonidan qabul qilingan nomlarni keltiradi.

Bularni quyida misollarda ko‘ramiz:

1. **Metafora**, bu –ikki bir-biriga o‘xshash narsa, hodisa birining nomini ikkinchisiga ko‘chishi, masalan, qushning qanoti, samolyotning qanoti. Boshqa terminlarga ham shunday tushuntirish beriladi.

2. ....*komporativ konstruktsiya*, bu o‘xhatish konstruktsiyasi degani. konstruktsiya so‘zi keng tarqalgan, shunga ko‘ra uning o‘zini qoldirish mumkin. Agar asarni o‘quvchilar ko‘pchiligiga bu ham tushunarsiz bo‘lsa unda uning ma’no ifodasini ochib berish kerak bo‘ladi. Masalan, gap, jumla yoki gap bo‘laklarining tuzilmasi.

3. .... *implitsit* - ko‘ngildagidek yoki nazarda tutilganidek.

4. .... nazarda tutilganidek (implitsit) ifoda topishidir.

5. *Metafora* (istiora, o‘xhatish).

Xullas yuqoridagilarga amal qilinsa, ilmiy matn, quyidagicha ilmiy-ommabop ko‘rinishga keladi.

*Istioraning o‘zi o‘xhatish konstruktsiyasidagi o‘xhatiluvchida qolgan unsurlarning nutq imkoniyatiga ko‘ra nazarda tutilganidek ifoda topishidir.*

Ilmiy matnni bundan ham soddalashtirish mumkin, lekin bunday oddiylashtirishda, umuman ilmiylik yo‘qoladi va u tushunarsizga aylanadi.

Ilmiy-ommabop asar tili va uslubi ustida ishlar ekan muharrir, avvalo, uni andozalik (shtamp) lardan holi qilishi zarur, chunki ular matnni nursizlantiradi, zerikarli qiladi. Til qashshoqligi, mazkur tur asarlarning ko‘plarini saviya jihatdan ancha «sayoz» bo‘lishiga olib kelgan.

Qanday kamchiliklar ko‘proq kuzatiladi? Quyidagilar, bizningcha, tez-tez uchrab turadigan kamchiliklar sirasiga kiradi.

Avvalo, zarurati bo‘lmasa ham foydalanilgan, ma’ruzaviy idoraviy nutqqa xos qurilma (konstruktsiya). **Biz ko‘rdik-ki, endi... Biz ko‘rib o‘tdikki, ... Yuqorida qayd etganimizdek, ... Biz bilamizki, ... ва бошқалар.**

Ko‘pgina asarlarda uslubga zeb berishda andoza (standart) bo‘lib qolgan nutq unsurlari uchrab turadi. Masalan, agar gap gaz haqida bo‘lsa, **zangori olov**, neft’ haqida bo‘lsa, **qora oltin**, paxta haqida bo‘lsa, oq oltin va ho kazo.

Ko‘pincha matnlar shunday boshlanadi: **Bugunga kelib, xammaga ma’lumki, ... Bizning zamonda barchaga ayonki, ... Oldinroq ham aytilganidek,**

Ma’rifat haqida so‘z borganda: **Sog‘lom aql mantiqiga ko‘ra** «ma’rifat» deganda, asrlar osha kelayotgan umumiylan’ana tushuniladi.

Muharrir muallifga ana shunday andozaviy ifodalardan qutilishga yordam bermasa, o‘z vazifasini bajarmagan hisoblanadi. Ba’zi qo‘lyozmalarda hammabop so‘zlar, masalan, **ya’ni, shundaki, avvalambor, nafaqat** uchraydi. Bunday so‘zlar keng ko‘lamda, qo‘llanishi mavhum hollarda ham

uchrayveradi. Muharrir bularga alohida e'tiborni qaratishi, agar o'rinli bo'lsa qoldirishi lozim. Agar muallif bularni shunchaki so'zamollik maqsadida qo'llagan bo'lsa, qisqartish zarur.

Ilmiy-ommabop asarda sintaktik konstruktsiyalar juda xilma-xil. Bular to'liqsiz sodda gap, bog'livchili va bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar, aralash ergash gapli qo'shma gaplar ilmiy nutqdagidan ko'ra kamroq. Intonatsiya ham turli-tuman. Xabardan tashqari, ko'pincha savol ifoda topadi, fikrlash uyg'otadi. Xullas ilmiy-ommabop asar muallif uchun shoxsiy, o'ziga xos uslub uchun keng imkoniyatlar beradi. Muharrir oldiga esa tahrir jarayonida bular barchasini hisobga olish hamda zukko bo'lish talabini qo'yadi.

## TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. *Adabiyot turlari deganda qanday asarlar majmui tushuniladi?*
2. *Sanoatlashishga qadar qanday tur adabiyotlar mayjud bo'lgan?*
3. *Sanoatlashishning noshirlik ishiga ta'siri qanday bo'lgan?*
4. *Asar mohiyati nima?*
5. *Mavzu nima?*
6. *Ommaviy - siyosiy adabiyotlar tahririda muharrir nimalarga alohida e'tibor qaratishi kerak?*
7. *Ommaviy - siyosiy adabiyotlar va publitsistik asarlar o'xshashligi nimalarda ko'rinishi?*
8. *Ommaviy - siyosiy adabiyotlarda muharrir terminologiya masalasini qanday hal etadi?*
9. *Ommaviy - siyosiy asar tahlili va tahriri muharrir oldiga qanday vazifalarni qo'yadi?*
10. *Ilmiy - ommabop adabiyotlar yaratish jamiyat uchun nega kerak?*
11. *Ilmiy - ommabop asarning ommabopligi nimalarga bog'liq?*
12. *Ilmiy - ommabop asar qo'lyozmasiga qanday talablar qo'yiladi?*
13. *Ilmiy - ommabop asar tili va uslubi qanday bo'lishi kerak?*
14. *Ilmiy - ommabop asar tahririda terminlarga duch kelgan muharrir nimalarga amal qilishi kerak?*
15. *Ilmiy - ommabop asarlar qo'lyozmasida qanday kamchiliklar (muallif qalamiga xos) uchraydi?*

## XII BOB BADIY ASARLAR TAHRIRI

- *Badiiy asar tahririning o'ziga xosligi*
- *Qo'lyozmani baholashda muharrir nimalarga e'tibor qaratishi lozim*
- *Badiiy asarda obrazlilik*
- *Alisher Navoiy til va tahrir xususida*
- *Badiiy asarda til va uslub*
- *Ommaboplif, hujjatilik va badiiylik*
- *Badiiy asarda faktik material*

Badiiy asarlar adabiy asarlar nashrining anchagina qismini tashkil etadi. Bu badiiy asarning jamiyat hayotida tutgan o'mni va uning ahamiyati bilan bog'liq. Lekin hozirda nashr etilayotgan badiiy asarlarning hammasi ham chuqur g'oyaviy, tasviriy o'quvchilarning ongi va hissiyotiga ta'sir eta oladigan, ular ma'naviyatining boyitishga, ahloqini yuksaltirishga qodir deb, bo'lmaydi.

Badiiy asar ustida ishslash - tahrirning alohida sohasi hisoblanadi. Matnga yondashish, uni baholash mezoni, tahlil usuli asarning mohiyati bilan bog'liq. Badiiy asar - san'at turi hisoblanadi. Agar haykaltarosh tosh, marmar, bronza, ganchdan, rassom bo'yoqlardan, bastakor tovush (ohang)lar uyg'unligidan foydalanib narsa va hodisalarни ifoda etsa, obraz yaratса yozuvchi, shoir, dramaturg so'z yordamida yaratadi.

Shuni ta'kidlash joizki, hissiy bilish ilmiy bilishdan farqlanadi. Masalan, yozuvchi obrazlar bilan bir qatorda

ma'naviy-mantiqiy vositalardan ham foydalanadi. O'z navbatida ilmiy asarlarda, texnikaga oid qo'llanmalarda, darsliklarda ham obraz-vositalar ma'lum o'rinni egallaydi.

Farq shundaki, ilmiy asarlarda obrazlar ko'rgazmalilik uchun, nazariy qoidalarni tasviriylashtirish uchun xizmat qiladi, ikkinchi darajali, yordamchi unsur hisoblanadi. Badiiy ijodda esa obraz badiiy fikrning mohiyatini tashkil etadi, yozuvchi uchun mayjud borliqdagi hodisalarni idroklashning asosiy va zarur usuli hisoblanadi.

Shuning uchun muharrir matn ustida ishlayotganda badiiy obrazning asosiy, tub xossasiga tayanishi lozim. Zero ana shu xususiyat uni inson faoliyatining barcha sohalariga - aqli, hissiyoti, irodasi, tasavvurlar olamiga kuchli ta'sir etishni ta'minlaydi.

Badiiy obrazning ayni mana shu asosiy xususiyatlari muharrirning asar ustida ishlashining o'ziga xos jihatini - baholash mezoni, usuli, tahlil yo'sinini belgilaydi.

Qo'lyozmani baholash - muhim g'oyaviy masala. Turli janrdagi asarlarni tahrir qilishda badiiylikning umumiylari mezonlari nimalardan iborat ekanligini quyida ko'rib o'tamiz.

Avvalo, **mazmun** va **shakl** birligi har qanday asarning - turidan qat'iy nazar - mazmuni va bayon shakli chambarchas bog'liqdir. Badiiylikning asosiy sharti mazmun va shakl birligi ekanini alohida ta'kidlash ortiqchalik qilmaydi.

Badiiylikning yana bir muhim sharti **muallifning o'ziga xos ijod yo'li** hisoblanadi.

Ilmiy qonuniyatlar turli taddiqotchilar tomonidan bir-biridan mutlaqo xabarsiz ochib berilishi mumkin, lekin badiiy obraz takrorlanmasdir.

Mualliflarning o'z ijod yo'li uslubi badiiy asarni tahrir qilishda muharrir oldiga qator muammolarni qo'yadi.

Ayrim mualliflar «g‘ayri odatiy ifodalash»ni o‘zlarining asosiy va yagona maqsadi qilib qo‘yadi. Bunda o‘ziga xoslik o‘zichalikka, o‘z usuli o‘z sho‘riga aylanadi. Shunga ko‘ra ijodiy o‘ziga xoslikka munosabatda muharrirdan ehtiyyot bo‘lishlikni talab etadi. Endi «muallifning o‘ziga xos ijod yo‘sini» tushunchasini tasviriy-ta’sirchan vositalar, yozuvdagi uslubiy yo‘singa tadbiq etib bo‘lmaydi.

Bu tushuncha adibning borliqni idrok etishligini, mavjud hodisalarни ko‘rish, eshitish, o‘zlashtira bilishdagi takrorlanmas shaxsiy uquvni o‘z ichiga oladi. Tahrir paytida muallifdagi ayni mana shu ijodiy o‘ziga xoslik, yo‘sin, uslubni o‘zgartirmaslik kerak.

*His-hayajonga to‘lalik (emotsionallik), matnning taassurotlarga boyligi* ham asarni baholash mezonlari hisoblanadi.

Obraz yaratish mantiqiy mulohaza qonuni bo‘yicha bir faktni boshqasiga qiyoslash emas. Narsa haqidagi bevosita tasavvur hayotiy tajriba bilan boyitiladi. Shuning uchun badiiy matnni faqat mantiqiy aniqlik, bevosita jamlangan informatsiya (xabar)lar miqdori nuqtai nazaridan baholash bir tomonlama va ko‘pincha, noto‘g‘ri bo‘ladi.

Quyida Oybekning «Navoiy» romanidan olingan parchalarga e’tibor beraylik.

1. *Arslonqul otdan sakradi. Qo‘ltig‘idan qog‘ozni chiqarib, Sultonmurodga tutqazdi: «Qal‘a begiga». Sultonmurodning elkasi orgali Zayniddin ham qog‘ozga ko‘z olaytirdi.*

*So‘ng uchchovlon oldin-ketin qal‘a boshlig‘iga chopishdi.*

2. *Hamma boshlar rasm ustiga yopirildi.*
3. - *Oh, shiringina joy, - dedi Binoiy uyg va shaftolizorga sevgi bilan qarab, - tashakkur!*
4. *Bu - rassom Behzod edi. Iste'dodi uchun umum tomonidan favqulodda baland taqdirlangan, umumiyy sevgiga sazovor bo'lgan dongdor san'atkor endi soqol-mo 'ylabli, yetilgan er edi.*

Misollarga mantiq nuqtai nazaridan e'tibor beriladigan bo'lsa, muharrir uchun ancha ish bor.

Birinchi misolda adib *olaytirmoq* fe'lini qo'llagan, uning «ko'z qarashi» ma'no ifodasi bor. Ammo ko'z qarashi turli xil - turli niyatda bo'ladi. Yuqoridaq o'rinda bitik bir begunohning taqdiri qil ustida turganda, uning taqdirini hal etish - ijobiy xaloskor bo'lish vositasi edi. *Olaytirmoq* esa shum niyatli, g'arazli belgiga ega bo'lgani uchun mantiqan qo'llangan bo'lib chiqadi. Shu nuqtai nazardan muharrir uni boshqa mantiqan munosibi bilan almashtirishi mumkin bo'lsa-da, adib uslubini o'zgartirmagan. Nega? Buni adib sifatida fikr yuritbgina anglash mumkin. Chunki, bu individual so'z qo'llash. Muharrir uni hammabop qilish uchun *tashlamoq*, *yugurtirmoq*, *ko'z qirini tashladi*)... ni qo'ymoqchi bo'ladi va boshqa ko'pgina so'z va so'z birikmalari vositasida matnga o'zgartirish kiritishi mumkin edi. Lekin bularning birontasi ham muallifning emas, balki barchanikidek bo'lar edi, individuallik yo'qolardi. Oybek Oybek emas hamma qatori bo'lib qolar edi.

Ikkinchi misoldagi *yopirildi*, uchinchi va to'rtichidagi *sevgi* so'zi ham shunday - individual, qo'llash natijasi - Oybekona! Bunda muharrir mantiq talabiga emas, ijodchi uslubiga bo'ysunadi.

Agar muharrir *olaytirmoqni qaramoq, yopirildini egildi*, birinchi sevgini *tahsinga, e tirofga, hurmatga ikkinchi sevgini zavq, hayrat...* kabi so‘zlar bilan almashtirganda, asarning tili, Oybekning uslubi o‘ziga xoslik, o‘quvchi qalbiga o‘zgacha ta’sirdan mahrum bo‘lardi.

«Agar asar o‘quvchi qalbini hayajonlantira olmas ekan, unda, gap nima haqda bo‘lmasin, o‘ta muhim, o‘ta foydali narsalar gapirilmasin, qanday mavzuga qo‘l urilmasin, qanday muammolar ko‘tarilmasin, bu - haqiqiy san’at emas. San’atning u qonunini bilan ham xuddi butun olam tortilish qonuni bilan hisoblashmaslikning iloji bo‘lмаганидек, hisoblashmay bo‘lmaydi»<sup>22</sup>.

Lekin, shunday ham bo‘lishi mumkin, muallif tasvir-layotganlarining o‘quvchi his-tuyg‘ularini junbushga keltirish uchun zo‘r beradi, ya’ni obrazli unsurlarni ko‘paytiradi. Bular o‘quvchida yozuvchining o‘zi uchun ham kerak bo‘lмаган his-hayajon va tasavvurlarni paydo qilishi mumkin. Muallifga buning xato ekanligini ko‘rsatish muharrirning vazifasi hisoblanadi. Butun asar miqyosida obrazlarni yaxlit tasavvur etili-shi badiiy asarni baholashda yana bir muhim mezondir. Inson ongida - yozuvchining ham, o‘quvchining ham - obraz ayrim unsurlar yig‘indisi emas, balki yaxlit badiiy manzara tarzida namoyon bo‘ladi. Albatta muharrir buni e’tiborda tutishi lozim.

Yuqorida aytib o‘tilgan baholash mezonlari muharrir uchun asarning janriy xususiyatlariiga bog’liq holda, shuningdek u mazkur asarda qanday «obrazlar birligi»ni ko‘rib chiqayo-tganiga ko‘ra asqotsa, matnni tahlil etishda u ancha kichik, xususiy mezonlarga ham amal qiladi. Masalan, biror *syujet, portret* yoki *unsurni*. Bunda uning baholashi tahrir ilmida belgilangan qonuniyatlardan foydalanishga asoslanadi. Lekin

<sup>22</sup>Aytmatov Ch. Otvochestve // Literaturnaya gazeta, 1971, 7 iyul,-8-b.

asar qismlarini bunday tahliliga ham ijodiy yondashish talab etiladi.

Badiiy asarning obrazlilik xususiyati faqat baholash mezoni bilangina emas, balki muharrir tahriri yo'sini bilan ham bog'liqdir. Tahrir yo'sini esa tahrir usullari, tahrirning borishi, tahrir ayrim bosqichlarining tadrijiy (ketma-ket)ligi, matnni qismlarga ajratish yo'llaridan iborat bo'ladi.

Muharrir tomonidan badiiy asar matnining tahlili uch asoscha tayanadi:

1. Muallif badiiy ijodiyoti jarayoni nuqtai nazaridan kelib chiqish.
2. O'quvchining estetik qabul qilish jarayoni nuqtai nazaridan yondashish.
3. Ob'ektiv mavjud tizim nuqtai nazaridan kelib chiqish.

Tahlil usullarining bir-biriga muvofiqligi, tengligi ob'ektiv-mantiqiy va sub'ektiv emotsiyal jihatlarning o'zaro mutanosibligini ko'zda tutadi.

Obrazlarning ob'ektiv va mantiqiyligi aytib o'tildi. Lekin obrazning xissiy tavsifi, uning sub'ektiv baholanishi, tasavvuriylik va ko'p qirraliligi, uni o'quvchi go'yo o'z boshidan kechirgandek bo'lishi, bular barchasi emotsiya (his-hayajon)ga bog'liqdir. Shunga ko'ra emotsiyal jihatlar tahrirda alohida o'rinni egallaydi.

Agar muharrir badiiy asar muallifiga yordam bermoqchi bo'lsa, o'quvchining sub'ektiv emotsiyal tasavvur etishligini e'tiborga olgan holda asar qat'iy talab etiladigan his-hayajon o'yg'ota olishlik, ta'sirchanlik, taassurotlarga boylik kabi jihatlarga ega bo'lishi uchun intilish kerak. Shu bilan birga obrazni to'laqonli tasavvur etishlik faqat his-hayajon va taassurotnigina emas, balki o'quvchining fikrashi, mulohaza yuritishini ham talab etadi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin. Muharrirning badiiy asar qo‘lyozmasi ustida ishslash usuli o‘zida badiiy matnni nazmiy idroklash va uni ilmiy tadqiq etishlikni o‘zida mujassamlashtirishi kerak.

Qo‘lyozma ustida ishslash oldidan u bilan tanishish uchun bir o‘qib chiqish kerak. Bu *tanishuv o‘quvi* hisoblanadi. Bunda asar haqidagi dastlabki taassurotga ega bo‘linadi va u keyingi ishlar uchun zamin bo‘ladi. Tabiiyki, asar bilan chuqurroq tanishib borgan sari birinchi taassurot kamlik qilishi tobora ayonlashadi.

Tahlil jarayonida mavzuni, voqealar bayoni, ayrim til va uslubga oid unsurlarni, hatto ayrim sana, raqamlarni tavsiflash mumkin (masalan, muharrir muallifga, qaytariq bir xildagi konstruktsiyalar, bir o‘zakli so‘zlar ko‘p qo‘llanganligi va boshqalarni ko‘rsatishi mumkin). Lekin muharrirning asosiy vazifasi muayyan ijod namunasidagi obrazli tuzilish o‘ziga xosligini ilg‘ash, uni muallif ijodiyoti uslubiga mosligini ko‘rsatish va qo‘lyozmani umuman yoki qismlar bo‘yicha takomillashtirishni muallifga etkazishdan iboratdir. Chunki muallif borki, u har qancha ulkan ijodchi bo‘lmisin, bari bir o‘z qo‘lyozmasi ustida qayta ishlaydi - uni o‘zgartiradi, qisqaqtiradi yoki tahrir qiladi.

Ulug’ shoir, mutafakkir Alisher Navoiy ham o‘z asarlarini ma‘lum vaqt o‘tishi bilan qisman o‘zgartirganini navoiyshunos olim A. Hayitmetov shunday yozadi.

...Navoiyning ... Sayid Hasan Ardasherga yozgan mashhur she’riy maktubidan parcha keltiriladi:

*Men ulkim, to turk bedodidur,  
Bu til birla to nazm bunyodidir.*

*Falak ko ‘rmadi men kibi nodire,  
Nizomiy kibi nazm aro qodire.*

*Ne nazmi der ersam meni dard nok,  
Ki har lafzi bo ‘lg‘ay aning durri pok.*

*Xudo etkurur oncha sur ‘at manga,  
Ki bo ‘lmas bitiriga fursat manga...*

Bu o'rinda Navoiy o'zining shoirlik quvvati naqadar kuchli bo'lgani haqida hikoya qilmoqda. Bu she'riy parchaning aksari qismi «Xazoyin ul-maoniy»ning birinchi devoni «G‘aroyib us-sig‘or» dagi masnaviyda mayjud bo‘lib, bizga ma'lum qo‘lyozmalardagi nusxalarga solishtirib ko‘rganimizda, bular orasida qisman farq borligi ko‘zga tashlanadi. Navoiy devonlarida bu parchaning turtinchi baytidagi «xudo etkurur» iborasi «etar tengridin» iborasi bilan, «sur ‘at» so‘zi «quvvat» so‘zi bilan, to‘qqizinchı bayt (*Ani derg‘a bo ‘lsa qachon rag ‘batim, erur anga haq lutfidin fursatim*)dagi «fursatim» so‘zi ham «quvvatim» so‘zi bilan almashtirilgan... Chindan ham:

*Xudo etkurur oncha sur ‘at manga... degandan ko‘ra:*

*Etar tangridan oncha quvvat menga deyishi ham mantiqan, ham his-hayajoni ko‘tarinki ruhi bilan farqlanadi. Bordi-yu, buz bu o‘zgarishlarni Navoiy she’riga Sulton Husayn tomonidan kiritilgan o‘zgartish yoki tahrir deb qabul qilsak-chi? Shunday bo‘lishi ham mumkin. Navoiy «Kazoyin ul-maoniy»ning «Debocha»sida bu devonni tuzishda Sulton Husayn muharrirlik vazifasini bajargani haqida gapiradi»<sup>23</sup>.*

---

<sup>23</sup>Haytmetov A. Navoiy dahosi. -T: Gofur Gulom, 1970. -153-154-b.

Matnni tahlil qilishning tayyor andozasi yo‘q. Har safar asarning takrorlanmas individual yaxlitligi uchun yangi, alohida yo‘l izlanadi. Haqiqiy badiiy asarning mundarijasi hamisha murakkab bo‘ladi. Ko‘pincha u go‘yo tirik obrazdek paydo bo‘ladi. Uning asosida hamisha aniq nimadir yotadi, go‘yo o‘z ko‘zi bilan ko‘radigandek - inson yuz-ko‘zi, qishloq, shahar, yurgan ko‘chalaringiz, qadrdon hovli-joy, hattoki havas qilgan buyumlariningiz.

Bir g‘oyaga bo‘ysunganlik, badiiy fikrning chiqurligi, chinligi, to‘la-to‘kis yuzaga chiqqanlik, bular asosiy jihatlar bo‘lib muharrirning matn ustida ishlashi uchun belgilovchi vazifasini o‘taydi. Agar fikr qiziqarli bo‘lsa-yu, lekin u to‘liq namoyon etilmay qolsa, muharrir bunday vaziyatda muallifga yordam berishi kerak.

Qahramonlar obrazini yaratishda hodisalar o‘zaro ichki bog‘lanishga egaligi, vaziyat, xarakterlar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari badiiy asar qahramonlari muallif ergashishi emas, balki muallif o‘z qahramonlarga ergashishi asar qismatini belgilovchi omil hisoblanadi. Muharrir o‘z asarini yozib tugatdim, deb yengil tortgan, ijod lazzatining sururidan chiqur tin olib, burchini o‘taganlikdan qoniqish hosil qilgan muallifga o‘z qaydlari, tuzatishlari va takliflarini taqdim etadi va uni yangi davondan oshishga chorlaydi. Muallif yana ijodga kirishadi, asta-sekin ishga sho‘ng’ib ketadi.

Qo‘lyozmani yozuvchi va muharrirning sa’y-harakatlari bilan yanada takomillashtirish chindan ham badiiy asar tahriri hisoblanadi.

Badiiy asar tahririda asarning tili bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarni hal etishga to‘g‘ri keladi. Avvalo, shuni aniq bilish kerakki, badiiy asar tili va adabiy til ayni birdek emas.

Ularning ijtimoiy vazifasi, qo'llanish sohasi, qo'yiladigan talab turlicha.

Badiiy asarda til - asosiy unsur, uning shakli va u bilan birgalikda maqsadga erishishga xizmat qiladi. Boshqa tur asarlardan farqli ularoq badiiy asarda til badiiy obraz yaratishga xizmat qiladi. Borliqni obrazli aks ettirish tamoyili qanchali tadrijiy amalga oshirilsa, badiiy obraz yaratishda vosita sifatidagi ahamiyati shunchali ayon ko'rindi.

Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar»idagi Jannatning so'zlash tarzini eslaylik. (Sodiq).

– *Bizning kampir bersang qaytarmasdan icha beradir!*

– *Bersa icha beraman, qix... o'zim xotin bo'lsam ham Mutual polvonlarning o'nini ochiraman, qix...*

Mazkur nutq - Jannatning nutqi, Jannatning ongini, turmush tarzini ifoda etadi, uning obraziga xos bo'lgan xususiyat sanaladi.

Badiiy asarda so'z badiiy obraz xususida nimanidir ataydi, darak beradi va ifoda etadi. So'z badiiy asarda adabiy til yoki umumxalq tilida qat'iy lashgan o'z shakli va ma'nosini saqlaydi, shu bilan birga yangi ma'noga, ekspressiv uslubiy bo'yoqli ma'noga ega bo'ladi. Natijada obrazli ifoda yuzaga chiqadi.

«Badiiy asarda so'z o'z tashqi shakliga ko'ra milliy - til tizimiga xos so'z shakliga muvofiq kelishi bilan birga uning ma'nosiga tayangan holda faqat xalqning bilishga bo'lgan faoliyati tajribasini ifodalovchi umumxalq tiligagina emas, balki badiiy asarda ijodiy yaratiladigan yoki qayta yaratiladigan mavjud olamga qaratilgan bo'ladi»<sup>24</sup>.

---

<sup>24</sup>Vinogradov V.V. Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. –Moskva: Poetika, 1968. -125-b.

Quyidagi matnga e'tibor beraylik:

— *Kulishingni bejo qilma, hez Abdikarim! Sen dunyoga kelib nimani kurding-ku, senga kulish tushib qoldi! Bu bosh dunyoga kelib nimalarni ko'rmadi-a? Bunaqangi qochiriq ishlarni endi qilib turibdi, deb o'ylaysanmi?*

*Eh-ha-h-ha... Mutal akang nimalarni qilmadi? Ha-ha-ha... Musulmonsan, otangning arvoysi, Homid aka!*

Abdulla Qodiriy Mutualining bu valdirashi nutqiy xoslanganlik vazifasiga ko'ra yuzaga chiqqan. Mutualning chapanilarcha nutqi uning ongi va turmush tarzini ko'rsatadi, obraziga xos belgi borligi ayon bo'ladi. So'z – badiiy obraz tizimida taqdim etilgan bu obraz «tariximizning eng kir, qora kunlari»ni o'quvchi ko'zcungida gavdalantiradi. Badiiy ijodda, xususan nazmda ma'no ifodasi betaraf so'z ham obrazlilik imkoniyatiga ega bo'ladi. Odatiy, umumiste'moldagi so'zning vazifasi keskin o'zgaradi, G'ayri odatiy qoladi. Ularning ekspressiv - tasviriylik salmog'i cheksiz oshadi. Alisher Navoiy ijodiga murojaat etsak buni yaqqol ko'ramiz.

*Ul kishi so'z bahrida, g'avvos erur,  
Kim guhari ma'ni anga xos erur.*

*Fayz xarimida tajalliy anga,  
Kim yorubon mash'ali ma'ni anga,*

*So'z mayini ul qil oshom etib,  
Kim duri ma'ni sadafin jom etib...*

Ot turkumidagi, qo'llanish doirasi cheklanmagan, ma'no ifodasi betaraf leksema - so'z qo'shimcha ma'no ifodasiga ega va obrazli bo'ladi.

Badiiy asar tili umumxalq tilidagi barcha jilolarni namoyon etadi, tirik individual nutq namunasini yaratadi.

Oddiy so'zlashuvga, shevalarga, kasb-hunar nutqiga o'tinqirab, ulardan nusxa ko'chirmaydi. Bular «adabiy asar matosiga ip kabi kiritiladi, albatta, to'lig'iga emas, balki faqat oz miqdorda va ular shartli ravishda nimagadir shama qiladi»<sup>25</sup>.

Adabiy til me'yorlaridan bunday chetga chiqishga, umumxalq tili doirasida, shu bilan birga yaratilayotgan obraz bilan bog'liq holda yo'l qo'yiladi. Chetga chiqish vosita hisoblanadi - maqsad emas. So'z va iboralarning me'yordan chetga chiqishini baholashga ular bajaradigan vazifasiga, ular nimani bajarishga qaratilganiga, shunday qo'llashga olib kelgan muhitga, asarning yaxlit uslubiga nisbatan yondoshish kerak. Me'yordan chetga chiqish har doim ham bir tahlitda emas: bir safar kasb-hunarga oid terminlar qo'llanadi; boshqa safar qo'pol so'zlar, iboralar.

Aksariyat shaloq (vulgar) so'zlar, xususan, haqorat so'zlar va so'kishlar badiiy asarda ham mutlaqo o'rinsiz. Aslida shaloq so'zlarni yozuvchilar umuman ishlatmasliklari kerak. Asosiy qoida shunday. Biroq, bunda ham qat'iy chegaraga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asaridagi Kumushning zaharlanganligi sahnasini esga olish kifoya.

*– Zaharni kim beribdi?*

*Nima deyishga ham hayron tabib:*

---

<sup>25</sup>Shcherba L.V. Sovremenniy russkiy yazik. –Moskva. Russkiy yazik v shkole, 1989. -25-b..

- Men... men... O'zingiz o'ylab ko'ringchi...
- Men darrov dori yuboray, darrov ichiring, tuzukmi? - dedi.
- Bildim, bildim! - dedi bechora Otabek.
- Zaynab, Zaynab... Iflos! Yuboring, yuboring, darrov yuboring!...
- Zaynabni chaqir, Zaynabni!!
- O'zbek oyim tabib so'zidan xabardor edi:
- Zaynab, Zaynab!
- Zaynab yugurib uyga kirdi. Tusi murdadek oqargan edi. Otabek Kumushni qo'yib erdag'i atalani oldi:
- Ich muni, ich, ...!

Abdulla Qodiriy haqorat so'zni boshqa, bunchalik keskin bo'limganlari bilan almashtirib qo'ya qolsa bo'lardi. Lekin u bunday qilmaydi. Faqat ehtiyyotkor muharrirgina shunday maslahat berishi mumkin. Otabekning dag'al, dahshatli so'zлari uning musibati, Zaynabga nisbatan g'azabi, nafrati cheksiz-chegarasiz ekanidan, unga me'yor chegaralari ham dosh berolmaydi. Bunday sahnalar badiiy asarlarda ko'plab uchraydi, lekin «O'tgan kunlar»dagisi yakka-yolg'iz, takrorlanmas, faqat Qodiriy ijodigagina xos. Muharrir har qancha me'yoriy qattiq qo'l, qaysar bo'lmasin, yuqoridagi so'zlarga qalam tekkiza olmaydi.

U matnni odob doirasiga kiritish uchun nimaiki qilmasin bari bir uni yaxshilagan bo'lmaydi, aksincha buzadi. Chunki asarning yaxlit uslubi, ruhi, obrazdagi Otabekning yaxshiga mehri, yomonga qahrining chegarasi hadsizligi bunga yo'l qo'ymaydi. Muharrir ana shularni hisobga ola bilishi zarur.

Adabiy me'yordan chetga chiqish muallif nutqida

kamdan kam uchraydi, lekin uchraydi bunga sabab muallifning adabiy til me'yorlaridan xabarsizligi emas, balki uning nutqiga personajlarning nutqi o'z ta'sirini o'tkazgan bo'ladi yoki g'oyaviy-uslubiy vazifa taqozo etadi. Personaj nutqida adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish muallif bayonidagidan ko'ra ko'proq va rang-barang bo'ladi. Uning asosini jonli so'zlashuv tashkil etadi. Personajlarning nutqi individuallikka va xarakter belgilariga ega bo'ladi, bundan tashqari ruhiy holatni ifoda etadi, milliylik, ijtimoiy mansublik hamda kasb-hunar egasi ekanlikni anglatuvchi vosita sanaladi.

Muharrir shuni unutmasligi kerakki, personaj nutqi shaxs tabiatini ochib beradi ularning bir-biriga, narsa, hodisalarga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi, asarda voqealar rivojini ta'minlaydi.

Muharrirning xulosasi, bahosi (retsenziyasi) ancha keng va chuqur, maslahatlari, tavsiyalari ancha asosli hamda ishonarli bo'lishi mumkin, agar u asar tilini muallifning boshqa asarlari yoxud muallifga zamondan boshqa mualliflarning asarlari tiliga qiyosan tahlil qilsa, shuningdek, keng qamrovli badiiy asar tili miqyosida ko'rib chiqsa.

Endi turli janrdagi badiiy asarlar ayrimlarini tahrir qilishning o'ziga xos tomonlarini ko'rib chiqamiz.

«Adabiyot ayrim turlari tahriri» kursi «Noshirlik ilmi va tahrir» ixtisosligi bo'yicha magistraturada ham o'tiladi. Bakalavriatura yo'nalishida publisistika bilan tili va uslubiga ko'ra yondosh asarlar - ommaviy-siyosiy, ilmiy-ommabop asarlar yuqorida ko'rib o'tiladi. Endi badiiy publisistikada ham badiiy ijodda ham mavjud asarlar, hikoya, ocherklar tahlili va tahririga to'xtalamiz.

Nasriy asarlar o'z navbatida turli janrlarda bo'ladi. Epik tur asarlar ma'lumki, mavjud olamdagি narsa, voqeа

hodisalarни образли ифода этиди. Роман билан повест, повест билан хикояни аниқ чегаралашнинг уддасидан чиқиш амри маҳол. Хикоя билан оcherkni ham farqlash mushkil. Lekin shu bilan birga farq, sezilarli omillar borligini ham inkor etib bo‘lmaydi.

Muallif tanlagan janriy shakl qaysidir darajada, asarning o‘ziga xos muhim jihatini belgilaydi: asar qurilishi (kompozitsiyasi), voqealar rivoji, xarakterlar chizgisi, tasvir vositalarining tanlanishi va b.

Muharrir har bir, alohida holatda, qo‘lyozma ustida ishlayotganda (хикоя, ocherk yoki boshqa tur bo‘ladimi) har bir janrning o‘ziga xosligini, vazifasi va imkoniyatlarini аниқ tasavvur etishi lozim.

Muallifga yordam berish uchun muharrir, ya’ni «yaxshi hikoya yaratish»da badiiy nasr bu janrining ipidan ninasigacha, yaxshi bilishi kerak. Hikoya janrining o‘ziga xos belgisi deganda, ko‘pincha uning zudligini ta’kidlaydilar. Albatta, kunning dolzarb masalalariga tezlikda munosabat bildirilishi mazkur janrning muhim jihatni hisoblanadi. Lekin bu ba’zida unga noto‘g’ri yondashuvga sabab bo‘ladi. Ana shu «tez-tez» bilan muharrir ko‘zini yumib o‘tkazib yuboradi, natijada hikoya xabar (korrespondentsiya) darajasiga tushib qoladi.

Hikoya, bu - mavzuni paypaslab ko‘rish emas. Agar adabiyotshunoslar hikoyaning povestdan, romandan farqi, shunchaki, «hayotdan bir shingil» deb hisoblasalar va ularni umumlashtirishga, o‘zları uchun u nega yozilganini aniqlab olishga harakat qilmasalar xato qilgan bo‘ladilar.

Hikoya - bir qolipdagи asar, odatda yagona syujet chiziQiga ega bo‘ladi. Muharrir uni tahlil va tahrir qilish uchun reja tuzish, qahramonlar biografiyasini belgilab olishiga hojat yo‘q. Lekin hikoya o‘zida qahramon hayotidan faqat birgina epizod (voqeа)

ni o‘z ichiga olishi kerak degan shartni qo‘yib bo‘lmaydi. U bir nechta qiyoslash uchun keltirilgan epizodlardan iborat bo‘lishi mumkin. Lekin unda ko‘plab personajlarning ishtirot etishi, syujet ko‘p bo‘lishi janr xususiyatiga ziddir.

Muharrir muallifga hikoyani ortiqcha tafsilotlar, yondosh motivlar, maishiy-turmush ikir-chikirlaridan, garchi salmoq dor bo‘lsa-da, lekin asosiy bayoniga mos bo‘lmagan epizod hamda boshqa unsurlardan tozalashga muntazam va chuqur mulohaza bilan yordam berishi kerak.

Lekin hikoya tarkibiy qismlarini yagona maqsadga bo‘ysundirishga intilib, barcha ortiqcha narsalardan tozalash ham maqbul emas. Abdulla Qodiriy ulkan yozuvchi Sadriddin Ayniy bilan bir suhbatida uning «Odina» hikoyasi haqida o‘z mulohazasini bildiradi va adibga bu hikoyangizga» o‘t berish kerak»<sup>26</sup> degan ekan. Bunda Abdulla Qodiriy Odina qalbida ishq-muhabbat ham bo‘lishni nazarda tutgan. Shunda hikoyaning bosh qahramoni Odina to‘laqonli obrazga aylangan bo‘lur edi.

Hikoya janri nima ekanini yaxshi bilgan muharrir muallifga faqat ortiqchaliklarni chiqarishnigina emas, balki etishmayotgan unsurlarni kiritishni ham maslahat berish maqsadga muvofiq bo‘lishga yuqoridaq parcha yaqqol misol bo‘ladi.

Demak, muharrir hikoya shunchaki bo‘lishiga erishishi kerak emas ekan, balki tom ma’noda lo‘nda badiiylikka erishishga intilish lozim ekan. Bu esa hayotiy material qat’iy belgilangan hajmga oz sonli personajlarga, syujetning yagona emas, balki badiiy vositalar quyuq bo‘lishiga ham bo‘ladi.

<sup>26</sup>Habibulla Qodiriy – Otam haqida. –T.: G’ofur G’ulom, 1983. -179-b.

Hikoya - kichik janr, ammo ham badiiy ijoddä, ham badiiy publitsistikada katta ahamiyatga ega, buni muharrir zinhor unutmasligi kerak.

Ocherk ham ommabop janr sanaladi. Bunday asarga muharrir tomonidan qo'yiladigan talablar ham uning janriy, til-uslubiy jihatdan o'ziga xosligiga asoslanadi.

Matnni tahlil qilishda muharrir uch asosiy xususiyatga tayanadi: *ommaboplilik*, *hujjalilik* va *badiiylik*. Ocherk publitsistikadan uning vazifasi va mohiyat (predmet)ni oladi. Shunga ko'ra muharrirlik tahlili va tahririda ayni mana shu ommaboplilik - badiiy nasr boshqa janrlaridan farq qiluvchi sifati bilan ajralib turadi.

Ocherkning tavsifi va ommabopligrini baholash quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Avvalo, uning zamонавиyligi. Bu mezon u dolzarb va muallif ko'tarayotgan masala ahamiyatiga molik, milliy mafkura, davlat siyosati bilan bog'liq bo'lishligini belgilab beradi.

Aniq qaratilgan va maqsadli yo'naltirilganligi ocherknii ommabop janr ekanligini ko'rsatadi. Muallif buni e'tiborga olgan holda keng o'quvchilar ommasi uchun birdek tushunarli, sodda, tili va uslubi hammabop bo'lishi uchun ommaning hayotiy tajribasi hamda, oqilona fikr yuritishini o'zi uchun qoida qilib oladi. Lekin bu degani muallif ocherknii haddan tashqari soddalashtirishi, ta'bir joiz bo'lsa, odmi ong darajasiga moslashi kerak degani emas. Publitsist hayotda idrok etganlarini ancha chuqur va ob'ektiv ifoda etishga qodir bo'lishi kerak.

Ocherkda bir emas bir necha muammolar ko'tarilgan bo'lsa, muharrir ularni chuqur tahlil etishi, muallifning ularni bir doira ichiga jamlashi to'g'ri yoki bunday birlashtirish

yuzami mulohaza natijasi yohud tasodify, sun'iy ekanligini aniqlashiga to'g'ri keladi.

Qadimda ommaviy ta'sir etishning usuli og'zaki nutq bo'lgan. Voizlik (notiqlik) san'atidan bugungi kunda ham auditoriyaga ta'sir etishda keng foydalaniladi. Ocherk ijodchilari notiqlik san'atiga xos ta'sirchan usullardan foydalanishlari tabiiy, chunki u ommabop chiqishi uchun ta'sirchanlikka ega bo'lishi ham kerak.

Muharrir matn tahlilida umuman ocherk barcha xususiyatlarini nazarda tutgani holda, xususan, notiqlik usullaridan — o'quvchiga murojaat, ritorik so'roq, «tashqi mulohaza», xitob, ilmiy mushohada, xulosalardan foydalanganligiga ham alohida e'tibor berishi kerak.

Ocherkda birinchi shaxs tilidan bayon usulidan foydalanilgan bo'lishi mumkin. Bu hikoya qilinayotganning ishonchliligin, muallif faolligini, material ommaboplighini ko'rsatadi. Agar asarda ommaboplrik qiziqarli usullaridan foydalanilgan bo'lsa-yu, lekin faktik materiallar bilan bog'liq bo'lmasa, unda bayon quruq bo'lib qoladi. Shuning uchun muharrir qo'lidagi asarda ko'tarilgan muammo hamda faktlar bir-biri bilan bog'langan yoki bog'lanmaganligini aniqlashi kerak. Agar muallifning kasbiy mahorati, tajribasi etarli bo'lmasa «fikr va dalil» mutanosibsizligi yuzaga keladi. Muharrirning matnga adabiy ishlov berishi o'z samarasi va foydasini beradi. Bundan tashqari muharrir muallifga to'plagan ma'lumotlari, kuzatishlarida ijtimoiy muhim fikr, nuqtai nazarlarni birlashtiruvchi eng asosiy g'oyni topishga ko'maklashishi mumkin.

Ocherk faktik materiallari ustida ishslash ancha murakkab va serqirra ish. Bunda birinchi bajariladigan vazifa muallif

to‘plagan ma’lumotlarning ishonarligini aniqlash - tekshirish va qayta tekshirishdir.

Tayin, hayotdan olingan material janrning o‘quvchilar ongiga ta’sir etish «siri» hisoblanadi. Shunga ko‘ra u aniq ifodalanishni talab etadi.

Publitsist - ocherkchi o‘z asarida statistika, jamiyatshunoslik, geografiya, tarix va boshqa bilim sohalariga oid ma’lumotlardan foydalanadi. Garchi bular ikkinchi darajali hisoblansa-da, go‘yo yo‘l-yo‘lakay tilga olinsa-da, maxsus adabiyotlardan foydalanib ularni diqqat bilan tekshirish lozim. Lekin ocherkdagi barcha ma’lumotlarni entsiklopediyalar, monografiyalar, darsliklar yordamida tekshirish hamisha ham mumkin bo‘lavermaydi, muharrir duch keladigan ko‘plab faktlarni muallif o‘z kuzatuvi, eshitganlari - guvohlarning so‘zlaridan oladi. Masalan, muallif o‘z ocherkini shunday boshlaydi: *Ushbu mактабга birинчи g‘isht qо‘yганлар орасида biz sizга hикоя qилмоқчи bo‘lgан inson ham bor edilar.*

Vaholanki, maktabga birinchi g‘isht qо‘yilgan vaqtida muallif maktab yoshiga ham to‘lмаган bo‘ladi. Bir qarashda go‘yo mayda-chuyda hisoblangan bunday unsurlar o‘quvchida butun asarga shubha uyg‘otishi mumkin. Yoki avvalgi tuzum vaqtida matbuotda ko‘plab “sut bulog‘i, dala malikasi ijodchilari, po‘lat ot suvoriyları” haqida ko‘plab ocherklar berib borilar edi. Ularning qahramonona mehnati tufayli ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan natijalar qayd etiladi. Masalan, Munavvara Isxoqova har bir bosh sog‘in sigirdan 5 tonna va undan ortiq sut olib sog‘ib oladi. Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha aslida 20-25 bosh sigirdan sog‘ib olingan sut 10 ta sigir hisobidan ko‘rsatib kelingan. Lyubov Li bir gektardan olgan juhori mas-sasi 2-3 gektarniki bo‘lgan. Tursunoy Oxunovaning bir o‘zi paxta terish mashinasida tergan paxta 500 tonnadan oshib

ketadi. Vaholanki, shuncha paxtani bitta brigada u yoqda tur-sin butun kolxoz berishi amri mahol bo‘lgan. Bular barchasi albatta muayyan siyosatni ko‘zlab qilingan. To‘g‘ri, ocherk tasvir ishonarligini  $2 \times 2 = 4$  tarzida qabul qilmaslik kerak, ammo ozmi-ko‘pmi erishilgan natijalar haqiqat - ob‘ektiv bo‘lishi lozim. Boshqalarga namuna ortidan quvish, shov-shuvga intilish asarning ham, muallifning ham, muharrirning ham obro‘sini oshirmaydi. O‘quvchi muallifni kechirar, lekin, albatta muharrir qayoqqa qaragan deyishi tabiiy.

Faktik material va ommaviylik masalalari ocherkda bir-biri bilan jips bog‘liq. Faktlar muallifning fikri, xulosalarini tasdiqlaydi, ocherkchining mulohazasi esa, o‘z navbatida, faktlarni umumlashtiradi, ular mohiyatini ochib beradi.

Agar faktik materiallar asarda publisistik mulohaza dalili sifatida berilgan bo‘lsa, uni muharrirlik nuqtai nazaridan baholashda tahrir mantiqi qonunlari (yetarli asos, ziddiyatsizlik va b.) mezon hisoblanadi. Shu bilan birga ocherkda, badiiy adabiyot janri sifatida ruhiy, emotsiyonal ta’sir qonuniyatları ham o‘z ahamiyatiga ega.

Faktlarning ko‘p va xilma-xil bo‘lishi, ocherkchidan ular butin tizimidan foydalanishi talab etmaydi, chunki faqat ilmiy asarlardagina ularning ko‘pligi nazariy fikrlar isboti hisoblanadi. Muharrirning vazifasi oz sonli bo‘lsa-da, faktlar to‘g‘ri berilgan bo‘lishi va hodisa ijtimoiy muammolar haqida bir tomonlama tasavvur bermasligini ta’minlashdir.

Muharrirning faktik materialni baholashi faktini tasvirlash shakli to‘g‘ri tanlanganligi bilan bog‘liqdir. U matnda «adabiy mavjud» bo‘lishi kerak.

Ocherkda faktik material uch ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: bayonga bevosita kiritilgan *hujjat*; informatsion *xabar*; badiiy *tasvir*.

Ocherkka faktik materialni kiritishning har bir shakli alohida-alohida bahołash mezonlari qo'llanishini talab etadi hamda tahrir jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, hujjatlilik shakli, avvalo, matnni manbai bilan to'liq solishtirishni, shuningdek, iqtibos olish barcha qoidalariga qat'iy rioya qilishni taqozo qiladi. Muharrir ozgina bo'lsa-da, xatoga, noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun bu borada muharrirga ko'maklashishi kerak, u hujjatlar matnga turli shaklda, aniq maqsad bilan kiritilishiga erishmog'i lozim. To'g'ri, ocherk badiiy-publisistik asar bo'lgani uchun qat'iy hujjatlilikdan chekinishga yo'l qo'yiladi, lekin ishonchlik mezonini to'liq saqlanishi shart.

Muharrir oldida yana bir, alohida o'ziga xos vazifa bo'lib badiiylashtirish turadi.

Materialni badiiy shaklda berish o'quvchiga borliqni obrazli tasavvur etish imkonini beradi. Chunki hech qanday hujjat insonga xos xislatlarni - uning jonli nutqini berolmaydi, uning orzulari, o'ylari, kechinmalarini aytmasa ham bo'ladi.

Ocherkda to'qima mutlaqo o'zgacha maqsad va ma'noga egadir. Agar roman, povest, hikoyada muallif mavjud hodisalardan badiiy to'qima sifatida foydalansa, ocherk muallifi esa to'qimadan mavjud fakting ichki mohiyatini, mazmunini va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochib berish uchun foydalanadi. Mazkur jihat muharrirning ushbu masalaga yondashishi tamoyilini belgilaydi.

Avvalo, uning vazifasi, badiiylik hayotdan olingan materialni o'zgartirib, soxtalashtirib yuborishiga yo'l qo'ymaslik, qolaversa, badiiy to'qima hodisa, inson tabiatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qilishi kerak. Kitobxonni diqqatini tortish uchungina foydalanmaslik lozim.

Badiiylashtirish omiliga yana aniqlikni baholash mezonini ham qo'llash mumkin. Bunday holatda, aytish mumkinki, murakkablik yuzaga keladi, ishonchlilik bilan bir qatorda badiiy aniqlik-ishonarlilik, haqqoniylilik, voqelikni obrazli yaratish turadi.

Go'zallik, o'ziga xoslik, g'ayriodatiy obrazlilikka intilish uni materialning yuzaki tasavvuri bilan bog'lash yorqin esda qolar tasvirga erishtiradi, lekin sodir bo'layotganlarni noaniq, shu bilan birga chalkash fikrga olib keladi.

Portret tasviri, shaxs, uning gavda tuzilishi, kiyimlar, hayotda mavjud insonning xulq-atvori, o'zining tutishi muharrirning diqqat markazida turishi kerak.

U muallifdan o'z qahramonini «ko'ra bilish»ni, uni o'quvchilarga ko'rsata olishni talab qilishga haqlidir. Matndagi boshqa unsurlarni tahrir qilishda xuddi shunday qat'iy talablar qo'yiladi. Xususan, raqamlardan iborat materiallar ustida ishlashda keltirilgan ma'lumotlar bilan ularni obrazli bayon etishda ular mutanosibligiga erishish, «quruq ko'rsatkich»larga emotSIONALLIK (his-hayajonlilik) baxsh etish lozim.

Shuni nazarda tutish kerakki, matn ayrim komponent (tarkibiy qism)larining nisbati va ahamiyatliligi, ularning vazifasi har bir alohida ocherkda muallif mulohazasiga ko'ra o'zgaradi. Bu mualliflarning individual ijod tarzi, asar mavzui bilan bog'liq bo'ladi. Umumiyl jihatdan olganda janr xilmayilligi bilan bog'liq omillar bunga o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, yo'l bo'yli ko'rgan-kechirganlar ocherkini, tahrir qilishda (tabiat manzarasi (peyzaj) uning yangi taassurotlar berish vazifasi birinchi o'ringa chiqadi. Publitsistik maqolaga yondashib ketadigan ocherkda esa ilmiy ma'lumotlar, matnni joylashtirish mantiqiy yo'sini asosiy hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda borliqni tadqiq etish va tasvirlashning uch usuli - *ommaboplilik*, *hujjatlilik*, *badiiylik* - bir-biridan ayri-ayri mavjud bo‘la olmaydi, har holda tom ma’nodagi ocherkda. Yuqoridagi uch unsur quyma bo‘lishi, bir butunlikka ega bo‘lishi lozim.

Qo‘lyozmani tahlil qilish jarayonida, uni alohidalaganda muharrir ularni o‘quvchi yaxlit - bir butun tasavvur etishini doimo yodida tutishi kerak.

## TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. *Qanday asarga badiiy asar deyiladi?*
2. *Matn ustida ishlash jarayonida muharrir nimalarga asoslanishi kerak?*
3. *Asarni baholash mezonlari qanday?*
4. *Obrazlilik ob'ektivlik va mantiqiylik bilan bog'liqligini qanday izohlaysiz?*
5. *Alisher Navoiy noshirlik ishi, tahrir bilan shug'ullanganmi?*
6. *Muharrir va muallif hammuallifmi yoki hamkormi?*
7. *Badiiy ijodda tildan foydalanish muharrir oldiga qanday talablar qo'yadi?*
8. *Nega vulgar (shaloq) so'zlar aralashadi?*
9. *Muharrir muharririga yordamchimi?*
10. *Matn tahlilida muharrir nimalarga tayanadi?*
11. *Hikoya oddiy hikoyami?*
12. *Ocherk tahlili va tahriri nimalarni talab etadi?*
13. *Faktik material va ommaviylikni ta'minlash nima uchun kerak?*
14. *Badiylantirish omillarini bilasizmi?*

### XIII BOB MATBUOT, RADIO VA TELEMATNLAR TAHLILI VA TAHRIRI

- *Matbuot, radio va telematn*
- *Gazeta tilining asosiy xususiyatlari*
- *Radio nutq*
- *Telenutq*

Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egadir. Kuchli tashviqot va targ‘ibot vositasi sifatida bugungi kunda - axborot globallashuvi sharoitida gazeta, jurnal, radio, televidenie, axborot agentliklari, internet va boshqalardan dunyo miqyosida keng foydalanilmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining mamlakat iqtisodi, fani, madaniyati, butun jamiyat hayoti rivojidagi o‘rnini ahamiyati tobora oshib bormoqda. Shu munosabat bilan XXI asr - axborot asri deb atalishi sababsiz emas. Ommaviy axborot va targ‘ibot vositalari ijtimoiy ongni shakllantirish va aks ettirishning muhim quroli hisoblanadi. Mamlakatda bir iqisodiy-ijtimoiy munosabatlardan boshqasiga o‘tish, jamiyatimiz barcha sohalarida chuqr islohotlarni amalga oshirish, kuchli huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyatni tomon borish inson huquqlari to‘liq kafolatlangan demokratik tuzumni barpo etish borasidagi davlat siyosatini keng targ‘ib qilishda ularning xizmati beqiyosdir. Ular hokimiyat idoralarining keng xalq ommasi bilan bog‘lovchi vazifasini o‘taydi. Adabiy til rivojiga ulkan hissa qo‘sadi. Mazmuni, bayoni bilan publitsistik uslubni uning rang-barang lekcik frazeologik, grammatik va uslubiy qirralarini yaqqol namoyon etuvchi soha hisoblanadi.

Omma bilan adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilgan holda muloqatga kirishuvchi gazeta tili, radio va telenutq, shubhasiz o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bular orasida gazeta tili va uslubi markaziy o'rinni egallaydi. Shunga ko'ra janrlar xususiyatidan qat'iy nazar leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik vositalardan foydalanish borasida matbuotda faoliyat olib boruvchi jurnalistlar, xususan, muharrirlar alohida malaka va ko'nikmaga ega bo'lishlari kerak.

*Gazeta tilining* asosiy xususiyatlari matbuotning maqsadi, mohiyati va vazifasi bilan chanbarchas bog'liq.

Gazetaning tamoyillarini faqat mazmuni, yo'nalishi, matbuot faoliyatining tavsifi, uning faktlar, jamiyat hayotidagi hodisalar, siyosatni va hokazolarni baholashigina emas, balki publitsistik shakllarning o'ziga xos mohiyati avvalo, gazeta –publitsistikaning tili va uslubi belgilaydi.

Jurnalistikada shakl ko'proq uning maqsadi, vazifasi, mohiyatiga bog'liqdir, avvalo uning ijtimoiy, siyosiy yoki partiyaviy maqomiga publitsistning siyosiy o'rni, uning partiyaviy mansubligi faqat mazmundagina emas, balki shaklni tanlashda, uslub, so'z qo'llash, asar ohangida ayon ko'rinadi.

Publitsistik asar shakli tili va ohangiga doimo katta e'tibor qaratiladi, buni adabiy xodimlar, ayniqsa, muharrirlar unutmasligi lozim. Davriy matbuot shakli, mazmun mohiyatidan qat'iy nazar adabiy til me'yorlaridan chetga chiqmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Garchi bugunga kelib axborot globallashuvi, jadalligi sharoitida, davr taqozosiga ko'ra matbuotda ixtisoslashuv yuz bermoqda. Endilikda ixtisoslashuv gazeta tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Gazeta, jurnal qaysi sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, uning tilida shu sohaga mansub terminlar, birik-

malar, konstruktsiyalar sezilarli darajada uchraydi. Shunga ko'ra gazeta tiliga quruq rasmiylik, siyosiy (partiyaviy)likdan tashqari emotSIONALLIK ham xosdir. Emotsionallik, tabiiyki matn ta'sirchanligi, yodda qolarligini ta'minlaydi. Asar xoh siyosiy, xoh rasmiy, xoh ilmiy bo'lsin bari bir qaysidir darajada emotSIONALIKKA ham ega bo'lishi lozim. Chunki, tilning emotSIONALLIGI, baholash xususiyati publitsistikaning barcha asosiy janrlariga kirib boradi. Bunga asosiy sabab-publitsistning tabiatи, jamiyatdagi ahamiyati hisoblanadi.

Publitsistikada, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, targ'ibotda til vositalari kishilar ongiga ta'sir o'tkazish va ishontirishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda til vositalaridan foydalanish ko'p jihatdan ommaga samarali va aniq maqsadli ta'sir etishdagi ijtimoiy-baholash sifati va imkoniyatiga bog'liq.

Shunday qilib, til vositalarining jamiyat, shu jamiyatni tashkil etuvchi millat(lar) manfaatlariga ko'ra ijtimoiy baholash xususiyati gazeta uslubining asosiy jihatni hisoblanadi. Muharrir hamisha matn tahlili va tahriri jarayonida uni boshqa funktsional uslublardan farqlovchi ushbu tomonlarini yodda tutishi, zarur hollarda mualliflarni shunga yo'naltirishi kerak.

Gazeta ifodaning baholash vositalarini muntazam izlaydi. Bayonning baholovchiligiga erishish gazeta tilidagi asosiy jihatdir. Muharrir boshqa funktsional uslublarda baholash muammosi publitsistikadagicha ahamiyat va dolzarblik kasb etmasligini nazarda tutgan holda matn tahriri jarayonida rang-barang leksik vositalarning qo'llanilishiga to'sqinlik qilmasligi lozim, agar ular muallif tomonidan o'rnida va me'yori bilan ishlatalgan bo'lsa. Masalan, oddiy so'zlashuvga oid so'zlar, kitobiy, balandparvoz (yuqori uslubga) xos so'zlar, arxaizmlar, maxsus so'zlar, ko'chma ma'noli so'zlar va boshqalar.

Bulardan tashqari gazeta tilida turli so‘z yasovchilar, emotsional-ekspresiv bo‘yoqdor, grammatik vositalar, so‘zlashuv uslubiga xos konstruktsiyalar, sintaksisning turli-tuman emotsional (ritorik) vositalari va boshqalar ham uchraydi. Agar bular individual (shaxsiy) bo‘lmay, ijtimoiy tavsifga ega bo‘lsa, muharrir tahrir paytida buni ham e’tiborga olishi kerak.

Gazeta tilidagi so‘zning ijtimoiy qimmati nutq egasining nuqtai nazari bilan belgilanadi. Chunki u faqat muallifgagina tegishli bo‘lmay, tahririyatga ham tegishli, shuningdek, ijtimoiy guruh, tashkilot, partiyaga, gazeta kimning fikri, kimning siyosatini ifoda etsa o‘sanga ham taalluqlidir. Gazetadaga har bir so‘z jamoa (tahririyat, partiya, uyushma va h.)ning obro‘i bilan yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Gazetada so‘zning kuchi, keskinligining sabablaridan biri shunda ekanligini tahrir vaqtida hisobga olish lozim. Shuni unutmaslik kerakki, faktlar, hodisalar, voqealarni ifoda etuvchi nutq vositalarini tanlash gazeta tilining ijtimoiy, individual emasligiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Gazetada asosan ijtimoiy qimmatga ommaboplrik xususiyatiga ega va shu bilan birga publitsistik-emotsional kuchga ega nutqiy vositalarni yo‘qotmagan nutq vositalaridan foydalilaniladi. Lekin muallif ham muharrir ham, shuni yodida saqlash kerakki, gazeta faqat ijtimoiy qimmatga ega nutq vositalaridan foydalaniqagina qolmaydi, balki shundaylarni o‘zi ham «ixtiro» qiladi. Adabiy tildagi sinonimiya hodisasida ham tabaqalashish e’tiborga sazovordir. Masalan, kutubxona, *nurli dargoh, nurxona*: universitet, *doriefunun, ziyo maskani*; kashfiyot, *mashaqqat mevasi* va h.

*Kutubxona* so‘zining sinonimiga aylangan *nurli dargoh, nurxona* birikmasi va so‘zi universitetga sinonim bo‘lgan *ziyo*

*maskani kashfiyat sinonimiga aylangan birikma - mashaqqat mevasi* ayni gazeta ixtirolari hisoblanadi.

Demak, gazeta nutqi bu avvalo, ta'sir etishiga qaratilgan nutq, shuning uchun auditoriya manfaatlari va maqsadga muvofiqlik hisobga olinadi. Gazeta matnlarining tahriri bilan shug'ullanuvchi jurnalist shuni yaxshi bilishi kerakki, gazeta tilining ijtimoiy baholash tamoyili, avvalo, baholovchi til vositalarini tanlash va ulardan jamiyat maqsadlari intilishlariga muvofiq ham ijobiy, ham salbiy tushuncha va hodisalarni ifodalashga bog'liqdir. Agar gazeta partiyaviy bo'lsa, tilining ijtimoiy-siyosiy baholash mazmuni lo'nda, keskin bo'lishi kerak.

Gazeta matnini tahrir qiluvchilar, ayniqsa, bunga endigina kirishgan, hali etarli tajriba va malakaga ega bo'lмаган muharrirlar gazeta tilidagi ekspressivlik, tasviriylikni «qattiq qo'llik» bilan bartaraf qilishga kirishishdan oldin, shuni yaxshi bilishlari lozimki, gazeta tilini bu borada juda ham cheklab qo'yish mumkin emas. Bular ham bayonda foydalaniladigan vositalar sanaladi.

Publitsistika emotsiyal, ta'sirchan, tasviriy lekin bu xislatlar badiiy adabiyotdagidan o'zgacha - obrazli emas.

Publitsistikani badiiy adabiyot bilan aloqadorligini ko'rsatuvchi omil – so'z. Farqlantiruvchi esa tavsifdag'i turilik, so'zdan foydalanish tabiatи, usulidir. Badiiy asarning bosh maqsadi borliqni obrazli ifoda etish, publitsistik nutqda esa fikr va nutqning chuqurligi, mazmundorligi, ifodaning qat'iyligi, emotsiyonalligi assosiy hisoblanadi. Borliqqa munosabat publitsistika va badiiy asarda tubdan farq qiladi.

Mavjud narsa, hodisaga turlicha yondashish publitsistika va badiiy asar tili funktsiyasining turlicha bo'lishini taqozo etadi. Yozuvchi voqelikni o'zi yaratgan tasvirlar orqali aks

ettiradi, ko'rsatib chizib beradi, bundan tashqari o'zi yaratgan obrazlardan, ularga bo'lgan o'z mehri va qahridan foydalanib munosabat bildiradi. Publitsist esa ochiq-oydin targ'ib qiladi, ishontiradi, da'vat etadi.

Publitsistik asar matni ustida ishlayotganda muharrir, albatta, gazeta tili tasviriy-ta'sirchanlik vositalarining vazifasi baholash ekanligini yodda tutishi kerak, zero bular faqat baholash uchun xizmat qilishi lozim.

Albatta, gazeta nutqi uchun ham ekspressivlik kerak, ammo u faqat ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi, xolos. Ekspressivlik, avvalo, muayyan maqsadli, tanlangan va baholovchi tavsifiga ega bo'lishi lozim.

Gazeta nutqida metafora, metanimiya, sninendoha, ironiya, jlonlantirish, o'xshatish va boshqalar gazeta uslubiga ko'ra o'ziga xos vazifani bajaradi. Agar gazeta metariallarida ko'chimlardanko'plab foydalanilsa, ustiga ustakular murakkab, hamma ham tushunavermaydigan bo'lsa, matn (gazeta nutqi) o'z kommunikativligi (ommabopligi)ni yo'qotadi. Bunda estetik mezon bo'lib, oddiylik, tushurarchilik hisoblanadi. Badiiy asarda esa murakkablik, mohirona tanlanganlik, o'ta nozik ma'nolik estetik mezon sanaladi.

Yana shuni esda tutish kerakki, har bir uslub doirasida metaforalar uslub va talabga ko'ra o'zgarib turadi. Masalan, ilmiy uslubda u denotativ ma'noda qo'llansa, badiiy uslubda konnatativdir. Ilmiy uslubdag'i denotativlikdan farqlanib publitsistikada ko'chimdan obraz yaratish uchun emas, balki baholash samarasi uchun qo'llanadi (ko'tarinkilik, tantanavorlik, his-hayajonlilik, shuningdek, ta'kid: tasbeh, kesatiq, piching, mazax va b. uchun).

Mafkuraviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa jihatdan muhim tushunchalarni ifodalashda ko'chimlardan samarali

foydalanimi: *g'oyaviy g'o'r, siyosiyo'r; oq oltin, qora oltin, ishlab chiqarish noni, po'lat qanotlar, fazoni o'zlashtiruvchilar, ilm o'chog'i, po'lat tomirlar.*

Publitsistikada yana bir o'ziga xos jihat bo'lib, u ham bo'lsa, amalda nutqni yaratuvchi muallif «meni»ga to'g'ri keladi. Shuning uchun muharrir bitta uslubiy qatlamga - muallif nutqiga duch keladi. Lekin u publitsistik nutqni kambag'al qilib qo'ymaydi. Balki ayni mana shunda uning o'ziga xosligi, ta'sirchanligi va kuchi namoyon bo'ladi.

Gazeta tilining o'ziga xos jihatlaridan yana biri uning andozaviyligidir. Gazeta nutqining bu xususiyati u paydo bo'lgandan boshlab to shu kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunga sabab bo'lib til grammatika vositalarini tanlash qat'iy belgilanganligi (grammatik tuzilish bunda mutlaqo qat'iy va bajarilishi shart qilib qo'yilgan bo'ladi), bundan tashqari, gazeta uchun belgilangan ijtimoiy-madaniy sharoitning o'ziga xosligi maksimal miqdordagi o'quvchilar auditoriyasiga mo'ljallanganligi, shuningdek, til muhitining betarafligi, ya'ni uslublar bo'yicha malakasi nihoyatda turli-cha bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallanganligi hisoblanadi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, muharrirlar shuni unutmasliklari kerak bo'ladi, gazetalarda axborot materiallarining odatiy va asosiy turi (xabar, intervyu, xronika, sezilarli darajada bosh maqola) tayyor qolip (shablon)lar asosida yoziladi, bular oldindan moslangan tayyor quyma so'z janrlar, til iborat nutqiy qoliqlar bo'lib, gazeta ishlab chiqarish jarayonida muayyan maromga keltirilgan bo'ladi.

Ammo andozaviylik istisno tarzida qotib qolgan gazeta tilining o'ziga xos jihatni deb o'ylash to'g'ri bo'lmaydi. Muharrir tahrir jarayonida bu holga ijodiy yondashuvi talab etiladi. Aslida nutqiy faoliyatning barcha sohasi andozalangan

hisoblanadi. Lekin, shu bilan birga nutqning andozaviyligi tabiiy mavjud va takomillashuvchi jarayon. Bundan maqsad lo‘nda muloqiy-oqilona tayyor nutq formulasini aloqaning turli sohalari va maqsadlari uchun tayyorlashdan iboratdir. Aslida adabiy tilning moslashuvchanligi. ishlanganligi ko‘p jihatdan uning andozalanganlik darajasiga, turli vaziyat, maqsad va boshqalar uchun nutqiy qolip (klishe)lar andoza, (formula) ning ko‘p-ozligiga bog‘liqdir. Yuqorida qayd etilgan nutqiy shakllarning bo‘lmasligi muloqot jarayonini qiyinlashtiradi, til egalarini muayyan muloqot sharoiti uchun yangidan-yangi nutqiy konstruktsiyalar, formulalar yaratishga majbur qiladi bu o‘z navbatida nutqiy janrlar ishlanmaganligini anglatadi.

Lekin muharrirlar shu narsani ham unutmasliklari lozimki, haddan tashqari andozaviylikka yopishib olish, muallif uslubiga xos g‘ayrian’anaviy nutqiy konstruktsiyalardan, formulalardan qochish gazeta tilini kambag‘allashtirib, o‘quvchi uchun zerikarli qilib qo‘yishi mumkin.

Shuning uchun muharrirlarning o‘zlari ham matn ustida ijodiy ishlashlari, tinmay izlanishlari va mualliflarga ham shunday talab qo‘yishlarigina emas, balki bu borada ularga yordam berishlari maqsadga muvofiqdir.

Shunda adabiy til rivojiga o‘ziga xos hissa qo‘shilgan bo‘ladi. Adabiy til rivoji esa o‘z navbatida muloqot ifodalarining barqaror tizimini ishlab chiqishga olib keladi.

Nutqning andozaviyligi tilda tayyor olinmalar barqaror-lashuviga olib keladi, ifodaga muntazamlilik, doim tayyorlik, mudomlik bag‘ishlaydi, nomlar va baholarning ijtimoiy qaror topganlik tamoyilini yuzaga keltiradi.

Andozaviylikka qarshilik qiluvchi va u bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘luvchi *ekspressivlik* bir qolipdalikni buzadi, nutq formulalarini o‘zgartiradi, yangilaydi. Gazeta nutqining

ekspressivlikdan mutlaqo xoli bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun andozaviylik va ekspressivlikning birgalikda mavjud bo‘lish jarayoni adabiy tilni, uning barcha uslublarini qamrab oladi. Gazeta tilida bu aloqadarlik - birgalikda amal qilish jarayoni shart omil bo‘lib hisoblanadi. Har ikki hodisa gazeta tilining o‘ziga xos tabiatini, mohiyatidan kelib chiqadi, vaholanki gazeta ijtimoiy xarakterga ega va ommaviy aloqa vositasi - umumahamiyatga molik matniy muloqat sanaladi. Shuning uchun matn ustida ishlash jarayonida muharrir har ikki jihatga alohida e’tibor bergen holda, andozaviylikka chuqurroq yondashmog‘i lozim. Chunki, jurnalistik faoliyatning zud xarakteri, mavzularning mavsumiyligi, qaytarilishi, vaziyatlarning takrorlanishi shuni taqozo etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gazetalardagi qolipga aylanib qolgan konstruksiyalar, formulalar ijobiy yoki salbiy baholovchidir. Masalan: *mas’uliyatni zimmasiga oldi, muayyan ishlar amalgamoshirildi, muxlislar ishonchini oqlamadi... oqladi, ko’tarinki ruhda, zo’r qoniqish bilan... ga ish bilan javob bermoq, yangi marralar belgilandi, istiqbol rejasini tuzildi, joriy yilda... ... zo’r ko’tarinki ruhda o’tdi, saylov kompaniyasi boshlandi, ... tugadi, mo’l-hosil etishtirildi, ... yig‘ib olindi, jazodan qochib-qutulib bo‘lmaydi, qilmish- qidirmish deb shuni aytadilar, ... ga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish bo‘lib o’tdi, ... yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.*

Ayrim rasmiy, xronik xabarlardagi qoliplarni istisno tariqasida qabul qilish mumkin: *xabarlargaga ko’ra aytishlaricha, so’zlarga qaraganda, ... vaziyatda, ... muhitda, hamjihatlik bilan va b.* Ocherklarda ham ayrim qolip so‘z, birikmalar uchraydi, muharrirlar ham bularni istisno tariqasida qabul qilishlari lozim: *qo’li gul ustalar, ishning ko’zini bilib, nuroniy chehralar, mashaqqatli yo’lni bosib o’tadi, orzular*

*qanotida parvoz etib, mehr qo'rini berib, ko'z qorachig 'idek asramoq, el-yurt xizmatida bo'lmoq va b.*

Gazeta tilida umuman, nutq shakllari andozalashtiriladi va u baholash tavsifida bo'ladi, xuddi shu ma'noda u ilmiy va rasmiy-ish yuritish uslubi (beteraf uslub)dan farqlanadi.

Badiiy nutqda ham andozaviylik bor, lekin u publitsistikadan farq qiladi. Badiiy adabiyot tili individual idroklassha asoslanadi va individual nutq yaratishdan kelib chiqadi. Publitsistika ham, badiiy asar ham ommaviy auditoriyaga (yoki alohida ijtimoiy guruhga) yo'naltirilgan bo'ladi. Muhammarr gazeta tilini badiiy asar tilidan farq qilishi uchun, avvalo, har ikkisidagi andozaviylikni farqlashi kerak va bu borada muallifga ko'maklashuvi zarur. Agar gazeta tilida nutq shakllari andozalansa, badiiy asar tilida bayon usuli, yo'sini, tarzi andozalanadi.

Shunday qilib, gazeta nutqini andozalashtirish ijtimoiy-kommunikativ baholash yo'nalishida bo'lsa, badiiy nutqni rejalarashtirish individual-kommunikativ tavsifga egadir. Gazeta materiallarini tahrir qilishda (har holda ko'pgina janrlarda) andozalashda targ'ib, baholash, tashviq, nazarda tutiladi, ko'p marta foydalanish mumkinligi hisobga olinadi va (aksar holmlarda) emotsiyal ta'sir ko'rsatishga mo'ljallanadi (masalan, *qora guruhlar, futbol ishqibozlari, tinchlik kuchlari* va h.)

Andozaviylikni tildagi salbiy hodisa sifatida baholash ham yo'q emas, masalan unga shunday sifat beriladi: quruq, trafaret, bir qolipdalik, o'zgarmas va b. Lekin andozaviylik tilning rang-barang va boy bo'lishiga zidgina emas, balki shunga xizmat ham qiladi, individual mahorat, o'ziga xoslik, nutq san'atkoriligni ham yuzaga chiqaradi. Zero, muhammarr uchun ham, nutq ijodchisi uchun ham tayyor shakllar qancha ko'p bo'lsa, til shuncha boyiydi. Demak, mualliflar ham,

muharrirlar ham hamisha izlanishda bo‘lishi, yangidan yangi andozalarni ijod qilishi va gazeta matnlariga kiritishi kerak. Emotsional-ekspressivligini yo‘qotgan qolip nutq shakllari dan foydalanavermaslik kerak. Masalan, *tilga e’tibor - elga e’tibor* allaqachon qolip-andozaga aylanib bo‘lgan, undan takror-takror foydalanaverilganidan bugunga kelib emotsional-ekspressivligini yo‘qotgan, ta’sir kuchi ham qolmagan, agar muallif yoki muharrir haqiqiy ijodchi bo‘lsa, ma’noga putur etkazmagan holda boshqa shakllarni topishi mumkin. Masalan, *tilga hurmat - elga hurmat, til qadri – el qadri, tili ardoqlining o’zi ardoqli* va b. Shunda andoza chuqur estetik ma’no kashf etadi.

Xullas, andozaviylik va ekspressivliklar bo‘lgan umum-nutqiyo‘nalish gazeta-publisistikada o‘ziga yarasha va alohida tavsifga ega. Uning uslubi, asosan, ijtimoiy baholash tamoyiliga ko‘ra belgilanadi. Bu xususiyat uning tilda, nutqida, uning tarkibida tuzilishida muntazam va qonuniy hisoblanadi.

Ommaviy kommunikatsiyaning bir turi sifatidagi radio tili ham ba’zi o‘ziga xosliklarga egadir. Tabiiyki ommaviy kommunikatsiyaning har bir turi - matbuot, radio, televidenie jamiyat taraqqiyoti va muayyan ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Ular hayotining muayyan sohasiga xizmat qiladi. So‘nggi paytlarda kommunikatsiyaning biror turida, xususan radioda qo‘llanayotgan til vositalarini tanlash va ulardan foydalanish ko‘pchilikning e’tiborini o‘ziga tortmoqda. Ma’lumki, radionutq haqida, uning tavsifi, muammolari xususida ba’zi mulohazalar bildirilgan. Xususan, radio eshittirishlar tili sodda, aniq, tushunarli obrazli, ifodali, yorqin va h. bo‘lishi ta’kidlangan. Bundan tashqari u ko‘pgina radiojanrlarda asosan monolog tarzida bo‘lishi ko‘rsatiladi. To‘g‘ridan ham radio-korrespondentsiya, radioocherk, radiofelteion, radio-

ertak, shuningdek, turli eshittirishlar radiohikoya, radionoma, radiotabrik va boshqalarda asosiy nutq ko‘rinishi, bayon tarzi, ko‘p hollarda monolog bo‘lib qoladi. Demak, radioeshittirishlar matnini tayyorlash (yozib olishda nutqning mana shu shakliga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Radioeshittirish amaliyotida bugungi kunda ilmiy-ommabop suhbat, korrespondentsiya, ocherk, siyosiy sharh (yorqin publitsistik tarzda), agentliklar xabari, Prezident Farmoni, Oliy Majlis farmoni, Vazirlar Mahkamasining qarori, qonunchilik hujjatlari, hukumat bayonoti (bular rasmiyish yuritish uslubida) uchraydi. Shu bilan birga biz ko‘pgina eshittirishlarda badiiy uslubga ham duch kelamiz. Xususiy kanallar orqali uzatilayotgan eshittirishlarda, hatto so‘zlashuv uslubi ham yangramoqda. Bular radiodramaturgiya, radiokompozitsiya, radioertak, radiohikoya va boshqa turli ko‘ngil ochar radioshou, radioo‘yin va b.

Shubha yo‘qli radio tili turli-tuman. Ba’zilar radionutqni so‘zlashuv nutqiga yaqin hisoblaydi. So‘zlashuv uslubi betaraf vositalardan foydalanish bilan bir qatorda so‘zlashuvga xos so‘zlar, iboralar, grammatic shakllar, sintaktik konstruktsiyalardan ham foydalanishni ko‘zda tutadi. Unga yana talaffuzdagi qator jihatlar xos. Shu ma’noda so‘zlashuv nutqidan, sof holda radioda nihoyatda cheklangan holda - badiiy va adabiy-drammatik eshittirishlarda, jonli, turmushga oid nutqni yuzaga keltirishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari matnsiz haqiqiy so‘zlashuv nutqi yozib olingan bo‘lsa, shundagina yo‘l qo‘yish mumkin. Efirda tarqalayotgan so‘z garchi ayrim kishilar, oilaviy yoki ayrim guruqlar tomonidan tinglansa-da, garchi har bir tinglovchiga qaratilgan bo‘lsa-da, lekin uni millionlab insonlar eshitadi, ta’bir joiz bo‘lsa, butun mamlakat - yosh-qari, bilimi, dunyoqarashi turli darajada bo‘lganlar tin-

glaydi, shuning uchun u barchaga birdek tushunarli bo‘lishi kerak.

Albatta, eshittirishni efirga tayyorlovchi jurnalist radio-monologning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olmay iloji yo‘q. O’z tinglovchilarini qiziqtirishni maqsad qilib qo‘yan jurnalist, ishontirish uchun til vositalaridan foydalanadi. Go‘yo suhbat (so‘zlashuv) har bir tinglovchi bilan alohida olib borilayotgandek bo‘ladi. Bunday taassurot nutqni dialoglashtirishning ko‘plab vositalari yordamida yuzaga keltiriladi. Shunday vositalar sirasiga radiotinglovchilarga murojaat, uzuq jumlalardan, bog‘lovchi va ajratuvchi konstruktsiyalaridan foydalanish, kiritma izohlar, qaydlar, tasdiqlovchi va inkor etuvchi so‘z-gaplar, inversiya, sinonimlar, antonimlar guruhi, so‘zlovchining narsa, hodisaga munosabatini bildiruvchi, baholovchi nutq shakllari va boshqalar kiradi.

Radionutqda ohang rang-barangligi va boyligi bilan ajralib turadi. U radionutqda xuddi so‘zlashuv nutqidagi kabi ko‘p hollarda so‘zlovchining baholashi, his-hayajoni (emotsiyasi)ni ifoda etishning yagona vositasi hisoblanadi, chunki baholashning leksik vositalari ko‘pincha ko‘rinmaydi.

Ma’lumki, so‘zlashuv uslubi asosan og‘zaki nutq sohasida qo‘llanadi, lekin bu og‘zaki va so‘zlashuv tushunchalarini ayni bir xil deyish uchun asos bo‘lmaydi.

Og‘zaki nutqning asosiy quroli - *tovush*. Bunda turli ma’romiy unsurlardan keng foydalilanadi. Ohangning pastbalandligi, tovush kuchining oshishi va pasayishi, tezlashish, sekinlashish, sur’at, to‘xtash (pauza), mantiqiy urg“u va b. shular jumlasidandir.

Og‘zaki nutqning o‘ziga xos jihatlari, ma’romlarini bilish radio amaliyotchilarini, ayniqsa og‘zaki matn ustida ishlovchilar uchun zarurdir. Yana bir narsani chuqur bilish kerakki, hozirgi

zamon og‘zaki nutqning yana bir xislati bo‘lib, kitobiy va so‘zlashuv uslublarining ajoyib tarzda qo‘shilishib kelishdir.

Og‘zaki nutq ommaviy muloqot vositasiga aylangani bois o‘z ta’sir doirasini ancha kengaytirgan.

U faqat kundalik turmushdagi muloqot bilan bog‘liq bo‘lmay, balki jamiyat hayotining turli sohalariga - ilm-fan, rasmiy xabar, publitsistika sohalariga ham kirib boradi, bu sohalarga hamisha kitobiy uslub xizmat qilgan, qilmoqda va bundan keyin ham xizmat qiladi.

Radio orqali taralayotgan monolog (sharh, suhbat, ma’ruza, repartaj, muxbirning hikoyasi) tinglovchining diqqatini bevosita o‘ziga jalb etadi. Monologning dialogdan farq qiladigan o‘ziga xos qonuniyatları bor. Dialogda ikki shaxs ishtirok etadi, ular qaysidir darajada ijtimoiy jihatdan bir-biri bilan bog‘liqlik tarafiga ega bo‘ladi va bir-birini yarimta so‘zidanoq tushunadi. Monolog esa bir qator shaxslarga qaratiladi, ular tarkibi, yoshi, ma’lumoti, kasbi va boshqalarga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Bu bevosita tushunarlilikka erishish imkonini yo‘qqa chiqaradi va an’anaviy nutq shakli, adabiyeme-yorlangan tilga murojaat etishga majbur qiladi.

Hozirgi zamon og‘zaki nutqining tuzilishiga ko‘ra shakllari quyidagichadir: munozara, ma’ruza, maslahat (konsultatsiya, matbuot konferentsiyasi, nutq so‘zlash, biror auditoriya bilan suhbat. Bular barchasi odatda so‘zlashuv va kitobiy til unsurlarining turli xilda aralashuvi, almashinuvi va bir-biriga singib ketishidan yuzaga keladi.

Tabiiyki radioeshittirishlar janri juda o‘ziga xos va bir-biridan sezilarli farq qiladi. Masalan, «so‘nggi xabarlar»da qisqa ma’lumot, faktlarni qayd etish; korrespondentsiyadan maqsad mavjud fakt yoki hodisadan balki ularni tahlil qilish, mulohazalash; muhbirning hikoyasida faktlar shunchaki

qiziqarligina emas, balki muxbir taassurotlari, bahosi ham mavjud bo‘ladi; suhbatning vazifasi muayyan zamonaviy muammolarni tushuntirish. Xulosalar va umumlashtirishlar ko‘lami ham turlicha.

Radioeshittirishlar janrlarining til vositalarini tanlash va mutanosiblash tamoyillari, kitobiy va so‘zlashuv unsurlaridan foydalanishning nisbati turlicha: mantiqiy (intelektual) va emotsiyonal; terminlashgan va umum iste’moldagi; adabiy – ishlangan va «tayyorlanmagan», nutqiy-progmatik; odatiy an’anaviy, umumtilga xos; nominativ va obrazli.

Radio tili uchun ham his-hayajonlilik (emotsionallik va obrazlilik xos. Faqat so‘zdangina foydalanishi mumkin bo‘lgan radiojurnalistlar radioeshittiruvlar - janrlar har birining o‘ziga yarasha qiziqarli, jonli va ta’sirchan bo‘lishi uchun ifoda vositalari ustida muntazam izlanish olib borishlari kerak. Xo‘s, eshittirishlar qiziqarli, jonli va ta’sirchan bo‘lishida nimalarga e’tibor berish lozim? Tovush tizimi - shovqin, musiqa va tovush yordamida hosil qilingan obrazlar o‘z yo‘liga. Biz so‘zlarga e’tibor beramiz. Radioamaliyotchilar faoliyatida obrazli til vositalardan keng foydalaniladi. Obraz yaratuvchi vositalar faqat borliq olamdagи ko‘z bilan ko‘riladigan, eshitilaligan tasavvur etiladigan narsa, hodisalarni namoyon etibgina qolmaydi, balki, tinglovchini faol jalb etadi, diqqatini tortadi. Shuning uchun radiodagi bayon tarzi jonli, nafis va tinglovchiga so‘zlar yordamida yaratilgan obrazlarni etkaza oladigan bo‘lishi kerak. Bu esa o‘z navbatida radiomatndagi so‘zlar diqqat bilan tanlangan bo‘lishini talab etadi.

Matnda aniq, ta’sirchan, ma’nodir so‘zlar ko‘p, sifatlash, obrazlar, giperbola (mubolag‘a)lardan samarali foydalanish kerak. Bu aytilganlar radio orqali uzatilayotgan har bir asarga taalluqli.

Agar eshitirish ilmiy-ommabop mavzuda bo‘lsa, ya’ni suhbat shaklida, obrazlar tizimining ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Bunda narsa, hodisa tinglovchi ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi, u go‘yo bu narsalarni eshitayotgan emas, balki tasavvuri orqali yaqqol ko‘rayotgan bo‘ladi. Bular barchasi radiojurnalist uchun qiziqarli eshittirish yodda – uzoq saqlanadigan radioasar yaratish imkonini beradi.

Haqiqatga yaqin, juda o‘rinli qo‘llangan, sifatlashlar, qiyoslar, o‘xshatishlar, shubhasiz, tinglovchini ohangrobodek o‘ziga tortadi va uning butun vujudi quloaqqa aylanadi.

Lo‘nda, ma’nodor obrazning o‘rnini o‘tkir publitsistik matnda boshqa narsa bosa olmaydi.

So‘zlardagi obraz mavhum narsa, hodisani idrok etarli aniq narsa, hodisaga aylantiradi, xususiylikni kerak bo‘lgan umumiyya ko‘taradi, fikrni o‘tkirlashtiradi va tiniqlashtiradi.

RadiopUBLITSISTIKA asarlaridagi obrazlar matnni tuzuvchi hayotni yetarlicha kuzata olsa, hayot tajribasiga, madaniyatga ega bo‘lsa, unda so‘z qo‘llashda nozik ta‘b sezgi mavjud bo‘lsa unda me’yor va maromni sezish qobiliyati rivojlangan bo‘lsa, kutilgan natijani berishi mumkin.

Istiota (metafora) yordamida obraz yaratish - katta san’at. Chunki so‘z ko‘chma ma’nosи faqat kutilmagan g‘ayriodatiy, yangiligi bilan emas, balki aniqligi, narsa hodisaning yashirin tomonlarini to‘liq va yaqqol ko‘rsatib berish, tinglovchiga o‘zi ko‘rib, bilib yurgan narsa, hodisalarni yangidan ko‘rgandek bo‘lishini ta’minalash bilan ham ajralib turadi.

Jurnalistika, ayniqsa radiojurnalista og‘zaki so‘z yordamida o‘quvchi va tinglovchilar ongini faollashtiribgina qolmaydi, ularning qalb torlarini ham chertib o‘tadi, aqliylik, emotsionallik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi kerak.

Shuni e’tirof etish kerakki, obrazlilikdan holi bo‘lgan

nutq ham kuchli imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Uning kuchi fikrning puxta o‘ylanganligi va ishonarliligi, mulohazadagi kuchli mantiq, til vositalaridan san’atkorona mohirlik bilan foydalanish, ayniqlsa, bayondagi tadrijiylik va raxonlikdadir.

His-hayajonga boy bayonga intilishi bir turkum radioeshittirishlarda - ko‘ngil ochar o‘yinlar, shou, suhbat va hakazolarga xos. Bundan tashqari ayrim materiallar, ayniqlsa raddiya, tashviqot muholif(lar)ga qaratilganlarida emotsiyal-ekspressiv bo‘yoqli ma’noga ega so‘zlardan keng foydalaniladi. Mazkur so‘zlar ma’nosi ekspressiv bo‘yoqqa boy bo‘lib (hazil-mutoyiba, chandib olish, piching, kesatiqdan tortib, mazax qilish tahqirlash, «loy» qilish va hokazolarga, muallifning turli tuman baholashiga xizmat qiladi.

Muzokaralar asosidagi kelishuv emas *«til biriktirish»*, sud yig‘ilishi emas, *«sud tomoshasi»*, futbol o‘yini emas, *«ikki komandaning olishuvi»*, parlamentdagi baxs-munozara emas, *«parlamentdagi mojaro»*, qora guruhlar xatti-harakati emas, *«qora kuchlar xuruji»* axboriy chiqish emas *«axboriy xuruji»* va boshqalar shuning natijasi hisoblanadi.

Gazeta janrlari boshqa vaziyat, sharoitga tushgach o‘zgarishlarga uchramay iloji yo‘q. Chunki uni bunga yangicha vaziyat, muloqotning yangicha shartlari, ifoda etishning yangicha vositalari majbur etadi. Shu bois radioda suhbat ham, sharh ham, ocherk va reportaj ham muayyan o‘zgarishlarga uchragan.

Agentliklar xabari, hukumat bayonoti, Oliy Majlis farmonlari boshqa masala. Bular rasmiy hujjatlar, ularni o‘qib berganliklari uchun o‘zgacha bo‘lib qolmaydi. Bunday holatda radio xabar tarqatish kanali hisoblanadi. Xabar tarqatishning gazeta shaklini o‘zgartirish uchun radio va telejurnalistlar harakat qilmoqdalar. Maqsad — xabarlarni

ancha jonli bo‘lishiga erishish. Ular bugungi kunda radio muxbir narsa, hodisani xabar qilib qo‘ya qolishni emas, balki tinglovchini uni eshitishga majburlashni, mohiyatini ta’kidlash, ularda quvonch, xursandchilik, hayajon uyg‘otish haqida qayg‘urmoqdalar. Bunga qanday erishish kerak? Buning uchun radiojurnalist, avvalo, atrof olamni o‘z ko‘zi bilan ko‘ra olishi, kuzatishda o‘z iqtidoriga tayanishi, uni o‘z aql-idroki bilan baholashi, umumlashtirishi lozim. Ana shunda lirizm yuzaga chiqadi va radiojanrlar barchasi unga yo‘g‘rilib, xos xususiyatga aylanadi. Nutq ta’sirchanligiga erishishda xoslangan (individual)lik muhim ahamiyatga egadir. Buni biz faqat so‘zlovchi nutqidan bilishimiz mumkin. To‘g‘ri, har bir so‘zlovchi jamiyatda qabul qilingan til vositalaridan foydalanaladi, chunki uning o‘zi ham shu jamiyatga mansubdir. Lekin u ifoda vositalarini tanlashda o‘z maqsadi va dididan kelib chiqadi. Mana shu ikki omil, oqibat natijada, nutqning alohida qiyofasini, boshqacha aytganda, so‘zlovchining ovozi, uning uslubini belgilaydi.

Tinglovchilar kun mobaynida ko‘plab kishilarning nutqini eshitadilar, shunga ko‘ra radionutqni xoslantirish (individuallashtirish) alohida ahamiyat kasb etadi. Tasavvur qiling suhabatning barcha mualliflari, radiosharhlovchilar, radiomuxbirlar, radioocherklar va boshqa mikrofon oldida so‘zlovchilar tinglovchilar bilan bir qolipda so‘zlashsalar...

Izohning hojati yo‘q! Suhbat agar ishonchi, chin dildan bo‘lsa-yu, lekin qoliplangan shaklda o‘tsa, uni boshqa qoliplardan farqi bo‘lmaydi.

Muxbir hikoyasi, radioocherk va mikrofon oldida so‘zlash janrlarida uslubiy xoslanganlik katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bayonning quruqligi, rasmiyligi, radioeshittirishlar uchun yotdir. Bunday uslub na muloqotni ta’minlaydi, na ta’sirchan bo‘ladi.

Radio orqali chiquvchilarni ikki toifaga ajratish va ular nutqiga talab qo'yish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Birinchi toifani radiomuxbirlar, radiosharhlovchilar, radioreportyorlar, radioocherkchilar va albatta, diktorlar tashkil etadi. Ularning nutqi barcha jihatdan so'zlarning tanlanganligi, o'z o'midaligi, ohangdorligi, urg'ulanganligi jihatidan namuna bo'lishi lozim. Agar ular ba'zi hollarda adabiy til me'yorlaridan chetga chiqsalar ham, lekin adabiy til me'yorlarini puxta egallaganliklaridan deb bilish kerak.

Radio orqali chiquvchilarning ikkinchi toifasi, bular - mikrofonga tashqaridan taklif etilganlar. Bu toifani tashkil etuvchilarning o'ziturlicha. Bular - ziyolilar: olimlar, yozuvchi-shoirlar, san'atchilar, ta'lim muassasalarining o'qituvchilari, ilmiy-ommabop mavzudagi suhbat ishtirokchilari, ilm-fan, texnika sohasidagi muhim voqealari, hodisalarini, xalqaro ahvolni sharhlovchilar. Bular nutqiga ham radiojurnalistlar nutqiga qo'yiladigan talabdan kam bo'limgan talab qo'yish mumkin.

Ziyolilardan hisoblanmaydiganlarning efirdan taraluvchi nutqiga kelsak, bunda adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish chegarasi ancha keng va bu o'z asosiga ega.

Shunday qilib, turli insonlar, juda turli-tuman shakldagi chiqishlarida hayotning turli qirralari, muammolari, faktlari va hokazolari haqida xabar beradilar, shunchaki xabar beribgina qoimay, balki o'z nutq hosilasiga o'z qalblarining qo'rini ham singdiradilar. Radioxodimlar vazifasi ularga bularni etkazishda ko'maklashishdir.

Xullas, radio tili - hozirgi og'zaki adabiy tilning funkshional-uslubiy turlaridan biri hisoblanadi. Unda ommaviy kommunikatsiyaning mazkur turi doirasida doimiy mavjudlik bilan bog'liq fonetik-talaffuz, leksik-frazeologik va konstruksiyaviy vositalarni tanlashning muayyan tamoyillari shakllan-

gandir. Mazkur til ekstraliningvistik omillar va tinglovchilarga eng yuqori darajada ta'sir etish maqsadlari bilan bog'liq vositalar majmuiga ham egadir.

Hozirgi zamon jurnalistining ustaxonasida o'ta zamonaviy, takomillashgan hamma narsani ko'rvuchi, hamma narsani eshituvchi mikrofon, kinokamera, diktofon, teleob'ektiv va boshqalar mavjud bo'lsa-da, jurnalist mahoratining asosini so'z - insonning o'z fikrlari va hissiyotlarini oshkora ifodalovchi noyob imkoniyati tashkil etadi.

Hamon shunday ekan har qanday eng yaxshi ko'rsatuvning asosiy «mavzu»i insondir. Ekranda so'zlash esa televidenieda ishlovchi publitsistning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Ekran orqali so'zlashi ommanning jamiyat hayotida ishtirok etish shaklidir.

Teleekran siyosiy, fuqaroviyligi, insoniy nuqtai nazarlarni ochib beradi. Bunga jonli so'z, barchaga qaratilgan so'z, haqiqiy, ta'sirchan nutq yordamida erishiladi.

Publitsistik matnni har tomonlama baholash uchun, uning butun qimmatini - axboriy to'laqonligini, mantiqan tadrijiyligini, bayonning ravonligini, faktlar va fikrlar dalillanganligini hamda shular barchasi bilan bog'liq sifatini - kompozitsiyaviy va uslubiy o'ziga xoslikni aniqlash lozim. Dalillar faktlarni tanlash, xuddi ularni ifoda etish uchun til shaklini tanlash kabi ta'sir etish samaradorligini belgilaydi.

Televideniedagi nutq jarayonini tahlil etishda ikki muhim jihatga asoslanish kerak. Birinchi - eksraliningvistik jihat. U har bir tizim (tovush va tasvir)ning funksional tavsifi bilan televideniedan informatsiya berishda turli tizimlar uyg'unligi bilan bog'liqdir.

Teleko'rsatuvda eshittiruv va ko'rsatuv unsurlari yaxlit bir butunlikni tashkil etishi lozim. Telejurnalist ishining

asosiy qoidalaridan biri shundan kelib chiqadi: ekranda ko‘rsatilmayotganni so‘zlarda takrorlamaslik. Chunki har qanday tavtologiya xabar yaxlitligiga putur etkazadi.

Ma’naviy va ekspressivlik jihatdan aniq joylashtirilgan yozuv mazmundor, rang-barang nutq-sharh uchun maxsus usul - tayanch nuqta hisoblanadi. Teleijodiy nutq sohasida so‘z hodisaning tasvirdagi qaydidan ko‘ra ustunlikka egadir.

Ommaviy aloqaning vositalaridan biri sifatida televidenieni tadqiq etishda quyidagi uchlikka e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: **tasvir - tovush - nutq**<sup>27</sup>.

Tovush deganda jonli yangrayotgan ovoz, turli shovqinlar va musiqa jo‘rligi nazarda tutiladi (Z.T).

Shunday qilib televideenie nutqi nutqning ommaviy-kommunikativ turi hisoblanadi, tuzilish tamoyili uch yoqlama (tasvir - tovush - nutq) bog‘liqligiga ko‘ra belgilanadi.

Publitsistik matn mazmundorligini tahlil qilishda muloqotning yo‘naltirilganligi, muloqotning ruhiy ta’siri amalga oshirilishi, idroklashning aniq vaziyatini va (dildan) ekanligiga alohida e’tibor berish lozim. Tabiiyki, har bir telejurnalist uning xabari tushunarli, fikri quvvatlangan bo‘lishini xohlaydi. Bunga esa muayyan eshituvchi va ko‘rvuchini doimo yodda tutishlik, uning manfaatlari, e’tiqodi, aqliy salohiyotini unutmaslik bilan erishish mumkin. Yana shuni unutmaslik kerakki, televideineda mustaqil, faqat o‘zigagina xos nutqiy janrlar rivojlanmoqda. Bunga keyingi paytlarda yuzaga kelgan qator teleko‘rsatuvlar - «Mehr ko‘zda», «Tarona», «Ohangrabo», «Yuzma - yuz», «Yulduzlar sayli», «Jishloqdagi tengdoshing» va boshqalar yaqqol misol bo‘la oladi. Bundan tashqari televideenie alaqachonlar

<sup>27</sup>Tovush deganda jonli yangrayotgan ovoz, turli shovqinlar va musiqa jo‘rligi nazarda tutiladi (Z.T).

rivojlangan janrlar - notiqlik nutqi, gazeta publitsistikasi va hokazolarning kommunikativligi va ekspressiv tuzilishlarini o‘zlashtirib olmoqda.

Lekin telenutqning asosiy konstruktiv tamoyili ko‘z bilan ko‘rishlik hamrohligida aytiladigan so‘zni joylashtirishdan iborat.

So‘z va tasvir ikkisining uyg‘unligi borasida aytish mumkinki munosabat ancha og‘ir kechmoqda. Telexabar tuzilishida ham tasvir, ham so‘z birdek qadrli unsur hisoblanadi.

Ekran kontekstini umumiy desak, u xususiy konstruksiyalardan, ya’ni ko‘rinuvchi vaziyat (kadrning mazmuni, montaj, kompozitsiya tasvir dinamikasi), audiovaziyat (mu-siqa, shovqin, tovush) va nutqiy vaziyat nutq jarayonining ekstralingvistik sharoitlaridan tashkil topadi.

Televidenieda nutq sohasi uchta turli vaziyatning o‘zaro aloqasi va ta’siri tufayli shakllanadi. Ko‘rsatuv turiga ko‘ra asosiy axboriy, mazmuniy mohiyat uch unsurdan birida aks etadi. Shunday qilib, lingvokontekst va ekran konteksti almashadi. Misol keltiramiz. Aytaylik, AQShda Prezidentlikka saylov ketmoqda. Teleekranda saylov kunlarida olingan kadr-lar. Xorijiy mamlakat televideniyasining sharhlovchisi Oq uy - prezidentlar qarorgohi to‘sig‘i oldida. Ulkan ustunlar tagida havozalar - ta’mirlash ishlari bormoqda. Kadrdagi tasvirlar mazmuni o‘z-o‘zidan ayon. Lekin, tasvirlar etkazmoqchi bo‘lgan informatsiyalar kadr ortidagi sharh matnidan to‘la ayon bo‘ladi, ya’ni matn tasvir mazmunini tugal ochib beradi:

*Amerikada shunday an’ana bor:*

*Yangi xo‘jayin kelishi oldidan Oq uy qayta oqlanadi yoki amerikalik bir hamkasbim istehzo bilan aytganidek, yangidan oqlaydilar. Oq uy*

*bokira, oq va pokiza bo‘lishi kerak. Lekin bu uyda olib boriladigan siyosat har doim ham oppoq va pokiza emas.*

Tasvirdan ayon bo‘ladiki, Oq uy ta’mirlanayapti. Sharh matnidan esa yangi prezident saylangan, endi u ish boshlash uchun Oq uyga kelishi kerak. Lekin an’anaga ko‘ra har safar yangi prezident uchun Oq uy kerakmi kerak emasmi yana oqlanishi shart ekan. Bundan tashqari Oq uy oppoq va pokiza qilingani bilan undan turib olib boriladigan siyosat hamisha ham halollikka ega bo‘lavermas ekan. Sharh matni qo‘shilmasdan avval tasvir yetkazayotgan xabar mazmundormi yoki qo‘yilgandan keyingisi? Izohga hojat yo‘q.

Demak, ko‘rsatuvning kompozitsion qismlanishini nutqiy va tasviriy qatorlar hal qilar ekan. Tasvir bilan uyg‘unlashib ketgan so‘z yagona ovoz-tasvir obrazini beradi.

Tasvir bilan qo‘shimcha telenutq uchun tasvir qatorida namoyon etilganlarni takrorlashga xojat yo‘q. Shuning uchun nutq qatori mutlaqo yangi xabarni berishi, ba’zan tasvirda namoyon etilayotgan xabarga zid xabarlarni ham berishi mumkin.

Bunday holatda **ma’no zidligi** yuzaga keladi. Ko‘rsatuvning maqsadi, kompozitsiyasi, g‘oyaviy-badiiy yechimi ma’naviy zidlik asosiga quriladi. Ayrim hollarda tasvir va nutq qatori mazmuniga ko‘ra bir-biriga umuman zid bo‘lmaydi yoki mazmuniy zidlik deyarli sezilmaydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, o‘sha sezilar-sezilmas darajadagi zidlikning ahamiyati katta bo‘ladi, chunki bir yoki ikki kadrda yohid birgina so‘zda yuzaga kelgan zidlik ko‘rsatuvni g‘oyaviy-badiiy idrok etish uchun diktor matnidagi o‘nlab, yuzlab so‘zdan ko‘ra samarali bo‘lishi mumkin.

Xabar ma'nodorligiga ko'ra nutq qatori tomoshabinlarga juda maqbul bo'lishi mumkin. Shunda **mazmuniy uyg'unlik** yuzaga keladi.

Tomoshabin ekrandagi barcha tasvirni ko'radi, direktor yoki sharhlovchi sodir bo'layotganlarni yana tushuntiradi. Nutq qatori va tasvirda mujassamlangan mazmundor xabar ayni bir bo'lsa-da, asosiy ma'noviy mas'uliyat so'z zimmasiga tushadi.

Tasvir qatori tobe vazifasida keladi, ko'p jihatdan ekspressiv xabar yetkazuvchi hisoblanadi.

Quyidagi teleko'rsatuvga e'tibor beraylik.

*Kinoplyonkada boylar 20-asrning 20-yillari haqidagi so'z borganda, ularning ko'zlarini, huzur-xalovatni ifodalab, so'zlab ketadi. «Oh! - deydilar ular. - U «oltin davr!» Hammasi ajoyib edi.*

*Kinoplyonkada ishsizlik va qashshoqlik:*

*Hammasi ajoyib edi! Albatta, bular uchun emas. Urush tufayli, bular boyigani yo'q. Bular qurol-yarog'savdosini bilan shug'ullanmadilar, frontga chirigan sukno va otilmas qurol etkazib bermadilar. Mo'may harbiy buyurtma uchun ular g'ajishmadilar.*

*Kinolyonkada ishsizlar namoyishi, ularni politsiya targatib yubormoqda:*

*Ular uchun butunlay o'zgacha 1929-yilgi ulkan tinchlik fojasi. Pichoq borib suyagiga taqalgan ishsizlar va qishloqlar, bunday yashash endi mumkin emasligini, bolalariga non kerakligini aytish uchun Oq uy oldida to'planadilar, Oq uyning xo'jayini qo'shinini ishga soladi.*

Tasvir qatorining mazmuni bilan nutq qatori mazmuni zidligidan qat'iy nazar ko'rsatuvning g'oyaviy-badiiy mazmunini ancha chuqurlashtiradi. Nutqiy qator tasvirni «inkor» etadi.

Mazmuniy uyg'unlik ham, mazmuniy zidlik ham umumiy telekontekstda yangi mazmun yarata oladi. Bir vaziyatda yangi mazmun rivoji nutqiy kontekstdan tasviriy kontestga, boshqa vaziyatda esa tasviriy kontekstdan nutqiy kontekstga tomon boradi. Lekin har ikkala vaziyatda ham so'zning ahamiyati osha boradi, muhim xabarni alohidalaydi, zarur ma'naviy va ekspersiv ta'kid yaratadi, ko'rsatuvning umumiy kompozitsiyasiga ta'sir etadi, uning axboriy muhim qismini ajratib beradi.

Ko'pgina teleko'rsatuvlarda ekrandagi obrazlar bilan tabiatan bog'langan so'z kommunikativ-badiiy vazifa (ta'sir ko'rsatish)ni bajaradi. Tematik tayyorlovchilar, avvalo, telekontekstda metafora hodisasining o'ziga xos jihatlari nimada ekanligini yaxshi bilishlari kerak. Ma'lumki, metaforik hosila semenada, bari bir so'zning boshlang'ich ..

genetik ma'nosining qandaydir belgisi qoladi. Metaforaga xos bu xususiyat teleko'rsatuvda ayricha namoyon bo'ladi.

Kadrda - nemis futbol jamoasi maydonda.

Reportyor ovozi: *Bugun negadir Germaniya terma jamoasining o'yini qovushmayapti. Nemis mashinasi har jihatdan raqibiga o'yinni boy bermoqda. Agar o'yin shunday davom etsa... komondasi uyga quruq qo'l bilan qaytishlari turgan gap.*

Bunda, avvalo, *mashina* so'ziga e'tibor beraylik. Sharhlovchi mashina so'zini qo'llashiga sabab, nemis terma jamoasi tartib-intizomli, har bir o'yinch o'z o'rni, bajaradigan ishini yaxshi biladi. Ular butun bir mashina (komanda)ning go'yo qismlari. Barcha qismlari soz mashina yaxshi ishlashi hammmaga ayon. Komandaning har bir a'zosi uyg'unlikda bir mashinaning qismlari singari ishlasa (harakat qilsa) u albatta yaxshi natijaga erishadi. Komanda o'xshatilmoqda, o'xshatishda o'xshatishning leksik vositasidan foydalanilyapti, natijada konnotativ ifoda yuzaga chiqyapti. Tasvir qatori bilan nutq qatori mazmuniy jihatdan bir-biriga zid. Lekin bu zidlik ko'rsatuvning qimmatini pasaytirmaydi, balki uning ekspressiv-emotsionalligini oshirardi, ko'rsatuv ta'sirchanligi (so'z yordamida) ta'minlanadi. O'xshatishning, bu turidan, ya'ni leksik turidan, foydalanish telenutqda ancha keng tarqalgan. Ular faktni maqsadga muvofiq, ishonchli tasvirlaydi, umumiy g'oyaviy mazmunni ochishga xizmat qiladi.

O'xshatish gazeta matnida andoza bo'lib qolsa, ekran kontesti ta'sirida, ba'zan boshqacha idrok etiladi, hatto, umuman andozaligi ham yo'qoladi. Bu ham tasvir, ham tovush qatori til vositasiga qo'shimcha ma'naviy xususiyat baxsh etadi, natijada nutq qatori obrazli tasavvurni yuzaga chiqaradi. «AQSh aviatsiyasi Vietnam hududiga ajal urug'ini

*sochmoqda*». Bu ifodani biz gazetadan o‘qiganmiz, radiodan yoki televideniedan tinglaymiz. Gazetadan o‘qigandan yoki radiodan tinglaganda, mazkur hodisani ko‘z oldiga keltirish o‘quvchi yoki tinglovchining idrok etish layoqatiga bog‘liq. *Sochmoq* nutqiy kontekstda kelib, ma’no ifodasi tasvir bilan moddiylashtirilgan, tasvir qatori bilan yonma-yon (parallel): ekranda ajal yukini tashlayotgan amerika samolyotlari; biz yog‘ilayotgan katta-kichik bombalarни ko‘ramiz, so‘ng esa vayron bo‘lgan uylar, murdalar, tanib bo‘lmas holga kelgan inson qiyofalari, o‘liklar yonida qon yig‘layotgan ayollar va bolalar... *Sochmoq* so‘zi qo‘srimcha ma’noviy va ekspressivlik kasb etadi.

Ma’lumki, yangi lekisk o‘ramda so‘zning yangi ma’nosini yuzaga chiqadi, teleko‘rsatuv sharoitida yangicha mazmun kasb etadi, agar telejurnalist (matn muallifi, muharriri) nutq konteksti bilan bir qatorda ekran kontekstini ham hisobga olgan holda so‘zdan o‘rinli foydalansa, andozalikdan qutilish imkoniga ega bo‘ladi. Televidenie shu jihatni (imkoniyati) bilan gazetadan farq (ustunlik) qiladi.

Amaliyotchi jurnalistlar, tadqiqotchi tilshunoslar yakdillik bilanta’kidlashlaricha nutqiy qolip (andoza, stereotip) lar yozuvchilar uchun ham o‘quvchilar (tinglovchilar) uchun ham qulay, chunki tez va to‘g‘ri yozish har doim ham oson bo‘lavermaydi. Shunday paytda nutqiy andozalar o‘zini oqlaydi.

Bizningcha, telematnlarda andoza va qoliplardan foydalanish masalasini chuqur ko‘rib chiqishdan ma’no yo‘q. Chunki, ulardan foydalanishda gazeta, radio va televideneda hech bir farqi yo‘q. Aytaylik axborot dasturida (gazetalardagidek) bizlarni «*oq oltin*» xirmoni, qishloqqa kelgan «*zangori olov*» jahon bozoridagi «*qora oltin*» narxi,

fermerlar «*tabiat injiqliklari*»ni engib va h. bilan tanishtiradilar. Albatta, andoza qoliqlar bilan nutqqa quruq bayon va jozibasizlik kirib keladi. Qotib qolgan (stereotip) ifodalar hatto eng muhim va qiziqarli fikrni ham qashshoq va ishonarsiz qilib qo‘yishi mumkin. Televidenieda amalda har qanday so‘z obrazli ifodaga ega bo‘lishi mumkin. Agar qurshoviga olgan so‘zlar unga ma’naviy va ekspressiv xususiyati baxsh etsa-yu, yana yonma-yon tasviriy qator kelsa.

Televideenie muallifga matafora, frazeoligizmlardan foydalanish o‘z uslubiga ega bo‘lish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Gazetada faqat matnda yuzaga kelgan fikriy taassurot televideiniyada tasvirlar orqali berilishi mumkin.

Ma’lumki, iboralardan ijodiy foydalanish oson, chunki frazeologik birlik asosida ko‘chim - metaforik obraz yotadi.

Iboralar tufayli o‘ziga xos ijodiy qo‘llash kadrlarning tasviriy imkoniyati tufayli amalga oshadi. Aytaylik, «... o‘t bilan o‘ynashish yaxshilikka olib kelmaydi» degan so‘zlardan so‘ng nutqda bir oz sukut saqlanadi, shu vaqtida tasvir ketadi yoki gaz plitasi ustida qolib ketgan qozon ichidagi yog‘ yonish boshlagan, ammo uy bekasi beparvo telefonda dugonasi bilan miriqib so‘zlashmoqda. Ekranda kadr almashadi: alanga tobora ko‘tarilmoxda, deraza pardalarida o‘t tutashgan... o‘t o‘chiruvchi mashinaning chinqirig‘i va qora kosov bo‘lib qolgan deraza romlari. Sharhlovchi nutqi: «*Ko‘rdingizmi mash’um oqibat uzoq kuttirib qo‘ymadi*.

Ko‘rsatuvning ekspressivligi iboraning «*o‘t bilan o‘ynashma*» metaforik hosila tufayli kuchayadi.

Bunda iboraning ma’no ifodasi dastlab tasvirda moddiylyashgan ma’no bilan, so‘ngra sharhlovchining ta’kidlovchi so‘zлari bilan to‘qnashadi. So‘ngi jumla tomoshabinlarga murojaat bo‘lib, ko‘rsatuvga jonlilik, tabiiylik bag‘ishlaydi.

Baholovchi so‘zlardan foydalanish sharhlovchilarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lishi lozim. So‘zlashuv yoki odatiy muloqotga oidlik xususiyatiga ko‘ra bunday so‘zlar ma’nosи kitobiy yoki hatto, betaraf kontekstda ham o‘ziga xos emotsiyal-ekspressiv bo‘yog‘i bilan ajralib turadi. Futbol sharhida: ... *bugun yigitlarimiz...*, iqtisodga oid sharhda: ... buning natijasida *mo ‘may* daromadga ega bo‘ldilar, siyosiy sharhda... *shum* niyatlariga erisha olmadilar, ma’naviy-ma’rifiy sharhda... o‘nlab-yuzlab *iqtidorli* o‘g‘il-qizlarimiz yurt ishonchini oqlamoqdalar va b.

Publitsistik chiqishlarning og‘zaki shakli uchun uslubiy bo‘yoqli ma’noga ega so‘zlarni qo‘llash xosdir. Bu nutqga ishonchlilik, tushunarilik va samimiylig bag‘ishlaydi. Leksik vositalar emotsiyonalligi, ekspressivligining turli-tumanligi sinonimiya hodisa bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, ma’no jihatdan bir-biriga yaqin so‘zlar, garchi biri ikkinchisining o‘rnida qo‘llanilsa-da, lekin ular ma’noviy bo‘yog‘iga (bo‘yoqqa egalik darajasiga) ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Masalan, *odam, inson, kishi, kimsa, nusxa*. Bular bir sinonimik qatorni tashkil etsa-da, ma’no ottenkasida farq bor. Bu qatorni tashkil etuvchilardan uchtasi - *odam, inson kishi* barcha nutq ko‘rinishlarida, shu jumladan, publitsistikada (ham yozma, ham og‘zaki) ijobjiy ma’noda qo‘llanadi. Keyingi ikkitasi – *kimsa, nusxa* - faqat salbiy ma’noda.

Televiedenie orqali chiqish qilayotgan kishi tinglovchilarga biron-bir xabarni etkazibgina qolmaydi, balki ularda xabar qilinayotgan faktlar xususida taassurot ham qoldiradi. Nimagadir ishontiradi, munosabat uyg‘otadi va hatto biron-bir harakatni amalga oshirishga undaydi. Aytilganlardan maqsad, o‘z navbatida ifoda etish vositasini belgilaydi. Ifoda etish vositasini tanlashni esa og‘zaki nutq shakli taqozo etadi.

So‘zlashuv leksikasi dialog tarzidagi ko‘rsatuvsalar uchun tabiiy va zaruriy hol, u erkin hamda ortiqcha tavozelarsiz o‘tadi. Agar dialogda tomonlarning nutqi silliq, ustiga ustak rasmiylikka ega bo‘lsa, teletinglovchi miyig‘ida kulib qo‘yadi va ommaga bunday murojaat sun’iy, «quruq», ya’ni jonli emasligi bilan o‘z ta’sir kuchini yo‘qotadi, qiziqishni so‘ndiradi. *Siz juda o‘rinli savol berdingiz. Savolningiz uchun minnatdorman.* «Ayni men kutgan savolni berdingiz» kabi jumlalar, tabiiyki faqat suhbattoshning emas, balki teleeshituvchilarining ham qulog‘iga yoqimsiz ta’sir etadi.

Telechiqishlar ko‘pgina janrini aynan belgilash qiyin, lekin bir narsa aniq: insonning jonli nutqi bo‘lishi shart, nutq egasi esa teletomoshabinni o‘z fikrlariga ergashtira oladigan, qiziqtira oladigan darajada qobiliyat egasi bo‘lmog‘i kerak.

Albatta, bunday nutq tizimini uning sur’ati tovush ohangi yuz ifodasi (mimika) xatti-harakatlarga ko‘ra xoslangan (individual) bo‘ladi. Bular barchasi so‘zlovchining o‘ziga xos xislatni namoyon etadi.

Televiedenie orqali chiquvchilar (biz faqat mutaxassislarni - «so‘zamol» yozuvchilarni, «so‘zamol» jurnalistlarni nazarda tuyapmiz) o‘z sohasini bilishdan tashqari uslublar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari og‘zaki nutq qonuniyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Bundan tashqari ular til birikmalarini qo‘llashning o‘ziga xos jihatlarini, ularning tabiatini va xususiyatidan ham xabardor bo‘lishlari lozim.

Og‘zaki nutq ikki shaklda namoyon bo‘ladi. Birinchisi monolog. Televiedineda nutq sohasi asosini nutqning monolog turi tashkil etadi. Monolog ko‘pchilikka qaratilgan bo‘ladi, ular orasida yaqinlar va uzoqlar, umuman begonalar bo‘lishi mumkin, bu bevosa tushunarli bo‘ladi deyish imkonini yo‘qqa chiqaradi, nutqning an’anaviy shakli - adabiy tilga o‘tishga majbur qiladi.

Biz televizor orqali ko‘pincha ikki kishi - muxbir va olim, diktor va fermer, ikki yoki uch nafar sharhlovchini ko‘ramiz. Kadrdagi har qanday suhbat har qancha samimiylikda olib borilmasin, turli monologlar almashinuvidan iborat bo‘ladi, ya’ni ancha tayyorgarlikka ega, kam tayyorgarlikka ega, ancha adabiy yoki adabiylikdan uzoqroq.

Monologning ikki turi bor: biri - ishontiruvchi, ikkinchisi xabar beruvchi. Ana shu turiga ko‘ra, ifoda vositasi, avvalo, til vositalari tanlanadi.

So‘zlovchi shunchani xabar berishi. faktlarni keltirishi mumkin, ularni hech bir baholamaydi. Bu monolog xabar bo‘ladi. Boshqa biri - nutq egasi xabariga qanday munosabatda bo‘ladilar, uni qanday qabul qiladilar va o‘zлari uchun qanday xulosa chiqaradilar - bunga farqsiz bo‘lmaydi. Uning monologi ishontiruvchi faol ta’sir etishga qaratilgan bo‘lishi mumkin va bunga erishiladi ham, agar zarur ifoda vositasi, avvalo, til vositasi tanlangan bo‘lsa.

Televidenie - ommaviy muloqotning muhim vositalaridan biri, chunki u muntazam ravishda auditoriyaga murojaat etadi, u kishilarning aqli, irodasi, ma’naviyati, xulqiga ta’sir etishiga da’vat etilgan. Har qanday teleko‘rsatuv ko‘rinmas tomoshabin va tinglovchiga mo‘ljallangan bo‘lishi kerak. Shuning uchun nutqiy parchaning muhim jihat - mo‘ljallanganlik - televidenie nutq sohasi uchun doimiy xususiyat hisoblanadi. Televideniedagi chiqish ijtimoiy yo‘naltirilgan muloqot uchun xos bo‘lgan xususiyatlariga ko‘ra baholanadi.

Televideniyadagi nutq matnlarini tahrir qilishda shuni unutmaslik kerakki, ommaviy muloqotning bir turi sifati telenutq adabiy tilning asosiy vazifasini bajarishi, ya’ni umumqabul qilgan va umumtushunarli bo‘lishi lozim.

Teleko‘rsatuvni ikki turga ajratish mumkin: birinchisi, tayyorlangan (matnli), ikkinchisi - tayyorlanmagan (matnsiz). Ikkinchi turda nutq tuyqusdan yuzaga keladi, ko‘p jihatdan so‘zlashuv nutqiga o‘xshaydi. Tayyorlangan (matnli) ko‘rsatuvda esa nutq tuyqusdan bo‘lmaydi, u kitobiy nutqning og‘zaki shaklidir. Shuning uchun u tahrirdan chiqariladi, adabiy til me’yorlariga solinadi.

Xulosa qilib aytganda chiqish, intervyu, madaniyati turlicha bo‘lgan, uslubiyatdan ma’lumoti bir xil bo‘lmasligi uchun teleko‘rsatuvni tayyorlovchilar buni e’tiborga olishlari kerak. Barchasi boshlovchi (etakchi)ga, uning nutqiga bog‘liq.

Ko‘rsatuvni olib boruvchi - sharhlovchi yoki reporto‘r, tanqidchi yoki direktor hozirgi adabiy til me’yorlarini yaxshi bilishi kerak, shu bilan birga so‘zlashuv ya’ni odatdagি bevosita nutqiy muloqot vositalarildan ham oqilonan, chegaradan chiqmay, me’yorni buzmay foydalana olishi lozim. Masalan, ayrim kishilar (ishchi, dehqon, chorvachi, tadbirkor, hunarmand) uchun nutqdagi kamchilik, uslubiy xatoliklar kechirarli bo‘lishi mumkin, lekin san’at arbobi, olim yoki mutaxassis-reporter uchun kechirib bo‘lmas hol hisoblanadi.

Ommaviyaxborotvatarg‘ibotningta’sirchanvositalaridan biri hisoblanmish televiedenie teletomoshabinlarning nutq madaniyatiga katta ta’sir o‘tkazadi. Demak, televiedenie jamiyat umumiyligi nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Nutq (og‘zaki, yozma) ustida ishlovchi mutaxassislar shuni yaxshi bilishlari kerakki, publitsistik chiqishning muvaffaqiyati faqat xabar etkazishdagina bo‘lmay, ishontira bilishda hamdir; qoliplarsiz, kitobiyliksiz jonli-so‘zlashuv tilidan foydalana olishdadir.

## TAKRORLASH VA MUHOKAMA UChUN SAVOLLAR

1. Matbuot, radio va telenutqlar qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?
2. Gazeta tilininng maqsadi, mohiyati va vazifasi nimalardan iborat?
3. OAVda til nimaga xizmat qiladi?
4. So ‘zning ijtimoiy qiymati nimada?
5. Publitsistika va badiiy adabiyot nimasi bilan farqlanadi?
6. Publitsistik asar tahriri muharrir oldiga qanday vazifalarni qo‘yadi?
7. Andozaviylik nima?
8. Andozaviylikdan qanday qilib qutilish mumkin?
9. Radioeshittirishlar matni tahririda nimalarga alohida e ‘tibor qaratish kerak?
10. Og‘zaki nutq va so ‘zlashuv iushunchalari ayni bir xilmi?
11. Radioeshittirishlar janri va til vositalari qanday?
12. Radio orqali chiquvchilarning qanday toifalari bor ular nutqi qanday bo‘lishi kerak?
13. Televideniyadagi nutq jarayoni haqida nima deya olasiz?
14. Televidenie nutqi nutqning qanday turi hisoblanadi?
15. So ‘z va tasvir uyg‘unligiga erishish uchun nimalarga e ‘tibor berish lozim?
16. Masmuniy uyg‘unlik va zidlik deganda nimani tushunasiz?
17. Andozaviylikda televidenie va gazeta farqlanadimi?
18. Og‘zakinutqning qanday ko‘rinishlaridan televidenieda foydalaniladi?

19. *Nutq matnlari tahririda muharrir nimalarga alohida e'tibor qaratishi lozim?*
20. *Telenutqning omma nutqiga ta'siri qanday?*

## XIV BOB USLUB VA ADABIY TAHRIR

- *Matnni til va uslubga ko'ra tahlil*
- *Muallif uslubi*
- *So'zlardan ijodiy foydalanish*
- *O'zlashgan so'zlar tahlili*
- *Muharrir mulohazasi – muallif andozasi*

Til va uslub tahlili, umuman aytganda, adabiy tahrir, amaliy uslubiyat bilan bog'liq. Bunday tahlil ega va kesim to'g'ri joylashtirilishi, ikkinchi darajali bo'laklarning o'rni va hokazolarnigina nazarda tutilmaydi, balki, agar maxsus qo'llash taqozo etilmasa, bir xil so'zlardan yoki o'zakdosh so'zlardan takror foydalanish ma'qbul emasligini, tildagi tasviriyl - ta'sirchan vositalarni, garchi ular nutqning jozibadorligini oshirsa-da, ko'plab ishlatishlik salbiy natija berishini va bermasligini o'rgatadi. Muharrir adabiy tahrir va amaliy uslubiyat tufayli ega - kesim mosligi, qanday hollarda bir so'zni takror qo'llash mumkin yoki o'rini ekanligini, jumla tuzish qoidalari hamda me'yorlarini bilib oladi. Ammo amaliyotdag'i tajribadan ma'lumki, uslubiyatining barcha qoidalari va tavsiyalarini yaxshi bilgan holda ham muharrir tahrir jarayonida ko'pincha mos emaslik va boshqa til hamda uslubga oid xatolarni o'tkazib yuboradi.

Bundan tashqari matnni tuzatishda, uning o'zi ayrim hollarda xatoliklarga yo'l qo'yadi. Demak, me'yor va qoidalari xususidagi bilim amalda qo'llanmagan bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, na amaliy uslubiyat, na adabiy tahrir muharrirning til va uslub bo'yicha ishi qanday tashkil etilsa, yuqorida qayd etilgan xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmaydi, degan savolga to'liq javobni berish amri mahol.

Shunga ko'ra asar tili va uslubi bo'yicha qo'yiladigan asosiy talablarni ko'rib chiqamiz. Agar muharrir tahlil va tahrir jarayonida shularga to'liq amal qilsa, jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymay o'z vazifasini aniq hamda yaxshi bajargan hisoblanadi.

Til va uslub tahliliga qo'yiladigan asosiy talablardan biri - matn tili va uslubining umumiy va o'ziga xos jihatlarini belgilashdan iborat. Bunday talabning qo'yilishi, chuqurroq fikr yuritsa, sababsiz emas, u mustahkam asosga ega.

Muallifning asari tili va uslubidagi o'ziga xos tomonlarni asar mundarijasi va unda foydalanilgan uslubiy yo'sinlar yo'nalishini o'zining tildan foydalanish va jumla tuzish xussusiyatlarini, unga xos bo'lgan odatiy xato, kamchiliklarni aniqlabgina muharrir asar uslubi bo'yicha chuqur o'ylagan hamda maqsadga muvofiq tarzda tanqidiy fikr yuritishi mumkin.

Agar matnda o'zagi bir xil so'zning, ya'ni quyidagi tarzda:

*O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyatini  
o'r ganishning tilshunoslikda hali yagona uslubi  
yo'qligi uchun...*

uchrashi shuni anglatadiki, muallif(lar) bir o'zakli so'zlar (uslubiyati, uslubi) takrorlanishini yoki sezmaydi, yoki farqiga bormaydi. Bunday holda muharrir xushyorlikni qo'ldan bermasligi lozim.

Asar tili va uslubining o‘ziga xosligini belgilab, muharrir matn tili va uslubi bo‘yicha aniq tasavvurga ega bo‘ladi. Bu, agar lozim bo‘lsa, muallifga uning asari xususidagi tanqidiy mulohazalarni bildirishi uchun, qolaversa matnda tuzatishlarni amalga oshirish uchun zamin tayyorlaydi.

Ana shu yo‘l bilan asarning tili va uslubi bo‘yicha o‘z vazifasini aniqlab olgach, muharrir tahrir ishini boshlashga kirishadi. Lekin bu ham hali hammasi emas. Muharrir muallif matni nimaga sayozligini uning nima uchun bir qolipda bo‘lib qolganligini aniqlashi ham kerak bo‘ladi. Bundan tashqari asarning qimmatli arziguli jihatlari va hokazolarni ham e’tiborga olishi lozim.

Unga katta bo‘lmasa-da, muharrirlik tajribasi bor bo‘lgan mutaxassis ko‘zdan qochirgan ba’zi xato va kamchiliklarga keyinchalik takror va takror duch kelishi natijasida bunday xato misoli uning ko‘ziga tushadigan cho‘pdek bo‘lib qoladi, u bunday xatoni ixtiyorsiz suratda ham payqaydi. Ana shunday malaka hosil qilganlar tahrir jarayonida bunday “ko‘z” xatolarni kamdan kam o‘tkazib yuboradi. Qayta o‘qish paytida muharrir o‘tkazib yuborgan xatosini tutib qolsa, u boshqa bunga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi.

Bir qarashda, to‘g‘ridek tuyulgan, ayni bir, shu bilan birga muvaffaqiyatsiz qo‘llangan konstruktsiyani (masalan, *alohida ahamiyat kasb etadi kabi*) muharrir keyingi o‘rinlarda o‘zgartirish, ya’ni bir xillikdan qutilish, rang - baranglikka erishish maqsadida matndan shunday konstruktsiyalarni ko‘zdan qochirmaslikka harakat qiladi. Bunday qismni, ya’ni takrorlarni maxsus izlashga xojat qolmaydi, bunday qo‘llashga ko‘zi tushgan zahoti, ixtiyorsiz uni o‘zgartirishga kirishadi. Uning ko‘zi bunday konstruktsiyani misoli bormoq o‘tkir tig‘ni xos etgandek ilg‘aydi.

Ammo muharrir ko‘pincha muallif uchun odatiy bo‘lgan uslubiy noqislikni qo‘lyozmaning oxirlariga etganda payqaydi. Bunday holatda u kamchiliklarni bartaraf etish uchun qo‘lyozmani boshdan qayta o‘qishiga to‘g‘ri keladi. Ba’zan esa muharrir matnning tanqid qilingan boshqa jihatlarini bartaraf etishga kirishib ketadida, ba’zi bir “ko‘z” xatolarini sezmay qoladi. Bunday xatolar topilganda esa kech bo‘lgan bo‘ladi.

Muallifning odatiy hisoblangan xatolarini qo‘lyozmani baholash maqsadida o‘qilayotganda belgilash maqbuldir. Shunda sidirg‘a o‘qish jarayonida hech narsa nazardan chetda qolmaydi. Lekin asar tili va uslubining o‘ziga xosligini belgilash maqsadida boshlangan ishda eng asosiysi boshqa tomonda.

Aniq maqsadni ko‘zlamasdan maxsus tahlil qilmasdan muallif uslubining ijobiy yoki salbiy jihatlari manbaini to‘laqonli bilish, demak, asar yanada takomillashib, kamchiliklardan ozod bo‘lishi uchun muallif va muharrir nimalar qilishi kerakligi ham aniq bo‘lmay qoladi.

Muharrir asar (muallif) tili va uslubini aniqlashda, avvalo, tinish belgilari to‘g‘ri qo‘yilgan yoki qo‘yilmaganligiga e’tiborni qaratishi lozim. Barcha tur adabiyotlarda tinish belgilarini o‘z o‘rinda qo‘llash qay darajada muhimligini alohida ta’kidlash bilan birga, yana shuni aytish lozimki, tinish belgilari, ayniqsa, badiiy adabiyotlarda ko‘p qo‘llanadi va shu tur adabiyotlarda ular muallif uslubini belgilashda muhim ahamiyatga molikdir.

*“Nima ish qildim? Gunohmi, savobmi?  
Soqolimoqarganda qo‘limni qonga botirdim. Mana,  
hali ham barmoqlarim chilp-chilp yopishadi! Yo‘q,*

*men qizimdan so 'rayman. Ayt, jonim, Gulnorim, ayt! Men yolg'iz saning qarshingda gunohkorman. San ayt ma'qul bo 'ldimi? Bu qon oz, desang yana to 'kaman. Hammasini qiraman.*

*Albatta, bu qon bir tomchi. Bundaylardan mingtasining qoni bir tola sochingga arzimaydi. Bilaman, qizim. Hammasini qiraman, dadang endi qo 'rqmaydi. Ular endix o 'jayin emas, manga, qizim, elkamga xo 'p minishdi. Endi bas! Ko 'zim ochildi, Gulnor. Lekin, bu ko 'z qurg 'ur juda kech ochildi. Yuragimga zahar yugurganda ochildi. Yuragim san eding, Gulnor. Ko 'zim ilgari osilgan bo 'lsa edi, man o 'z yuragimni bo 'rilarga edirarmidim?! Tongla mahsharda qay yuz bilan sanga boqaman? Qizim, kechir, bu adashgan ko 'r dadangni kechir! Gunohimni zarracha kechirishing uchun qo 'limni qonga tiqdim. Oppog 'im, Gulnor, kechir.... e voh essiz umr, essiz qizim*

Atoqli adib Oybek qalamiga mansub bu monologni o 'qir ekan eng bag 'ri qattiq inson ham Yormatning zor qaqqayotgan yuragidan qon yanglig ' sirqirab chiqayotgan so 'zlardan, so 'zga aylangan achchiq alam, musibat, taqdirning shafqatsiz zarbasidan larzaga tushadi, ko 'zida yosh xalqalanayotganini sezmay qoladi. Ho 'sh, muallif bunga qanday erishgan? Ta 'sirchan so 'zlar va iboralarni qalashtiribmi? Yo 'q, tinish belgilaridan o 'rinli foydalanib, ularni joy - joyida ishlatib erishgan.

Asar tili va uslubining mukammal bo 'lishi uchun qo 'yiladigan birinchi talabni dalillash maqsadida boshqa so 'zga xojat bormikan!

Uslubni baholash, tuzatishlar kiritish, ayrim qaydlarda mulohazalar bildirishda sub'ektivlik (bir yoqlamalik)ka yo'l qo'ymaslik - ikkinchi talab hisoblanadi.

Sub'ektiv rujuni matnga uslubiy o'zgartirish kiritishning ob'ektiv zaruratligi bilan almashtirilmaslik o'quvchiga ega bo'lish muharrirlikning eng qimmatli jihatlaridan biri sanaladi. Tilga nisbatan farqsiz kishilar bo'lmaydi. Ko'p hollarda, kuzatilishicha, ayrim mualliflar **avvalambor**, **betakror**, **nafaqat**, **ro'yobga chiqdi** kabi so'z va so'z birikmalarini yoqtiradi va o'z yozishmalarida ulardan zo'r mammuniyat bilan foydalanadi muharrir esa bularni xush ko'rmaydi yoki aksincha.

Agar muallif muharrir yoqtirgan konstruksiyadan sal chetlashsa tamom, muharrirda muallif nutqini o'z qolipiga solish uchun kuchli ishtiyoq tug'yon uradi. Buni bajargach: ana endi yaxshi bo'ldi, ta'sirchanlikka erishdim, ham sodda, ham tushunarli, deya engil tortadi.

Ko'pgina uslubiy tuzatishlarning sub'ektivligi, o'z maromiga solishga intilishlarni tushinsa bo'ladi. Bu g'ayrishiuriy istak har bir tahrir qiluvchining matn, avvalo, o'zi uchun tushunarli bo'lishi ruhiyati bilan bog'liq. Kim bo'lmasin matnni o'qir ekan uni fikran esda saqlab qolish uchun o'ziga yaqinlashtiradi.

Odatda muayyan nutqda ifoda topgan umumiy mazmunni ruhiy jihatdan tushunishiga qisqartirilgan yoki umumlashgan tarzdagi matn tufayli erishiladi. Bunda ba'zi, mantiqiy - sintaktik konstruksiyalarni ayrim auditoriyaga mo'ljallab qayta tuzishga to'g'ri keladi. Muharrir uchun esa har qanday mantiqiy - sintaktik konstruktsiyani tushunish muhimdir. Agar mantiqiy - sintaktik konstruksiyalardan birini o'zgartirish lozim bo'lsa, bu konstruksiya muharrir uchun

tushunarsiz bo‘lgani tufayli (muharrir tushina olmaganligi uchun emas) o‘zgartirilmaydi, balki nashr maqsadiga to‘g‘ri kelmasligi yoki o‘quvchilar uchun muvofiq emasligi tufayli o‘zgartiriladi.

Ko‘pchilik muharrirlar muallif fikrlash tarzining o‘z fikrlash tarzlaridan farq qilsa, buni muallifning uslubiy xatosi sifatida baholaydilar. Xatoni esa tuzatish kerak, natijada sub’ektivtuzatish-matnni qaytaishlash boshlanadi. Mustahkam qaror topgan, odatiy, sinovdan o‘tgan konstruksiya boshqacha qo‘llangan, g‘ayriodatiy, kam uchraydigan konstruksiya o‘rnini egallaydi, chunki u yomon, muvaffaqiyatsiz chiqqan tuyuladi.

Ba’zi misollarni keltiramiz:

*Anchagina gaplar bo‘lib o‘tdi* - yozadi muallif. *Ko‘p gaplar...* tuzatadi muharrir.

*Asta - sekin - gap* boshlaydi muallif. *Sekin - asta - to‘g‘rilaydi* muharrir.

*Insongarchilik bunday bo‘lmaydi* - muallifda.

Odamgarchilik bunday bo‘lmaydi - muharrir tuzatish kiritadi.

*Mustaqil hayotga qadam tashlayotgan* – deb jumla tuzadi muallif.

*Mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan* - tahrirdan chiqaradi muharrir.

Mana shu tarzda yoqinqiramagan va/yoki yoqmagan so‘zlar, birikmalar muallif matnidan o‘z o‘rnini odatiy, tanish va suyumli bo‘lib qolganlarga bo‘shatib beradi.

Muharrir va muallifning fikrlash yo‘sini nutq uslubi turli bo‘lishi mumkin. Masalan, muallif savodli, yorqin va aniq yozishi, lekin qisqa, lo‘nda bo‘lmasligi, qandaydir uzoqdan boshlaydi, ko‘p so‘zli bo‘ladi, muharrir esa, aksincha, qisqa,

lo'nda ta'sirchaglikni yoqtiradi. Muallif tasvirga zo'r bersa ma'nolar bo'yoq dorligiga e'tibor qaratsa, muharrir tasviriy - ta'sirchan vositalarsiz, ancha quruq tildagi bayonni ma'qul ko'radi. Nima qilish kerak, mutanosibsizlikdan qanday qutilsa bo'ladi? Buning yagona yo'li - muharrir irodasini jamlashi ya'ni o'zini o'zi engib, muallifni bayon tarzi uchun emas, balki til vositalaridan o'rinsiz foydalangani uchun tanqid qilishi kerak. Har qanday bo'lganda ham qayta yozib chiqmasligi, matn qiyofasini o'zgartirmasligi lozim.

Ba'zan muallif uslubini sub'ektiv baholashga muharrirning bilimi yetishmasligi yoki haddan tashqari extiyot bo'lishga intilishi ham sabab bo'ladi. Ayrim muharrirlar so'zlarning ko'p ma'noli bo'lishligini unutib qo'yadilarmi, har holda o'ziga yaxshi ma'lum bo'lмаган ма'noda qo'llangan so'zni muallif xatosi hisoblaydilar. Natijada qo'lyozma matni chetida tanqidiy fikr paydo bo'ladi.

Quyidagi muallif matniga e'tibor beraylik:

.... *Qizlar, maktabdan ozod bo'lib, ko'chaga otilgan bolalardek, chuvvos bilan turdilar, iplarini duglarini xaltachalarga shosha-pushha joylab, hovliga tushdilar. Bir gala sho'h, shod, yetilgan qizlar, qaysilari saqich, chaynaydi, qaysi birlari "chang" chaladi. Arslonqul ularni qisiltirmaslik uchun orqaga chekildi.* ("Navoiy", 209-b.)

Mazkur parchada muallif ijod labaratoriyasiga - individual uslubiga xos qo'llangan ikki so'z bor: *yetilgan, qisiltirmoq*. Muharrir bularni o'zgartirishi mumkin edi, lekin o'zgartirilmagan va bizninigcha to'g'ri qilingan.

Qo'lyozmani tuzatish va qaydlar qilishdagi yana bir

sub'ektivlik – ko'r-ko'rona boshqalar fikriga qo'shilish. Masalan, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi munosabati bilan ayrim so'zlar iste'molda paydo bo'ladi. Bunday so'zlar adabiy til me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan, arxaik so'zlar bo'lib, adabiy nutqga zo'rma - zo'raki tiqishtiriladi.

*Oliygoh, muhandis, dorilfurun, tayyorragoh.* Bular matbuotda, radio va talenutqda qo'llana boshlagach, go'yo maqbuldek tuyulib turli soha xodimlarini ham yozma, ham og'zaki nutqida uchray boshladи. Muharrirlar ham bular qay darajada ilmiy ekanligini surishtirmay o'tkazib yuboradilar yoki o'zлari ham qo'llab - quvvatlaydilar. Bugunga kelib, yuqoridagi so'zlardan xanuz oliygoh qulqoqa chalinib va ko'zga tashlanib kelmoqda. Aslida, bu so'z yasama: *oliy + goh*. Lekin goh qo'shimchasi faqat ot turkumiga xos so'zlardan joy nomi yasaydi, ya'ni *janggoh, lashkargoh* va h. *Oliy* sifat turkumiga oid, shu tufayli unga goh qo'shib so'z yasash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. So'zlashuv uslubida oliygoh go'yo maqbul tuyulsa - da, lekin adabiy til nuqtai nazaridan o'rinsiz. *Oliygoh - oliv joy* ma'no ifodasini beradi va mantiqan joiz emas.

To'g'ri, ayrim mualliflar til boyligi - so'zlardan ijodiy foydalanadilar. O'z fikrlari ta'sirchanligini oshirish maqsadida ayrim ko'p ma'noli so'zlarning kamdan - kam uchraydigan ma'nolariga e'tiborni qaratadilar va individual qo'llaydilar. Muharrir barcha hollarda bar bir qo'llashni ziyraklik bilan tahlil qilish, agar so'z til qoidalariga zid qo'llanmagan u hamma gap kontekstga bog'liq bo'lsa, unda "yomon" so'z "yaxshi" so'z bo'lmaydi. Bunda faqat, so'zga ob'ektiv baho berish, mazkur matnda u yaxshimi yomonmi ekanini aniqlash lozim. Bular dan tashqari matnning vazifasi va o'ziga xos jihatini ham nazarda tutish zarur.

Muharrirning matn tili va uslubini tahlil etishda yana bir muhim vazifasi qo‘lyozmada uchragan chet so‘zlarga alohida e’tibor berishdan iboratdir. O‘z tilida muqobili bo‘lgan chet so‘zlarni, garchi muallif ularni yaxshi ko‘rsa-da, qo‘llash, avvalo, o‘z ona tiliga xurmatsizlik sanaladi, qolaversa, muallifning yo savodsizligi yoxud ona tiliga farqsizligi hisoblanadi. Natijada sog‘lom fikr, sog‘lom did kamsitilgan bo‘ladi.

Misol tariqasida quyidagilarni keltirishimiz mumkin: *Bardavom*, *barkamol*, *betakror*, *nafaqat*; diniy - ma’risiy mavzudagi nutqlarda *samoviy* - *aroziy* just so‘zlar uchraydi.

So‘zlarni ma’nosiga ko‘ra tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, *bardavom*, *barkamol* - forscha yasama so‘zlar. *Bar* old, yasovchi qo‘shimcha harakat oti va ot so‘zga qo‘shilib sifat yasaydi (fors tilida). Agar o‘zbek tiliga kalkalasak quyidagi shaklga keladi;

-*bar* - *li*, *davom* - *davom*. Bizning tilda har qanday qo‘shimchalar so‘z ketidan qo‘yiladi, shunga ko‘ra –li so‘z oxiriga tushadi, ya’ni *davomli*.

*Barkamol* ham shunday. Lekin bunda *davomli* singari holatni ko‘rmaymiz, chunki, *kamolli*, qandaydir g‘ayriodatiy, sun’iy tuyuladi. Bunda tahlilga ko‘ra shu narsa oydinlashadi:

*Bar* - forscha , old yasovchi qo‘shimcha, *kamol* arabcha, ot. Fors tillilar o‘zлari uchun o‘z tillaridagi old yasovchi qo‘shimcha yordamida arabcha *kamol* ot turkumidagi so‘zdan sifat yasagan – *barkamol*. Bu ular uchun me’yoriy. Lekin o‘zbek tili uchun bu yasama sifatni sun’iy tiqishtirish (go‘yo nutq ta’sirchan, go‘zal bo‘ladigandek) to‘g‘ri emas.

Endi har ikki so‘zni kontekstda tahlil etamiz.

*Bunday uchrashuvlar bardavom bo‘lishiga tilakdoshmiz.*

*Farzandlarimiz barkamol bo‘lishi uchun barcha shart - sharoitlarni yaratish lozim.*

Qiyoslang:

*Bunday uchrashuvlar davomli bo‘lishiga tilakdoshmiz.*

*Farzandlarimiz komil bo‘lishi uchun barcha shart - sharoitlarni yaratish lozim.*

Agar, maqsad bir xillikdan qutilish, har xillikka, ta’sirchanlikka erishish bo‘lsa, unda o‘z tilimizdagи leksik va sintaktik sinonimlardan foydalanish mumkin. Birinchi jumlada: *doim, har doim, muntazam, hamisha, ko‘p - ko‘p* va h.

Ikkinci jumlada: *komillikka erishishlari, kamol topishlari, komil inson bo‘lishlari, kamolotga etishishlari, komillashuvlari* va h.

Demak, radio, telenutqda, matbuotda, yoki qaysidir arbobning nutqida biror so‘z yoki birikmani uchratib qolsangiz va u qulog‘ingizga, ko‘zingizga yangi chalinsa-da, ko‘r - ko‘rona qabul qilavemaslik ona til - adabiy til me’yori nuqtai nazaridan chuqur mulohaza qilish muharrir uchun ham farz, milliy til oldida ham qarzdir.

Sub’ektiv munosabat yana muharrirning silliqiangan, tabiiy o‘ziga xoslikdan mahrum natq uchun kurashishida ko‘rinadi. Bunday muharrirlar boshqacha qo‘llashlardan biror chatog‘i chiqib qolmasaydi, degan havotirda bo‘ladilar.

Nufuzli nashr (jurnal)lardan biriga muallif tomonidan mamlakat etakchi partiya, hukumat organlarida, shuningdek

jaydari matbuot sahifalarida til va uslubga oid xatolar o‘tib ketayotganligini aniq misollar orqali tahlil etib berilgan materialni “Matbuot jamiyat ko‘zgusi” sarlavhasi ostida e’lon qilish uchun taqdim etadi.

Tahririyat muharriri nufuzli gazetalarda yo‘l qo‘yilgan til va uslubga ko‘ra xatolar tahlil etilgan o‘rirlarni kesib tashlaydi va faqat jaydari gazetalarga taalluqli gaplarni qoldiradi. Bu bilan maqolaning qimmati, dolzarbligiga putur etgani kamlik qilgan ko‘rinadi, sarlavha ham o‘zgartiriladi: “Tilga e’tibor - elga e’tibor”?! Izohning xojati yo‘q!

To‘g‘ri, kim bo‘lmasin matnni uslubiy jihatdan tanqid qilmasin, to‘g‘rilamasin, u asarni yaxshilashga urinadi. Lekin u bunda oqilona, ob’ektiv talabni sub’ektiv ishtiyoqdan farqlay bilmasa, uslubni yaxshilash o‘rniga uni o‘z didiga moslashtiradi, o‘zi suygan kuyga soladi.

O‘z ishtiyoqi va injiqliklaridan ustun kelish uchun til qonunlarini bilish va matnni, shu matn asosida tanqid qilish lozim, shu bilan birga kontekstning o‘ziga xosligi va vazifasi nimadan iboratligiga asoslanish kerak. Matnni til va uslub jihatdan to‘la tahlil qilishda muharririga mana shular juda zarurdir.

Muharrir qo‘lyozmaning til va uslubga ko‘ra tahlil va tahrir qilishida adabiy tildagi me’yoriy uslubiyat qoidalari va tavsiyalaridan ehtiyyot bilan matn maqsadi vazifasini nazarda tutgan holda, xushyorlik ko‘rsatib foydalanishi lozim. Agar muallifga ba’zi e’tirozlari bo‘lsa, shularga asoslanishi talab etiladi. Muharrirlar oldiga bunday talabni qo‘yishning ikki sababi bor: birinchidan, ayrim muharrirlar uslubiyat qoidalari va tavsiyalaridan o‘rinsiz, bir yoqlama foydalanadi, kontekstning o‘ziga xosligi va vazifasini mutlaqo xis etmaydi; ikkinchidan, asar tili o‘ta nozik masala, qotib qolgan bir

qolipdalik uni abgor qilishi mumkin, aslo yaxshilamaydi. Agar quyidagi matn tuzatishga muxtoj, desak to‘g‘ri bo‘ladimi:

*Ijtimoiy - madaniy tarix kechishida Sharq bilan G‘arb qanchalik farqlanmasin, ularga tegishil va belgilovchi bo‘lgan umumiylit ichida jahoniy miqyosidagi chuqur intellektual - badiiy hodisa sifatida ma‘rifatparvarlik harakatchanligi alohida o‘rin tutadi. Ayni vaqtda Evropa ilmida uni (keng ma’noda ma‘rifatchilikni), asosan XVII - XVIII asrlar hodisasi deb qarash hukmron bo‘lsa, Sharqning sivilizatsiyaviy rivojlanishi tadqiqotchilari bu yo‘nalishning qadimdan mavjudligini asoslaydilar. Dunyoning bu qismida sug‘orma dehqonchilikka tayangan hayot tarzi daryo sivilizatsiyalari ehtiyojiga ko‘ra o‘troq va ko‘chmanchi xalqlarning doimo o‘zaro aloqada bo‘lishini taqozo etgan. Yuz berishi kutilayotgan ijtimoiy jarayonlarning dastavval ma‘naviyatdagi o‘zgarishlar va ularning natijalari sifatida maydonga kelishi muayyan dinlar bilan bog‘liqligi zamonaviy fanda aniqlangan (Ma‘rifatparvarlik - ijtimoiy - madaniy hodisa).*

Yuqoridagi matnga diqqat qilinsa, ayrim so‘zlarning qo‘llanishi va jumlalar tuzilishida muallifga xos uslubni ko‘rish mumkin. Lekin bu o‘ziga xos (individual)likni til va uslubga ko‘ra me’yoriy, deb bo‘larmikin? Birinchi jumlada *kechishida* so‘zi qo‘llangan, o‘zagi *kech* buyruq fe‘li. Unga - ish qo‘sishimchasi qo‘shib harakat oti - *kechish* yasalgan, bu so‘z tarix so‘zi bilan birikmaga kirishadi. Qaratqich -

qaralmish munosabatiga ko‘ra (aniqlovchi aniqlanmish talabi bo‘yicha) *kechish* so‘ziga - *i* egalik qo‘sishimchasi qo‘shiladi, natijada, *tarix kechishi* birikmasi hosil bo‘ladi. Bu *tarix kechishi* so‘zi qaratqich birikma bo‘igani uchun *tarix* so‘zi - *ning* qo‘sishimchasini olishi lozim edi, ya’ni *tarixning kechishi* bo‘lishi kerak. Biroq qaratqich kelishik qo‘sishimchasi tushurib qoldirilgan, mantiqan uning borligini xis etish mumkin. *Kechishi* so‘ziga o‘rin - payt kelishigining qo‘sishimchasi - *da* qo‘silib, *payt ma’no* ifodasi yuzaga chiqqan va bu so‘z gapda payt xoli vazifasini bajaradi. Umuman olganda tilning lug‘at tarkibida *tarix* so‘zi bilan *kechmoq* fe‘li o‘rnida unga sinonim bo‘ladigan leksemalar – *mobaynida*, *davomida* qo‘llanishi yoki muharrir tomonidan almashtirilishi mumkin edi. Ammo kechishida so‘zi muallifning tanlovi va u muharrir tomonidan almashtirilmagan, ya’ni muallif uslubi (so‘z qo‘llash tarzi) saqlangan. Bunga qo‘silish mumkin. Lekin jumla tuzish bo‘yicha muallifning uslubi bir oz e’tirozli. Bunda sintaksis me’yorlaridan chetga chiqilgan, gap bo‘laklarining jumla tarkibida joylashuvi buzilgan, ularning bir-biri bilan birikuvi mantiqan to‘g‘ri va izchil emas.

Jumla tarkibida mantiqan mustaqil gap vazifasida kelishi lozim bo‘lgan konstruktsiyalar, gap bo‘lagi vazifasini o‘tashga “majbur” qilingan, ega va kesim munosabati buzilgan, ega sifatlovchi, aniqlovchiga aylangan.

Birinchi jumlada muallif aslida Sharq bilan G‘arb tarixiga nazar tashlanadigan bo‘lsa, ijtimoiy - madaniy sohalarda bir- biridan farq qilishini ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Aralash qo‘shma gap birinchi qismi *farqlanmasin* so‘zi bilan tugaydi. Bu qismda tarkibli ega va kesim mavjud. *Sharq bilan G‘arb* - ega, *farqlanadi* - kesim. Ikkinchi qismda xarakatchiligi - ega, *o‘rin tutadi* (tarkibli) kesim. Shunga ko‘ra gapning

ikkinchi darajali bo‘laklari me’yoriy sintaksis talablariga mos bo‘laman tarzda joylashtirilgan. Muharrir xuddi mana shu xususda matnni tanqid etishi va uni muallifga bildirishi lozim edi. Ammo bunday qilinmagan, natijada, matn uslubiy xatosi bilan bosilgan va asar hayot yuzini ko‘rgan.

Agar “ABU MATBUOT - KONSALT” nashriyotining muharriri V. Umirov tilshunoslik va uslubiyat bo‘yicha savodi bo‘lganida bunday sintaktik jihatdan noto‘g‘ri tuzilgan konstruksiyani o‘tkazib yubormagan bo‘lar edi. Balki muharrir savodlidir, e’tiborsizlik tufayli o‘tkazib yuborgan bo‘lishi mumkin.

## **TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

1. *Amaliy uslubiyat muharririga nima beradi?*
2. *Agar tili, uslubi nima uchun va qanday belgilanadi?*
3. *Matn nima uchun o‘zgartiriladi?*
4. *Muharrir va mualliflik turli bo‘lishi mumkinmi?*
5. *Chet so‘zlar har doim chet so‘zlarimi?*
6. *Kontekstning o‘zigaxosligitil va uslubgata’sir o‘tkazadimi?*
7. *Muharrir muallifga xos uslubni o‘zgartirishga haqlimi?*
8. *Asarning tili va uslubini belgilanishi o‘quvchiga ham bog’liqmi?*
9. *Ob’ektiv talab va sub’ektivlikning farqi nimada?*

## XV BOB

### MATNNI TUZATISH USULLARI

- *Matnga tuzatishlar kiritish*
- *Tuzatish usullari*
- *Matnning muharrir sifatida o‘qish*
- *Tuzatish turlari*

Asar matni (qo‘lyozmasini) tuzatishga kirishishdan oldin muharrir matn bilan tanishadi va sinchiklab tahlil qiladi. Matnni filologik nuqtai nazardan an’anaviy tahlil qilish va tahrir amaliyoti xususida bir oz to‘xtalib o‘tamiz, zero, matnni tuzatish bo‘yicha bularsiz aytilmoqchi bo‘lgan fikr to‘liq bo‘lmaydi.

«Til yordamida murakkab ma’lumotlarni inson tomonidan qayta ishslash jaroyonini o‘rganib psixolog (ruhshunos)lar erishgan natijalar tahrir amaliyotidagi mavjud matn tahlili usullarini tushunishga yordam beradi»<sup>28</sup>.

Tahrir usuli asosiy e’tiborni matn talqin (variant) larini qiyoslashga asosiy e’tiborni qaratadi. Bunda, ya’ni qiyoslash jaroyonida, tabiiyki, tuzatishlar kiritiladi, natijada matnning ikki talqini yuzaga keladi: birinchisi, muvaffaqiyatsiz chiqqani: ikkinchisi, tuzatilgan. Axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi kunda matnni qiyoslash usulida yangi qadam tashlandi. Bunga muharrirning mehnati zamonaviy texnika vositalari bilan ta’minlanganligi sabab bo‘ldi. Muharrir matn talqinlarini qiyoslash uchun, ularni bir vaqtida display ekraniga chaqirish imkoniga ega bo‘ldi. Bunday qiyoslash ham ishonarli, ham

<sup>28</sup>Qarang: Nakoryakova K.M. Lingvistika i redaktirovanie. Iz istorii analiza teksta /Kniga: Issledovaniya i materiali. - Moskva, 1988.- 55-68-b

qulay. Chunki ikki qiyoslanuvchi talqin muharrir ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi.

G‘arb tahrir nazariyasida muharrirning tahrir oldi matn tahlilida tajribaviy usul alohida o‘rin tutadi.

**«Tilshunoslik tajribasi»** degan termin fan tiliga L.V.Shcherba tomonidan kiritilgan bo‘lib, uning mazmuni quyidagicha tushuntiriladi.

Biror so‘z yoki biror iboraning ma’nosи haqida fikr bildirishda bir qator turli iboralarni keltirish mumkin. Tilshunoslik tajribasi so‘z biri ikkinchisini almashtirib yoki o‘rnini yohud ifodasini o‘zgartirib erkin birikmaga kirishida ma’noviy farqlanishini kuzatishdan iboratdir.

Mazkur usul natijasiga ko‘ra «salbiy til materiali» degan tushuncha paydo bo‘ldi. Muvaffaqiyatsiz fikr ifodasiga nisbatan «bunday deyilmaydi» degan baho beriladi. Salbiy material deganda tushunish mumkin bo‘lmagan yoki tezda tushunib bo‘lmaydigan, yoki tushunish qiyin bo‘lgan material nazarda tutiladi.

Bunday material bilan ko‘zda tutilgan maqsadga erishish mumkin bo‘lmaydi. Demak, muharrir uchun tilshunoslik tajribasi salbiy til materialini aniqlashda qo‘l keladi.

**Uslubiy tajriba** usuli A.M.Peskovskiy tomonidan taklif etilgan.

Mazkur usulga ko‘ra matnga uslubiy talqinlar sun‘iy ravishda topiladi. Agar tilshunoslik tajribasi til me‘yorlarini izlashga, til materialini tashkillashtirish qonuniyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, uslubiy tajribani o‘tkazish adabiy asar matnniga tizim sifatida qarashning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

O‘zgartirilishi lozim bo‘lgan unsurning ahamiyatini belgilash va baholash tajribaning maqsadi hisoblanadi.

«Har qanday matn, agar u tom ma'noda badiiy bo'lsa, biron ta so'zni boshqasi bilan bir grammatic shaklni ikkinchisi bilan almashtirishni muayyan qatordagi so'zlarni boshqacha qatorga o'zgartirish va h. ni istisno etadi»<sup>29</sup>.

Uslubiy tajribada asosiy e'tibor ijobiy til materialiga qaratiladi. Bunda so'zning o'rnini o'zgartirish, yoki uni olib tashlash yoki bir qator sinonimlari bilan almashtirish nazarda tutiladi. Chunki, lingvistik tajribada grammatic sinonimlar, ya'ni grammatic ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar, iboralar va so'z birikmalari o'r ganiladi va qiyoslanadi. Shu yo'l bilan oddiy nazar tashlab ilg'ab bo'lmaydigan ma'nolar orasidagi nozik farq aniqlanadi.

Tilshunoslik tajribasi va uslubiy tajriba tahrir uchun samarali usuldir. Ular mulohazalar talqinlarini tuzishda, salbiy til materialini aniqlashda, matnni tahlil qilishda uning vazifasini belgilashda va muharrir tuzatishlari usuli (metodikasi) ni asoslashda ilmiy tadqiqotlarning natijalariga tayanish imkonini beradi.

Tajribaga asoslangan matn tahlili jaroyoni **aniqlantirishdir**. L.V.Shcherba va boshqa tadqiqotchi -tilshunoslarning asarlarida so'z yoki nutq o'rami ma'nolarini izlashga bo'lgan harakatni yaqqol ko'rish mumkin.

Ular fikriga ko'ra timsolni har qanday aniqlantirish har doim ham maqbul emas. Lekin, ko'p hollarda ularning o'zi aniqlantirish tarafidori bo'lib qoladilar.

Aniqlashtirishning ham chek - chegarasi bor, cheksiz emas, doimo bir tomonga yo'naltirilgan bo'ladi. Shunga ko'ra tanqidchi yoki izohlovchining vazifasi ana shu yo'nalishni ochib berish va qo'llagan so'z ustasi tasirchan vositani ko'rsatishdan iboratdir.

<sup>29</sup>Peshkovskiy A.M. Vaprosi metodiki radnogo yazika, lingvistiki i stilistiki. -Moskve, 1980. -133-b.

Tajribaviy usul ahamiyati xususidagi fikrlar turli filologik fanlarda o‘ziga xos bo‘lib, ular tadqiqining maqsadi bilan bog‘liqidir.

Adabiyotshunoslik tilshunoslik va uslubiyatdan farqli o‘laroq, asosan, muayyan badiiy asarning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Matnni tahlil etishga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashish G.A.Gukovskiy ishlarida uchraydi. U matnni badiiy asarnin «tirik to‘qimasi» sifatida tassavur etadi.

G.A.Gukovskiy taklif etgan o‘qish usuli uch unsurni yuzaga chiqaradi: «oddiy, xolisona - adabiy asarni oldindan tayyorgarliksiz va ataysiz o‘qish, uni mohiyatini tushuntirish hamda izohlash»<sup>30</sup>.

G‘arb tahrir amaliyotida yuqorida aytib o‘tilgan tajribaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik usullari allaqachon o‘z tadbiqini topgan.

Matn, ma’lumki, o‘quvchilarning toifasi, qiziqish doirasи, maqsadi va h.ga ko‘ra turlicha o‘qiladi. Shular orasida biz jurnalist (noshir)lar uchun eng muhimi matnni muharrirona o‘qishidir. Bugunga kelib matnni tahrir qilish usuliga ko‘ra o‘qishning uch turi mavjud: **tanishish** uchun o‘qish, **chuqurlashtirilgan o‘qish** va **sidirg‘a o‘qish**.

**Tanishish** uchun birinchi o‘qishda asosiy e’tibor asarning mazmuniga qaratiladi. Bunday o‘qishda muharrir asarning g‘oyasi, mavzui, muallifning bayon usulini aniqlaydi, ya’ni matnga yaxlit ob’ekt tarzida qarab, baho beradi.

Tanishish o‘quvi - tez o‘qish ham deyiladi. Bunday tez o‘qish malakasini egallahsga muntazam suratda mashq qilish tufayli erishish mumkin. Agar muharrir bunga erishsa, uning

<sup>30</sup>Gukovskiy G.A. Izuchenie literaturnogo proizvedeniya v shkole. – Moskva. 1986. –91- b.

o‘qish sur’ati odatiy o‘qish sur’atidan uch - to‘rt barobar oshishi mumkin. Tez o‘qish bo‘yicha bir oz vaqt qilingan Mashq tufayli muharrir bir daqiqada 300-400 hatto bundan ortiqroq so‘z o‘qishga muvaffaq bo‘ladi. Albatta bunda harfma - harf yoki bo‘g‘inlab o‘qilmaydi. Satrlarga ko‘z yogurtirib so‘zlar, so‘z birikmalar, satrlar, xatto, abzatslar matnning bir unsuri si-fatida o‘qiladi. To‘g‘ri, bunday o‘qishga ya’ni tez o‘qish malakasiga erishish ko‘pam oson kechmaydi. Buning uchun, avvalo, g‘ijjalab o‘qish odatidan qutilish talab etiladi. Jurnalistika fakultetining bakalavriat va magistrantlari tez o‘qish mashqini maxsus ishlab chiqilgan tizim asosida o‘qituvchining nazorati ostida bajarilishlari maqsadga muvofiqdir. Albatta, bunday mashg‘ulotga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchining o‘zi, avvalo, muharrirlik ko‘nikma va malakasini yuqori darajada egallangan bo‘lishi lozim.

**Chuqurlashtirilgan** ikkinchi o‘qishda muharrirning e’tibori har bir so‘zning, matndagi har bir belgining mag‘zini chaqishga qaratiladi. O‘qilayotganning mazmunini tushinish uning tashqi shaklini aniq idroklashdan boshlanib, ma’nosini nazorat etish usulini qo‘llash bilan yakunlanadi. Tafakkur jaroyonining tadrijiyligi matnni o‘qish harakatiga ko‘ra belgilanadi. O‘qishda harakat jumla, iboradan yaxlit matnga o‘tish jaroyonidan iborat bo‘ladi. O‘qishdagi bunday harakatda diqqatni jamlash ishni o‘qish bilan bir vaqtida muharrirlik mulohazalarini ham qayd etib borishga imkon beradi. Matnni chuqurlashtirilgan o‘qishda, uning qismlariga alohida e’tibor berish va har bir qismni o‘qish bilan bir qatorda bir yo‘la mulohazalarini ham shakllantirib borish foydadan holi bo‘lmaydi.

**Sidirg‘a** o‘qishga muharrir matn bo‘yicha ishlarining yakunlovchi bosqichida kirishadi. Bu o‘qish aslida matnni so‘nggi nazardan o‘tkazish - nazorat o‘qishi hisoblanadi.

Mazkur o‘qishda matn to‘liqicha - boshdan to oxirigacha yoki muayyan qism tanlab, sidirg‘a o‘qiladi va u muayyan maqsadni ko‘zlab amalga oshiriladi. Masalan, ismlar, familiyalar, geografik nomlar bir xil yozilganligini tekshirish, raqamlardagi ma’lumotlar, sanalar to‘g‘riligiga ishogch hosil qilish uchun sidirg‘a o‘qish usulidan foydalaniladi.

Entsiklopedik nashrlarda, ayniqsa, bunday o‘qishning ahamiyati katta. Entsiklopedik matnlar har qanday boshqa adabiyotlarning matnlaridan o‘zining qisqa va lo‘ndaligi bilan ajralib turadi. Unda raqamli ma’lumotlar - sanalar, masofalar, xajlar, quvvatlar, tenglamalar, qisqartmalar, ismlar, geografik nomlar, bir maqoladan boshqasiga havolalar, tinish belgilari, terminlar va b. ko‘plab uchraydi. Bularning barchasi aniqlik, bir xillik va muvofiqlikni talab etadi. Bunga, asosan, sidirg‘a o‘qishda muvaffaq bo‘linadi.

Entsiklopedik asarlar matni ustida ishslash jaroyonida muharrir Aniqlik erishish uchun sidirg‘a o‘qishni matn ayrim unsurlari bo‘yicha alohida - alohida bajarishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, birinchi galda ismlarni, keyin havolalarni, so‘ng qisqartmalarni va shu tartibda to‘liq matnni ko‘zdan o‘tkazadi.

Matnni chuqurlashtirilgan tarzda o‘qish muharrirdan alohida diqqat va e’tiborni talab etadi. Zero bunday o‘qish muharrirning matnni tahlil qilishida asosiy bosqich sanaladi. Noshirlikda suyagi qotgan tajribali muharrirlar matnni haqiqiy, tom ma’noda chuqur idrok etib o‘qish ayni mana shu ikkinchi o‘qish deb hisoblanadi. Ikkinchi o‘qish jaroyonida o‘quvchi matnga xotirjamlik va ishonch bilan yaxlit qaraydi. Ikkinchi o‘qish deganda birinchi o‘qilgan matnga qaytish tushuniladi, matn qismlari bir- biriga muqoyasalanadi. Tilshunos uchun bu o‘qish so‘z, o‘ram, urg‘u, maromlarni izlash yo‘li bo‘lib li-

soblanadi. Tarixchi va adabiyotshunos uchun ikkinchi o'qish bir satrdan boshqasiga o'tish jaroyonida o'qilganlarni yo'l - yo'lakay sharblash imkonini beradi. Muharrir uchun shoshilmay o'qishda o'z kuzatganlarining qay darajada to'laqonlilik darajasini aniqlash muhimdir. Muhammarrirning chuqurlashtirilgan o'qishidan maqsad matn yetkazuvchi har bir unsur, tafsilotni umumiyligi nuqtai nazaridan baholash hisoblanadi.

Noshirlar orasida muhammarrirlik ig'tidori xususidagi so'zlar eshitilib qoladi. Shunda asosiy urg'u matnni yaxlit tasavvur etish, xis etish, muhammarrirlikdagi kasbiy sergaklik tilga olinadi. Bunday fikrlar to'g'ri, albatta. Haqiqatan ham muhammarrir matnni yaxlit «ko'ra» olishi lozim, biroq, bu xislat tug'ma ham emas, birovdan ko'chirib oladigan ham emas.

Muhammarrirona o'qish - o'ta diqqat bilan o'qishdir, hech bir tafsilot uning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Muhammarrir matn bilan tanishar ekan u haqiqiy bilimdon sifatida namoyon bo'lishi kerak. Tafsilotlarga chuqur va keng qamrovli nazar tashlay olganlargina ishining haqiqiy ustasi sifatida muhammarrirlikni kasb qilib olgan «hunarmand» lardan farq qiladi. O'z ishining haqiqiy bilimdonigina arzimasday tuyulgan g'ayriodatiy narsada ham katta ma'no ko'radi, zero uni chuqur tushunadi va umumiyliga munosabatini xis etadi.

Matn bilan tanishar ekan muhammarrir uni ham birinchi o'quvchisi, ham bilimdon vazifasini bajaradi. Muhammarrir o'qishi ko'p jihatdan ilmiy ishni o'qishga o'xshab ketadi. Har ikkala o'qishda ham tushunarsiz bo'lgan hech narsa qolmasligi lozim. Bunda tushunarsiz hech narsa qolmasligidan tashqarii, matndagi murakkab o'rirlarni chuqur mulohaza qilib ko'rish, mavzu bo'yicha adabiyotlar bilan tanishish shart. Lekin shuni unutmaslik kerak: bunday vaziyatda to'la aynanlikka erishish amrimahol.

**Muharrir barcha narsani bilishi kerak.** Biroq, hech kim, hech qachon muharrirdan har qagday mavzu bo‘yicha, darhol o‘z mulohazasini bildirishni talab etmaydi. Muallifdan ustun mutaxassis bo‘lish muharrir uchun shart emas, u shunday bo‘la olmaydi va bu talab ham etilmaydi. Lekin u muallif asari mazmun va mundarijasini baholashning umumiyl metodologiyasini egallagan bo‘lishi, asar mohiyati (predmeti) ni tasavvur etishi, asosiy adabiy manbalardan xabardor bo‘lishi va ulardan foydalana olishi shart.

Muharrir uchun **hamma narsani bilish** deganda shuni tushunish kerakki, u matn ustida ishlaganda birorta tushunarsiz narsa qoldirmasligi lozim: birorta ham ibora, birorta ham so‘z. Bundan tashqarii ma’no ifodasi uncha aniq bo‘lmagan so‘zni ham, mazmuni g‘aliz jumla ham uning e’tiboridan chetda qolmasligi lozim. Amaliyotdan ma’lumki, ayrim «g‘o‘r» muharrirlar ma’no ifodasi o‘zlar uchun unchalik aniq bo‘lmagan terminlar (umuman so‘zlar)ni «ha kerakli o‘quvchi o‘zi tushunib olsa bo‘ldi», deb o‘tkazib yuboradilar. Agar muharrir nimanidir bilmadimi, bu holni hech bir kechirib bo‘lmaydi. Bilmadingmi yoki shubha qildingmi, albatta, tekshir va buni eng samarali usulini izla hamda bajar.

Agar ilmiy ishni o‘qishda muhimi bilish bo‘lsa, muharrirlik o‘qishida asosiysi matnni baholash. Muharrir har bir so‘zni «tortib» ko‘rishi, o‘rinli qo‘llanganligina emas, balki muallifning muvaffaqiyatsiz foydalanganini, xatto buning sababini ham aniqlashi lozim.

Tajribali muharrir o‘qigan matnni, undagi har bir fikrni shunchaki ma’lumot sifatida emas, balki o‘ziga xos voqelik tarzida qabul qiladi, uning mazmuniga chuqr va tadrijiy suratda kirib boradi, uning barcha unsurlarini xayolan muayyan hayotiy timsollarda tassavur etadi. Ana shunday

mutaxassisona o‘qishni o‘rganish mumkinmi? Albatta, mumkin. Mumkingina emas, xatto shart. Aks holda muharrir «zargar» emas, oddiy «hunarmand»ligicha qoladi.

O‘z diqqatim ustidan hukumronligim qanchali yuqori bo‘lsa, o‘z maqsadimga erishishim shunchali muvaffaqiyatlari bo‘ladi, bu so‘z beiiz aytilmagan. Muharrirlik o‘quvi diqqatni bir joyga to‘plashni va unga ongli tarzda xukmron bo‘lishni talab etadi. Xotiraning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish o‘qish jaroyonini boshqarishga imkon beradi. Lekin, shu bilan birga har bir muharrir oldida turli muommolar paydo bo‘ladi. Shulardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tamiz: matnni o‘qishga kirishish jaroyoni, adabiy asar doirasi, matn miqyosida materialning taqsimlanishi, bular barchasini eslab qolish lozim.

Bundan tashqarii o‘quvchiga ta’sir etuvchi bayonning turli usullarini ham yodda doimo tutish kerak.

Matnni chuqur va diqqat bilan o‘qish mobaynida muharrir uni aniq boholashga muvaffaq bo‘ladi. Agar matn har jihatdan - tili va uslubi, shakli, g‘oyasi va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha e‘lon qilish uchun maqbul bo‘lsa, muharrir uning ustida ishlashni boshlaydi va tuzatishlar kiritadi An’anaviy tahrir usuli ayni shuni taqozo etadi. Bunda asar turidan qat’iy nazar (ayniqsa badiiy asar tahriri tajribasiga ko‘ra) bunga amal qilinadi. Lekin ilmiy - texnikaviy adabiyotlarni nashrga tayyorlashda maslahat beriladigan tadrijiy tahrir usuli muharrir tanishuv o‘qishidan so‘ng, tezda material bo‘yicha o‘z xulosasini tayyorlashi lozimligini ta’kid etadi. Tuzatishlarni esa diqqat bilan chuqur o‘qishdan so‘ng matnni bosishga berishdan oldin butun matn boshdan oyoq yana ko‘zdan o‘tkaziladi. Ommaviy axborot materiallarini e‘lon qilishga tayyorlashda jurnalistika asarining mazmunan hamda janrga ko‘ra turli - tumanligi tufayli matn ustida ishlashdagi har xil usullarni uyg‘unlashtirish

uchun moslashuvchanlik mahoratini namoyon etish talab qilinadi.

Tahrir nazariyasi va amaliyoti bo'yicha adabiyotlarda matnni tuzatish jaroyoni bilan bog'liq muharrir tahlili muommolari ikkinchi o'ringa surib qo'yilgan. Bu qaysidir darajada asar o'quvchisiga qanday xizmat qiladi degan nuqtai nazardan qaralganda qo'lyozmani tasavvur etish uchun tekshirishning o'ziga xosligida tahrir mohiyatini namoyon etuvchi zinhor uni tuzatishda emas<sup>31</sup>.

Matnni tuzatish g'oyasi adabiy asar yaratishning tabiiy tavsifiga ham, ruhiy qonuniyatlariga ham zid emas. Mohirona amalga oshirilgan (bajarilgan) tuzatishlar matnning yaxlitligi va mazmuniy uyg'unligiga putur etkazmaydi. Aksincha, uning tuzilishidagi ayrim nuqsonlarni istisno etadi, muallif fikrini, g'oyasini oydinlshtiradi.

Muharrirlik faoliyati andozaviylikni mutlaqo rad etadi. Tuzatishning har qnday matnga nisbatan qo'llash mumkin bo'lган qolipi yo'q. Muharrir tuzatish usulini o'zi tanlash huquqiga ega, lekin bu usul to'g'ri, asoslangan bo'lishi lozim, shuningdek uni to'g'ri qo'llay bilish kerak.

Qo'lyozmalardagi tuzatishlar, o'zgartirishlarning miqdori ishning sifat ko'rsatkichi hisoblanmaydi. Ayrim muharrirlar (adabiy xodimlar) hanuz uchrab turadi, ular muallif matnnini qayta yozib chiqishni o'z burchi hisoblaydi va bu bilan, xatto, g'ururlanib ham qo'yadi, chunki ular o'z ishlari foyda keltirishiga qattiq ishonadilar, mehnatim zoe ketmaydi, deb hisoblaydilar.

Bunday sidqidildan qilingan mehnat tufayli matn ancha «silliq» tortar, lekin ko'p narsa yo'qotishi mumkin.

---

<sup>31</sup>Qarang: Milchin A.E. Metodika redaktirovaniya teksta. – Moskva: Kniga, 1980. – 12 – 25-b.

Biz yuqorida tuzatish jaroyoni haqida to‘xtaldik. Endi tuzatish turlarini ko‘rib chiqamiz.

Tahrir uslubiyatida tuzatishning to‘rt turi farqlanadi: **o‘quv tuzatish; qisqartirib tuzatish; ishlov berib tuzatish; o‘zgartirib tuzatish.**

Musahhihlik va muharrirlik o‘qishidan maqsad boshqa - boshqa. Musahhih chop etishda tayyorlangan matnni o‘qish jaroyonida uning tahrirdan chiqqan, muallif bilan kelishilgan va tasdiqlangan matniga to‘la mos ekanligiga erishadi.

Matnni imloviy, tinish belgilari bilan boqliq xatolardan xoli qiladi. Entsiklopedik asar matnidagi qisqartmalar va havolalarни bir xildaligi va aniqligini ta‘minlaydi. Izohlar matndagi ko‘rsatkichlarga mosligi va hokazolarni to‘g‘riligini tekshiradi, shuningdek zarur tuzatishlarni amalga oshiradi.

**Muharrirning o‘qib tuzatishidan** maqsadi - matnni sidirg‘a o‘qish. Muharrir bu tur o‘qishni amalga oshirganda uning mazmuni, tuzilishi (kompozitsiyasi)dagi, shuningdek, uslubiy xatolarni aniqlaydi. O‘qish jaroyonida muharrir geografik nomlar, shaxs ism, familiyalari, tahalluslari bir xil berilishi, iqtiboslar, raqamlar, sanalar aniq bo‘lishiga e’tiborni qaratadi, uzunlik, miqdor o‘lchamlarini taqqoslash mumkinligini tekshiradi.

Sarlavhalarning matn bilan uyg‘unligi, mosligini, tasvirlar osti yozuvlarining rasm, chizmaga mosligini tekshirish ham uning vazifasiga kiradi.

Ayrim hollarda bunday o‘qish tahririyatning malakali va tajribali mutaxassisiga topshiriladi lekin u materialni tayyorlagan muharrirning zinhor o‘rnini bosa olmaydi. Uning vazifasi matndagi kamchiliklarni aniqlash, ko‘rsatish, tuzatish emas. Ammo, tabiiyki, aniq ko‘rinib turgan xatoliklar, harfiy, imloviy xatolar, bundan istisno. Shuning uchun

bunday o‘quvchining malakasi juda yuqori bo‘lgan taqdirda ham mazkur jaroyonda yetakchi muharrir ishtirok qiladi va muommolarni hal etadi.

Matnda *qisqartirib tuzatishlarni* amalga oshirishdan maqsad, avvalo, matn xajmini kichraytirish va shu yo‘l bilan uni maqbul o‘lchamga keltirish, qolaversa ortiqchaliklardan xoli qilish. Odatda, qisqartirish tuzatishning o‘ziga xos turi sifatida vaziyatga ko‘ra zarur hollarda yoki turli qoidalar (texnik muharrirlik) taqozosiga ko‘ra amalga oshiriladi. Qisqartirib tuzatishning o‘qib tuzatishdan farqi shundaki, bunda matnga bevosita qo‘l uriladi. Shunga ko‘ra muharrir matnning mazmuniy va sintaktik o‘ziga xosligini hisobga olishi lozim.

Qisqartirib tuzatishda matnda amalga oshiriladigan o‘zgartirishlarni ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, matnning *muayyan qismlarini* qisqartirish, ikkinchisini shartli atash mumkin – matn *ichki qisqartirilishi*.

Birinchi tur qisqartirishda muayyan ma’noviy bo‘g‘inni tashkil etuvchi qism qisqartiriladi. Albatta, bu parcha, odatda, tuzilishga va sintaktik qurilishga ega bo‘ladi. Tahrir jaroyonida bir qolipdagi misollar, bitta mazmuniy qatordagi asos (fakt)lar, qo‘sishma tafsilotlarni qisqartirish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Agar qisqartiriluvchi qismlar to‘g‘ri aniqlangan, muallif bayon usuliga zid bo‘lmasa, mazmunga putur etkazmasa matn qisqartirishidan so‘ng ko‘p mehnat talab qilmaydi, faqat qismlararo bog‘lanishni ta’minlovchi bir oz ishlash kerak bo‘ladi, xolos. Bu ham faqat matn qismlarining uyg‘unligiga hizmat qiladi. Matnni qisqartirar ekan muharrir, doimo, qisqartirilgan parcha va faktlar keyingi bayonda bilvosita qayd etilmasligiga alohida e’tibor berishi kerak.

Matn mazmuniy bo‘g‘inlari o‘rtasidagi bog‘liqlik shart bo‘lsa, unda yirik qismlar qisqartirilishi mumkin bo‘lmaydi. Bunday hollarda matn ichki qisqartirilishi amalga oshiriladi. Bunday qisqartirilishda muharrir matnga ancha chuqurroq kirib boradi, ya’ni matnga ko‘proq dahldor bo‘ladi.

Asarning adabiy sifatiga aloqador qisqartirishlarga *ishlov berib tuzatish* tarzida qarash lozim. Bunday tuzatishdan maqsad matnning yakuniy (to‘liq qo‘ldan chiqqan) talqinini e‘lon qilishga tayyorlashdir. Bunday tuzatish jaroyonida muharrir tahlili natijalari to‘liq hisobga olinadi. Ishlov berib tuzatishda matn adabiy jihatdan silliqlanadi, uning shakli mukammallashtiriladi, muallif g‘oyasi aniqlanadi, fikri oydinlashtiriladi. Bu jaroyonda matnga kiritilgan o‘zgartirilishlar tavsifiga ko‘ra turlicha: qisqartirish, ayrim parchalar qiyomiga etkaziladi (qo‘sishimcha qilinadi), so‘zlar almashtiriladi, nutq o‘rami sintaktik tuzilishi o‘zgartiriladi, asar tuzilishi takomiliga etkaziladi. Lekin bunda muallif bayonining o‘ziga xosligi, uning uslubi o‘zgartirilmaydi.

Tuzatishning to‘rtinchı turi - o‘zgartirib tuzatishda muallif taqdim etgan material asosida matnning yangi talqini yaratiladi. Muallif yetkazgan faktlarga qat’iy amal qilgan holda muharrir (jurnalist) muallif fikrini adabiy shaklga soladi. O‘zgartirib tuzatishda asar bir janrdan boshqa janrga o‘tkaziladi, matning mo‘ljallangan maqsadi o‘zgarganda unga ishlov beriladi, yangi talqini yaratiladi. Bu jaroyonda muharrir va muallif hamjihatlikda ishlaydi, o‘ziga xos ijodiy hamkorlik yuzaga keladi.

Albatta, tuzatishlarni yuqoridagi tarzda turlarga ajratish shartli - aynan shu xilda bo‘lishi kerak degani emas. Matnni tuzatishni ayni bir tur bilan cheklash bir oz g‘ayri tabiiy (sidirg‘a o‘qib tuzatish bundan mustasno).

Matnnitahrirqilishjaroyoniyagonajaroyon, muharrirning kasbiy mahorati - mutaxassis ekanligi tuzatishning turli usullaridan mohirona foydalana olishda namoyon bo‘ladi.

Tajribali muharrirlar matnga tuzatish kiritishda sof muharrirlik vazifasini bajarishdan tashqari nashrni chop etishga tayyorlashda ishtirok etuvchi boshqa mutaxassislarning ayrim «o‘tkazib» yuborgan kamchiliklarini ham tuzatib ketadilar. Masalan, musahhih, texnik muharrir, grafikachi mutaxassis, xatto badiiy muharrir - dizaynerlarning. Bulardan ko‘rinadiki muharrirning mas’uliyati juda yuqori, uning zimmasidagi mas’uliyatni boshqa nashr ishtirokchilarining mas’uliyati bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Muharrir hamma narsani bilishi kerak, deb yuqorida qayd etilgani sababsiz emas.

## **TAKRORLASH VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR**

1. *Har qanday matn tuzatishga muhtojmi?*
2. *Muharrir tuzatishga kirishishidan oldin nima qilishi kerak?*
3. *Tilshunoslik tajribasi nima?*
4. *Uslubiy tajriba nima?*
5. *Aniqlashtirish nega kerak?*
6. *Qo'lyozmani muharrir tomonidan o'qishning qanday turlari bor?*
7. *Muharrir hamma narsani bilishi kerakmi?*
8. *Muharrir o'quvining qanday talablari bor?*
9. *Matnni chuqur va diqqat bilan o'qishdan muharrir nimaga erishadi?*
10. *Musahhihlik va muharririlik o'qishidan maqsad nima?*
11. *Tuzatishning qanday turlari bor?*

## **Matn taxlili bo'yicha uslubiy ko'rsatma (dialektizmlar misolida)**

Adabiy me'yordan chetga chiqish muallif nutqida kamdan kam uchraydi, lekin uchraydi, bunga sabab muallifning adabiy til me'yorlaridan xabarsizligi emas, balki uning nutqiga personajlarning nutqi o'z ta'sirini o'tkazgan bo'ladi yoki g'oyaviy-uslubiy vazifa taqozo etadi. Personaj nutqida adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish muallif bayonidan ko'ra ko'proq rang-barang bo'ladi.

Uning asosini jonli so'zlashuv tashkil etadi. Personajlarning nutqi individuallikka va xarakter belgilariga ega bo'ladi, bundan tashqari ruhiy holatni ifoda etadi, milliylik, ijtimoiy mansublik hamda kasb-hunar egasi ekanligini anglatuvchi vosita sanaladi.

Badiiy nutqda yuqorida biz tahlil etgan boshqa nutqiy unsurlar orasida dialektizmlar alohida, salmoqli o'rinn tutadi.

Adabiy til har doim o'zgarib turgan. xatto ayrim bir xalqda ham adabiy til turli davrlarda turlichcha bo'lgan (masalan: qadimgi turkiy adabiy til xozirgi o'zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o'tagan. Masalan: fors va turkiy tillar uchun - arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili, ba'zi Evropa xalqlari uchun-lotin tili adabiy til bo'lgan.

Har qanday adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga mos Shevalarni o'zlashtiradi va barcha Sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi.

Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Ba'zida adabiy tilni uning turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboriladi. Yozma adabiy til va ohzaki adabiy til hamda badiiy-adabiyot tili bilan adabiy tilni bir deb bo'lmaydi. Adabiy til o'z mezonlarini egallagan, shu tilda so'zlashuvchilar barchasi uchun birdek. U ham yozma, ham og'zaki shakillarda amalda qo'llanadi.

Badiiy asar (yozuvchi) ham adabiy til me'yorlariga bo'ysunsa-da ko'plab xususiylik hamda umum e'tirof etmagan jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Turli holatlarda hamma davrlarda ham adabiy til bilan badiiy asar tili bir tahlitda bo'lmagan. Adabiy til bilan milliy til o'rtasida ham farq bor. Milliy til shu tilning egasi bo'lgan xalq millat bo'lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o'tamaydi. Lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi.

Qaerda yashashidan qat'iy nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til - milliy (umumxalq) o'zbek tili deb yuritiladi.

Milliy til o'z tarkibiga Sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish, qarg'ash so'zlar), varvarizm (tilda o'rinsiz ishlatiladigan chet so'zlar) kabi guruh so'zлarni qamrab oladi.

Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san'aikorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mu-kammallashtirib boriladigan shakli adabiy til deb ataladi. Adabiy til shu tilda so'zlashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lishi jarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida Shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda Shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q. Rasmiy xujjalalar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda ish

ko‘radi. Ommaviy axbrot vositalari adabiy tilda ish ko‘radi. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari mavjudligini yaxshi bilamiz. Sheva — bir millatga mansub bo‘lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlataladigan milliy til ko‘rinishidir. Sheva adabiy tildan fonetik (tovush), leksik (so‘z), grammatik (qo‘srimchalar va gap qurilishi) jihatdan farq qiladi.

Adabiy til bilan Shevalar o‘rtasidagi munosabat alohida muammo hisoblanadi. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog‘lanadi.

Sheva - fors tilidan olingan so‘z bo‘lib, “harakattarzi, tarz, usul” - degan ma’noni anglatadi. Tilning fonetik, grammatik va lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladigan eng kichik hududiy ko‘rinishidir. Sezilarli nutqiy tafovutlari bo‘lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq) da yashovchilarning so‘zlashuvi vositasi sifatida qo‘llanadi. Sheva – bu boshqa Sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so‘z yasalishi va lug‘aviy belgilariga ko‘ra farqlanuvchi nutq tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Masalan: qipchoq lahjasining mang‘it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub Marg‘ilon Shevasi va boshqa o‘zbek tilining eng kichik xududiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Alohida shevalar birikib, lahjani tashkil etadi.

Shevalar tizimining murakkablik darjasи, asosan eks-trolingvistik omillar: Shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darjasи, muayyan Sheva vakillarining boshqa Shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darjasи, adabiy tilning Shevaga ta’siriga bog‘liq. Alohida ajralib qolgan Shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi o‘rtasida aloqalarning yo‘qligi (ya’ni, geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy e’tiqod jihatdan ayni Sheva vakillaridan keskin farqlanishi) tufayli, Sheva vakillarining

an'anaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida Sheva juda sekinlik bian o'zgaradi. Katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilarsiz darajada bo'ladi. Adabiy tilning yoki boshqa Shevaning kuchli ta'siri ostida bo'lgan Shevalar aholining turli guruhlari nutqiga xos bo'lgan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan va turli darajada farqlanadigan an'anaviy va yangi qatlammilar ajralib turadi.

Milliy til lug'at hajmi va qo'llanish darajasi keng bo'lib, lajja va Shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi. Adabiy til me'yorlarining takomillashuvi, fan va madaniyat taraqqiyoti, shahar bilan qishloq o'rtaсидаги тафовутларнинг камайиб бориши каби экстраполистик омиллар тусайли Shevalar ham asta-sekin o'z xususiyatlarini yqo'ota boradi.

O'zbek tili ko'p dialektli tildir. Bu Shevalarda mahalliy xalq tili me'yorlarini ifodalovchi ko'pgina so'zlar mavjud. Bu so'zlarning ko'pchiligi o'zbek adabiy tiliga kirib kelmagan va o'sha Shevalarning so'z boyligi, luhaviy mulki sifatida yashab kelmoqda.

Dialektizmlar nashr mahsulotlari orasida asosan maxsus ilmiy asrlarda, shuningdek, badiiy asarlarda qo'llaniladi.

Ilmiy adabiyotlarda ular tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Badiiy ijodda esa dialektizmlar asosan obraz (xarakter) yaratishda xizmat qiladi. Atoqli adiblar – Abdollo Qodiriy, Oybek va boshqalarning kata – kichik asarlaridagi \ personajlarning nutqida dialektizmlardan mahorat bilan foydalanib o'quvchi xotirasiga muhirlanib qoladigan yorqin va tasirchan obrazlar yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Lekin matn tahlili jarayonida bir narsaga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi u ham bo'lsa, asar muallifi dialektizmlardan qay darajada, miqdorda v ani-

ma maqsadda foydalanganidir. Badiiy publisistikada,

Hususan badiiy nutqda, badiiy ijoddha dialektizmlarning me'yorida ortiq qo'llanilishi ta'sirchanlikni emas, balki g'alizlikni keltirib chiqaradi va o'z ahamiyatini qaysidir ma'noda yo'qotadi.

Ma'lumki adabiy til lahja va shevalarga ta'sir etib ularning o'ziga yaqinlashtirib borar ekan, o'rni kelganda, jonli tillardan oziqlanib, Shevalardagi so'z va iboralar hisobiga boyib ham boradi.

Bundan badiiy asarrlarda ishlataladigan har bir dialektal so'z kelgusida adabiy tilda etakchi o'rinni egallaydi degan ma'noni anglashilmasligi kerak. Dialektizmlar badiiy adabiyot uchun uslubiy vositalardan biridir xolas. Yozuvchi tilini o'rganish birinchi darajadagi ahamiyatga molik ilmiy masala bo'lib, asar tilini o'rganish asardagi voqealar; hodisalar ro'y bergen davr tilini ham o'rganishdir, deb yozgan edi rus tilshunosi Vinogradov.

“Adabiy til” va “badiiy adabiyot tili” atamalari bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lishi bilan birga, hamma vaqt ham mos tushmaydi.

Badiiy adabiyot tili umumxalq tili taraqqiyot qonunlariga bo'ysunadi, nashr tili hisoblangan adabiy tilga va so'zlashuv tili hisoblangan jonli tilga asoslangan. Qaysiki, yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlaganda, obraz yaratganda, asosan, adabiy til ifoda vositalaridan, jonli tildagi shevaga xos so'z vabirikmalardan, kasb-hunarga oid terminlardan ham keng foydalaniadi. Binobarin, badiiy adabiyot tili adabiy tilga qaraganda keng qamrovlidir. Har qanday adabiy tilning o'ziga xos shakllanish va rivojlanish qonuniyatları bo'lib, bu qonuniyatlarning ichki mohiyati adabiy me'yorning xususiyatlari bilan bog'liqidir. Adabiy til umumxalq tilining

yuqori oliv shakli sifatida har doim me'yoriglikka intiladi. Chunki adabiy til umum xalq aloqa vositasi bo'lib, uning nutqiy vositalari, amal qilinadigan ilmiy va amaliy qoidalarni, ularni tatbiq qilishni darsliklar, qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar umuman o'quv jarayonlari va ta'limgina emas, adabiy asarlar ham bu til me'yorlarni takomillashtirib borishi talab etiladi. Bunday takomillashtirish avvalo adabiy tilning umumxalq aloqa vositasi sifatidagi vazifasini yuksak darajada bajarishiga xizmat qilsa, ikkinchidan adabiy tilning o'z lisoniy negizi bo'lishi xalq so'zlashuv tilidan uzoqlashib ketmasligi ta'minlanadi.

Matn pirovard natijada faqat nafosat va ahloq jihatdan baholanmaydi, balki o'zida xalqning estetik va ahloqiy, badiiy va falsafiy, diniy va etnografik, tarixiy va ijtimoiy, keng ma'noda mafkuraviy va ma'naviy qarashlari, ular haqidagi tushunchalar, tasavvurlar, hukmlar, mushohadalar avloddan-avlodga olib o'tuvchi, asrovchi va saqlovchi ma'naviy hazina sifatida ham baholanadi. Shu sababli dialektlar shunchaki aloqa vositasi deb bilish va baholash nihoyatda chegaralidir. Har bir sheva hayotiy zarur tushunchalarni ifodalovchi, davrlar mobaynida turg'un va yashovchan bo'lgan va yangi so'zlarning yasalishida negiz vazifasi hisoblanadi, Aslida matnda qollangan bir sheva vakili uchun tushunarli bo'lgan so'z bilan boshqa sheva vakili tanishadi. To'g'ri nutq jarayonida har bir Shevada umumadabiy tilda me'yorlashgan leksemalardan ham foydalaniladi. Binobarin Shevalarda qo'llanilayotgan lug'aviy birliklarni manbaiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin.

1) Umum adabiy leksemalar, ya'ni umummadabiy til leksikasi muayyan hududlarda yashovchi qipchoq lahjasida so'zlovchi kishilar nutqida umumadabiy tilga oid

leksemalarning qo'llanilayotgani ham tabiiy hol. Masalan qorqoq – qo'rqoq, tavaq – tovoq, sachaq – sochiq, jer – er, jigit – yigit, onar – anor va hokozo.

2) Shevaga xos leksemalar ya'ni o'zbek tili Shevalarida, xususan, qiachoq Shevalarida qo'llanilib kelayotgan o'ziga xos leksik birliklar shu Sheva vakillarning hayotiy sharoitlari, Shevaning geografik tarqalishi shu hududning madaniy, iqtisodiy rivoji kabi omillar ta'sirida paydo bo'lган. Ma'lum bir Sheva hududida muayyan ishlab chiqarish sohasining qaror topganligi ham shu yerda yashovchi aholi tilida boshqa hududlardagidan farq qiladigan leksemalarning yuzaga kelishi va qo'llanishiga sabab bo'ladi.

Shevalarda shunday so'zlar borki ular abadiy nutiqdagina emas balki boshqa sheva vakilari nutqida ham uchramaydi. Masalan,

Kishilarning tashqi ko'rinishini, xarakter – xususiyatini ifodalovchi leksemalar, ya'ni tarandi – ozib-to'zib ketgan yosh bola, chimit – yuz qiyofasi kelishgan qiz bola; g'urmit – bo'yи past, gapni tez anglab ololmaydigan kishi, po'kki – ish qilmay semirib ketgan kishi va hakozolar uchraydi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinaridiki, bunday so'zlar ma'no ifodasini adbiy nutiqdagi bir so'z bilan berib bo'lmaydi, deyarli bitta jumlada ayon bo'ladi.

Kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi leksemalar ya'ni sholbarinni kiy – shimingni kiy, jubba – paxtali ustki kiyim, o'g'ri kissa – kiyimning ichidan bilinmaydigan qilib tikilgan cho'ntak va hokozolarni shevada vakili abadiy tildagi muqolili bilan ifoda etsa, qanchalik o'xshovsiz bo'lishini tasavvur qiyin emas

Shevaga xos bunday so'zlar o'zbek tili lug'aviy tarkibining naqadar boy ekanligidan dalolat berdi, demak

shevalar abadiy til boyishi uchun muhim manbadir, shuning uchun ularni to'plash va tadqiq qilish, Sheva materiallarini alohida-alohida lug'atlar tarzida nashr etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Badiiy ijodda dialektizmlarning qo'llanilishi muayyan asarrda keltirilgan muhitni, makonni, u erda istiqomat qiluvchi insonlar haqida yaqindan his qilishga, jonli tasavvurni yaratishga imkon beradi. Shuningdek badiiy nutqda, matbuot materiallarida, xususan badiiy ijodda shevalarga xos vositalardan foydalanish asarning yanada ta'sirchan, haqqoniyligi chiqishida, voqeа va hodisani tasirchan aks ettiradi, ular mazmuni, mohiyatini bo'rttirib, ob'yektiv ifoda etadi. Publisistik ijod, shuningdek badiiy ijod namunosi mualliflarning iqtidori, qobiliyatini uning qay darajada so'z san'atkori ekanligi, u ilgari surgan g'oya, fikrni, o'quvchi, tinglovchi va ko'rvuchiga etkaza olgani darajasi bilan o'lchanadi. Muallifning bu boradagi muvaffaqqiyati asar tilini belgilaydi. Ilgari surilgan fikr qanchalik lo'nda, silliq teran hayotiy, haqiqiy bo'lishi, ishontira olishi har bir til unsuriga bog'liqdir

Badiiy asarmi, jurnalistik asarmi, muallif tanish, jozibali bo'lsa-da, lekin o'quvchi har kuni eshitib yurgan so'z, iboralardan "qochishi" kerak. Buning uchun ijodkor oxori to'kilmagan yohud tesha tegmagan so'z iboralarni izlashi, o'zi yaratishi lozim. Ana shundagina yangidan-yangi tasvir vositalari yuzaga keladi, ijod maxsulining badiiy estetik qimmati, ta'sirchanligi oshadi.

Ijodiyot tarixidan ma'lumki atoqli adiblar; Abdulla Qodiriy. Fitrat, Behbudiylar faqat badiiy ijod ustasigina emas, balki kuchli publitsist ham bo'lganlar. Aytish mumkinki, badiiy ijod bilan publitsistik ijod bir-birini istisno etmaydi. Bunga bidiyy tasvir vositalaridan jurnalistik asarlarda o'rinni

foydanish yaqqol misoldir. Jumladan Badiiy asar matni ustida ishlash – tahrirning alohida sohasi hisoblanadi. Matnga yondashish, uni baholash, tahlil usuli asarning mohiyati bilan bog‘liq. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak dialektlar tilning yo‘qolmaydigan qatlamidir. Adabiy til, yuqorida aytib o‘tkanimizdek ma’lum bir vaqtlar mobaynida sayqallanib, takomillashib o‘sha erlik xalq uchun namuna vazifasini o‘tashi uchun ma’lum bir qolipga solinadi. Lekin shevalar xalq o‘zligini, milliyligini bildirib turuvchi vosita bo‘lish bilan birga adabiy nutqning boyishiga ham xizmat qiladi. Badiiy nutq go‘zalligi faqat tildagi tasviriy-ta’sirchan vositalar – tasvir, o‘xshatish, metafora, metonimiya, sinekdoha, ironiya, xalq maqolalari, iboralar (frazeologizmlar) bilangina emas, balki dialektizmlar (Sheva, lahja)ga oid so‘zlar bilan ham jozibalidir.

Biroq tildagi tasviriy-ta’sirchan vositalardan foydanish ijodchi xohish, ayniqsa, uning til unsurlaridan foydanish iqtidoriga bog‘liq bo‘lsa, dialektizmlarni qo‘llash ijodning muayyan qoidalari, xususan personaj nutqini yaratish zarurati bilan aloqadordir.

Hamon badiiy ijod obrazlar orqali fikr yuritish ekan, demak, shu obrazga xos nutq ham talab etiladi.

Badiiy asar ham har qanday boshqa tur asar singari adabiy til me’yorlariga asoslansa-da, lekin boshqa tur asarlardan bir jihat bilan farqlanadi. U ham bo‘lsa, adabiy til barcha uslublaridan foydalana olish imkoniyatining mavjudligidir. Bunday imkoniyatga nutq egalarining har biri o‘ziga xosligi tufayli erishadi.

Kishilik jamiyatini tashkil etuvchi turli xil tabiatli, tavsifdagi insonlar ishtirok etuvchi badiiy asarda, tabiiy – ki, nutq ham turfa xil bo‘ladi.

Kimdir ziyoli-o'qituvchi, tadqiqotchi, jurnalist, xullas, oliv ma'lumot egasi bo'lgan turli soha mutaxassissi, kimdir oliv bilimgoh talabasi, o'rta maktab o'quvchisi, fermer (dehqon, chorvachi), kimdir ishchi, yana kimdir o'g'ri, giyohvand, mol bozorida dallol, otarchi, kosib, quruvchi va hokozo.

Badiiy asarda uning janriga, muallifning maqsadiga ko'ra shaxslarning obrazni yaratilar ekan, demak, ularning o'z nutqi bo'lishi ya'ni har bir personaj o'z nutqiga ega bo'lishi talab etiladi.

Ijodkor ana shu talabga ko'ra adabiy tildagi barcha uslublardan o'rinli va me'yori bilan foydalanishi, oddiy zarurat. Agar muallif shunday yo'l tutmasa, u o'zi kutgandek asar yarata olmaydi, garchi bunga erishdi ham deylik, lekin o'quvchi kutganadek asar yarata olmaydi, garchi bunga erishdi ham deylik, lekin o'quvchi kutganidek bo'lishi gumon.

Masalan. Agar Qodiriyning Toshpo'lati, Qodiri so'zlatganidek nutqga ega bo'limganida edi, o'quvchi xotirasida bor bo'yi, turqi-tarovati bilan gavdalanmas, yodda qolmas edi. Yohud G'afur G'ulomning "Shum bola"si. Boshqa yana qator misollar keltirish mumkin. Chunki, badiiy ijodda Toshpo'lat, Shum bola singarilar, albatta uchraydi va so'zsiz ular badiiy ijodning san'at asari darajasiga ko'tarilishga munosib hissa qo'shamdi. Bunday muvoffaqiyatga nutq tufayli sazovar bo'ladi. Ularning nutqi esa so'zlashuv uslubida bo'lib, dialektizmlarga boydir.

Masalan "Toshpo'lat tajang nima deydi" hajviyasidagi bosh qahramon, aslida A. Qodiri bilan bir mahallada yashagan, adib ko'rgan, bilgan, hatto ulfatchilik qilgan, mahallaga "otning qashqasidek" ma'lum kimsa bo'lgan.

Qodiriyning o'g'li Habibullanining yozishicha, "...1930 yilga qadar dadamning o'zi bizning mavzelik Polvon ismli

bir “do’st”i bo‘lar edi. U yoz kunlari ba’zan-ba’zan biznikiga yarimta”ni ko‘tarib kelardi, dadam bilan “chin ko‘ngildan suhbatlashib” qaytar edi. Polvon zo‘r gavdali, nasha chekkandan ko‘zлari ukkining ko‘zidek qizil, do‘ppisining bir chekkasini qayirib kiygan, bedana ushlagan chap elkasi bir oz pastga egilgan, bog‘ichi uzun oq surp yaktak kuylak va keng lozim kiygan, qo‘sha-qo‘sha qiyiq belbog‘iga yarim gazlik pichoq osgan, chertib-chertib so‘zlar edi. Dadam u bilan suhbatda chapanicha so‘zlamas, sodda, qisqa-qisqa javob qilib, kulib o‘tirar, faqat gap qo‘shish uchun bo‘lsa kerak, har zamonda bir og‘iz so‘z qotib, hazil qilib qo‘yar edilar.

Bir vaqtin men ularning suhbatini tinglab o‘tirib, Polvonning shu hikoyasidan dahshatga kelganim yodimda:

— *Shu degin, Julqun uka, —hammayoqni qimorga boy berib, juda abgor bo‘lib yurgan chog‘im edi. Bir kun boshim qotib ko‘chada borayotsam, yonimdan boyvachcha, kelishgan bir yigit o‘tib qoldi. “To‘xta”, dedim, “san boyvachchani yoningdagi pulingni bir sanab ko‘raychi, qancha ekan”, dedim ichimda. Sekin orqasidan tushib, xilvatga borganda uni so‘ydim. Qani pul chiqsa! Cho‘ntagidan atigi uch tachiqibdi. Pichog‘imni qon qilganga arzimabdi-ya, Julqun. Keyin bilsam, boyvachcha yigit — uch kunlik kuyov ekan, hah, hah!*

Yuqoridagi matnga e‘tibor bersak ayon ko‘rinadiki, Toshpo‘latga prototip bo‘lganlardan biri — Polvonning nutqi o‘ziga munosib, so‘zlashuv uslubida, Toshkent Shevasida.

Yozuvchining bunday kishilar bilan suhbatlashib o‘tirishi sababi ma‘lum. Yana Habibulla Qodiriyni eslab yozishicha mahallada adibning Salim o‘g‘ri, Zokir o‘g‘ri, Nasir o‘g‘ri, Badir o‘g‘ri kabi bir guruh “ulfat”lari bo‘lgan.

Demak, Toshpo‘lat yig‘ma obraz, jamiyatda o‘ziga xos bo‘lgan gurug‘ning vakili, uning nutqini faqat oddiy, so‘zlashuvga xos. Shunga ko‘ra dialektizmlarga boy.

-Qarashvorimi — Solihabibi boshini ko'tardi.

-Qo'y o'ziyni bos.

-Solihabibi qozonning tuvog'ini ko'tardi (O'lmas Umarbekov. Er yonganda. 305-b.)

-San o'tir. San mehmongan (O'lmas Umarbekov. Ota va o'g'il. 12-b.)

-Yoshulli adaolat qiling, - dedi shu paytgacha gapga aralashmayotganlardan biri (Tohir Malik. Shaytanat. III kitob. 12-b.)

*Qarashvorimi, o'ziyni, tuvog', san so'zlarining talaffuzi Shevaga xos – qarluq Shevasida. Adabiy til me'yoriga ko'ra qarashib yuboraymi, o'zingni, qopqoq, sen shaklida bo'lishi lozim edi. Yozuvchi O'lmas Umarbekov asarga badiylik hamda hayotiylik bag'ishlash maqsadida Shevaga murojat qilgan.*

Oxirgi misoldagi *yoshulli* so' o'g'iz Shevasiga xos, adabiy tildagi shakli *yoshi ulug'*dir. So'zlashuv usulubida katta yoshdagilarga hurmat bildirganlik ma'nosida qo'llanadi.

O'lmas Umarbekov qalamiga mansub asarlarda Shevaga xos so'zлarni ko'plab uchratish mumkin. Adib ularni, shunchaki, ataylab, majburlab personaj nutqiga kiritmagan.

Misollarga murojat etamiz:

— *Ja bo 'lmasa*, xaltasi bizga qolsin, — dedi kimdir.

Adabiy tilda juda bo'lmasa shaklida keladi.

Dialektlar (jonli so'zlashuvda) fonetik o'zgarishlarga uchragan ayrim so'zlar va so'z birikmalari talaffuzda o'z shaklini o'zgartiradi. Lekin ma'no jihatidan adabiy til me'yori bo'yicha aytildigan va yozildigan talqinidan farq qilmaydi. Masalan:

— *Opkeldim, La...Lato...fat!* —deya oldi Axrorjon qiynalib.

Jumla tarkibidagi *opkeldim* aslida (adabiy tilda) ikki so‘zning birlashuvidan hosil bo‘lgan, ya’ni *olmoq* va *kelmoq*. Nutq egasi biror narsani keltirganligi xabarini berish maqsadida *olib keldim* tarzida qo‘llaydi. Toshkent Shevasida (farg‘ona viloyatida ham) nutq tejamkorligi qoidasiga ko‘ra birinchi so‘z tarkibidan so‘z o‘rtasidagi ikki tovush tushiriladi, -*l* va -*i*. Oxirgi tovush jarangli -*b*, keyingi so‘z boshidagi jarangsiz -*k* tovush ta’sirida kuchsizlanadi va -*p* talaffuz etiladi, natijada olibning qisqargan shakli op hosil bo‘ladi, u keyingi so‘zga qo‘shilib ketadi, chunki op hech qanday ma’no ifodasiga ega emas, faqat *kelmoq* so‘ziga qo‘shilgandan so‘nggina olib so‘zi ma’no ifodasini beradi.

Biz faqat *kelmoq* fe’liga qo‘shilsagina dedik. haqiqatan ham xuddi shunday fonetik hodisa yuz berishida olib so‘zining *bermoq* so‘zi bilan birikuvida boshqacha holatni kuzatamiz. Bunda tovush tushishi hodisasi tufayli birikma birinchi komponentining so‘nggi uch tovush – *l*, *i*, *b* tushib qoladi va birinchi tovush *o* keyingi so‘z bilan qo‘shilib ketadi hamda *olib bermoq* birikmasi ma’no ifodasini beradi, shakli esa *obermoq* tarzida bo‘ladi.

Bu misolda fonetikaning yana bir qoidasini esga olish kerak. Birinchi misolda -*b* tovush jarangsizlashib -*p* ga aylangandi. Keyingi holatda -*b* tovush (*olib* so‘zining oxiridagi) saqlanib qoladi, aslida bu tovush saqlanib qolmaydi, balki keyingi so‘z boshidagi -*b*, tovush bilan bir xil ekanligi tufayli so‘zlashuv nutqi jarayonida tushib qoladi. SHunga ko‘ra birikma *oberdim* shaklini oladi va *olib berdim* ma’no ifodasini saqlab qoladi.

Dialektizmlarda o‘z qatlamga oid so‘zlargina emas balki, o‘zlashgan qatlamga oid so‘zlar ham talaffuzga ko‘ra o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan: “*Leytenant ichkaridan*

*chiqqach*, Omonqul Toshkentdan kuyovi ishlaydigan joyning telefonini so‘radi.

— *Shu bo‘lishi kerak. Lekin o‘zi tilponda o‘tirmaydi, chaqirilib berishadi... ”* (Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar, 115-b)

Yuqoridagi ikki jumlada bitta so‘z-ot ikki xil yozilgan va o‘qiladi. Birinchisi — *telefon*, ikkinchisi — *tilpon*. O‘zbek adabiy tilidagi mazkur so‘z ingliz tiliga xos, u rus tili orqli kirib keladi va rus tilida qanday yozilsa, shunday olinadi, aniqrog‘i shunga majbur qilinadi. Bu o‘rinda chet so‘zlarni ona tiliga qabul qilishdagi fonetikaning talvifuzga ko‘ra moslab olinadi” degan qoidasiga yo‘l qo‘yilmaydi. Sobiq sho‘rolar tuzimi vaqtida bunga ruxsat berilmagan. Shunga ko‘ra *telefon* tarzida adabiy tilga kirib qolgan, o‘z talaffuziga mos shaklda yozilsa, hato hisoblangan, og‘zaki nutqda esa, savodsizlik hisoblangan. Biroq, dialekt egasi—xalq o‘z tiliga moslab qo‘llayvergan. Shevaga xos shakli o‘zbek adabiy tilini tashkil etuvchi barcha Shevalarga xosdir. Tohir Malik o‘z asaridagi personaj qaysi Sheva vakili ekanligini ta’kidlagan holda nutqni jonli tilga yaqinlashtirish maqsadida Toshbolta nutqida *tilpon* shaklida beradi.

Birinchi jumla muallifga tegishli bo‘lgani uchun, adabiy til qoidasi birinchi o‘ringa chiqadi. Va *telefon* tarzida beriladi. Bular badiiy nuiq uslubi va adabiy til qoidasiga ko‘ra yuz beradi. Ikkinci jumla oxiridagi leksema o‘z qatlamga oid— Shevaga xos.

“*Qizim shunaqa deganday bo‘luvdi*”.

Kesim tarkibidagi adabiy tilga xos shaklda berilishi kerak bo‘lan tarkibli kesim — *bo‘lgan edi*, Toshkent Shevasida *bo‘luvdi* tarzida talaffuz etiladi. O‘z qatlamga oid bunday talaffuzlar va ulardan badiiy ijodda foydalanish ko‘plab uchraydi.

Badiiy ijodning boshqa ijod turlaridan (masalan, ilmiy ijod, musiqa, kuy bastalash, rassomlik va hokozolar) farqi, so‘z yordamida obraz yaratishdir.

Badiiy ijoddagi har bir obraz — personaj o‘ziga yarasha tashqi ko‘rinishi, qad-qomat, fe’l-atvor, fikrlash tarzi, dunyoqarashi, bilim saviyasi va hokazolardan tashqari o‘z nutqiga, ya’ni so‘zlash tarziga ham ega bo‘lishi lozim. Personajning nutqidan boshqa barcha hislatlarini muvllif o‘z so‘zi bilan ifoda etishi mumkin, lekin personaj nutqi—bu o‘zining nutqi bo‘lishi kerak. Shunda obraz hayotiy, haqqoniy chiqadi. O‘quvchi uni yaqqol tasavvur etadi, hatto, u o‘quvchiga tanishdek, uning yonida yashayotgandek, atrofida yurgandek tuyuladi.

Asardagi obraz ttoshkentlikmi, namanganlikmi, samarqandlik yoki buxorolik, xorazmlikmi ekanini, jamiyatning qaysi tabaqasiga mansubligini uning nutqidan anglash, anglatish yozuvchi mahoratiga, uning dialektizmlardan foydalana olish—so‘z qo‘llash san’atiga bog‘liqdir.

Personaj qaerlik, kim va qaysi tabaqaga xosligini uning nutqidan, ya’ni tildan bilish mumkin. Personaj nutqidagi birgina Shevaga xos so‘z buni yaqqol ko‘rsatib beradi. Adibga uning qaerlik ekanini tushuntirishga ham hojat qolmaydi.

Turli mualliflar asarlaridan to‘plangan materiallar yordamida, ya’ni ularning tahlili natijasida buning guvohi bo‘ldik. Misollarga murojat etamiz.

Bayramga yangi kuylak oberdim (Alisher Ibodov. Latofat do‘konidagi qotillik . 143-b).

— *Sila o‘tiringla! Men hozir! — deya chopqillab oshxonaga kirdi va choy quydi* . (Alisher Ibodov. O’sha asar.143-b).

— *Men-ku, to ‘rt boladan orttirib shu etimga ust-bosh qipman.*

(Alisher Ibodov. Derazanı chertgannida yomg'iru shamol. 144-b).

— *Shiprib olsa bo'lardi, — dedi Gulsump opa, atrofga ko'z yogurtirib* (Uchqun Nazarov. CHayon yili. 54-b).

— *Men jila qolsam bo'laridi* (Uchqun Nazarov. Chayon yili. 54-b).

— *Pulni qattan olaman amakih* (Uchqun Nazarov. 69-b).

— *Ish paytida nos chakib yanglishding* (A.Qodiri. Obid ketmon. 187-b).

*Ekaving kelib choy ich! —dedi bo'ltak boshi* (A.Qodiri. Obid ketmon. 186-b).

— *Xo'sh, - dedi domla, - o'zi tagi bor gapmi, axir six ham hukumat arboblaridansiz* (A.Qodiri. Obid ketmon. 94-b).

*Siz bizning hovlida bo'lg'onmisizh* (A.Qodiri. O'tgan kunlar. 14-b).

*Ota-enasi shunaqa kotta bo'lganda, — Odil aka o'ziga javob berar ekan. O'zi ham bo'rikelbat va baquvvat itdan ko'zini uzolmay, boshini orqaga burganicha hayratlanib borardi* (Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. 34-b).

*To'shakka tushib qolgan, hozir kenjavoy ovangnikida* (Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. 41-b).

*Ana bir duo qiling, — Kenjavoy aka xotini-yu bolalari davrasida duoga qo'l ochib turardi* (Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. 42-b).

*Qo'y o'g'lim o'shang'lani* (Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. 70-b).

*Pora ovotgan, tanish-bilishchilik qivotgan, maishatga sochvotgan bitta manmi* (Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. 114-b).

Yhkorida keltirilgan misollardagi dialektizmlar adabiy tildagi muloqat bilan solishtirilsa, ular har biri adibning muayyan maqsadi, hayotiy obraz yaratish niyati bilan bog‘liq ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

Birinchi misoldagi *oberdim* adabiy tilda olib berdim shaklida.

Ikkinci misoldagi *sila* adabiy tilda *sizlar* tarzida qo‘llanadi qarluq Shevasiga xos.

Uchinchi misoldagi *qipman* adabiy tilda *qilibman*,

To‘rtinchi misoldagi *shipirib* so‘zi *supirib* tarzida qo‘llanadi, *qipman* qarluq Shevasining Toshkent hududida, *shipirib* Farg‘ona hududida so‘zlashuvda uchraydi. So‘zlashuvda *supirgi shipirgi* tarzida talaffuz etiladi.

Beshinchi misolda *jila qolsam*, ya’ni *jiromoq* shakli qipchoq Shevasida so‘zlovchilar va u bilan chegaradosh boshqa Sheva vakillari nutqida uchraydi, adabiy tilda *yurmoq, ketmoq* shakllari mavjud.

Oltinchi misoldagi *qattan*, ettinchi misoldagi *chakib* so‘zлari Toshkent (Farg‘ona vodiysi) aholisi nutqida ham uchraydi. Adabiy tilga *qaerdan, chekmoq* shakllari qabul qilingan.

Sakkizinchi misoldagi *ekaving*, to‘qqizinchi misoldagi *tagi* so‘zлari Toshkent Shevasida, asosan qishloq joylarida istiqomat qiluvchilar nutqida uchraydi. Adabiy tilda *ikkoving, tegi* shakli qo‘llanadi. O‘ninchи misoldagi *bo lg‘onmisiz* qipchoq Shevasiga xos, adabiy tilda *bo lg‘anmisiz*, o‘n birinchi misoldagi *enasi, kotta* so‘zлari ham qarluq Shevasiga xos, adabiy tilda *onasi, katta* tarzidadir.

O‘n ikkinchi misoldagi *ova* so‘zi, umuman adabiy tildagi variantga yaqin emas. Adabiy tilda amaki shakli mavjud, o‘g‘iz Shevasiga xos.

O'n uchinchi misoldagi *apa* so'zi haqida ham shunday deyish mumkin, u ham o'g'iz Shevasiga xos. Adabiy tilga *opa* so'zi qabul qilingan.

O'n to'rtinchi misoldagi *o 'shag 'lani* qipchoq Shevasiga xos, adabiy tilda *o 'sha yoqlarni* tarzida keladi.

O'n beshinchchi misoldagi *ovotgan, qivotgan va sochvotgan* shuningdek *man* so'zлari barchasi Toshkent Shevasiga xos. Adabiy tilda *olayotgan, qilayotgan, sochayotgan* va *men* shakli olingan, adabiy tildagi shakillari ham qarluq Shevasiga xos. Farg'ona lahjasida uchraydi. Yana shuni aytish joizki, adabiy tilga *olinyotgan, qilyotgan* va *sochyotgan* shakllari ham qabul qilingan. Yuqoridagi misollardan ko'rindiki asarlarda qo'llangan dialektizmlar asosan qarluq Shevasida, qisman qipchoq va o'g'iz Shevasiga xos ekan. Aslida o'zbek adabiy tili asosan qarluq Shevasidan, ayrim hollaridagina qipchoq va o'g'iz Shevasidan so'z olgan.

Dilektizmlarni, ta'bir joiz bo'lsa, tilda tabiiy hosil bo'lган so'zlar deyish mumkin. Adabiy tilga shaklan va talaffuzga ko'ra o'zgarib turib qabul qilinganlarini madaniylashtirilgan o'simliklarga o'xshatish mumkin. Agar mazkur madaniylashtirilgan o'simliklar (so'zlar) qarovsiz, nazoratsiz qolsa o'z tabiiyligiga qaytadi. Demak, adabiy tildagi so'zlar asli Shevalardagi, xalq so'zlashuv tilidagi so'zlardan iborat, ulardan ayrimlarigina adabiy til (fonetika, leksikologiya va grammaтика) qoidalariga bo'yundirilgan. Agar jamiyatda adabiy til amal qilmasi, biz hozirda dialektizmlar deb inkor etilayotgan so'zlar o'z tabiatiga qaytishi va aslicha qo'llanishi shak-shubhasizdir.

Badiiy ijodda nima uchun Shevaga xos so'zlar qo'llanadi, adabiy tildagi talqinini qo'llaverish kerak emasmi degan savol tug'ilishi tabiiy.

Asar muallifi har qanday asarida, albatta, adabiy til me'yorlariga amal qiladi, lekin shu bilan birga Shevaga xos so'zlarni ham qo'llaydi. Chunki asardagi har bir personaj — nutq egasi, albatta, qaysidir Shevaning vakili hisoblanadi. Bundan tashqari har bir obraz o'z bilim saviyasi, dunyoqarashi, jinsi, yoshi darajasiga ko'ra farqlanadi, o'ziga xos xislat, tabiat, axloq, ma'naviyat va hokozo hususiyatlarga egadir. Agar muallif ularning barchasini birdek adabiy nutq bilan yorlaqasa, unda asardagi barcha shaxslar xuddi inkubatordan chiqqan jo'jalardek bir xilda bo'lib qoladi.

Obrazlardagi tabiiylik, o'ziga xoslik yo'qoladi. Shuning uchun muallif asaridagi ayrim personajlarni o'z "tili" da gapirtiradi. Asardagi obraz garchi oliy ma'lumotli, yuksak til madaniyati sohibi bo'lsa-da, har doim ham adabiy tilda so'zlayvermaydi. Rasmiy doiralarrda so'zsiz adabiy til me'yorlariga amal qilinadi (og'zaki nutqda) lekin, aytaylik, uyda, bozorda, to'y-hashamlar, do'stlar gap-gashtaklarida, dam olish, xordiq chiqarish jarayonida beixtiyor o'z tabiatiga, o'zi mansub Shevaga o'tib ketadi., bu sezilmaydi ham.

Agar muallif o'z qahramonini biz aytib o'tgan vaziyat, sharoitlarda ham adabiy nutq egasi qilib qo'ysa u komil obrazga aylanmaydi.

Masalan, o'qituvchi o'z o'quvchisiga sinfda dashnom berib, "Og'zingga kelganini gapira berasanmi" – desa, joiz bo'ladi. Chunki sinf rasmiy dargoh o'quvchilarga bilim beriladigan maskan. Adabiy tilga (nutqga) amal qilish ham farz, ham qarz.

O'qituvchi bilan o'quvchi boshqa vaziyatda to'qnash keladi, masalan to'yda, bozorda, dalada — paxta yig'imterimida. Xo'sh, u qanday so'zlaydih Albatta, adabiy tilda emas, o'z Shevasida: "Og'zingga kelganini gapiravurasanmi" (Toshkent Shevasi)

Chunki bunday vaziyatda adabiy nutq erish tuyuladi.

Muloqat ishtiroklari bir-biriga notanish bo‘lsa quruq rasmiy tus oladi. Vaziyatga ko‘ra nutq xolislik, ta’sirchanlik, yaqqollshik, emotSIONallikdan mahrum bo‘ladi. Agar suhbat shtirokchilari, tengqurlar sinashta do‘st, ulfatlar bo‘lsa, unda suxbat jonli kechadi, kesatiq, tanbeh maqomida bo‘ladi. Lekin bu hol har kimning izzat nafsiga tegmaydi. Vaholanki, maqsad tanbeh emas, balki achinish, ogohlantirish, o‘ziga yaqin olganlik seziladi. Aks ta’sir ham shunga yarasha ijobiy bo‘ladi. Suhbat abadiy tilde emas suhbatdoshlar shevasida o‘tadi. Shunga ko‘ra u samimiylilik kasb etadi.

Demak Shevaga xos so‘zlarni qo‘llash faqat uslub talabi bilan emas, balki, odmi nuqtai nazaridan ham o‘rinli bo‘lar ekan.

Lekin shu bilan birga yana bir narsani aytib o‘tish muhim. Tabiiylikka, hayotiylikka intilib, asardagi personajlar nutqida dialektizmlarga ruju qilish, asar qimmatini oshirish o‘rniga, aksincha pasaytirib yuborishi mumkin. Agar qaysidir personaj Shevasidagina so‘zlashaversa, unda mazkur obraz ijobiydan ko‘ra ko‘prov salbiyga o‘tib ketadi. Shuning uchun obraz yaratishni boshqa usullari bilan bir qatorda personaj nutqini yaratishda ham me’yorni bilish talab etiladi. Quyidagi misollarga murojaat etamiz.

1. *Ha men senga cho‘ri oberarkanmanda, bilib qo‘y, seni ham qaerdadir cho‘rilik kutyapti. – hoholadi SHokir* (Muhabbat Hamidova. Aldaganni aldama, 142-b.)

2. *Bizning ahvolimizni ko‘rib turganlari uchun chin dildan qarashvottilar* (Muhabbat Hamidova. Aldaganni aldama, 135-b.)

3. *Chol, o‘t-bo‘tingiz og‘rimayaptimi, balki, yotishingiz shart emasdир* (Muhabbat Hamidova. Aldaganni aldama, 41-b.)

4. *Vahliroq boring, - dedi Sayyora* (O‘lmas Umarbekov. Odam bo‘lish qiyin. 36-b).
  5. *Nima bo ‘ldiykin, —dedi Sayyora* (O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra. 227-b)
  6. *Oyimlar o ‘shatta bo ‘lsalar kerak* (O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra. 337-b).
  7. *Opa! — deb qichqirib yubordi. — Qattasiz, opa* (O‘lmas Umarbekov. Ko‘k daftар siri, 75-b).
  8. *Ko ‘zizzi o ‘ziz ocha qoling opoq qiz* (O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra. 251-b).
  9. *Jichcha tashlab ket, baraka topgur* (Zulfiya Qurolbay qizi. Armon asirasi, 42-b).
  10. *Sho ‘tta tek o ‘tir, - buyurdi u* (O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra, 251-b).
  11. *Fermada kanalizatsiya o ‘tkazaetgan bollar shunday deyishyapti* (O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra. 200-b).
  - 12.— *Ketovuz, ketovuz, hozir ketovuz, yur* (O‘lmas Umarbekov. Ko‘k daftар siri. 76-b).
  13. *Manavini opay berdila* (O‘lmas Umarbekov. Odam bo‘lish qiyin, 32-b).
  14. — *O ‘shatda, - ensasi qotib gapirdi Fatxulla* (O‘lmas Umarbekov. Yo‘lda, 46-b).
  15. *Innaykeyin, ota manga Fotimani va ‘da qilganlar* (O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra. 235-b).
- Yuqorida keltirilgan qator misollarda qo‘llangan dialektizmlar barchasi deyarli qarluq Shevasidadir.
- Xususan, *vahliroq* adabiy tilda *vaqtliroq* tarzida, *bo ‘ldiykin* —*bo ‘ldi ekan*, *o ‘shatta* — *o ‘sha erda*, *qattasiz* — *qaerdasiz*, *ko ‘zizzi o ‘ziz* — *ko ‘zingizni o ‘zingiz*, *jichcha* - *ozgina*, *manavini* — *mana buni*, *sho ‘tta* — *shu erda bollar* — *bolalar*, *ketovuz* - *ketamiz*, *o ‘shatta* — *o ‘sha erda*, *innaykeyin* — *undan keyin*.

Bular ichida *jichcha* qarluq Shevasiga xos emas shuning uchun adabiy tildagi talqinidan uning asosini topib bo‘lmaydi. Adabiy tilda *oz*, *kichik*, *picha*, *bir oz ozroq* kabi sinonimlari bor, bular barchasi qarluv shevasidagi so‘zlar. *Jichcha* jonli tilda bularga sinonim keladi. Bu so‘zni qo‘llashning yana bir jihat, unda erkalash ma’no bo‘yog‘i (ottenkasi) bor, bundan tashqari miqdorni minimum darajasiga kichaytirish semasi mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dialektizmlarning badiiy publitsistikada ham, badiiy ijodiyotda ham o‘z o‘rni va ahamiyati bor. Yuqoridagi fikrlarga qo‘shiladigan bo‘lsak ya’ni bir so‘z bilan aytganda, asarga jonli muhit bahsh etadi. Shularni hisobga olgan holda ijod mazmun – mohiyatiga putur etkazmagan holda foydalanish asar qimmatiga ma’lum ma’noda o‘z ijobiy ta’sirini o‘tkazadi.

Badiiy nutq (ijod)da dialektizmlarning qo‘llanishi, avvalo, uslub talabiga ko‘ra, qolaversa muallifning harakter yaratish maqsadi bilan bog‘liq. Bundan tashqari dialektizmlarni qo‘llashda muallifning o‘zi qaysi Sheva vakili ekanligi ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, O‘lmas Umarbekovlar asarlarida asosan qarluq –chigil-uyg‘ur dialektiga xos leksemalar – ularning ham Toshkent Shevasiga xoslari uchraydi. Balki, yuqoridagi adiblar asarlarining qahramonlari asosan Toshkent shahrida va shahar atrofi Shevalarida so‘zlovchilardir.

Badiiy asar ham san’at mahsuli hisoblanadi. Lekin boshqa har qanday san’at turidan faqat so‘zdan foydalilanadi. Demak ta’bir joiz bo‘lsa so‘z badiiy asar uchun qurilish materialidir. Badiiy nutq avvalo adabiy tilga asoslanadi, ya’ni adabiy til lug‘atdagi so‘zlardan foydalilanadi. Lekin badiiy uslubning adabiy tildagi boshqa uslublardan ko‘ra so‘z qo‘llash borasida

imkoniyat doirasi kengroq. Bu uslubda yana ijodchining xos uslubi ham namoyon bo‘ladi. Bulardan tashqari asar qahramonining “meni” ham o‘z izmini o‘tkazadi. Mana shular barchasi badiiy nutqni shakillantiruvchi omillar hisoblanadi.

Badiiy ijodda hayot voqeligi obrazlar vositasida yuzaga chiqada. Badiiy asarda hayotning muayyan qirrasi ma’lum bir yaxlitlik kasb etadi. Uning bu manzarasida biror bir voqelik, xodisa, insonlar fe’l–atvori, dunyoqarashi, intilishlari, turmush tarzi, kiyinishi, xulqi va boshqalar namoyon bo‘ladi. Obraz o‘zligiga ega va to‘laqonli bo‘lishida uning nutqi, muomila tarzi, ya’ni qo‘llanayotgan har bir so‘z alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, badiiy asar personaji nutqida dialektizmlarning uchrashi ahamiyatga molikdir. Mana shunga ko‘ra har bir asar o‘z davrining ma’lum darajada ko‘zgusi hisoblanadi.

Albatta, tarixiy va ilmiy asarlarda ham muayyan davr o‘z ifodasini topadi. Biroq, badiiy asar bulardan farqli o‘laroq zamona kishilarining ichki dunyosini ham ifoda etadi. Insonlarning turmush tarzi, intilishi, o‘y-hayollari, orzulari, dunyoqarashi, qiziqishi, sevgisi, nafrati, quvonchi, qayg‘usi faqat badiiy asardagina to‘liq o‘z ifodasini topishi mumkin. Chunki u so‘z san’atidir.

Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Obid ketmon”, Oybekning “Qutlug‘ qon”, “Navoiy”, G‘afur G‘ulomning “SHum bola” va hakozo boshqalarning asarlarida davr kishilari obrazi ular nutqi yordamida jonli chizib berilgan.

Badiiy adabiyot — insonshunoslik bo‘lgani uchun ham insonning turfa xillarini uchratish mumkin. Ular biz yuqorida sanab o‘tgan jihatlari bilangina emas, balki nutqi bilan – Shevasi bilan jozibalidir.

Demak, badiiy nutqda Shevalarga xos so‘zlardan foydalanish badiiy uslubga xosligi bilan, shuningdek personaj

Sheva vakillaridan ekanligi bilan, adibning muayyan xarakter yaratish maqsadi bilan, personajlar, albatta o‘z nutqiga ega bo‘lishlari zarurati bilan bog‘liq ekan. Dialektizmlardan ayrimlari adabiy til lug‘ati uchun ortiqcha emas ekan. Badiiy nutqda har bir personajning jonli nutqida, jonli so‘zlashuvda qo‘llanaveradi, bunga hech qanday ilmiy qoida to‘sinq bo‘la olmaydi.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Dialektizmlar adabiy tilning boyish manbalaridan (asosiylaridan) biridir.

Badiiy nutqning jonli so‘zlashuv uslubidan foydalanish imkonи mavjud.

Badiiy uslubning boshqa uslublardan farqlantiruvchi jihatи, dialektizmlardan foydalanish mumkin eksnligi hisoblanadi.

Asarda dialektizmlarning qo‘llanishi muallif maqsadi bilan bog‘liqdir.

Asarda dialektizmlarning uchrashi asar qahramonining meni bilan ham bog‘liqdir.

Dialektizmlar asarga jonlilik, haqqoniylik va soddalik, ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Dialektizmni qo‘llash muallif uslubiga ham bog‘liq ekan.

Dialektizmlarni qo‘llash asar muallifi qay darajada so‘z san’atkorи ekanligini ko‘rsatuvchi mezonlardan biri hisoblanadi.

Dialektizmlar muallif uchun etuk ijod namunasi yaratish imkonini beradi.

Dialektizmlarda hamisha xalq — millat ruhiyati ufrib turadi.

Matin tahlili jarayoni muharrirlik faoliyatidagi murakkab jarayonlardan biri sanaladi. Matnni tahlil qilishga kirishishdan oldin tahlil maqsadini aniq belgilab olish talab etiladi.

Biz yuqorida matnni faqat bir jihatda – badiiy matnda dialektizmlarning qo'llanilishi nuqtai nazaridan tahlil etishni ko'rib chiqdik, va bizning ishimiz matn tahlili bo'yicha bir ko'rsatma, holos. Vaholanki, badiiy matnni manzaralar tasviri, faktik materiallar, asar bosh qahramonlari ikkinchi uchinchi darajali personajlar, ko'chimlar vulgarizm, varvarizmlar, arxaizmlar va hokazojar bo'yicha tahlillari mavjud.

Har qanday matn tahririga muxtoj bo'lganidek, har qanday tahrir oldidan tahlil shart. Agar tahrir bilan shug'lanuvchi mutahassis matn tahlilidan yaxshi xabardor bo'lsa tahrirni ham ko'ngildagidek bajarishga so'zsiz muvaffaq bo'ladi.

## ***IZOXLI LUG'AT***

***Adabiy tahrir*** - matnni adabiy til me'yirlari, muayyan uslubga moslab ishlov berish jaroyoni. Mazkur jaroyon asosan tahrir bo'yicha mutahassis - muharrir tomonidan amalga oshiriladi. Nashr jaroyonining asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi.

***Annotatsiya***(lot.-qayd)-bosma asaryoki qo'lyozmaning qisqacha tavsifi.

***Atama*** - muayyan narsa, voqeа va hodisani nomlovchi so'z. Masalan, tuproq, qo'zg'alон, shamol.

***Axborot*** (ar. xabarlar; birligi xabar), ommaviy axborot vositalari, bosma nashrlar, va boshqa turli vositalar, belgilari, ishoralar yordamida yetkaziladigan, ma'lum qilinadigan, ko'rsatiladigan ma'lumot. Yana qarang. *Informatsiya*.

***Avtograf*** (yun. autos - o'zi va grapho - yozmoq) - 1) muallifning o'z qo'li bilan yozilgan asl nusxa, matn; 2) o'z qo'li bilan yozilgan yozuv yoki kitob, rasm, fotosurat va b. ga qo'yilgan imzo.

***Avtoreferat*** - muallifning o'zi, masalan, dissertatsiya muallifning o'zi tomonidan qisqacha bayon etilgan ilmiy tadqiqot.

*Adad* - bir nomdagi yoki bitta muallif bosma nashrining miqdoriy ko'rsatkichi.

*Alifboli ko'rsatkich* - hujjatlar sarlavhasi, kontekstida mavjud bo'lgan tayanch so'zlarning alifbo tartibida berilgan ko'rsatkichi. Bu tayanch so'zlardan rukn sifatida foydalaniлади va avvalgi hamda keyingi mikrokron tekст bilan birga beriladi, shu yo'l bilan har bir rukn aniqlanadi.

*Alifboli katalog* - katalog, bunda bosma asar tavsifi muallifning alifbo tartibidagi familiyalari, shuningdek, 3 dan ortiq muallifga taalluqli yoki muallifi ko'rsatilmay nashr etilgan asarlarning sarlavhasi alifbo tartibida (ularning mazmunidan qat'iy nazar) joylashtiriladi. Kutubxona yoki axborot idorasining asosiy ma'lumotnomasi - bibliografiya vositalaridan biri. Uning yordamida kitobxon biror muallifning asarini topishi, kitob saqlanadigan xonadagi o'zini qiziqtirayotgan kitob shifri aniqlashi va unga buyurtma berishi mumkin.

*Almanax* - turli mualliflarning mavzu, janr, g'oyaviy, siyosiy yoki qandaydir boshqa belgilari bo'yicha birlashtirilgan adabiy asarlarning davriy bo'lmagan yoki davom etuvchi to'plami.

*Analitik shark* - muayyan vaqt oralig'ida masalaning holatiga analitik baho beriladigan shark. Tahlil etilayotgan materiallarning dalillangan tavsifidan iborat bo'ladi, unda asoslangan amaliy tavsiyalar beriladi. Ilmiy tadqiqot ishining bir qismi sifatida qaraladi.

**Argument** (lot. argumentum - vaj ) - isbotlashning sezilarli darajada ishonchligini belgilovchi unsuri; isbotlashga asos bo‘lib xizmat qiluvchi mantiqiy dalil. Isbotlash asosi sifatida qaraladigan argumentlarning ko‘proq uchraydigan (odatiy) turlari; a) ilgari isbotlangan qoidalar; b) isbotlanganlar (bevosita qabul qilingan, eksperiment vaqtida kuzatish yo‘li bilan qayd etilgan) dalillar haqidagi mulohaza; v) aksiomalar; g) yechimlar.

**Asl nusxa** - 1) qo‘lyozma, asarning haqiqiy (ko‘chirmasidan farqli) nusxasi; 2) qo‘lyozma, unga asosan bosmaxonada bosish amalga oshiriladi; 3) boshqa tilga tarjima qilish uchun asos hisoblanuvchi matn.

**Badiiy asar tahriri** - tahrir turi. Bunda mazmun va shakl birligi, muallif ijod yo‘li (yoki uslubi), obrazlilik, tasviriylik, ta’sirchanlikka alohida e’tibor beriladi. Adabiy til uslublarining barchasidan o‘rni bilan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

**Bibliografiya** (yun.- bibliion- kitob; grafiya- yozaman), asosiy ma’lumotlari – chiqqan yili, joyi, nashriyoti va boshqalar bilan berilgan kitob, jurnal, maqolalar ro‘yxati; adabiyotlar ko‘rsatkichi.

**Broshyura** (fr. - brochure) - xajmi uncha katta bo‘lmagan asar, yumshoq muqovali yupqa kitob (4-5 bosma taboq - 64-80 bet bo‘ladi), daftarga o‘xshatib muqovalanadi.

**Bayon** - sharh, talqin; pedagogika fani va halq ta’limining ahvoli, yo‘nalishlari va istiqboldagi rivojlanishi haqidagi tizimlashtirilgan ma’lumotlar va ilmiy umumlashmalar. U

o‘z ichiga tavsif, tahlil, baholash va umulashmani oladi, rivojlagish istiqbollari va yo‘nalishlarini belgilaydi. Aniq taklif va tavsiyalardan iborat bo‘ladi. Bayonning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, hujjatlarda bevosita bo‘lmagan xulosalarini olish hisoblanadi. Bayonning tuzilishi uning qanday maqsadga qaratilganligiga bog‘liq va sarlavha, referat (annotatsiya), kirish, asosiy analitik qism, xulosalar va tavsiyalar, adabiyotlar ro‘yxati, mundarijani o‘z ichiga oladi. Axborot bayoni aniq va qisqa bo‘lishi, muayyan mavzu bo‘yicha manbalarni to‘la qamrab olishi, muntazamlik tavsifiga ega bo‘lishi, ishonchli, operativ bo‘lishi, iqtiboslar olingan yoki foydalanilgan manbalarga havolalar aniq bo‘lishi kerak. Bayonning hajmi uch bosma taboqdan ortiq bo‘lmaydi. Axborotning tavsifiga bog‘liq tarzda analitik, bibliografik va referativ bayonlar farqlanadi.

*Bayon tarzidagi axborotnoma nashrlar* - bir yoki bir necha bayondan tborat nashr, bir necha manbalarni tahlil qilish asosida tuziladi. Olimlar va tanqidchilarga boshlang‘ich manbalar haqida tizimli va umumlashgan ma’lumotlarni beradi, masalaning qay ahvoldaligini yoki ijtimoiy muammoni yaxshi tasavvur etishga yordam beradi.

*Bibliografik yozuv* - bibliografik tavsifdan iborat bibliografik ma’lumot, u sarlavhalari, annotatsiyalar yoki referatlar, turli malakaviy indekslar, ruknlar, saqlanish raqamlari va boshqa unsurlar bilan to‘ldirilishi mumkin.

*Bibliografik kartoteka* - bibliografik qo‘llanma, varaqcha shaklida bo‘ladi, unga bibliografik ma’lumotlar yozib qo‘yiladi. Alifboli, tizimli, sohaviy va boshqa kartotekalar

farqlanadi. Kutubxona katalogidan farqli o'laroq kartotekada kutubxona jamg'armasida bo'limgan hujjatlar haqidagi ma'lumotlar uchraydi, kutubxona shifrlari, boshqa ma'lumotlar berilmaydi.

**Bibliografiya varaqchasi** - axborot manbaining bibliografik tavsifi, muallif haqidagi ma'lumot, sarlavha, sarlavha osti ma'lumotlari (jildning raqami, janr, kimlarga mo'ljallanganlik), sarlavha yuqorisidagi ma'lumotlar (turkum, nashrni tayyorlagan muassasa), manbaining miqdoriy tavsifi (betlar, nashriyot hisob tabog'i, adadi, narxi), ilovalar (bibliografiyahaqidama'lumotlar, tasvirlar vab.). Bibliografiya varaqchasi e'lon qilingan nashrlar haqidagi ma'lumotlarni tezda olish imkonini beradi, ma'lumotnomma tarzidagi axborotlar jamg'armasini butlash uchun foydalaniladi.

**Bibliografiyaviy havola** - ko'chirma olinayotgan, ko'rib chiqilayotgan yoki eslanayotgan hujjat haqidagi bibliografiyaviy ma'lumotlar majmui; bu uni bir xillashtirish va izlash uchun zarur.

**Bibliografiyaviy ma'lumotnomma** - bibliografiyaviy axborotdan iborat bir martalik so'rov javobi.

**Buklet (ing. booklet - broshyura, kitobcha)** - yaxlit bir varaqqa bosilgan va ko'p buklamli nashr; yo'l ko'rsatkichlar, reklama va axborot varaqlari, bolalarga oid ba'zi nashrlar bukletlar tarzida chiqariladi.

**Byulleten (fr. bulletin)** – 1) davriy yoki davomli nashr, nashr etuvchi tashkilot tasarruf doirsiga kiruvchi masalalar

bo‘yicha qisqacha rasmiy materiallardan tashkil topadi; turli hodisalar haqidagi ma’lumotnomasi; 2) ijtimoiy ahamiyatga ega hodisa, masala, ishlar haqidagi qisqacha rasmiy xabar; 3) saylov byulleteni - nomzod yoki nomzodlarning familiyasi qayd etilgan ovoz berish uchun varaqasi.

**Variant** (lot. varians-o‘zgarayotgan), talqin - 1) ko‘ri-nishning o‘zgarishi, turli xillilik; mumkin bo‘lgan almashinuvchilarning biri; 2) biror (adabiy, musiqiy, publisistik va h.k.) asar, rasmiy hujjatning bir necha tahriridan bittasi.

**Verbal aloqa** (lot. verbum - so‘z) - til, ya’ni nutq yordamida muloqot jaroyoni. Nutq deyilganda tabiiy til tovushlari nazarda tutiladi, u aloqaning universal vositasi hisoblanadi. Chunki uning yordamida axborot uzatishda muloqot mazmuniga juda kam darajada putur etadi.

**Verbal ishontirish** - so‘z yordamida amalga oshiriladigan ishontirish.

**Versiya** (lot. versio - burilish, aylanish) - bir –biridan farq qiluvchi bayonlarning biri yoki biror hodisa, dalilning sharhi.

**Glossariy** (lot. glossarium - so‘zlar lug‘ati) - notanish va kam ishlatiladigan so‘z yoki matn uchun, asosan qadimiy bo‘lganlari uchun tuziladi (masalan, Alisher Navoiy to‘la asarlar to‘plamiga tuzilgan lug‘at).

**Gonoror** (lot. honorarium - xizmat uchun mukofot), qalam haqi - adabiy, musiqiy, ilmiy asar, ixtiro muallifi,

shuningdek, uning asarini e'lon qilgan va undan foydalangan vorisga to'lanadigan pul mukofoti; qalam haqining miqdori mualliflik shartnomasida ko'rsatiladi.

**Dialog (yun.)** - 1) ikki yoki undan ortiq kishilar o'rtasidagi so'zlashuv; drammatik asar nutqini tashkilashtirishning asosiy shakli; 2) so'zlashuv shaklida yozilgan adabiy asar.

**Davriy nashrlar, vaqtli nashrlar** - gazeta, jurnal, davriy to'plam va byulletenlar. Bular muayyan vaqt oralig'ida chiqarilib turiladi. Ommaviy axborot vositalari va targ'ibotning asosiy turlaridan hisoblanadi.

**Dalil** - 1) mulohaza (yoki mulohazalar majmui), boshqa mulohaza (fikr, nazariya) ni asoslash uchun keltiriladi; 2) isbotning asosi (asosining bir qismi); 3) jurnalistikada fikrning ishonchligini ta'minlovchi asos.

**Davlat tili, Rasmiy til** - qonunchilik va rasmiy ish yuritish, sudlov ishlari, ta'lim va h.k.larda foydalilaniladigan asosiy davlat tili. O'zbekiston Respublikasida "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning 1-moddasiga muvofiq, o'zbek tili davlat tili hisoblanadi.

**Deponentlangan qo'lyozma** - davlat muassasiga saqlash uchun berilgan ilmiy nashr mavqeiga ega hujjatlarning alohida toifasi. Uni o'qiydiganlar doirasi cheklangan bo'ladi, deponentlash tizimi axborot nashrlardagi qo'lyozma haqida ma'lumot albatta bo'lishini hamda nusxa ko'chirish imkonini mavjudligini ko'zda tutadi; deponentlangan qo'lyozmalarning abzalliklari shundan iboratki, ularda yangi, hali e'lon qilinmagan materiallar bo'ladi.

**Dialekt** (*yun. dialektos* - nutq; sheva; lahja) - lahja, sheva, umumxalq (umummilliy) tilning ijtimoiy yoki mahalliy turi.

**Dizayn** (*ing. design – loyihalamoq, tuzmoq*) - sanoat ashyosi, narsaning badiiy loyihasi.

**Dilemma** (*yun. dilemma di(s)* dan - ikki marta va lemma - yuborish) - 1) ikki bir –birini inkor etuvchi va ulardan biri tanlanishi kerak bo‘igan mulohaza; 2) tanlash qiyin bo‘igan bir –biriga zid ikki imkoniyatdan biri.

**Etakchi mavzu, Leymotiv** (*nem. leitmotiv - aynan asosiy g‘oya*) - 1) motiv, musiqa asarining boshidan to oxirigacha takrorlanuvchi va sahnada harakatlanayotgan biror shaxsni tavsiflashga xizmat qiluvchi, biror g‘oya, hodisaning musiqa asarida aks ettiriladigan ifodasidan iborat musiqa mavzui; 2) bir necha marta takrorlanadigan va ta’kidlanadigan asosiy bosh fikr; faoliyat, hulq- atvor va h.k.larni belgilovchi motiv.

**Jurnalist** - jurnalistlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

**Jurnalistika** - ijtimoiy dolzarb xabarlarni to‘plash, qayta ishslash va tarqatishdan iborat ijtimoiy faoliyat (mazkur faoliyat matbuot, radio, televidenie va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi); ommaviy tashviqot va targ‘ibot olib borish shakllaridan biri. Jurnalistika terminidan jurnalistik faoliyat mahsuli - asarni ifoda etishda ham foydalilanadi, shulardan gazeta, jurnal sonlari to‘ldiriladi, radio, teledasturlar va boshqalar tuziladi.

**Jurnal** - broshyura qilingan matnlarning davriy nashri. Turli ijtimoiy- siyosiy, ilmiy, ishlab chiqarish va b.masalalar bo‘yicha maqolalar va referatlar, shuningdek, adabiy asarlar,

tasvirlardan iborat bo‘ladi. Jurnallar mutaxassislarga ancha dolzarb ilmiy- uslubiy muammolar bo‘yicha nashrlarni tezkorlik bilan taqdim etadi. Yo‘nalishiga ko‘ra adabiy - badiiy, ijtimoiy - siyosiy, ilmiy, referativ va b. lari farqlanadi.

**Ziddi bilan isbotlash** (*lot. reduction ad absurdum*) - isbotlash turi, bunda ba’zi mulohaza (isbotlash tezisi)ning adolatliligi unga zid bo‘lgan mulohaza - antitezisni rad etish orqali amalga oshiriladi. Antitezani rad etishga avvaldan chin bo‘lgan mulohaza bilan uning mos kelmasligini ko‘rsatish yo‘li bilan erishiladi. Ziddi bilan isbotlashda ko‘pincha ikki ma’nolilik tamoyiliga tayaniladi.

**Ziddiyat** - 1) qoida, bir fikr o‘ziga mos kelmaydigan boshqasini (mulohaza, fikrni) istisno etishi; 2) mantiqda, biri ikkinchisini inkor etadigan ikki fikr (mulohaza, nazariya)ning mavjudligi. Ziddiyat qonuni shuni ko‘rsatadiki, ikki qarama - qarshi mulohaza bir vaqtida haqiqat bo‘lishi mumkin emas, agar ulardan biri chin bo‘lsa, bunda ikkinchisi albatta yolg‘on bo‘ladi. Yoki aksincha: ayni bir fikr ham tasdiqlovchi ham rad etuvchi bo‘lishi mumkin emas.

**Informatsiya** (*lot. Information* - tushuntirish, bayon), avvalo, insonlar og‘zaki, yozma va boshqa usulda beradigan ma’lumot (shartli ishoralar, texnik vositalar va hokazolar yordamida beriladi). Yana qarang. *Axborot*

**Iqtibos** - biror matn, inshodan aynan ko‘chirib olingan parcha yoki ayrim mulohaza yoki da’voni tasdiqlash uchun so‘zma-so‘z keltirilgan boshqa birovning aytgani. Yana qarang. *Tsitata*

*Ideya* (*yun. idea - tushuncha, taassurot*), *g'oya* - yaqqol ko'rgazmaviy obraz, narsa yoki hodisa haqidagi umumiyl tushuncha; belgilovchi tushuncha, nazariy tizim, mantiqiy qurilish asosi hisoblanadi.

*Ijod erkinligi* - insонning asosiy madaniy huquqlaridan biri, erkin bayon etishning bir turi; konstitutsiyalarda mustahkamlab qo'yilganiga uncha ko'p bo'lgani yo'q. Adabiy, badiiy, ilmiy, texnikaviy va boshqa tur ijod erkinligini, shuningdek, o'qitish erkinligi (akademik erkinlik deb ataluvchi erkinlik)ni o'z ichiga oladi.

*Ijod, ijodiy faoliyat* - qandaydir yangilikni yuzaga keltiruvchi, takrorlanmas, o'ziga xos hamda ijtimoiy - tarixiy jihatdan noyob faoliyat. Ba'zi olimlarning nuqtai nazaricha ijod, fan, texnika, ishlab chiqarish, san'at yoki umuman kishilar hayot faoliyatining u yoki bu sohasidagi yangi axborotni jamlash.

*Izohlash* - hodisaning mohiyatini avval ma'lum bo'lmagan tahlil yo'li bilan nimanidir tushuntirish yoki talqin etish. Izoh gumanitar fanlarning usullaridan biri hisoblanadi, undan narsalarning mazmuni va mohiyatini bilish jaroyoniga individual yondashishda foydalaniлади.

*Izohli lug'at* - ma'nolari haqida tushuntirish berilgan so'zlar lug'ati; so'zlarning grammatik, etimologik va uslubiy tavsifga ega bo'lishi mumkinligi, ishlatilishiga oid misollar va boshqa ma'lumotlar beriladi.

*Ikkilamchi hujjat* - bir yoki bir nechta birlamchi hujjatlarni maqsadga muvofiq tarzda saralash va tahlil qilish

natijasida hosil qilingan hujjat; ularning muhim tomonlarini va jihatlarini aks ettiradi, mamlakatimizdagi va chet eldag'i manbalarni qamrab oluvchi dolzarb ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ikkilamchi hujjatlar yordamida o'quvchilar nashrlar olamida paydo bo'lganlar haqida o'z vaqtida bilishlari, ta'lim va tarbiyadagi amalga oshirilgan tadqiqotlar, yangiliklar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Jurnalist xodimlarni keng xabardor qilish uchun referatlar, annotatsiyalar, sharhlar, ekspress axborot materiallari, bibliografik ko'rsatkichlar, kataloglar va boshqalardan keng foydalaniлади.

*Ilmiy nashr* - tadqiqot ishlari uchun mo'ljallangan nashr; nazariy va/yoki eksperiment tadqiqotlar tavsifi yoki natijalaridan iborat bo'ladi, monografiya, dissertatsiya avtoreferati, ma'ruzalar tezisi, ilmiy ishlar to'plami, ilmiy - konferensiya materiallari va b. tarzida nashr etiladi.

*Ilmiy - badiiy adabiyot* .. adabiyot sohasi, badiiy, hujjatli va ilmiy - ommabop, nasriy adabiyotlarga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi, fanning paydo bo'lishi va rivojlanishi, olimlarning kashfiyotlari, ixtirolari, g'oyalari va h.lar haqida hikoya qiladi.

*Ilmiy - ommabop adabiyot* - muayyan fan va texnika sohasida mutaxassis bo'limgan kitobxonlar keng ommasiga tushunarli bo'lgan, zamonaviy muvaffaqiyatlar asoslari bayon etilgan va ommalashtirilgan adabiyot.

*Interv'yu (ing. interview - uchrashuv, suhbat), suhbat* - 1) jurnalistning radio, televidenie va matbuot uchun mo'ljallangan siyosiy, jamoat arbobi yoki biron bir arbob bilan

suhbati; 2) sotsiologik tadqiqotlarda - tadqiqotchining savollariga bergan javoblari umumlashtirish uchun boshlang'ich empirik material bo'lib xizmat qiluvchi shaxs yoki bir guruh shaxslar bilan avvaldan belgilangan reja bo'yicha tadqiqotchining suhbati; 3) pedagogikada - empirik tадqiqot usuli; uning ilk bosqichlarida foydalaniadi. Interv'yuning 2 turi farqlanadi: erkin (chegaralanmagan mavzu va shakldagi suhbatlar) va standartlashtirilgan (so'rovnomaga yaqin xufya savol shakli bo'yicha). Bu tir interv'yular orasidagi chegara o'zgaruvchan va muommoning murakkabligi, maqsadlar hamda tadqiqot bosqichlariga bog'liqidir.

***Internet (lot. internet)*** - global kompyuter tarmog'i, sig'imli ixtisoslashgan axborot serverlariga kirish imkonini beradi va elektron pochta. Internet va serverga kirish provayderlar (mahalliy tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchilar - ing. *service providers*) tomonidan ta'minlanadi.

***Isbotlash*** - axborotning to'g'rilingiga, idrok etilganning chinligiga ishontirish maqsadida yoki agar mazkur qoida bo'yicha bahs ketayotgan bo'lsa, uni yana bir karra to'ldirish va tasdiqlashda qo'llanadigan usul; isbotlashning aksi bo'lib, inkor hisoblanadi.

***Ichki matn*** - to'g'ridan - to'g'ri ma'nosidan farq qiluvchi ichki, qo'shimcha, yashirin fikr ifodasi, u vaziyatni hisobga olgan kontekst asosida tiklanadi.

***Yilnoma*** - 1) tarix hodisalarining vaqt ketma- ketligi tartibidagi ro'yxati, vaqtga ko'ra ketma - ketlik; 2) vaqtini o'lhash, hisoblash bo'yicha fan, nazariya.

***Yilnomal katalog*** - kutubxona katalogi, bunda bibliografik yozuv nashr (yoki birinchi nashr) yillari bo'yicha joylashtiriladi.

***Kitob apparati*** - o'quvchiga adabiy asarda berilgan ma'lumotlarni oson va tushunarli tasavvur etish imkonini beruvchi, asosiy materialni to'ldiruvchi materiallar umumiy nomi.

***Kodeks (lot.- kitob)*** - hozirda qonunlarning tizimlashtirilgan majmui. Masalan, jinoiy qonunlar kodeksi, mehnat haqidagi qonunlar kodeksi.

***Kommunikatsiya (lot)*** - xabar, aloqa.

***Konstruksiya*** (lot. - tuzilish, qurilish)- o'zaro aloqadorlikka ko'ra so'zlarning birikuvi.

***Konteks (lot. - jips bog'liqlik, birlashma)*** - yozma nutq (matn) ma'no jihatidan tugal qismi, tarkibiga kirgan alohida so'z yoki fikrning aniq ifodalovchi mazmun.

***Ko'rsatkich, adabiyotko'rsatkichi***- murakkab tuzilishiga ega bo'lgan bibliografik qo'llanma. Maqsadga va o'quvchilar doirasi hisobga olingan obekti (kitob, vaqtli nashrlar va h.), mavzui, materiallarni qamrab olishi, bibliografik yozuvlar joylashuvi, nashr qilingan adabiyot vaqtiga ko'ra farqlanadi. Yordamchi ko'rsatkich - matn bo'yicha yo'llanma, kitob ma'lumotnomasi - apparatining bir qismi. Rukn mundarijasiga (nomlar, narsalar va h.), materiallar guruhlanishi (alifboli, tizimli, yillar va h. bo'yicha) farqlanadi.

**Kartoteka** (*yun. - ombor, quti*) - muayyan tartibda tizimga solingan, birlashtirilgan, ma'lumotlar yozilgan varaqchalar yig'indisi, majmui: ular alisbo tartibida, mavzuga ko'ra, hujjalarning bajarilish muddatlari bo'yicha tartibga solinadi.

**Katalog** (*yun. katalogos - ro'yxat*) - 1) muayyan tartibda tuzilgan biror predmet (kitob, eksponat, tovar)larning ro'yxati; 2) kutubxona katalogi - kutubxonada mavjud bo'lgan nashr asarlarining ro'yxati. Zamonaviy kutubxonalarda kataloglar quyidagicha farqlanadi: mo'ljallanganligi (qiroatxonalarga va xizmatchilarga taalluqliligi) bo'yicha, yozuvlarning guruhlanish usuli (alfavitli, tizimli, fanlar) bo'yicha, nashr turi va b. bo'yicha. Kataloglar ilmiy va amaliyotchi xodimlar uchun mo'jal bo'ladi, kutubxona jamg'armasi mazmunini ochib berishda ishonchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Kon'ektura** (*lot. conjectura - mulohaza, taklif, taxmin*) - 1) taxmin, o'ylamoq 2) buzilgan matnni tuzatish yoki tiklash yoxud taxmin asosida biror yodgorlikning o'qishni iloji bo'lмаган matnnini taxminan o'qish.

**Korrektirovkalash, korrektirovka** (*lot. correction - to'g'rakash, tuzatish*) - istiqboldagi bashorat, rejalar, loyihamar, programmalar, xisob- kitoblarga kiritilgan ayrim o'zgartirish, tuzatish, to'g'rakashlar.

**Korrektura** (*lot. correctura - tuzatish, yaxshilash*) - 1) bosmaxonada (yoki boshqacha usulda) ko'paytirish uchun tayyorlangan matn yoki grafik materiallardagi xato va kamchiliklarni tuzatish jaroyoni; 2) bosmaxona usulida bosilgan belgi.

**Lo'ndalik, lokanizm (yun. lokonismos)** - fikrni bayon etishdagi qisqalik va aniqlik; rivoyatlarga ko'ra qadimgi Lokoniya aholisi spartaliklar shunday xususiyatga ega bo'lgan.

**Maket (fr. maquette)** - 1) poligrafiyada, kitob yoki jurnalning boshlang'ich (adad tayyorlangunga qadar bo'lgan) namunasi, shuningdek, bo'lajak nashr o'lchamidagi matnning boshilgan qismlari va tasvirlar yelimlangan qog'oz varaqlar (sahifa maketi); 2) arxitekturada loyihalanayotgan yoki mavjud inshoot, ansambl, mujassamaning ko'لامи - fazoviy tasviri, kichik hajmda bajariladi; 3) pedagogikada, nimanidir modeli, narsaning kichraytirilgan hajmlarda ifodalovchi boshlang'ich namuna; ta'lim jaroyonida ko'rgazma qo'llanma sifatida foydalaniladi.

**Ma'lumotnama** - ilmiy, ijtimoiy - siyosiy, amaliy yoki maishiy tavsifdagi qisqacha ma'lumotlardan iborat nashr; lug'atlar, ensiklopediyalar, qo'llanmalar, atlaslar va b. tarzda, foydalanish uchun qulay shaklda chiqariladi.

**Matn (ar. - mundarija)** - 1) muallifning o'z so'zi; 2) yozilgan yoki boshilgan maqola, undagi chizmalar, tasvirlar, ilovalar va boshqalar bundan mustasno; 3) musiqa asari (opera, romans va hokazolar)ga tegishli so'z.

**Monolog (yun. mono - bir, log - nutq )** - 1) shaxsning o'ziga yoki tinglovchiga qaratilgan nutqi; 2) sahnadagi o'z-o'ziga qaratilgan nutq.

**Motiv (lot.- harakatlantiriaman)** - rivoya va hikoya bayoninig ma'noviy birligi. Hozirgi zamon adabiyotida

syujet rivojining oddiy birliklari (tadrijiylik, voqeа, hodisani harakatlantiruvchisi).

**Monografiya (yun.mono - *bitta*, *yagona* va *grapho* – *yozaman*)** - kitob yoki broshyura tarzidagi, bitta muammoni yoki mavzular bo‘yicha tadqiqotni to‘la va har tomonlama bayon etuvchi, bir yoki bir necha muallifga tegishli bo‘lgan ilmiy asar; boshqa ilmiy xabarlar shaklidan ko‘rib chiqilayotgan masalaning chuqurligi va yaxlitligi bilan farqlanadi. Qoidaga ko‘ra monografiyada tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanadi, uning fan va amaliyotdagi holati ochib beriladi, qo‘yilgan muammolarni hal qilish uchun foydalanish zarur bo‘lgan usullar ko‘rib chiqiladi.

**Muallif** (ar. *allafa* - *tuzmoq*,) - badiiy, ilmiy, tehnikaviy va boshqa asarlar (ixtiro, loyixa, kitob, hikoya va h.) yaratuvchi shaxs.

**Mualliflik shartnomasi** - muallif (uning merosxo‘ri) bilan nashriyot, teatr, kinostudiya va b. o‘rtasida tuziladi. O‘zbekistonda “Mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonun bilan tartibga solinadi.

**Mualliflik huquqi** - fuqorolik huquqining ilmiy, adabiy va san’at asarini yaratish, foydalanish (nashr ettirish, tasaruf etish va h.) bilan bog‘liq bo‘limi. Mualliflik huquqini himoya qiluvchi milliy qonunchilik xujjalari va xalqaro konvensiyalar bilan tartibga solinadi.

**Muallif taboq** - adabiy asar hajmini o‘lchash birligi. 40 ming bosma belgiga teng. Asar uchun muallifga haq to‘lashda shunga asoslaniladi.

**Muallif tahriri** - O‘z asari qo‘lyozmasi matnini ustida muallifning ishlashi.

**Mualliflar jamoasi** - o‘z rasmiy materiallarini e’lon qiluvchi, o‘z nomiga ega bo‘lgan nashrlar, to‘plamlar chiqarish ishidagi xodimlarning doimiy yoki vaqtinchalik tashkiloti. Bu mazkur tashkilotni faoliyat ko‘lami va mavjudligi davomiyligidan qat’iy nazar uyg‘unlashtirishga imkon beradi. Vaqtinchalik guruhlar va hodisalar, xususan kengash, konferensiya, kongress, ekspeditsiya, ko‘rgazma, festival va boshqalar ham mualliflik jamoasi hisoblanadi.

**Mualliflik huquqini himoya qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya** - konvensiyaga imzo qo‘ygan qatnashuvchi mamlakatlar fuqarolarining ishlanmalar, ixtiolar, adabiyot va san’at asarlariga mualliflik huquqini himoya qilish bo‘yicha davlatlarning majburiyati.

**Musahhih** (ar. sahhaha - to ‘g‘rilovchi) - nashrlardagi imlo va tinish belgilari bo‘yicha va boshqa tur xatolarni tuzatuvchi.

**Muharrir** (ar.tahrir so‘zidan - qutqaruvchi, ozod qiluvchi), 1) muayyan matn, qo‘lyozmaga ishlov beuvchi shaxs; 2) nashr (kitob, jurnal, gazeta, ensiklopediya va b.) ga rahbarlik qiluvchi; 3) nashrlar mazmunini tasdiqlovchi (bosh muharrir).

**Nashr** - nashr qilingan asar, u mustaqil poligrafik bezakka ega, tahririy - nashr ishlovidan o‘tgan bo‘ladi, chiqarilishi va tarqatilish uchun mo‘ljallangan axborotdan iborat ma’lumot ham beriladi.

**Nashr bildilgich** - nashrning tavsifini bildiruvchi ma'lumotlar majmui. Bular nashr turi, xajmi, o'lchami, vaqt, joyi, mansubligi, muallifi, nashr muallifi, ishtirokchilari va h.dan iborat bo'lib iste'molchi va statistik hisob - kitob olib borishga hizmat qiladi. Barcha nashrlarda bo'lishi shart.

**Nashriyot** - bosma mahsulot ishlab chiqarishni amalgalashuvchi davlatga, jamoaga qarashli yoki xususiy korxona.

**Noshirlilik ishi** - madaniyat va ishlab chiqarish sohasi. Kitoblar, jurnallar, gazetalar, tasvir materiallar va b. tur bosma mahsulotlarni tayyorlash, chiqarish va tarqatish bilan shug'ullanadi.

**Plagiat** (*lot. plagiūm - o'g'irlik, o'g'rīlash*) - begona ilmiy, adabiy yoki san'at asarining muallifligini ongli ravishda to'lig'icha yoki qisman o'ziniki qilib olish.. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bo'yicha fuqaroviylar - huquqiy va jinoiy javobgarlikka olib keladi. O'ziga hammuallif qilib olishga majburlash ham plagiat sifatida baholanadi.

**Rasmiy nashr** - davlat va jamoatchilik tashkilotlari, muassasalar va ishxonalar nomidan chiqariladigan nashr.

**Rezyume** (*fr. - resume - qisqacha bayon qilmoq*) - nutq, maqolaning qisqacha bayoni, qisqacha xulosa.

**Referat** (*lot. - xabar qilaman*) - ilmiy ishlar, mavzui bo'yicha asar mazmunining yozma tarzdagi yoki ma'ruza shaklidagi qisqacha bayoni.

**Rubrika** (*lot. - qizil bo'yoq bilan yozilgan qonun sarlavhasi*) - 1) gazeta, jurnal va b. dagi qism sarlavhasi; 2) qism, band.

**Rukn** - 1) gazeta jurnal qismi (abzatsi) sarlavhasi; 2) qism, qism bo'lagi, grafa.

**Solishtirib tuzatish** - matn asl nusxa (ishonchli manbai) bilan solishtiriladi. Texnik xatolar tuzatiladi (masalan: ko'z xatolar), zarur hollarda imlo, transkriptsiya va b.ni saqlash masalasi xal etiladi. Shrift, ajratib ko'rsatish (masalan, kursiv, razryad) saqlanadi.

**Sinopsis** (*yun. - sharh*) - umumiy sharh, majmua, muayyan narsa xususidagi turli mualliflar maqolalarining to'plami. Muayyan masala bo'yicha turli materialllar to'plami.

**Syujet** (*fr. aynan - asos, mohiyat*) - hodisalarning bayoni, mavzuni ochib berish usuli. Tahrir jaroyonida e'tiborga olinishi shart hisoblanadi.

**Taqriz, retsenziya** (*lot. recensio - ko'rib chiqish*) - 1) gazeta jurnal janri; yangi badiiy asar yoki ilmiy asarning, spektakl, kinofilmning tanqidiy muhokamasi va bahosi; 2) ilmiy ish yoki adabiy - badiiy asarning u e'lон qilinishidan oldingi yozma tahlili.

**Ta'rif** (*ar. kamyob*) - notanish termin, so'zning ma'nosini aniqlash. Bunga tanish va idrok etilgan termin (so'zlar) yordamida, shuningdek, kontekstga boshqa so'zlar kiritilib erishiladi. Bundan tashqari boshqa termin, so'zga tenglashtiriladi, chap tomonga aniqlashtiruvchi termin (so'z), o'ng tomonga aniqlashtiriluvchi termin (so'z) joylashtiriladi.

*Tahlil* (ar. *hallala- ajratmoq, farqlamoq, aniqlamoq*) – 1) jurnalistikada - matnni unsurlarga ajratish; 2) sintez, unsurlarni bir butun qilib birlashtirish, yaxlit holatga keltirish; 3) umuman ilmiy tadqiqot birikmasiga sinonim; 4) rasmiy mantiqda - mulohazaning mantiqiy shakllari (tuzilishi)ni aniqlash.

*Tahrir* (ar. *harrara- qutqarmoq, ozod qilmoq*). - 1) qo‘l-yozmani tartibga keltirish, ishlash, nashrga tayyorlash; 2) muayyan ishlov berilgan matnning o‘zi; 3) bayon etilgan fikrning muayyan ifodasi, shakli.

*Termin* (lot. - had, chegara), 1) fan, texnika va san’atda - muayyan tushunchani aniq ifoda etuvchi so‘z; 2) mantiqda - mulohazaning tarkib topdiruvchi unsur.

*To‘plam* - nashr, bir yoki bir necha muallifning bir qator asarlarini, shuningdek, turli rasmiy, ilmiy va axborot materiallarini o‘z ichiga oladi. To‘plamlarda muhim muammolar muhokama etilgan ilmiy konferensiylar, simpoziumlar, kengashlarning materiallari nashr qilinadi.

*Uslub* - 1) muayyan qonuniyatlarga asoslangan usul, hayot va harakat tarzi. Shu ma’noda ijodiy uslublar haqida (Alisher Navoiy davri uslubi), madaniyat uslubi haqida, ayrim buyuk shaxslarning yashash uslubi haqida so‘z boradi; 2) ijodchining individual ifodasi.

*Fakt* (lot. *faktum - ishlangan, yuz bergen*) - 1) odatiy ma’noda - haqiqat, xodisa, natija tushunchalarining sinonimi; 2) ishonchliligi isbotlangan bilim; 3) mantiq va fan metodologiyasida - tajriba natijasida xosil bo‘lgan bilim qayd

etilgan jumla; 4) tahrirda - matndagi asos materiallar; 5) journalistikada - tadqiqot ob'ekti, narsa, voqeа va hodisaning chin yoki yolg'onligini tasdiqlash uchun xizmat qiladi.

**Faksimil nashr** - nodir va qimmatli asl nusxa nashrlarning hajmi, muqovasi, matnning o'ziga xosliklari va tasvirlar aniq qayta tiklangan nashr.

**Xronika** (*yun. - vaqt*) – 1) tarix xodisalarini vaqtga ko'ra tadrijiy yozilishi; 2) adabiy janr - hikoya yoki drammatik asarda tarixiy muxim hodisalarning ular vaqtiga ko'ra ketma - ketlikda bayoni, shuningdek, xronik hikoya usulidan foydalanib, shaxsiy hayotni bayon etish.

**Xalqaro standart kitob raqami (ISBN)** - harfli - raqamli kod, uning yordamida kitob nashri identifikatsiyalanadi; ISBN abbreviaturasi (International Standard Book Number) dan iborat va qoidaga ko'ra 10 ta raqamdan tashkil topgan. ISBN xalqaro va milliy agentlik tomonidan yagona usulda beriladi.

**Xulosa** - mantiqda, mulohaza; uning davomida muayyan boshlang'ich mulohaza, aytilganlar, hukmlardan iborat oddiy mantiqiy yo'sin; oddiy hollarda xulosa ikki fikr va yakundan iborat bo'ladi.

**Tsitata** (*yun. - da'vat, atamoq*) - qarang: Iqtibos

**Shrift** (*nem*) - muayyan alifboli harf, shuningdek, raqamlar va belgilar.

**Shark** - 1) matnning talqini, uni tushuntiruvchi ilova; 2) biror narsa haqidagi mulohaza, tushuntiruvchi va tanqidiy fikrlar (ko'pligi – sharhlar).

**Shifr** (fr. *chifire - raqam*) - 1) muayyan ma'no berilgan shartli belgilar va ularning uyg'unlashgan tizimi; xabarni shifrlangan tarzda uzatishda foydaniladi; 2) hujjatlar, qo'lyozmalar, kitoblar, axborot materiallari va h.larga ularni saqlashni tartibga solish va kutubxonalar, arxivlar, ma'lumotlar jamg'armasidan izlashni engillashtirish maqsadida tushiriladigan qayd etishning shartli belgilari.

**Ensiklopediya** (yun. - *barcha bilimlar bo'yicha ta'lim bermoq*) - tizimlangan bilimlar majmuini o'z ichiga olgan ilmiy yoki ilmiy- ommabop ma'lumotnoma nashr. Ensiklopediyada materiallar alifbo tarzida yoki tizimlilik tamoyili (bilimlar sohasi bo'yicha) beriladi. Har tomonlama (universal), ya'ni bilimlar va amaliy faoliyat barcha sohalariga oid, sohaviy, shuningdek hududiy turi mavjud.

**E'lon qilingan hujjatlar** - nashr etilgandan va rasmiy ro'yxatga olingandan so'ng ilmiy foydalanish uchun taqdim etilgan kitoblar, vaqtli va davom etuvchi nashrlar, referativ materiallar. Hujjatlarni nashr etilgan va nashr etilmaganga ajratish yaqin kunlargacha asosiy hisoblangan. Reproduksiyalash vositasi paydo bo'lgandan so'ng bu belgi o'z asosiy xususiyatini yo'qotadi; hujjatlar va nashrlarni birlamchi va ikkilamchiga, ulardagi e'lon qilinayotgan axborot mazmunining yangiligiga bog'liq holda, ajratish birinchi o'ringa chiqdi.

**O'quv nashri** - davriy bo'lмаган nashr, o'z ichiga o'qitish va o'rganish uchun qulay shaklda bayon etilgan ilmiy yoki amaliy tavсifdagи muntazamlashtirilgan ma'lumotlarni oladi; o'quv programmalari, o'quv - uslubiy va o'quv -

ko‘rgazmali qurollar, amaliy mashqlar, turli xil darsliklar, didaktik materiallar va h.lar shularga taalluqli.

**O‘zgartirib tuzatish** - adabiy til bo‘yicha savodxonligi yetishmaydigan mualliflarning qo‘lyozmasi qayta ishlanadi. Lekin bunda muallifning fikrini saqlab qolishga harakat qilinadi, shuningdek muallif uslubidagi o‘ziga xoslik ham.

**Qisqartirib tuzatish** - qo‘lyozma belgilangan xajinga keltiriladi (belgilar, satrlar, taboq va b.). Eng arzirliklar, muhim bo‘lganlar saqlanadi.

**Qayta ishlab tuzatish** - qo‘lyozma kompozitsiyasidagi kamchiliklar bartaraf etiladi, faktik va mantiqiy xatolar, uslubiy, grammatik nuqsonlar to‘g‘rilanadi.

**Qo‘lyozma** - 1) keng ma’noda - qo‘lda yoki texnika vositasida yozilgan matn; 2) yozma asar; 3) noshirlik ishida - nashriyotga topshirilgan muallif matni.

**Hammuallif** - hamkorlikda boshqa shaxs (shaxslar) yoki tashkilot (tashkilotlar) bilan birgalikda asar yaratuvchi shaxs yoki tashkilot.

**Hammualliflik** - ikki yoki undan ortiq shaxslarga ularning umumiy mehnati natijasida yozilgan asarga yoki ixtiroga yoxud sanoat namunasiga bo‘lgan mualliflik huquqining birgalikda tegishliligi. Birgalikda ikki yoki undan ortiq shaxsning ijodiy mehnati bilan yaratilgan asarga bo‘lgan mualliflik huquqi hammualliflarga o‘zaro bunday asar yaxlitligidan yoki mustaqil mazmunga ega bo‘lgan qismlardan tashkil topganligidan qat’iy nazar taalluqli bo‘ladi.

## **ADABIYOT**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘qituvchi, 2005.
2. Karimov I. A. “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch”. - T.: Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // Xalq so‘zi. 2012 yil 26 iyun.
4. “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. - T.: O‘zbekiston, 1998.
5. Toshaliev I. Adabiy tahrirning mantiqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Universitet, 1999.
6. Tohirov Z.T. OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti. - T.: Universitet, 2006.
7. Tohirov Z.T. Pragmatik sema. - T.: Zar qalam. - 2004.
8. Xayitmetov A. Navoiy dahosi. - T.: G‘afur G‘ulom, 1970.
9. Qodiriy H. Otam haqida. - T.: G‘afur G‘ulom, 1983.
10. Tohirov Z.T. Jurnalistika terminlari qisqacha izohli lug‘ati. - T.: Zar qalam. 2004.
11. Tohirov Z.T. Badiiy nutqda tasvir. - T.: Universitet, 2011.
12. Mirtojiev M, Tohirov Z. So‘z ma’nosining bo‘yog‘i. - T.: O‘zbekiston, 1980.
13. Jamoa. Hozirgi zamон jurnalistikasi. - T.: Aloqachi, 2008.

14. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. - T.: Yosh gvardiya, 1987.

15. Normatov U. O‘tgan kunlar hayrati. - T.: O‘qituvchi, 1988.

## RUSCHA ADABIYOT

16. Sikorskiy A.M. Teoriya i praktika redaktirovaniya. - Moskva, Vissaya shkola, 1980.

17. Milchin A.E. Metodika redaktirovaniya teksta. - Moskva, Kniga, 1980.

18. Redaktirovanie otdelnix vidov literaturi. Pod. red. A.M. Sikorskogo. - Moskva, Vissaya shkola, 1973.

19. Bezzubov A. N. Vvedenie v literaturnoe redaktirovanie. - Sankt- Peterburg, 1997.

20. Danilov I.Y. Avtora knigi. - Moskva, Kniga, 1988.

## ILMIY MAQOLALAR

21. Tohirov Z.T. Kitob muharriri // O‘zbekiston matbuoti, 2010. 4-son.- 50-51-b.

22. Tohirov Z.T., Mirzaeva N. Tilga e’tibor - elga e’tibor //O‘zbekiston matbuoti, 2010. 1-son. - 28-29-b.

23. Tohirov Z.T. Spetsializatsii net, rezultat est // Biznes - vestnik Vostoka, 2009, 15 dekabr. № 99. -8-b.

# MUNDARIJA

<b>MUALLIFDAN.....</b>	<b>3</b>
<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>I BOB</b>	
Adabiy tahrirning mohiyati, vazifasi va muharrirlik faoliyati.....	7
<b>II BOB</b>	
Muharrirning nashr jarayonidagi o‘rni va ahamiyati.....	23
<b>III BOB</b>	
Matn tahlili va tahriri.....	30
<b>IV BOB</b>	
Muharrir va muallif munosabati.....	51
<b>V BOB</b>	
Matn bayoni usullari va turlari.....	64
<b>VI BOB</b>	
Matn tahririning mantiqiy asoslari.....	79
<b>VII BOB</b>	
Asar kompozitsiyasi ustida ishlash.....	116

<b>VIII BOB</b>	
Asos materiallar tahlili va tahriri.....	128
<b>IX BOB</b>	
Adabiyot ayrim turlari tahriri.....	136
<b>X BOB</b>	
Kitob apparatining tahlili va tahriri.....	147
<b>XI BOB</b>	
Adabiyot ayrim turlari tahriri.....	164
<b>XII BOB</b>	
Badiiy asarlar tahriri.....	179
<b>XIII BOB</b>	
Matbuot, radio va telematnlar tahlili va tahriri.....	203
<b>XIV BOB</b>	
Uslub va adabiy tahrir.....	237
<b>XV BOB</b>	
Matnni tuzatish usullari.....	252
Matn taxlili bo'yicha uslubiy ko'rsatma (dialektizmlar misolida).....	267
<b>IZOXLI LUG'AT</b>	292
<b>ADABIYOT</b>	315

**UDK: 070.4 (075)**

**76.01**

**T74**

**Toxirov, Z.T.**

**Adabiy tahrir: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Z.T.**

Toxirov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, - Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, Cho‘lpon NNMIU, 2012.  
- 320 b.

**KBK 76.01**

**Taqrizchilar:** Rahmonov N.A. O’zMU jurnalistika fakulteti dekani, f.f.d. professor

Boboniyozov A.Y. Cho‘lpon NNMIU bosh muharriri, f.f.n.

Z.T.TOXIROV

# ADABIY TAHRIR

*Darslik*

«TAFAKKUR-BO‘STONI» MCHJ  
100190. Toshkent shahri Yunusobod tumani 9-13.

Tel: 199-84-09, e-mail: tafakkur0880@mail.ru

Bosh muharrir:	M.Saparov
Muharrir:	G‘.Shirinov
Musahhih:	Z.Ostonov
Sahifalovchi:	U.Vaxidov

Litsenziya № AI-190. 10.05.2011 y.

Terishga berildi 30.05.2012 y. Bosishga ruxsat etildi 28.06.2012 y.  
Ofset qog‘ozи. Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . «Times New Roman» garniturasi.  
Shartli bosma tabog‘i 20. Ofset bosma. Adadi 500 dona.

Buyurtma № T-22.

«TAFAKKUR-BO‘STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri Chilonzor ko‘chasi 1 uy.

ISBN-978-9943-055-20-9



9 7 8 9 9 4 3 0 5 5 2 0 9



«TAFAKKUR-BOSTON»  
NASRIYYAH